# O‘ZBEKISTON TARIXI

## fanidan ma’ruza matnlari

## TO‘PLAMI

**1-mavzu: O‘zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati**

**REJA:**

1. O‘zbekiston tarixi predmeti.
2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning metodologik printsiplari va manbalari.
3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati.

**Adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. 7. -T.: O’zbekiston, 1998, 132-155 - betlar.
2. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. T.1. -T.: O’zbekiston, 1996, 36-49 - betlar.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.6. -T.: O’zbekiston, 1998, 324-347- betlar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» 2008.
5. Usmonov Q. va boshqalar O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 6-22-betlar.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. - T.: Meros, 2002, 6-17 - betlar.
7. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.


XXI asr bqsag‘asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqea - qadimiy O‘zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergan voqea sodir bqldi. 1991 yil 31 avgust kuni bqlgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida qzbek xalqining xohish-irodasi bilan O‘zbekistonning davlat mustaqilligi, ozod va suveren davlat - O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e’lon qilindi va «Davlat mustaqilligi asoslari tqg‘risida»gi qonun bilan mustahkamlandi.

1 sentyabr O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi rqyobga chiqdi, siyosiy mutelik va asoratdan qutildi. Dunyo 20-asr xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O‘zbekiston Respublikasi paydo bqldi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og‘ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yqlda katta qurbonlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning qz taqdiri qz qqlida, qz mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash o`qlida astoydil mehnat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik tufayli xalqaro maydonga chiqdi, davlatimiz mustaqilligini dunyodagi barcha nufuzli davlatlar tan oldi, jahon hamjamiyatiga qqshildi, barcha katta-yu kichik mamlakatlar doirasida qzining munosib qrnini egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bqlib, qadim zamonlardan beri Sharq bilan G‘arbni bog‘lab kelgan. Uning maydoni 447,4 ming kv.km ni tashkil etib, G‘arbdan Sharqgacha 1425 km ga, Shimoldan Janubgacha 930 km ga chqzilgan. Respublika tarkibida 12 viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 165 qishloq tumani, 120 shahar va 116 shaharcha, 1421 qishloq (ovullar) mavjud.

O‘zbekistonda 100 dan ortiq millatlar va elatlarning vakillari bqlgan, 25 millionga yaqin kishi yashaydi. Aholini tqrtdan uch qismiga yaqini o`zbeklardir. Respublika aholisining yarmidan kqproq qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholining 60 foizga yaqinini bolalar, qsmirlar va 25 yoshga etmagan yigit-qizlar tashkil etadi. O‘zbekiston qadimdan boy tabiiy

resurslarga, hosildor erlar, kuchli iqtisodiy, ilmiy va ma’naviy salohiyatga ega bo`lgan mamlakatdir.

O‘zbekistonning mehnatsevar, iste’dodli va mehmondqst xalqi mamlakatimizning chinakam boyligidir. Bizning davlatimiz aholini qsish sur’atlari va mehnat resurslari yuqori bqlgan mintaqa hisoblanadi. Mamlakatimizning katta tabiiy boyliklari, qudratli sanoati va qishloq xqjaligi, kuchli ilmiy va ma’naviy salohiyati O‘zbekistonning rivojlangan, gullab-yashnayotgan davlatga aylantirish garovidir.

## 1. O‘zbekiston tarixi predmeti.

Har qaysi mamlakat, har bir xalq qzining uzoq va betakror tarixiga ega bqlganidek, O‘zbekistonning, qzbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Qadim zamonlardayoq Turon, Turkiston deb e’tirof etilgan ona vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga kqra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, tsivilizatsiyalar tutashgan eng qaynoq, shiddatli chorrahalaridan biri bqlib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma’lum darajada aralashchuvi sodir bqlgan, ularning madaniyati, fani, san’ati va umuman turmush tarzi bir-biridan bahra olgan, mushtaraklashgan.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O‘zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O‘zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bqlib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga kqtarilgani jahonga ma’lum.

Vatanimiz tarixi qzbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qqshganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz - Al-Xorazmiy, Farobiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, AmirTemur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa yuzlab allomalarimiz bilan nafaqat qzbeklar, butun turk dunyosi, qolaversa, butun er yuzi xalqlari faxrlanmoqdalar.

Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi kqhna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohiga aylangan. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat va jamoat arboblari, ziyoratchilar bu shaharlarni, ulardagi ajoyib tarixiy, milliy me’morchilik majmualari va yodgorliklarni kqrib, ularda mujassamlashgan xalq ustalarining iste’dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil qolib, ularga tahsinlar qqimoqdalar, tazim qilmoqdalar. Muqaddas erimiz orqali qtgan Buyuk ipak yqli Osiyo va Evropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog‘lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini, tabarruk zaminimizda necha-necha ming yillar davomida yashab, kurashib, ijod qilib kelayotgan xalqimiz qtmishini «O‘zbekiston tarixi» fani qrgatadi.

Tarix - arabcha sqz bqlib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma’nolarini anglatadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq qtmishdan bizgacha etib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

«O‘zbekiston tarixi» fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib qtgan uzoq va murakkab tarixiy yqlini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini holisona qrganishdan, tushuntirishdan iboratdir.

O‘zbekiston tarixi ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga kqtarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san’atini yoritadi. Vatanimiz tarixi qzbeklarning xalq, millat bqlib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini qrgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma’lum bir davrlarda boshqa davlatlarga qaram bqlib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bqlganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun

kurashini va bunda mardlik, jasorat kqrsatgan xalq qahramonlari va davlat arboblari faoyatlarini keng rejada qrgatadi.

«O‘zbekiston tarixi» fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yqliga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini qrgatadi.

«O‘zbekiston tarixi» fani xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi kqzgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma’naviy saboqlar majmuasidir.

## 2. Tarixni o‘rganishning metodologik printsiplari va manbalari.

Tarixiy voqealarni qrganishda tqg‘ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni qqitish va qrganish ishlari markscha-lenincha metodologiyaga bqysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik naqtai nazarlaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag‘allar, mulkdorlar va yqqsillar tarixiga bqlindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag‘allarni va yqqsillarni himoya qilgan tarzda, ularning manfaatiga bqysundirilgan holda yoritildi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning e’tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg‘in qilindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma’rifatparvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bqlindi. Dinga e’tiqod qilganlar idealistlar deb ataldi, ularning ijodiy faoliyatini qrganish chegaralandi, asarlari xalqdan yashirildi, yqqotib yuborildi. Oqibatda kqpgina tarixiy voqealar soxtalashtirildi, ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz kamsitildi. g‘sh avlodga ularni xurofat, eskilik sarqitlari deb qrgatildi. Tarix faqat jangu jadal urushlardan iboratdek qilib kqrsatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bqlgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bqldi. Tarix fani totalitar tuzum xizmatkoriga, tashviqotchisiga, himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Insoniyat tarixini, tarixiy voqea, hodisalarni tqg‘ri yoritish va qrganish uchun bir qator muhim nazariy-metodologik printsiplarga tayanmoq zarur.

Dialektik metod ana shunday printsiplardan biridir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bqladigan hodisalar, voqealar umumiy va qzaro bog‘lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bqladi deb ta’lim beradi. Dialektika juda uzoq tarixga ega, uning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Xorazmiy, Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Spinoza, Gegel, Gertsen va boshqa olim va ma’rifatparvarlarning xizmati kattadir. Ular moddiy va ma’naviy dunyoni uzviy bog‘liq jarayon shaklida, ya’ni ularni uzluksiz harakat qilib, qzgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotni ichki bog‘lanishda olib qrganish qoidalarini yaratdilar.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini, shu jumladan, O‘zbekiston tarixini, qzbek xalqi tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog‘liq holda qrganishni taqazo etadi. Negaki, har bir xalq tarixida milliylik, qziga xos betakror xususiyatlari bilan birga jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog‘lanishdadir.

Darhaqiqat, O‘zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog‘langan. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi kqpgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bqlib kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug‘, qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo qzaro ta’sirda va aloqada bqlganlar, qqshilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog‘liq qtgan. Shu sababdan O‘zbekiston tarixini qqshni mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-

qarshi qqymagan holda qrganish taqazo etiladi. Qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg‘on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O‘zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama qrganishga imkon yaratadi, kqmaklashadi.

Tarixiy voqea, hodisalarni qrganish, tahlil qilish va yoritishda ularga xolisona, haqqoniy, ilmiy yondashuv muhim metodologik printsiplardir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni qrganayotganda ular bilan bog‘liq bqlgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, qzaro aloqada va munosabatda deb qrganish darkor.

Mustaqillik tarixni xolisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «Qzbek olimlarining kuch g‘ayratlari bilan, - deb yozadi I.A.Karimov, - tariximizning kqpdan kqp g‘oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri, 19-asr oxiri, 20-asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, qtmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bqlindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir»[1] .

Tarixni qrganishda tarixiylik printsipi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni qz davrining aniq tarixiy sharoitidan, qsha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda qrganishni taqazo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog‘lab qrgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi qrnini tqg‘ri aniqlash, belgilash mumkin bqladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bqlagi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bqlganligini, bu hodisa qz taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib qtganligini, keyinchalik u qanday bqlib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bqlsak, u, birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bqldi, ikkinchidan, u qz taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib qtdi, uchinchidan, uning tarixiy qrni, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bqladi.

Tarixiylik printsipi xalqning qtmishini yagona tabiiy- tarixiy jarayon deb, qtmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yqldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bqlgan avlod tarix fani orqali qtmishni yaxshi bilmog‘i lozim. Qtmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab etsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni tqg‘ri tasavvur etamiz.

Insoniyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida xususiy mulkchilik kelib chiqadi va urug‘chilik tuzumi emirilib, urug‘ jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bqlinadi, shu davrdan e’tiboran tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog‘liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa qz manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan, ayrim hollarda ularning siyosiy, iqtisodiy manfaati bir-biri bilan tqqnashadigan, g‘alayonlar, qqzg‘olonlar kqtariladigan bqlib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bqlgan voqealarni, tarixiy jarayonni qrganishda ijtimoiy yondashuv printsipiga rioya etish zarur bqladi. Ijtimoiy yondashuv printsipi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda qrganishni taqazo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa - kambag‘allar, yqqsillar yoki mulkdor boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bqlib, bu tarixni soxtalashtiradi, tqg‘ri xulosalarga olib kelmaydi.

Shoxlar, amirlar, beklar faoliyatini yoritishga tsivilizatsion nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Ularni boy tabaqalardan chiqqan, mulkdor bqlgani uchungina qoralash, badnom qilish adolatdan bqlmaydi. Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilarsiz, amaldorlarsiz bqlmasligini isbot etishning hojati bqlmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarini yoppasiga qoralash ham tqg‘ri emas. Jonajon Vatanimiz kqhna

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 141-бет.

tarixi ham ular orasida xalqparvar, ma'rifatparvar, adolat bilan siyosat yuritgan mashhur yurtboshilar, arboblar bqlganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondashuv printsipi davlat arboblarining, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yqlboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga kqrsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatning u yoki bu yqldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Jahon xalqlari tarixi, jumladan, mamlakatimiz tarixi guvohlik beradiki, davlatlar qrtasida, hukmdorlar qrtasida siyosiy, iqtisodiy manfaatlar, strategik maqsadlar yqlida tez-tez qirg'inbarot urushlar bqlib turgan, biri ikkinchisini bosib olgan, mag'lub mamlakatni talon-taroj qilgan, iqtisodiy imkoniyatlarini zqrovonlik bilan qzlashtirgan. Bunday jarayonlarni siyosiy mezonlar nuqtai nazaridan turib ham baholash zarur bqladi.

Mamlakatimiz tarixini qrganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlari, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bqlib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan milliy madaniyatini, axloq mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlar madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bqlish, birinchisini qoralashdan iborat lenincha yqriqnomaning naqadar zararli ekanligini kqrsatdi. Milliy madaniyatga, ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarning oyoq osti qilinishiga, kqpgina olimlar, ma'rifatparvarlar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Tarixni qrganishda yuqorida qayd etilgan metodologik printsiplar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlarni qtkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

Vatanimiz tarixini tadqiq etish, qrganishda uni tqg'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Sovetlar xukmronligi davrida sobiq SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan, bizning Vatanimiz tarixi sinfiy kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan marksistik formatsion g'oyaga bqysundirilgan holda davrlashtirildi. Barcha xalqlar tarixi besh davrga: ibtidoiy jamoa tuzimi, quldorlik tuzimi, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga va kommunizmga bqlindi. Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta kommunizmga olib boradi, degan «g'oyani» ilgari surish va oqlashdan iborat edi. Bu g'oyaning qanchalik tqg'riligini XX asrda kqpgina xalqlar taqdirida sinab kqrildi, pirovard natijada fojiali oqibatlarga olib keldi. Hammani tenglashtirish g'oyasi amalda mulkdorlar, badavlat tabaqalarni kambag'allar, yqqsillar darajasiga tushirdi, jamiyatda ommaviy loqaydlik, dangasalik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Shu bois insoniyat XX asr oxirlariga kelib bu g'oyani qz elkasidan uloqtirib tashladi, butun dunyoda «sinfiy qadriyatlar»dan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning, qzbek xalqining boy, betakror tarixi bqlib, uning qziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi yirik davrlarga bqlish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. Qrta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

Bu davrlarning har biri yana o`ziga xos, kichik davrlarga bo`linadiki, uni mazkur qo`llanmaning mazmuni va mundarijasidan yaqqol ko`rish mumkin.

Haqqoniy, xolis tarixiy bilimga ega bo`lish oson emas. Negaki, biz o`rganayotgan tarixiy voqealarni, jarayonlarni bevosita kuzata olmaymiz, ular bizdan ancha ilgari bo`lib o`tgan, ularni qaytarib bo`lmaydi. Bundan ilgari bo`lib o`tgan tarixiy voqealarni bilib bo`lmaydi, degan xulosa chiqmaydi, albatta.

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo`q bqlib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo`lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga - moddiy va yozma manbalarga bo`linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha etib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. Vatanimiz hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalari[1] odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar qz fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar qzlari yashab turgan yoki borib kqrgan mamlakatlari haqida, kqrgan-kechirganlarini daraxtlarning pqstlog'iga, toshga, teriga, keyinchalik qog'ozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar mavjud. Er va qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbaalar deyiladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi hayotini qrganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari qz ifodasini topgan.

Vatanimiz tarixiga doir ma'lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi Gerodotning «Istoriya» (M.1972), Ksenofontning «Grecheskaya istoriya» (M.1935), Polibiyning «Vseobshchaya istoriya» (M.1980-1989), Arrianning «Poxod Aleksandra» (M.L. 1962), Strabonning «Geografiya v 17 knigax» (M. 1964); Kurtsiy Rufning «Istoriya Aleksandra Makedonskogo» (M.1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Antik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarni tqplovchi I.V.Pyankovning «Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya» (Dushanbe, 1975), N.G.Gorbunovaning «Fergana po svedeniyam antichnix avtorov. Istoriya i kultura narodov Sredney Azii» (L.1976) kabi kitoblar ham Vatanimiz tarixini qrganishda yordam beradi.

Xitoy yozma manbalaridan «Tarixiy guvohliklar» (mil.av.I asr), «Ulug' Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshoxliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, arman, Vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham Vatanimiz tarixi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Vatanimiz tarixini qrganishda turkiy, fors, araf manbalarining ahamiyati katta. Qadimgi turk yozuvi tqg'risida S.E.Malovning «Pamyatniki drevne-tyurskiy pismennosti» (M.1951) va «Eniseyskaya pismennost tyurkov. Tekst i perevodi» (M-L.1951),A.Sadullaevning «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda» (T.1996) asarlarida, Nasimxon Rahmonning «Turk hoqonligi» (T.1993) kitobida qimmatli ma'lumotlar bor. Turkiy xalqlar, jumladan qzbek xalqining etnik tarixini qrganishda Abulg'oziyning «Shajarayi turk» (T.1992), L.N.Gumilevning «Drevnie tyurki» (M.1960), A.Yu.Yakubovskiyning «K voprosu ob etnogenezi uzbekskogo naroda» (T. 1941), I.Jabborovning «Qzbek xalqi etnografiyasi» (T. 1994) asarlaridan foydalanish mumkin.

Qzbek xalqining qrta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotini qrganishda Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» (T.1993), Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (T.1968), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (T.1960), M.Qashg'ariyning «Devonu lug'otit-turk. Uch jildlik» (T.1960-1963), Abu Tohirxojaning «Samariya» (T.1991), Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (T.1991), Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk» (T.1997), Amir Temurning «Temur

[1] Ғуломов Я. Хоразмнинг суғориш тарихи. Т., 1957; Толстов С.Р. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. М., 1977; Массон В.М. К вопросу об общественном строе Средней Азии//История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968; Ртвеладзе Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана. Л. 1976 ва бошқалар.

tuzuklari» (T.1991), Mirzo Ulug'bekning «Tqrt ulus tarixi» (T.1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bqlib xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini qrganishda qz davrida hokimiyat tepasida turgan sulolar tarixini yoritishga bag'ishlangan bir qator kitoblar - Shaxobiddin an-Nasaviyning «Jizneopisanie Sultana Djelal ad-Dina Mankburni» (Baku, 1973), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» (T.1996), Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (T.1994), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi. Ikki jildlik» (T.1992), Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» (T.1999), Mulla Muhammad Solihning «Shayboniynoma» (T.1989), Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» (T.1991) va boshqalar qimmatli manba sifatida diqqatga sazovordir.

Bizgacha etib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini qrganishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qqlyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qqlyozmalar xazinalaridan biri hisoblanadi. Bu erda 40 mingdan ziyod qqlyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qqlyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli ma'lumotlar horijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qqlyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi qzbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi Vatanimiz tarixini yanada tqlaroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog'larning barham topishiga kqmaklashadi.

O'zbekiston tarixiga doir tarixiy manbalar haqida ma'lumotlar B.Ahmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» (T.1991), T.Saidqulovning «Qrta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar» (T.1993) nomli kitoblarda tqlaroq berilgan, qquv jarayonida ulardan foydalanish zarur.

O'zbekiston tarixini qrganishda etakchi zamonaviy tarixchi olimlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, darslik va qquv qqllanmalar muhim qringa ega. Ulardan eng muhimlarining nomlari, mualliflari haqidagi ma'lumotlar mazkur qquv qqllanmasining oxirida, foydalanilgan adabiyotlar rqyxati bqlimida berilgan bqlib, ularni qqish, qrganish talabalarga tavsiya etiladi.

Vatanimiz tarixini qrganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar muhim nazariy metodologik asos bqlib xizmat qiladi.

Ajdodlarimiz hayotini, turmush tarzini qrganishda arxeologiya (qadimshunoslik), etnografiya (xalqlarni tasvirlash), antropologiya (odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi) va boshqa fanlar kqmaklashadi.

Tariximiz tqg'risida tqla tasavvur hosil qilish uchun O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qlkani qrganish va boshqa muzeylar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Urganch, Toshkent va boshqa shaharlar, ulardagi tarixiy yodgorliklar bilan yaqindan tanishish zarur.

Ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar bilan tanishar ekanmiz, ularda xalqning mehnati, fikr-qylari, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari mujassamlashganini qalban his etamiz, anglab etamiz. Ana shunda bu tarixiy yodgorliklarning chiroyli kqrinishidan huzurlanibgina qolmasdan, ajdodlarimizga, xalqimizga, millatimizga nisbatan mehr-muhabbatimiz ortadi, Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

### 3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati.

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning qtmishi, tarixi haqida bilim berish bilan bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni kqz qorachig'iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga qrgatadi. Qzimizning boy qtmish merosimizdan madad

va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi».[1]

Davlat mustaqilligini qz qqliga olgan ozod, hur O‘zbekistonda Vatan, istiqlol taqdiri bugungi baxtli avlodlar qqlida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda etkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas’uliyatli, ayni paytda sharafli vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan yoshlarga, ularning ma’naviy barkamolligiga bog‘liq. «Biron bir jamiyat, - deb ta’kidlaydi yurtboshimiz Islom Karimov, - ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib qz istiqbolini tasavvur eta olmaydi».[1]

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma’naviyat va ma’rifatdadir. Ma’naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma’naviyat, - deb yozadi Islom Karimov, - qz xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»[2], «...tug‘ilib qsgan yurtida qzini boshqalardan kam sezmay, boshini baland kqtarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson»[3] .

Insonda tarixiy xotira o‘z Vatani tarixini, o‘z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Yaqin o‘tmishda mustamlakachilar, totalitar tuzum mutasaddilari ko‘pgina xalqlarni, jumladan, o‘zbek xalqini o‘z tarixidan judo qilish, ularni qz qtmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, amaliyotda esa xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qqyildi, uning bir necha ming yillik boy tarixi soxtalashtirildi, uni yoshlarga qqitish va qrgatishga izn berilmadi.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi qz qrnini topdi, barcha qquv maskanlarida talaba-qquvchilarga Vatan tarixini qqitish davlat siyosati darajasiga kqtarildi, Vatan tarixini qqitish yqlga qqyildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning haqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bqlmaganidek, qz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bqlmaydi», «Tarix - xalq ma’naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yqq», «Qzlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bqlish - hayotdan judo bqlish demakdir»[4] degan ifodali sqzlari va kqrsatmalari dasturilamal bqlib xizmat qilmoqda.

Tarix talaba-qquvchilarda olam yagona va yaxlit, O‘zbekiston uning ajralmas bir qismi, olamda sodir bqladigan voqea, hodisalar umumiy va qzaro bog‘lanishda, uzluksiz harakatda ekanligi tqg‘risida tqg‘ri tasavvur, tushunchalarni shakllantiradi.

Qz qtmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bqladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. Qtmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab etgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni tqg‘ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, Vatan tarixi talaba-qquvchilarda xalqning qtmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi. Bu qz navbatida yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bqlib qolishdan saqlaydi, ularni olg‘a intilishga, taraqqiyotga kqmaklashishga undaydi.

O‘zbekiston tarixi talaba-qquvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yqnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini qrgatadi. Bu qz navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda qz qrnini tqg‘ri belgilashga kqmaklashadi.

---

[1] Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. Т.: Ўзбекистон, 1998, 371-бет

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-бет.

[2] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон, 1992, 71-бет.

[3] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Шарқ, 1998, 8-9-бетлар.

[4] Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т., Ўзбекистон, 1992, 71-бет; Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Шарқ, 1998, 10,21-бетлар.

Xalqimizning buyukligi, kuchi, uning boy ma’naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma’naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam. Ajdodlarimiz etishtirib bergan qnlab, yuzlab jahonga mashhur olimu-ulamolar, me’moru-binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta’lim maskanlari faoliyati talaba-qquvchilar uchun katta ibrat maktabi, tarix sabog‘idir. Kelajak uchun intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma’naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday tqsiqlarni engish, ilmga va ziyoga intilish kabi xislatlar yotadi. Bunday xislatlar Vatan tarixini qqitish orqali yoshlarga singdiriladi.

Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida kqpgina xalq, elatlar bilan ahl, hamjihat bqlib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e’tiqodlar erkinligi va inoqligi bqlganligidan guvohlik beradi. Bu mustaqil O‘zbekistonda yashovchi turli dinlarga e’tiqod qiluvchi 120 dan ortiq millat va elatlar qrtasida tinchlik, milliy totuvlik, birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy saboqdir.

Kelajagi buyuk davlat qurayotgan bugungi avlodlar uchun qzbek davlatchiligi tarixi, ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan siyosiy-huquqiy institutlar, qonun-qoidalar tajribasi O‘zbekistonning mustaqilligini yanada mustahkamlash, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishda mustahkam tayanch va madadkordir.

Tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni egallash talaba-qquvchilarda halollik, odillik, rostgqylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga kqmaklashadi.

Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, qz qobiliyatini tqlaroq ochish va hayotga tatbiq etish sifatlarini shakllantiradi, Vatan, xalq taqdiri uchun mas’uliyatni qz zimmasiga olish kabi yuksak ma’naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g‘oya bilan qurollantiradi.

Shu boisdan Vatan tarixini har tomonlama, chuqur qrganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog‘chalardan tortib Oliy qquv yurtlarigacha bqlgan ta’lim-tarbiya tizimlarida O‘zbekiston tarixi fanini qqitishga davlat darajasiga kqtarilgan vazifa sifatida katta e’tibor berilmoqda, g‘amxqrlik qilinmoqda. «Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda»[1].

### *Sinov savollari.*

1. Tarix sqzi qanday ma’noni bildiradi?
2. O‘zbekiston tarixi fani nimani qrganadi?
3. Tarixni qrganishda qanday metodologik printsiplarga tayanish lozim?
4. Tarixiylik printsipini qanday tushunasiz?
5. Tarixni qrganishda xolislik, ilmiylik printsipining talablari nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston tarixini qanday yirik davrlarga bqlish mumkni?
7. Tarixni qrganishda moddiy manbalar qanday ahamiyatga ega?
8. Vatanimiz tarixiga doir qadimgi yozma manbalardan qaysilarini bilasiz?

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 140-бет.

## 2-mavzu: O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

### REJA:

1. Ilk davlatlar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
2. Xorazm va Baqtriya - o‘zbek davlatchiligining ilk bosqichi. «Avesto»
3. Turonzaminda vujudga kelgan Yunon-Baqtriya, Qang‘, Davan davlatlari.
4. Kushonlar saltanati va uning mamlakatimiz davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni.

### Adabiyotlar:


1. Karimov I.A. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimlarda so’zlagan nutqlari. T. 6. -T.: O’zbekiston, 1998, 368-381 - betlar.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. -T.7. -T.: O’zbekiston, 1998, 132-147- betlar.
3. Usmonov Q. Va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
4. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, 25-64- betlar.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Meros, 2005, 3-mavzu.
6. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.
7. **Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. 1 qism. - T.: Moliya, 2000, 40-58- betlar.**


### 1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari.

Mehnat qurollarining takomillanishi natijasida erga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo‘lib bordi. Temirning kashf etilishi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning tez o‘sishiga olib keldi. Odamlarning daryolarni bo‘g‘ib, to‘g‘onlar qurib, kanallar qazib erlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi. O‘rgatilgan ishchi hayvonlari qo‘shilgan temir tishli omochlar bilan erni haydashning o‘zlashtirilishi hosildorlikning oshishini, ko‘proq mahsulotlar etishtirishni ta’minladi. Bu odamlar turmushini ancha yaxshiladi, umrini uzaytirdi, aholi son jihatdan ko‘payib bordi.

Urug‘chilik munosabatlari ham o‘zgarib boradi. Ikki urug‘ a’zolaridan tashkil topgan er-xotin-juft oilalar vujudga keladi. Katta patriarxal oilalar urug‘ jamoalaridan ajralib chiqadi, ularga urug‘ jamoalariga qarashli erlardan chek erlari ajratib beriladi. Shu tariqa urug‘ jamoasining umumiy xo‘jaligi oilalar jamoasiga bo‘linadi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataladi.

«Avesto»da ta’kidlanishicha, katta patriarxal oila «nmana», bir necha «nmana»larning birikuvi urug‘ jamoasi - «vis»ni tashkil etgan. Ma’lum hududdagi qo‘shni «vis»lar jamoasi «varzana», birnecha «varzana»lar jamoasi qabila - «zantu»ni tashkil etgan. Arxeolog olim A.Asqarov tomonidan topib o‘rganilgan Sherobod cho‘lidagi Sopollitepada bu holatni aynan kuzatish mumkin. Sopollitepa o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi asosida tashkil topgan 8 ta katta oila jamoasining qishlog‘i. Ularni birlashtirgan omil urug‘chilik iplari emas, balki birinchi navbatda ishlab chiqarish bo‘lgan. Ana shu 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizim asosida qurilgan yuzdan ortiq juft oilalar bo‘lgan. Katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol - «nmanapati» qo‘lida bo‘lgan. Demak, Sopollitepada 8 ta oqsoqol bo‘lib, ularni

birlashtiruvchi oqsoqollar kengashi bo‘lgan. «Avesto»da aytilganidek, «Nmana» - katta oila jamoasi, «nmanapati» - katta oila boshlig‘i. Agar shu tizimdan kelib chiqadigan bo‘lsak, Sopollitepa qishlog‘i aholisi 8 ta «nmana»dan tashkil topgan «vis»dir. «Vis» - urug‘ jamoasi «Vispati» esa ana shu «nmana»larni birlashtirgan oqsoqollar kengashining boshlig‘i, urug‘ oqsoqoli, katta qishloqning boshlig‘i. Demak, ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo‘’tabar zotlar - oqsoqollar qo‘lida bo‘lib, ular jamoa hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi orqali hal qilganlar.

Oqsoqollar kengashi qo‘lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo‘lib, u jamoaning kundalik faoliyatidagi xo‘jalik masalalarini hal qilgan. Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o‘zida o‘zining oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustod va murabbiy bo‘lgan. Urug‘ - qishloq oqsoqoli esa oqsoqollar kengashining boshlig‘i sifatida butun qishloq ahlining ham boshlig‘i hisoblangan. Mo‘’tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a’zolari uchun majburiy bo‘lgan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o‘z xususiy mulkiga ega bo‘lgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun-qoidalari asosida tashkil topishi o‘z navbatida mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqardi. Boylik avvalo jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo‘’tabar shaxslar qo‘lida to‘plana bordi. Ular erning hosildor qismini egalladilar, ko‘plab chorva mollarga ega bo‘ldilar. Oqsoqollar oila jamoalari, urug‘ va qabila ishlarini boshqargani uchun jamoachilar ularga etishtirgan hosillarining, chorva mollarining bir qismini berishga majbur etilgan. Oqsoqollar o‘z iste’molidan ortib qolgan bunday mahsulotlarni mis, oltin, kumush buyumlarga ayirbosh qilganlar.

Qabilalar o‘rtasida yaxshi er va yaylovlar uchun, chorva mollari uchun urushlar kelib chiqqan. Qabiladosh jangchilar urush harakatlariga boshchilik qilish uchun o‘z harbiy yo‘lboshchilarini saylaganlar. Urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljaning ko‘p qismi yo‘lboshchiga hamda oqsoqolga berilgan. Shu tariqa oqsoqollar va yo‘lboshchilar jamiyatda alohida, ustun mavqega ega bo‘lib, ularni zadogonlar deb atashgan. Keyinchalik, zadogonlar o‘z o‘g‘illariga nafaqat boyligini, mulkini, shuningdek o‘z lavozimlarini ham meros qilib qoldirganlar. Zadogonlar jamoa, urug‘ va qabilalar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatgan.

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo‘lishi asta-sekin ortiqcha mahsulotlarni ayirboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqaradi. Jamoa a’zolari ishlab chiqarishning o‘zlariga qulay sohasini tanlab oladilar. Shu tariqa dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik ajralib chiqadi. Ayrim ishlab chiqarish jamoalari dehqonchilik bilan boshqalari chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullanadilar. Ular o‘rtasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlarini o‘zaro ayirboshlash kengayib boradi. Bu o‘z navbatida savdogarlar tabaqasini, ilk shaharlarning belgilaridan biri sifatida bozorlarni keltirib chiqaradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tovar ayirboshlash yuz beradi, dastlabki shaharlar paydo bo‘ladi.

Arxeologlar Afrosiyob (hozirgi Samarqandning sharqiy chekkasi), Erqo‘rg‘on va Uzunqir (Qashqadaryo vodiysi), Ko‘zaliqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo) va boshqa qadimiy shaharlar xarobalarini o‘rganishgan, ularning qiyofalarini tasvirlashgan. Qadimgi shaharlar mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, ularda saroylar, qal’alar, hunarmandchilik ustaxonalari, bozorlar bo‘lgan. Shaharlarni shahar boshliqlari - hokimlar boshqargan.

Shunday qilib, jamiyatda ijtimoiy tenglik barham topadi, mulkdor badavlat oilalar, o‘z tirikchiligini o‘zi ko‘radigan tabaqalar, mol-mulksiz kambag‘allar vujudga keladi. Uzoq davom etgan bu jarayon davlatlarning tashkil topishi uchun shart-sharoitlarni tayyorladi.

## 2. Xorazm va Baqtriya - ilk davlatchilik asoslari.

O‘rta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzilmalari to‘g‘risida qadimgi yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan «Avesto» kitobi, qadimshunos olimlarning o‘lkamizning turli hududlarida olib borgan arxeologik - qidiruv ishlari, ularning muhim natijalari muhim manba hisoblanadi. Shuningdek qadimgi Yunon, Rim va Eron manbalari asosida bu masalani

oydinlashtirish, etarli asosli fikrlarni aytish mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda Yunon, Rim mualliflaridan Gerodot, Polibiy, Ktesiy, Strabon, Arrian va boshqalarning asarlari, yodnomalari, Forsiy mixxat yozuvlari, shuningdek o‘lkamizda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib borgan Ya.G‘ulomov, S.Tolstov, V.Masson, A.Asqarov, E.Rtvaladze, A.Sagdullaevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir.

Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so‘nggi ming yillik boshlarida, aniqrog‘i VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida Katta Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo‘lgan davlatlar vujudga kelib, o‘ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o‘tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm erlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya’ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg‘oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so‘nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o‘ziga xos sun’iy sug‘orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo‘lgan shahar-qal’alar-Qal’aliqir, Ko‘zali- qir, Jonbosqal’a va boshqalar - bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi. Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilalar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o‘zgarishlar davlat boshqaruvi yo‘li bilangina amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Qadimshunos olim Ya.G‘ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni birnecha o‘nlab metrdan iborat bo‘lgan kanal o‘zani, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi. «Avesto»da Xorazm Markaziy Osiyodagi rivoj topgan, o‘z hududiyo chegaralariga ega bo‘lgan o‘lkalardan, viloyat (davlat)lardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Gerodot ma’lumoticha, qadimda Oks (Amu) daryosi bo‘ylab 360 dan ziyod sun’iy sug‘orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho‘lli, sahroli erlarga suv chiqazilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Gerodot taassurotlarida Xorazm o‘lkasida yashagan Xorazmiylar dehqonchilikda katta tajribaga ega bo‘lib, ular donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug‘doy, suli, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo‘l-ko‘l etishtirganliklari qayd etib o‘tiladi. Xorazm shaharsozligida xom g‘isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko‘rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o‘ziga xos ko‘rkamligi ta’minlangan. Bu ko‘hna hudud bag‘rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o‘tib, saqlanib kelayotgan ko‘plab asori atiqalar, shahar-qal’alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog‘-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu erdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlar ishlov berilib, yuksak sifat ko‘rsatkichiga etganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan. Xorazm zumradi Sharqning bir qator, jumladan, Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlariga ham yuborilgan.

Xorazmda aholining bir qismi chorvachilik bilan shug‘ullangan, ularning tuya, ot, qo‘y-echkilardan iborat suruvlari bo‘lgan. Savdo bozorlarida g‘alla, meva, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ayirbosh qilingan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolar to‘g‘risida hozirgacha aniq ma’lumotlar yo‘q. Rivoyatlarga ko‘ra Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushiylar bo‘lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ta’kidlanishicha, Siyovarshon Kavousning o‘g‘li bo‘lgan. Siyovarshon o‘limidan so‘ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o‘ch olib, hokimiyatini egallab Xorazmda Siyovushiyolar sulolasiga asos solgan.

O‘rta Osiyoning yana bir boshqa davlati - Baqtriya podshohligi bo‘lgan. Uning tarkibiga Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg‘oniston shimoli-sharqiy qismi, shuningdek Sug‘diyona va Marg‘iyona erlari ham kirgan.

Baqtriyadagi ko‘pdan-ko‘p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo‘lib mamlakatning poytaxti bo‘lgan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, unda podshoh qal’asi alohida joylashgan.

Rim tarixchisi Kurtsiy Rufning shahodat berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak,

qadimgi davlatlar nomlari ko‘pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo‘ladi.

Binobarin, «Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» iboralari juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan biri bo‘lgan, baland bayroqli, go‘zal o‘lka» sifatida ta’riflangan. Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o‘z davrining yirik davlatlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ktesiy ma’lumoticha, Baqtriyaga qarashli Vaxsh vodiysi obi- hayotga mo‘l-ko‘lligi, unumdor erlari ko‘p bo‘lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog‘dorchilik, mevachilik mahsulotlari etishtirishda omilkor bo‘lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Erqo‘rg‘on singari aholi manzilgohlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu joylarda o‘troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug‘ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So‘g‘diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin. Qulay tabiiy-jug‘rofiy sharoitga ega bo‘lgan Omonqo‘ton, Gurdara, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq makonlarida yashagan aholining madaniy hayoti ancha to‘laqonli kechgan.

Baqtriyada oltin, la’l kabi qimmatbaho ma’danlar ko‘plab miqdorda qazib olinib, ular tegishli ishlovdan so‘ng yurt ehtiyoji uchun, qolaversa, xorijiy ellar uchun tayyor mahsulot holiga keltirilgan. Baqtriya la’liga uzoq Xitoy, Misr, Hindiston singari mamlakatlarda ham talab-ehtiyoj katta bo‘lgan. Baqtriyada qimmatbaho ma’danlar ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi bu yurtda maxsus hunarmandchilik turi - zargarlik, badiiy hunar tarmog‘ining rivoj topishiga olib kelgan. Buni 1877 yilda Kofirnihonda (Tojikiston) topilgan «Amudaryo xazinasi» topilmasi timsolida ham kuzatish mumkin. Topilmalar orasidagi 180 taga yaqin zargarlik buyumlari qadimgi Baqtriyada nafis hunarmandchilikning hiyla o‘sganligidan dalolat beradi. Bu xazina aslida Baqtriya shahrida mahalliy Mitra xudosi sha’niga bag‘ishlab barpo etilgan serhasham ibodatxonaga tegishlidir.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ilgarilab borib, o‘z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug‘ bobokalonlarimiz o‘lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular O‘zbekiston hududidagi dastlabki davlatchilik tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

### «Avesto» - qadimgi tariximizni o‘rganishda noyob manba.

O‘z mazmun, mohiyatiga ko‘ra yakka xudolik, insoniylik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g‘oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas «Avesto» olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi[1]. «Avesto» kitobi mil. av. so‘nggi ming yillik boshlari va o‘rtalarida yashagan hududimizdagi qadimgi xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari-yu, marosimlari haqida ma’lumot beruvchi muhim tarixiyo manbadir.

Yurtboshimiz uqtirganidek: «Eng mo‘’tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganligiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi»[2] .

Modomiki, «Avesto» ona tariximizning muhim tarkibini tashkil etar ekan, bu noyob manba qachon, qaerda, kim tomonidan yaratilgan? Tarixiy manbalarni chuqur o‘rganish, eng

[1] «Авесто» сўзи ўрнатилган, қатъий белгиланган қонун-қоидалар деган маънони билдиради.

2 Ислом Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 10-бет.

avvalo, «Avesto»da tilga olingan asosli jug‘rofiy hududlar, yurtlar nomlarini, aholining mashg‘ulot turlarini, urf-odatlarini, dafn marosimlarini sinchiklab o‘rganish bu buyuk ta’limotning haqiqiy Vatani O‘rta Osiyo o‘lkasi, uning Xorazm vohasi ekanligini tasdiqlamoqda. Gap shundaki, «Avesto»da tilga olingan 16 ta yirik hududiy nomlarning 9 tasi O‘rta Osiyoga taaluqlidir. Bular Gava (Sug‘da), Xvarizam (Xorazm), Bahdi (Baqtriya); shuningdek Hisor, Pomir, Tangritog‘ (Tyonshon) tog‘lari, chuqur ko‘llar - Kaspiy, Orol, Issiqko‘l, keng daryolari - Amudaryo va Sirdaryolardir. «Avesto»da ezgulik, yaxshilik xudosi Ahuramazda tilidan shunday deyiladi: «Men Ahuramazda eng afzal makon va mamlakatlar sirasidan Ayranamvejoni, ...so‘ngra sug‘dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to‘rtinchi bo‘lib Baxdini, ...beshinchi bo‘lib Mouru va Baxdi oralig‘idagi Nisayani...yaratdim»[1] Keltirilgan bu dalil «Avesto»ning vatani bizning yurtimiz bo‘lganligiga hech bir shubha qoldirmaydi. «Avesto» ta’limotining asoschisi tarixga payg‘ambar nomi bilan kirgan Zardo‘shtra ismli shaxsdir. Zardushtra «Oltin tuyali» yoki «Oltin tuya etaklovchi» degan ma’noni bildiradi. Zardushtra o‘z dini zardushtiylik g‘oyalarini aholi o‘rtasida tashviq-targ‘ibot qilgan, bu jarayon nihoyatda qiyin, murakkab kechgan, hududma-hudud sarson-sargardon kezib yurishga majbur bo‘lgan. Shu boisdan ham Zardo‘sht Eronmi, Midiya, Mesopotomiyami yoxud O‘rta Osiyo o‘lkasi bo‘ylabmi, ishqilib ko‘p yurtlar kezib, o‘z ta’limotini yoyishga intilganligi shubhasiz.

Bunda yana shu narsa e’tiborga molikki, Zardo‘shtiylik dinini birinchilardan bo‘lib qabul qilgan, uni o‘z fuqarolariga yoyilishiga izn bergan yurt ham Baqtriyadir.

Beruniy keltirgan rivoyatga ko‘ra, Zardo‘sht Baqtriya podshohi Vishtasp (Gushtasp) va malika Xutaosa huzuriga kelib, «Avesto» ta’limotining muqaddasligini isbot etish uchun xudoga iltijo qilib, o‘z tanasiga qizdirilgan misni bosishni so‘raydi. Olovli mis esa uning tanasini zararlamagach, Vishtasp va uning xotini, ulardan so‘ng butun Baqtriya aholisi zardo‘shtiylik e’tiqodini qabul qiladi.

Avval boshda «Avesto» 21 kitobdan iborat bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniyning «O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ta’kidlanishicha, Eron podshohi Doro davrida «Avesto» to‘liq holda 12 ming qora mol terisiga zarhal xarflar bilan bitilgan. Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa istilosi davrida uning buyrug‘i bilan zardo‘shtiylik ibodat xonalari vayron qilinganidek, muqaddas «Avesto»ning 5 dan 3 qismi ham kuydirib yuborilgan. Keyinroq Parfiya podshohlari Vologez I va Valgash III davrida (I- II asrlarda) «Avesto»ning qolgan-qutgan qismlari to‘plangan. Sosoniylar davrida (III- IV asrlarda) «Avesto» qismlari jamlanib, pahlaviy tilida yangidan kitobot holiga keltirilgan. Hozirgacha «Avesto»ning jami 21 kitobidan «Yasna» - «Qurbonlik keltirish», «Visparat» - «Hamma hukmronlar», «Yasht» - «Qadrlash», «Videvdat» - «Devlarga qarshi qonun» nomli kitoblari etib kelgan.

«Yasna» kitobi 72 bobdan iborat bo‘lib, ulardan 17 tasi «Gotalar», ya’ni payg‘ambar Zardo‘shtning «Muqaddas qo‘shiqlari», uning diniy nasihatlaridan iborat. «Visparat» 24 bobdan iborat bo‘lib, zardo‘shtiylarning ayrim xudolariga bag‘ishlangan madhiyalardir. Ular bayram va diniy marosimlarda ijro etilgan. «Yasht»ning 21 bobida yozuvsiz zamonlarga oid qabilalarning tasavvurlari bayon etilgan. Unda afsonaviy qahramonlarga va ulug‘ xudolarga bag‘ishlangan madhiyalar to‘plangan. «Videvdat» to‘liq saqlangan kitobdir. Uning tarixiy sanasi «Yasna» va «Yasht» qismlariga nisbatan yosh hisoblanadi. Bu kitob 22 bobdan iborat.

«Avesto» shunday bir tarixiy davrda yaratildiki, bu vaqtga kelib, ya’ni mil. av. so‘nggi ming yillik boshlarida o‘lkamizning turli hududlarida yashagan elatlar, qavm, qabilalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi bosqichga o‘ta borayotgan edi. Mintaqaning Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona singari viloyatlarida urug‘-qabilalarning o‘troqlashuvi, sun’iy sug‘orish tizimiga asoslangan dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi, dehqonchilikdan chorvachilikning ajrab mustaqil xo‘jalik tarmog‘i sifatida o‘sib borayotganligi, qishloqlardan shahar-qal’alarga, so‘ngra esa dastlabki davlat tuzilmalarining yuzaga kelishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda edi.

---

[1] Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.:Шарқ, 2000, 28-бет

Tarixning bunday keskin burilishi sharoitida shu turli urug‘-qabila va elatlarni ma’nan va ruhan birlashtirish, ularning ongi, shuuriga ilg‘or qarashlar, mushtaraklik tuyg‘ularini, e’tiqod tamoyillarini singdirib borish g‘oyatda muhim edi.

«Avesto» ta’limoti bir tomondan, erli qabila, elatlarni turli mahalliy ko‘rinishdagi bid’at va xurofotlar ta’siridan xalos bo‘lishiga, ikkinchidan, mahalliy etnoslarning chuqur ildiz otib, mustahkamlanib, etnik shakllanishiga va uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonining tobora kengayib, ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi jarayoniga sezilarli turtki berardi. Buning ustiga «Avesto»da zardo‘shtiylikning umumbashariy ahamiyati va mohiyatidan tashqari unda o‘lkamizda ilk boshqaruv tizimining amal qilganligi to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Bu esa alohida e’tiborga loyiqdir. Masalan, «Avesto» jamiyatni 4 asosiy qismga bo‘ladi: uy, oila jamoasi - «Nmana», urug‘ jamoasi - «vis», qabila - «zantu», qabilalar itifoqi - «daxiyu». «Daxiyu» tushunchasi «viloyat», mamlakat ma’nosini ham anglatadi. Mamlakatni idora qilgan shaxs «Kavi» deb yuritilgan.

Oqsoqollar kengashi - «varzanapoti», «Xanjamana», xalq yig‘ilishi - v’yaxa deyilgan. «Avesto» qadimgi jamiyatning 4 asosiy toifasini alohida ajratib ko‘rsatadi: kohinlar (ruhoniylar), askarlar, chorvadorlar va hunarmandlar. «Avesto»da jamiyatda binokorlar bo‘lganligiga ham alohida ishora bor.

Manbaning turli ma’lumotlariga ko‘ra, qadimgi qishloqlarda zargarlik, kulolchilik, to‘quvchilik, temirchilik singari hunarmandlar ham o‘ziga xos tarzda rivoj topgan. «Avesto»dagi bosh ma’buda - ezgulik, yorug‘lik, yaxshilik, baxt-iqbol xudosi Ahuramazda bilan yomonlik, yovuzlik, qorong‘ulik, razolat timsoli - Ahriman o‘rtasidagi doimiy murosasiz kurash g‘oyasi zardo‘shtiylik (otashparastlik) dinining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Zardo‘sht payg‘ambar sifatida Ahuramazda tilidan vahiy qilingan muqaddas kalomlarni, nasihatlar va oyatlarni xalqqa, odamlarga etkazishga da’vat etkuvchidir. Zero, Zardo‘sht har bir masalada fikr yuritganda Ahuramazda nomini tilga oladi, unga murojaat etadi. Bir o‘rinda u bunday xabar beradi: «Biz Ahuramazdani ulug‘laymiz, u chorvani, suvni va o‘simlikni, yorug‘likni va erni yaratgan ... ». «Avesto»da moddiy dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Er, suv, xavoni bulg‘ash, olovga tupirish eng og‘ir gunoh sanaladi.

«Avesto» avvalgi dinlarda rasm bo‘lgan insonlarni qurbonlik qilishni qat’iyan man etadi va uning daxlsizligini himoya qiladi. Zardo‘sht dinida ta’kidlanadiki, odamzod yashashga haqli bo‘lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo‘qdir.

Zardo‘shtiy dinida olov muqaddaslashtirilgan bo‘lib, u insonning baxtu-saodati ramzi sifatida ulug‘langan. Shu bois ajdodlarimizning ko‘plab to‘y-tomoshalari, xursandchilik marosimlari olov yoqish, uni atrofida keng davra qurish bilan bu odatlar o‘tkazilgan. Bu odatlarning ba’zilari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Shaharlar, aholi manzilgohlarining eng gavjum joylarida maxsus qurilgan otashkadalar bo‘lib, ular doimo ziyoratchilar bilan to‘la bo‘lgan.

Zardo‘shtiylik ta’limotiga ko‘ra, doimiy farog‘atli hayot inson uchun uzoq notanish hayoliy jannatda emas, balki insonlar yashaydigan shu tiriklik dunyosida bo‘ladi. Bu maqsad, marraga etish uchun esa odamlar juda ko‘p murakkab va jiddiy sinovlardan o‘tishlari kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, muqaddas «Avesto» kitobi buyuk o‘tmishdoshlarimizning keng qamrovli hayot tarzini, umrboqiy urf-odatlari, ta’lim - tarbiyasi, boshqaruv tizimini o‘rganishimizda dasturilamal manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda umumbashariy g‘oyalarning chuqur aks etganligi sababidan ham bu asar keng hududlar bo‘ylab yoyilib, Sharqu G‘arbda e’tirof topib, turli xalqlarning ma’naviy yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib borgan.

### 3. Yunon – Baqtriya davlati.

Vatanimiz xalqlarining salavkiylarga qarshi ozodlik kurashi muvaffaqiyatli yakun topgach, O‘rta Osiyoning katta hududida Yunon-Baqtriya davlati vujudga keladi. Uning tarkibiga Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi), Sug‘diyona

(Zarafshon vohasi), hozirgi Afg‘onistonning shimoliy, Turmanistonning sharqiy erlari kirgan. Bu davlatning Yunon-Baqtriya deb atalishining boisi shundaki, uning markazi Baqtriya hududlari edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari edi. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlati unga asos solgan, o‘zini shoh deb e’lon qilgan Diadot I, uning o‘g‘li Diodot II davrlarida bir muncha yuksaladi. Bu jarayon Evtidem I va u boshlab bergan evtidimiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Ko‘plab arxeologik qazishmalar va boshqa tarixiy manbalar, Yunon va Rim olimlarining ishonchli ma’lumotlari Yunon-Baqtriya davlatining keng hududlarga yoyilishi (masalan, u keyinchalik Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron, shimomiy-g‘arbiy Hindiston, Sind o‘lkasi hududlarigacha kengaygan), uning xo‘jalik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ham ancha yuksak darajaga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi. Shimoliy Afg‘onistonning Oyxonum, Tojikistonning Ko‘hnaqal’a Kaykobodshoh, Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa, Zartepa va boshqa joylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimda bu shahar - qal’alarda to‘laqonli hayot tarzi hukm surganligidan, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa kasb turlari ravnaq topganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham Yunon olimi Yustin Yunon-Baqtriyani ming shaharli davlat deb bejiz ta’riflamagan. Bu davlatning poytaxti Balx shahri bo‘lib, u qadimda Baqtra nomi bilan atalgan. Bu shahar xalqaro karvon savdosi - Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasida joylashganligidan, unda savdo-hunarmandchilik sohalari bir muncha rivoj topgan. Mamlakatning Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya singari o‘sha davrning rivojlangan davlatlari bilan olib borgan savdo-tijorat munosbatlari asosan mana shu shahar orqali o‘tgan. Shuningdek eski Termiz, Marv, Qayqobodshoh, Qo‘hnaqal’a, Marokand (Samarqand) singari shaharlarning ham savdo-sotiqning yirik markazlari sifatidagi mavqei yuksak bo‘lgan. Yunon-Baqtriya davlati o‘zining pul birligiga ega bo‘lgan. Oltin, kumush va misdan kerakli miqdorda tanga pullar zarb etilib muomalaga chiqarilgan. Bu pullarda, shubhasiz, Yunon xudolari – Appolon, Afina, Gelios, Zevs, Gerakl, Poseydon va erli hukmdorlarning tasvirlari aks ettirilgan. Yunon-Baqtriya tangalarining turli davlatlar hududida topilishi - bu mamlakatda savdo-tijoratning o‘sganligi, uning xalqaro miqyosda kengayib borganligiga ishonchli dalildir. Bundan tashqari yunon-rim olimlari bu mamlakatda turli xil don ekinlari, serunum erlarida uzumzor bog‘lar ko‘p bo‘lganini va ularda tilni yorar uzumlar, sharbatli mevalar etishtirilganini bayon etadilar. Bu hol unda dehqonchilik madaniyatining o‘sganligidan, sun’iy-sug‘orish inshootlari tizimi keng tarmoq otganligidan yaqqol dalolatdir. Garchand Yunon-Baqtriya davlatida quldorlik munosabatlari mavjud bo‘lsa-da, biroq unda erkin dexqon jamoalari mehnati salmoqli rol o‘ynagan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan tez o‘sishiga, shaharlar hayotining rivojlanishiga muhim turtki bergan. Tojikistonning Kafirnixon daryosi bo‘yida o‘tgan asrning 70 yillarida topilgan «Amudaryo xazinasi» (100dan ziyod oltin, kumush va boshqa qimmat baho buyumlar) namunalari ham qadimgi Baqtriya davlatiga tegishli bo‘lib, u quyosh mahalliy xalqlar e’tiqod qilgan xudo Mitraga bag‘ishlangan serxasham ibodatxonaning noyob bezaklari sirasiga kirgan.

Miloddan avvalgi II asr o‘rtalariga kelib bir qator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergan keskin o‘zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi. Buning muhim sabablaridan biri- qo‘shni Parfiya davlatining kuchayib ketishi va o‘z hududlarini Yunon-Baqtriya hisobiga kengaytirishga intilishi bo‘ldi. Bu hol Yunon-Baqtriya davlatini mushkul ahvolga solib qo‘ydi. Tez orada Hind erlari hamda Sug‘diyona uning tarkibidan ajralib ketdi. Mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlariga esa sharqdan kelgan ko‘psonli katta yuechji qabilalarining xujumi kuchayib, ular asta-sekin Farg‘ona, Surxondaryo hududlari sari siljiy boradi. Buning natijasida 120 yilcha mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lgan Yunon-Baqtriya davlati halokatga uchradi.

O‘rta Osiyoda salavkiylar hukmronligining inqirozi natijasida mil. av. III asr o‘rtalarida vujudga kelgan mustaqil davlatlardan yana biri **Parfiyadir.** Bu davlatga parnlar (dahlar) ning ko‘chmanchi sak qabilalari yo‘lboshchisi Arshak asos solgan. Arshakiylar sulolasining uzoq hukmronligi uning nomi bilan bog‘liq. Arshak mil. av. 247 yilda salavkiylar satrapligini engib, Girkaniyani egallaydi. Asta-sekin uning hududlari kengaya boradi. Bu davlatning ilk poytaxti hozirgi Asxabod shahri yaqinidagi qadimgi Nisodir. Bu shahar xarobalaridan topilgan juda

ko‘plab noyob topilmalar, asori atiqalar qadimgi Parfiyaning o‘z davrida ancha taraqqiy etgan, moddiy va ma’naviy madaniyati yuksalgan davlatlardan biri bo‘lganligidan davlolat beradi. Mohir sarkarda, usta diplomat Arshak o‘zining uzoq yillik podsholik davrida Parfiyani dovrug‘li davlatga aylantirish bilan birga uning hududlarini kengaytirishga ham salmoqli hissa qo‘shgan. Uning avlodlaridan Mitradat I davrida (mil. av. 171-138 y) bu davlat salavkiylar va Baqtriyaning katta hududlarini o‘ziga qo‘shib oladi. 155 yilda Midiya podsholigi bosib olinadi. Mil. av .147 yilda esa mashhur Bobil shahri ham egallanadi. Mitradat II davriga kelib (mil.av. 128-88) Parfiya davlati qudrati benihoya kuchayib, u Rim imperiyasining Sharqdagi asosiy raqobatchisiga aylanadi. Davlat hududlari g‘arbga tomon kengayib borganligidan, uning poytaxti ham Ktezafon shahriga ko‘chirilgan. Mil. av. 40 yillarda Kichik Osiyo, Suriya va Falastin erlari ham Parfiya qo‘l ostiga o‘tgan. Biroq tez orada Rim imperiyasi bu hududlarda o‘z ta’sirini qayta tiklashga muvaffaq bo‘lgan. Buning sababi Parfiya davlati ichida vujudga kelib kuchaya borgan mahaliy bosh boshdoqlik, sulolaviy nizolar, so‘ngra ko‘chmanchi alanlarning xujumlari - bular pirovard oqibatda uning ichki zaiflashuviga, siyosiy beqarorligining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Buning ustiga to‘xtovsiz davom etgan tashqi va ichki urushlar mamlakatni holdan to‘ydirib, uni parchalanish va halokatga duchor etdi. Milodning 207-222 yillarida Parfiya hukmdori bo‘lgan Vologez V davrida saltanat ikkiga, ya’ni Mesopotomiya va Midiya davlatlariga ajraladi. Xuddi shu davrda Fors hududlarida yangidan vujudga kelib qudrati tobora oshib borayotgan Eron sosoniylari davlati tez orada Parfiyaga hal qiluvchi zarbalar berib, uning erlarini o‘z tarkibiga kiritadi. Bu milodning III asri 20 yillarida sodir bo‘ldi.

## Qang‘ va Dovon davlatlari.

Vatanimiz hududida mil.av. III asr boshlarida vujudga kelib milodning I-II asrlarida o‘zining yuksak ravnaqiga erishgan mustaqil davlatlardan biri-bu Qang‘ yoki Qang‘a davlatidir. Bu davlat tarixiga, rivojlanish jarayoniga oid bo‘lgan eng ko‘p ma’lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Aftidan, Xitoyning Xan sulolasi hukmdorlari O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga va bu hududning muhim jug‘rofiy mavqei, tabiiy boyliklariga alohida qiziqish bildirib, o‘z elchilarini yuborganlar hamda ular bilan yaqindan bog‘lanishga harakat qilganlar. Bugina emas, hatto mil. av. II asr boshlarida bu hududni qo‘lga kiritish maqsadida katta qo‘shin tortib bostirib kelganlar ham.

Qang‘ davlatiga saklar asos solishgan. Qang‘ davlati mil.av.III asrda Sirdaryoning O‘rta oqimi hududlarida (xususan Toshkent vohasi va unga tutash tog‘li va cho‘lli zonalarda) tashkil topgan. Keyinroq mil.av. II asr boshlariga kelib bu davlat kengayib, sharqda Farg‘ona (Dovon), shimoliy-sharqda usun, yuechji qabilalari bilan, shimoliy-g‘arbda Sarisu daryosi bo‘ylab chegaralangan. G‘arbda esa Sirdaryoning quyi oqimigacha etib borgan. Boshqacha qilib aytganda, Amu va Sirdaryo oralig‘idagi katta hududlar shu davlat tarkibiga kirgan. Qang‘ning yirik shahrlar sirasiga Aris daryosi sohilidagi O‘tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan Qanqa (Qang‘iz) shaharlari kiradi. Bu shaharlar o‘sha davr shaharsozligining yuksak namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Qang‘ davlatini boshqarishda podshohning roli va o‘rni katta bo‘lgan. Shu bilan birlikda davlat va jamiyat hayotiga oid ko‘plab muhim masalalarni hal etishda urug‘ va qabila oqsoqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqei ham alohida o‘rin tutgan. Binobarin, podshoh o‘z ichki va tashqi siyosatini yuritishda kengash bilan maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobu yoki yobular deb atalganlar. Ular o‘z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo‘lib, markaziy hokimiyatga boj to‘lab turganlar. Qang‘ hukmdorlari mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Ayniqsa ular Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritganlar. Shuning uchun ham Qang‘ davlati o‘z qo‘shnilari - Dovon, Qashg‘ar, Yorkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da’vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo‘lganda o‘z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Qang‘a aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ular asosan o‘troq hayot kechirganlar. Aholining ma’lum qismi ko‘chmanchilik bilan

shug‘ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Chunonchi, Toshkent vohasida boshoqli, dukkakli o‘simliklar ko‘p miqdorda o‘stirilgan, shirin-sharbat mevalar etishtirilgan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmanchilik rivoj topgan. Mahaliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o‘tkir uchli nayzalar va b.), xo‘jalik asbob-uskunalariga talab - extiyoj katta bo‘lgan. Qoramozor, Qurama va Chotqol tog‘larida temirchilik, miskarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, kumush, qo‘rg‘oshin singari ma’danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshtepa, Qovunchitepa, shuningdek O‘tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko‘plab noyob dalillar Qang‘ davlatida yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Buni «Qovunchitepa madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan qadimgi madaniyat namunalari ham isbot etadi. Qang‘aliklar chorvachiligi va yilqichiligi to‘g‘risida ham alohida fikr aytish mumkin. Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu Qang‘ va qo‘shni Dovon yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari Qang‘da chorva mollarining mo‘l-ko‘lligini, sut-qatiqlarning g‘oyatda mazali va to‘yimliligini ta’rif etganlar. Bu davlatning xalqaro karvon savdosidagi mavqei ham baland bo‘lganki, bunda Buyuk ipak yo‘lining roli katta bo‘lgan.

**Dovon yoki Parkana** nomi bilan mashhur bo‘lgan davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to‘la ma’lumotlar topilmagan. Faqat Xitoy yozma manbalarida ko‘rsatilishicha bu davlat mil. av. III-II asrlarda mavjud bo‘lgan. Vaholanki Farg‘ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o‘troq hayoti kechgan, o‘z davlatchiligiga ega mustaqil hudud sifatida Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishiga hech bir shubha yo‘q. Buni mil. av. II asr boshlarida bu o‘lkaga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjan Tsyan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg‘onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70dan ziyod katta-kichik shaharlari bo‘lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatning Marhamat tumanida joylashgan) o‘z davrining obod, ko‘rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O‘zgan, Koson ham Dovonning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Dovon hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo‘lib, ularda erli mirishkor aholi sholi, bug‘doy, paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari etishtirish bilan shug‘ullangan. Bularga Aravonsay, Oqbo‘ra, Sultonobod, Qo‘rg‘ontepa, Andijonsoy, Moylisoy, Ulug‘nor, Yilg‘insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini nisbat berish mumkin. Xitoy sayyohi vodiyda uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o‘tkir vinolar tayyorlash yuksak darajada yo‘lga qo‘yilganligiga alohida urg‘u beradi. Dovondagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati - bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeining alohidaligidir. Chjan Tsyanning e’tiroficha, bu erning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko‘rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig‘i erlar tomonidan bajarilishi shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, uning maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlariga suyangan. Ayniqsa urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalasida Oqsoqollardan iborat Oliy kengash alohida vakolatlarga ega bo‘lgan. Hukmdor buni e’tirof etishga majbur bo‘lgan.

Xitoy Farg‘ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko‘z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo‘shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil. av. II asr oxirlarida (104 yilda) va milodiy 1 asrning 80-yillarida xitoyliklar Dovon davlatini o‘zlariga bo‘ysundirish uchun u bilan shiddatli urushlar olib borganlar. Dovonliklar o‘z qo‘shnilari-Qang‘a va Kushon davlatlarining harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ladilar. O‘rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so‘ng Dovon davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko‘ra ikkala davlat o‘rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo‘lga qo‘yish, jumladan, Farg‘onaning uchqur arg‘umoqlarini Xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg‘ona hududi O‘rta Osiyo ijtimoiy

siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o‘zgarishlar jarayonida ham o‘zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

**4, Kushonlar saltanati.**

Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagina emas balki butun antik dunyo tarixida mashhur bo‘lgan Rim, Parfiya, Xan (Xitoy) imperiyalari safidan mustahkam joy olgan Kushonlar saltanati insoniyat tsivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos munosib o‘rin egallaydi. Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi yuechji qabilalari qo‘shnisi xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g‘arbga tomon siljiydilar. Yuechjilar Issiquo‘l atrofida sak qabilalari bilan to‘qnashib ularni janubiy-g‘arb tomonga suradilar. Biroq yuechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab janubga siljib mil.av.130 yillarda Sug‘diyona hududiga kirib keladilar. Yuechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Tsyan ta’kidlashicha, Sug‘diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag‘daradilar. Yuechjilar Farg‘ona vodiysini ham egallaydilar.

Xitoy makbalarida ta’kidlanganidek yuechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar: Guyshuan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Xuanmi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo‘lib, yagona hukmdorga bo‘ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig‘i Kujula Kadfiz (Kiotszyukyu) barcha yuechji qabilalarini birlashtiradi va butun baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi.

Kujula Kadfiz qo‘shni hududlarga yurish uyushtirib Sug‘diyona, Marg‘iyona, Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismini zabt etadi. Shu tariqa, yirik davlat - Kushonlar saltanati tashkil topadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Amudaryo bo‘ylari, Qobul va Qandahor hududlarini ham egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoning Sho‘rchi tumanida) shahri bo‘lgan.

Kushon hukmdorlari to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, bunda bu davlatga asos solgan Kujala Kadfiz (milodning birinchi asri boshlari), uning o‘g‘li Vima Kadfiz (milodning 1 asri o‘rtalari), Kanishka (78-123 yy.) va ularning avlodlari - Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o‘tmoq joiz bo‘ladi.

Kadfiz 1 davrida zarb etilgan tangalarda «Kujala Kadfiz Yabg‘u» degan yozuvlar uchraydi. Uning o‘g‘li Vima Kadfiz podsholigi davri ham muhim o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu davrga kelib shimoliy Hindistoning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o‘tkazib, vazni 8 gr og‘irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomalaga chiqartiradi. Bu esa halqaro savdoda Kushonlar davlatining obro‘sining ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar saltanatining eng kuchayishi Kanishka davriga to‘g‘ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovor, Panjob, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek sharqiy Turkistonning ancha qismi uning davlati tarkibiga kirgan edi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovorga ko‘chirilgan. Usta siyosatchi, etuk sarkarda bo‘lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g‘oyatda uddaburolik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o‘tkazgan islohoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko‘tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e’tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va dahlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda Budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e’tiqod qo‘yib kelgan xudolar - Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy Kushon - baqtriy tilida chiqarilganli alohida e’tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko‘zlab oqilona yuritilgan siyosat Kushonlar davlatida turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlari o‘rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so‘ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar davlati bir qator ob’ektiv va su’ektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchray

boshlagan. Ayniqsa III asr o‘rtalariga kelib qo‘shni davlat - Parfiya o‘rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchaya borgan Eron sosoniylari hukmdorlarining to‘xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushon davlati ziflashib, hududlari kichrayib bordi. Janubda Hind erlarining Kushon tarkibidan mustaqil bo‘lib ajralib chiqish jarayoni kuchaydi. Ayni chog‘da Xorazm, Sug‘diyona sarhadlari ham o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritadi. Buning oqibatida Kushonlar saltanati oxir oqibatda halokatga uchradi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko‘hna tariximizda katta iz koldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yoxud elatlar hayoti misolida yaqqol ko‘rsa bo‘ladi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xalchayon (Denov), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalari o‘sgan gavjum shaharlar hisoblangan. O‘lkamizda sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilk madaniyati nixoyatda taraqqiy etgan, ko‘plab sug‘orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida Eski Angor, Zang, So‘g‘ddagi Darg‘om kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me’morchilik, haykaltoroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlarining yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko‘hna Tuproqqal’a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o‘rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ayni chog‘da Kushonlar davrida moddiy va ma’naviy madaniyat yonma-yon tarzda rivojlanib borgan, deb xulosa chiqarishga to‘la asoslar bor. Masalan, Ayritom ko‘hna shahridan topilgan uylar, muhtasham saroylar, ularning peshtoqiga ishlangan tasvirlarda gullarga burkangan, har xil musiqa asboblarini chalib turgan qizlar, do‘mbira chalayotgan bolalarning tasviri aks etgan. Qazib topilgan ibodatxona va boshqa inshootlar qoldiqlari ham o‘zining yuksak me’moriy ishlovi bilan ajralib turadi. Xalchayon yodgorligi majmausidan topilgan, loydan ishlangan nafis, chiroyli haykallar, hukmdor saroyini bezab turgan badiiy tasvirlar (milodning 1 asrga oid) - bular Kushonlar madaniyatining yuksakligiga ishoradir. Shuningdek ko‘hna Dalvarzintepadan 1972 yilda arxeologlar tomonidan topilgan, umumiy og‘irligi 30 kg dan ortiq tilla buyumlar xazinasi alohida qimmatga egadir. Undan joy olgan 115 ta bilaguzuk, xalqalar, to‘g‘alar, bo‘yin taqinchoqlari, oltin quymalar ajdodlarimiz mahoratidan nishonadir. Xuddi shunday noyob topilmalar Xorazmning Tuproqqal’a, Samarqandning Afrosiyob, Farg‘ona vodiysining Eski Quva, Chust shaharlari xarobalari o‘rnida ham uchraydi.

Kushonlar davri madaniyatining muhim katta yutuklaridan biri shundaki, bunda turli qutb va mintaqada yashagan xalqlarning madaniyatlari o‘zaro yaqinlashib, bir-birlarini to‘ldirib, boyitib borgan. Bu esa ularning bir birlari bilan turli-tuman sohalarda yaqindan hamkorlik, hamjihatlik qilishlariga keng yo‘l ochgan, umumiy yuksalishiga turtki bergan. Masalan, Hindistondan O‘rta Osiyo hududiga Budda dinining kirib kelishi va yoyilishi, o‘lkaning turli joylarida hashamatli Budda ibodatxonalarining barpo etilishi, budda haykallari va haykalchalarining yaratilishi - bular ulug‘ ajdodlarimiz ma’naviy hayotidagi jiddiy o‘zgarishlardandir. Ularning timsolida Hind va O‘rta Osiyo xalqlarini bir-birlariga ma’nan yaqinlashtirgan muhim omilni ko‘rish mumkin. Termiz, Ayritom, Eska Quva va boshqa joylardan topilgan, buddizmga oid ashyoi dalillar, budda ibodatxonalari namunalari, haykallar, ularning yuksak mahorat bilan yaratilganligi - bular Kushonlar davrida Vatanimiz hududida moddiy va ma’naviy madaniyat rivoj topganligining yaqqol ifodasidir.

## 3-mavzu: O‘zbek xalqining etnik shakllanishi

**REJA:**

1. Urug‘, qabila, elat, xalq, millat tushunchalari. Turonzaminda turkiy xalqlarning azaliy etnos ekanligi.
2. Vatanimiz hududida kechgan etnik jarayonlar. O‘zbek xalqining shakllanishi.
3. XV asr oxiri - XVI asrda o‘zbek xalqining etnik tarikibida yuz bergan o‘zgarishlar. «O‘zbek» atamasi va uning keng yoyilishi.
4. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo hamjihatlikning mustahkamlanishi.

**Adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T.7. -T.: O’zbekiston, Sharq, 1998, 132-147 betlar.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida …. -T.: O’zbekiston, 1997. 69-85 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yyengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» 2008.
4. Shoniyozov K.O’zbek xalqining shakllanish jarayoni -T.: Fan, 2001. 64-98 betlar.
5. Usmonov Q. va boshqalar. S. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Ibrohimov A. Biz kim, o’zbeklar … -T.: Sharq, 2000, 55-66 betlar.
7. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.


### 1. Turonzaminda turkiy xalqlarning azaliy etnos ekanligi

Milliy istiqlolga erishganimizdan keyin o’zbek xalqining etnologiyasi, etnik tarixini o’rganish, haqqoniy yoritish tarix fanining muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Negaki, mustaqillik sharofati bilan xalqimizning o’z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o’zligini anglashga qiziqishi o’sdi. Farzandlarimiz tarix ijodkori bo’lgan o’z ajdodlari kimlar bo’lganligini, o’zbek xalqi qachon va qanday shakllanganligini chuqur anglashni, bilishni xohlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asarida ta’kidlanganidek: «har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo’lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turish, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o’ziga berishi tabiydir… Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to’g’ri xulosalar chiqaradi».[1]

***Ko’plab ishonchli tarixiy ma’lumotlar, manbalar, ashyoi dalillar barcha xalqlarning etnik shakllanishi uzoq davrlar davomida, murakkab tarixiy shart-sharoitlar va omillar ta’sirida sodir bo’lganligini tasdiqlaydi. O’zbek xalqining shakllanishi ham uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo’lib, uning o’q tomirlari shu yurt zaminida azal-azaldan yashab, uni o’ziga makon tutib, chuqur ildiz otib, muttasil moddiy va ma’naviy madaniyat namunalarini yaratib kelgan qadimiy urug’, qabila va elatlarga borib qadaladi.***

***Shu o’rinda urug’, qabila, xalq tushunchalari to’g’risida ham bir qadar to’xtalib o’tmoqlik joiz bo’ladi. Negaki, ular haqida aniq tasavvur hosil qilish, nazarimizda, etnik jarayonlar o’zgarishining mazmun-mohiyatini to’g’ri tushunishda g’oyatda muhimdir.***

---

[1] I.A.Karimov. Asarlar. T.7. -T.: O’zbekiston, 1999, 136-137 betlar.

***Qadimdan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, bir tomirga borib taqaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan urug'lar hosil bo'lgan. Urug' jamoasining o'z etakchisi - oqsoqoli bo'lgan. Urug' jamoasi hamma narsada, har bir masalayu sa'y-harakatlarda oqsoqolning izmida bo'lgan.***

***Qabila ibtidoiy bosqichga xos etnik birlik bo'lib, qon-qorindoshlik munosabatlari, bir necha urug'larning birikuvi natijasida tashkil topgan. Qabilaning o'ziga xos tili, hududi, qabila a'zolarining o'zaro hamkorligi, qabila nomi, o'ziga xos an'analari bo'ladi. Qabila hayotiga doir ishlarga boshchilik qiladigan qabila oqsoqoli saylangan, muhim masalalar bo'yicha qabila yig'inlari o'tkazilgan.***

Qabilalar o'rtasida etnik, xo'jalik, moddiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida ular qo'shilishib, birlashib ketadilar. Natijada ularning etakchi, nufuzli guruhi nomi bilan yangi etnik birlik - elat yoxud xalq shakllanadi. Xalq hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida tarkib topadi.

Qadimshunos olimlarimiz tomonidan arxeologik tadqiqotlar yo'li bilan o'rganilib, isbotlangan qanchalab dalili ashyolar bu hududda yashagan ulug' o'tmishdoshlarimiz miloddan avvalgi ming yilliklar mobaynida ibtidoiy-jamoa tuzumining barcha asosiy bosqichlarini boshdan kechirib, istiqomat qilib, o'ziga xos hayot tarzini yaratib kelganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Surxon, Zarafshon vohallarida, Farg'ona vodiysi hududida olib borilgan qidiruv ishlari, Markaziy Osiyo hududida joylashgan 270 dan ortiq tarixiy yodgorliklar tahlili hamda boshqa ko'plab mo''tabar dalillar ham to'la tasdiq etadi. Shularga asoslanadigan bo'lsak, miloddan avvalgi ming yilliklar davomida bu zaminning yashashga qulay, tabiiy sharoitlari o'ng'ay bo'lgan joylarida yashagan har xil mahalliy urug', qabilalar dehqonchilik, chorvachilik, yilqichilik, ovchilik, baliqchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Masalan, daryo, ko'llar atroflarida yashagan aholi asosan dehqonchilik yoxud baliqchilik bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa, cho'lli, adrli joylarning odamlari esa ko'proq chorva, yilqi boqish bilan band bo'lganlar. Qadimiy manbalarda aytilishicha, hozirgi O'rta Osiyo xududlarida massagetlar, saklar, sug'diylar nomi bilan atalgan qabilalar yashaganlar.

Taniqli etnograf olim K.Shoniyozovning ta'qidlashicha, «O'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizi esa qadimgi turkiy xalqlardan boshlangan. Har ikkala ildizlarning birikishi - o'zaro sintez o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek xalqini tashkil etgan. Har qanday xalq alohida etnik birlik (elat) bo'lib ma'lum bir hududda, ma'lum tarixiy davrda shakllanadi. O'zbek xalqi ajdodlari ham elat bo'lib, Movarounnahr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalarda shakllangan».[1]

Eron manbalarida O'rta Osiyoda yashagan sak (yoki shak) qabila uyushmalarining 3 xil toifasi tilga olinadi:

| | | |
|---|---|---|
| **Qadimda O'rta Osiyoda yashagan sak qabilalari.** | ➢ Saka – Xaumavarga | Ular asosan o'lkaning shimoliy-sharqiy qismida, ya'ni Murg'ob vodiysi, Amuning yuqori oqimida, Oloy, Farg'ona vodiysida yashaganlar. |
| | ➢ Saka - Tigraxauda | (Cho'qqi qalpoq kiyganlar). Ular Amuning quyi oqimi va Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidan to Orol shimoligacha bo'lgan keng cho'lli hududlarda joylashganlar. |
| | ➢ ***Saka-Tiay Tara-daraya*** | Kaspiy shimolida, Ural tog' oldi mintaqalarida yashaganlar. |

Bu qabilalar aholisi ham o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy turmush tarziga ega bo'lib, nisbatan to'laqonli hayot kechirgan, kelgusi nasllar uchun o'zlaridan munosib meros qoldirish yo'lida sa'y - harakatlarda bo'lgan.

[1] K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni -T.: Sharq, 2001, 9-bet.

Muqaddas «Avesto» kitobida ham vatanimiz hududida yashagan qavm, elatlar haqida ko'plab ishonchli ma'lumotlar bor. Jumladan, unda Xorazm, Sug'd, Baqtriya singari yurtlarning iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyotda yuksak darajada bo'lganligi qayd etiladi.

Firdavsiyning «Shohnoma» asarida va boshqa mo''tabar manbalarda turkiy etnoslar O'rta Osiyoda yashovchi azaliy qavm ekanligi ta'kidlanadi. Shu boisdan bu o'lka qadimdan Turon deb atalib kelinadi. Turonzamindagi qo'shni qardosh elatlar o'zaro hamjihatlikda yashab, chuqur ildiz otib borish barobarida tabiiy zaruriyat taqozasi o'laroq bir-birlari bilan qo'shilishib, birikishib o'zaro etnik jarayonlarni boshdan kechirganlar. Bu esa asta-sekin bu hududda turkiy va sug'diyda so'zlashuvchi ikki tilli xalqning shakllanib borishida o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyo aholisi to'g'risidagi ma'lumotlarni yunon-rim tarixchilari asarlarida ham uchratamiz. Ular Qora dengizning sharqiy hududlarida yashovchi qabilalarni umumiy nom bilan «skiflar» deb ataganlar. Gerodot «bu xalqlar qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi», deb qayd etadi. Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi – massagetlar va saklar xususida ko'proq eslatiladi.

***Ayniqsa ona yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, uni ajnabiy kuchlar tajovuzi va bosqinidan himoya qilish zaruriyati turli qardosh va qondosh urug', qabilalar, elatlarni bir-birlari bilan yaqinlashtirgan, do'stlashtirgan, bir yoqadan bosh chiqarib faol harakatlarga chorlagan. Shu tarzda davom etgan o'zaro yaqinlik, birodarlik, og'a-inilik tuyg'usi bu qavm, elatlarni ma'nan, ruhan va jismonan bir jonu bir tan bo'lib o'zaro intensiv etnik jarayonlarga kirishib borishlariga bois bo'lgan.***

## 1. Yurtimiz hududida kechgan etnik jarayonlar. O'zbek xalqining shakllanishi

O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari - Movaraunnahr, Xorazm, Ettisuv, qisman sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtariylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'liklar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar, asosan, turkiy va sharqiy fors-Eroniy tillarda so'zlashganlar. Shuningdek, janubiy Sibir, Oltoy, Ettisuv, sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'yida turli davrlarda Movarounnahrga kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar.

Milloddan avvalgi III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va sug'diylar ittifoqi asosida tashkil topgan Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustivorlik qilib, yangi turkiy etnoslardan biri – Qang'lar elati paydo bo'ladi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllanadi. Arxeologik asarlarda bu madaniyat Qovunchi madaniyati nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashicha, aynan mil. av. III-II asrlarda kelib, O'rta Osiyo vodiy va vohalarida yashovchi sug'diylar va qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi, o'zbek va voha tojiklariga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i antropologik tipi (qiyofasi) to'liq shakllanadi.

O'zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar - miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida shimoli-sharqdan o'lkamizga kelgan kushonlar hamda IV-V asrlarda O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharo'iy Turkistondan kirib kelgan xioniylar, kidariylar va eftaliylardir.

Shuningdek, o'zbeklar etnogeneziga Turk xoqonligi (VI-VII asrlar) davrida O'rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Farg'ona vodiysi, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari) va Xorazmga kelib o'troqlashgan turkiy etnik komponentlar ham faol ta'sir ko'rsatadi. Kirib kelgan Turkiy komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analar bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi.

Ayni paytda bu yerlarda o’rnashgan turkiy etnik guruhlar o’zlariga xos ko’plab milliy an’analar, udumlar va marosimlarni ham olib kelganlar. Bu esa, bir tomondan, bu hududda aholining aralashish-qo’shilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko’rsatgan, bu yerda azaldan yashab kelgan aholining turkiy qatlami salmog’ining ko’payib borishiga bois bo’lgan. Ikkinchi tomondan, o’lka hayotida kechgan bu tarzdagi etnik o’zgarishlar, shu hududda yashagan xalqlarning bir-birlari bilan yaqinlashib, madaniy-ma’naviy aloqalarining o’zaro boyib, taraqqiy etishiga ijobiy ta’sir ko’rsatib borgan.

VIII asrdan arab va ajam xalqlarining O’rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta’sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma’lum bir o’zgarishlar bo’lsa-da, Movarounnahrdagi o’troq va yarim o’troq turkiyzabon aholi, sug’diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o’z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yashaganlar.

IX asrdan boshlab Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o’z navbatida sug’diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo’lib, bu qatlam asosining aksariyat ko’pchiligini o’troqlashgan turg’un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida X-XI asrlar Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolarga o’tishi munosabati bilan o’zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo’ldi.

X asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qoraxoniylar davlati hududining Turonzamin tomon kengayib borishi va buning natijasida Somoniylar sulolasining inqirozga yuz tutib, butun Movarounnahr bo’ylab Qoraxoniylar hukumronligining o’rnatilishi jarayonida bu zaminga sharqdan ko’plab turkiy urug’ va qabilalarning kelib joylashishi sodir bo’ldi

**IX-X asrlarda Movarounnahr xududlariga kelib o’rnashgan turkiy elatlar**

- Qarluqlar
- Chigillar
- ***Yag’molar***
- ***Arg’ular***
- ***Turgeshlar***
- ***Uyg’urlar***
- ***Qirg’izlar***
- ***Yabakular v.b.***

Agar avval boshda bu qavmlarga mansub aholi asosan Movarounnahr o’lkasining Farg’ona vodiysi yoxud Shosh vohalariga kirib kelgan bo’lsa, keyinchalik ular bu zaminning boshqa hududlarida ham o’rnashib, o’troqlashib bordi. Bu hol, shubhasiz, yurtimiz aholisining etnik tarkibida jiddiy o’zgarishlarga olib keldi. Buning natijasida o’lkada yashab kelgan tubjoy aholi tarkibi, uning turmush tarzi, ma’naviy hayoti, milliy qadriyatlari sezilarli o’zgarishlarga ro’baro keldi, muhim yangiliklar bilan boyidi. Ayni chog’da aholi tarkibida yuz bergan qo’shilish jarayoni orqasida turkiy etnoslarning salmog’i va ta’siri ortib bordi. Kirib kelgan turkiy elatlar Turonzamin hududini makon tutib, bu yerdagi yerli aholi bilan qo’shilishib, ularning turmush tarzi, udumi, urf-odatlari, marosimlarini o’zlashtirish, qabul qilish barobarida o’zlariga xos ko’plab betakror udumlaru qadriyatlarni, ma’naviyat sarchashmalarini o’lka hayotiga olib kirdi, singdirdi. Zotan, «**Har qanday sivilizatsiya** ko’pdan-ko’p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir».[1] Shu tarzda o’zbek xalqining shakllanishida muhim omil hisoblangan madaniy, ma’naviy, psixologik umumiylik tarkib topadi.

Eng muhimi, xuddi shu asrlarda o’zbek adabiy tili uzil-kesil shakllandi. O’zbek tilining shakllanishida qarluq-chigil lahjasi muhim o’rin tutdi. O’zbek tilida umumbashariy g’oyalar va qarashlarni o’zida ifoda etgan ko’plab yuksak umrboqiy asarlarning yaratilishi buning yorqin isbotidir. O’zbek tilining yuksak badiiy jarangdorligi, boyligi va qudrati jihatidan o’sha davrda keng e’tirof topgan arab va fors-tojik adabiyotlaridan sira qolishmasligini ko’rsatadi. Xususan,

---

[1] Каримов И.А Асарлар 7-том, 146-бет.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i singari yuksak insonparvarlik g'oyalari ruhi bilan sug'orilgan baquvvat asarlar bunga misol bo'la oladi. Taniqli yozuvchi A.Ibrohimov so'zlari bilan aytganda, «Barcha turkiy xalqlar davrasida faqat bizkim, o'zbeklar birinchi voris o'laroq Ahmad Yassaviy she'riyatini asliyatida - bevosita o'qiymiz, chunki Ahmad Yassaviy tili o'zbek adabiy tilining xalqchil va yorqin namunalaridan biridir. Ahmad Yassaviy «Hikmati» barcha o'zbeklar uchun xuddi shu zamonda yozilgandek tushinarli va yoqimlidir».[1]

Shunday qilib, o'lkamizda uzoq yillar davomida yuz bergan etnik jarayonlar natijasida o'zbeklar IX-X asrlarda etnik birlik - xalq bo'lib shakllanadilar. Uning asosini o'lkada muqim yashab kelgan tub yerli aholi tashkil etadi. Kirib kelgan turkiy tilli etnik guruhlar ham o'zbek xalqining shakllanishida qatnashgan asosiy komponentlar hisoblanadi. Lekin ularning soni mahalliy aholidan kam bo'lgan, ular turg'un aholi bilan aralashib, qorishib ketganlar.

Keyingi davrlarda ham shakllangan o'zbek xalqi tarkibiga boshqa etnik guruhlarning kirib kelishi va qorishuvi davom etdi.

XIII asrda Mavorounnahr va Hurosonda mo'g'ullar bosqini va hukronligi davomida etnik aralashuv jarayoni davom etdi. Bir qator turkiy qavmlar - jaloirlar, barloslar, kavchinlar, arlotlar kabi turkiy urug', qabilalar bu yerga kelib vatan topdilar. Jumladan, barloslar Qashqadaryo vohasiga joylashgan bo'lsa, jaloirlar esa ko'proq Ohongaron vodiysida qo'nim topdilar. Kavchinlar bo'lsa asosan Farg'ona vodiysi, Qoshg'ar hududlari bo'ylab joylashdilar. Arlotlar esa Surhon vohasi janubida va Afg'onistonning shimoliy mintaqasida o'rnashib, bu hududlarda yashovchi aholi tarkibiga singib ketdilar.

O'rta Osiyoga kelib joylashgan bu etnik guruhlar asta-sekin o'troq hayotga o'tib, o'zlariga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega bo'lgan yerli aholining urf-odatlari, udumlari, turmush tarzi, musulmon dini e'tiqodlarini qabul etib, ko'p hollarda ular bilan aralashib bordi. Ayniqsa, XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu xududda mo'g'ullarning islomni rasmiy din sifatida e'tirof etishi va unga e'tiqod qilishi, shuningdek, ularning o'troq hayotga o'tib borishi, turkiy (o'zbek) tilda to'liq muomala yuritishi – bular o'zaro qo'shilish jarayonining muhim omili bo'ldi.

Chig'atoy ulusi tilining rivojlanishi hamda keyinchalik Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan yuksak iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til yanada takomillashdi, bu til ilmiy adabiyotda «turkiy» yoki «chig'atoy turk» tili deb nomlangan. Ayniqsa, Alisher Navoiy davrida o'zbek adabiy tili rivojlanib, o'zining yuqori nuqtaga ko'tarildi. Ammo, xalqning jonli tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy til shakllanishida uchta asosiy sheva – qarluq, qipchoq va o'g'iz dialektlari asos bo'lgan.

## 2. XV asr oxiri – XVI asrda o'zbek xalqi tarkibida yuz bergan muhim o'zgarishlar. «O'zbek» atamasi va uning keng yoyilishi

O'zbek xalqi etnik tarkibining evolyutsion o'sish jarayoni XV asr oxiri va XVI asrda yana muhim o'zgarishlarga duch keldi. Bu jarayon mamlakatda hokimiyatning Temuriylar sulolasidan Shayboniylar sulolasiga o'tishi bilan bog'liq holda kechdi. Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni shayboniylar sulolasi egallagach, bu hududlarga Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy xalqlar, keyinchalik o'zlariga o'zbek degan nomni qabul qilgan urug'-qabilalar kirib keldilar. Bu ko'p sonli urug' va qabilalarning kirib kelishi, yer-suv va mulk olib, o'troq hayot kechirishga o'tishi, mamlakatni boshqarish jilovi markazda va joylarda shu sulola vakillari qo'lida to'planishi o'z navbatida o'lka hayotida keskin o'zgarishlarning yuz berishiga olib keldi. Bu hol ayni paytda etnik jarayonlar borasida ham aks etmay qolmadi.

Qadim-qadimdan turkiy etnik guruhlar nafaqat bizning ona zaminimizda, balki shu bilan birga keng sharqiy va shimoliy jug'rofiy hududlarda, jumladan Dashti Qipchoqda ham uzoq

[1] А.Иброҳимов. Биз ким, ўзбеклар.-Т:. Шарқ, 1999, 25-бет.

yillar davomida istiqomat qilib kelganlar. Dashti Qipchoq deb atalgan, Sirdaryoning quyi havzasi va Orol dengizidan shimol sari cho'zilgan hamda hozirgi Ural va G'arbiy Sibir orolig'idagi keng dashtli yerlarni ishg'ol etgan hududlarda turkiy qavmlarga mansub urug' qabilalar olis asrlardan buyon yashab kelganlar. Akademik B.Ahmedovning yozishicha, «Hozirgi o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa xalqlarning ajdodlari shu xalqlar hozir yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda ham yashaganlar, lekin o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar deb atalmaganlar. Tarixiy, adabiy manbalarda Dashti Qipchoqning sharqiy qismida qadim zamonlardan beri turk qabilalari yashaganligi haqida anchagina ma'lumotlar mavjud. Bu yerlarni XIII asr boshida zabt etgan mo'g'ullar bo'lsa, Dashti Qipchoqning turk qabilalari orasida tez orada singib ketganlar va hatto o'z milliyligini yo'qotganlar»[1]

Bu fikru qarashlardan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, XVI asr boshlarida Vatanimiz sarhadlarida ro'y bergan etnik o'zgarishlar, tariximiz kechmishini qiyshiq oynada ko'rmoqchi bo'lgan ba'zi muxoliflarimiz da'vo qilganlaridek, ajnabiy xalqlaru elatlar bosqini orqasida yuz bermagan. Shuningdek, bu jarayonlar majburiy, zo'rlik asosida ham kechmagan. Buning aksi o'laroq, bu o'zgarishlar uzun o'q tomirlari bir bo'lgan, bir-birlari bilan qon-qardoshlik rishtalari ila bog'langan, azaldan turli aloqalarda bo'lib kelgan turkiy xalqlarning asta-sekin o'zaro qo'shilishi, birikishi davomida yuz bergan. To'g'ri, Dashti Qipchoqda yashovchi o'zbek urug', qabilalari bilan Movarounnahr va Xuroson xalqi o'rtasida turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar orqasida hamma vaqt ham doimiy aloqalar, bordi-keldilar bo'lmagan, ularni katta masofadagi bo'sh, sahroli hududlar ajratib turgan. Shu bois ularning turmush tarzi, mashg'ulot turlari, kasb-korlari, urf-odatlari, udumlari boshqacha ko'rinishda bo'lganligi tabiiydir. Buning ustiga Dashti Qipchoq aholisining aksariyat qismi keng yaylovlarda chorvachilik, yilqichilik xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Buning aksicha, Movarounnahr aholisi uzoq asrlar davomida o'troq hayotga o'rganib, ona zamin hayotida muqim yashab kelgan. Ular azaldan mirishkor bobodehqonlar, mohir hunarmandlar, ustamon savdogarlar sifatida nom qozonganlar. Ularning sa'y-harakatlari, mehnati, zahmati bilan yurt obod etilib, bir-biridan ko'rkam, gavjum shaharlar bunyod topib, dovrug' topgan.

| | | |
|---|---|---|
| **Dashti Qinchoqda yashagan urug'larning nomlari:** | ➢ Burkut | Kenagas |
| | ➢ Qiyot | Do'rmon |
| | ➢ ***Qushchi*** | ***Qurlovut*** |
| | ➢ ***Qo'ng'irot*** | ***Tub*** |
| | ➢ ***Ushun (usun)*** | ***Oyi*** |
| | ➢ ***O'tachi*** | ***Mang'it*** |
| | ➢ ***Nayman*** | ***No'kuz*** |
| | ➢ ***Jot*** | ***Uyg'ur*** |
| | ➢ ***Chimboy*** | ***Xitoy*** |
| | ➢ ***Qarliq*** | ***Toymas*** |
| | ➢ ***Echki*** | ***Tuman*** |
| | ➢ ***Qirq*** | ***Yuz, ming v.b.*** |

Yuqoridagi ma'lumotlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, Dashti Qipchoqda yashagan aholi turli urug'ga mansub bo'lib, har birining o'ziga xos nomi bo'lgan.

Ular XV asrda «O'zbek» degan umumiy nom bilan atala boshlaganlar. Dashti qipchoqlik ko'p sonli urug', qabilalar Movarounnahr hududlariga kirib kelar ekanlar, ular, eng avvalo, mahalliy qardoshlari, elatdoshlari bilan tabiiy suratda yaqinlashib, ulardek o'troq hayotga moslashib, ularning turmush tarziga xos hamma eng yaxshi narsalarni o'zlariga qabul qilib, singdirib bordilar. Eng muhimi, kirib kelgan urug', qabilalar bu zaminda o'zlarining ikkinchi vatanlarini topish barobarida asta-sekin bu yerning tubjoy aholisi tarkibiga singishib bordi. Bu

[1] Қаранг: Б.Аҳмедов. Ўзбек улуси, Т.Мерос, 1992, 13-бет.

narsa ayniqsa ularning avvalgi ko'chmanchilik hayotiga xos turmush tarzidan o'zlaridan madaniy va maishiy sohalarda ancha yuqori darajada bo'lgan mahalliy halqning ilg'or turmush tarziga o'tishida, uning ko'p asrli boy ma'naviy merosi sarchashmalaridan bahra topib borishida yaqqol namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham ular mahalliy qardoshlari bilan qorishib, ma'nan yuksalishga yuz tutib, ularning ilg'or hayot tarzini o'zlariga uzil-kesil singdirib bordilar.

Temuriylar saltanati o'rnida dastlab XVI asr boshlarida vujudga kelgan Buxoro va Xiva xonliklari XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy makonda yashagan xalqlar siyosiy jihatdan turli davlatlar tasarrufiga tushib qolgan bo'lsada, bu holat o'zbek elati birligiga jiddiy putur etkaza olmagan. Siyosiy chegaralar bo'lishiga qaramasdan uch davlat tarkibidagi aholi o'zaro doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar.

Tarixiy manbalarda keltirilgan 92 o'zbek urug'lari nafaqat O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o'z bek urug'lariga O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan tub yerli aholi, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida, milodimizning birinchi ming yilligi davomida, mo'g'ullar istilosi davrida hamda Shayboniylar davrida kirib kelgan etnik guruhlar ham kiradi. Shuningdek, O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan chig'il, yag'mo, usun, tuxsi, xalaj, qipchoq va turkmanlar kabi etnik guruhlar ham garchi X-XII asrlarda va undan keyingi davrlarda bu yerda o'rnashganliklariga qaramasdan 92 o'zbek elati tarkibiga kirganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining XIX asrning ikkinchi yarmi XX boshlarida hayoti rivojlanish bosqichlari chor Rossiyasining mustamlakachiligi davri bilan bog'liq holda kechadi. Keyinchalik mintaqada sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, 5 ta milliy respublikalar tashkil etildi. Oqibatda aholi asrlar davomida birgalikda yashab kelgan tarixiy makon suniy ravishda bo'lib yuborildi. Mintaqa xalqlarining assimlyatsiya, kansuldatsiya jarayonlariga jiddiy ta'sir o'tkazildi. Keyinchalik «Sovet xalqi» nomli yagona etnik birlikni yaratish xaqidagi nazariyani amalga oshirish borasida siyosat yuritildi. Biroq, bu urinishlar o'zbek xalqining milliy-etnik qiyofasiga, mentalitetlariga rahna sola olmadi.

Endi «O'zbek» atamasi va uning iste'molga kirib kelishi hamda keng yoyilishi xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, bu masala ham ma'lum ma'noda printsipial ahamiyatga molikdir. Negaki, bu nom zamirida butun bir xalqning tarixiy kechmishi, taqdiri bilan bog'liq holatlar kuzatiladi. Sobiq sovet tarixshunosligida, shuningdek, ayrim qo'shni davlatlarning mualliflari qarashlarida ham «o'zbek» atamasini o'zbek halqining kelib chiqishi bilan atayin bog'lashga urinish hollari kuzatiladi. Bu esa mazkur nozik masalani chalkashlashtirish yoxud suvni loyqalatishdan boshqa narsa emas, albatta. Yurtboshimiz o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida mana bu so'zlarni bejiz ta'kidlab o'tmagan: **«O'zbek nomi qachon paydo bo'lgan? Sovet tarixshunoslarining yozishicha, XVI asrda bizning zaminimizni Dashti Qipchoq xonlari ishg'ol qilgandan keyin o'zbek nomi paydo bo'lgan emish. Axir biz Movarounnahr deb ataydigan ikki daryo oralig'ida ungacha ham xalq yashaganku! Yoki bu xalq boshqa millat bo'lganmi? Mantiq qani bu yerda**»[1]

Bu keskin va haqqoniy aytilgan so'zlarning ma'no, mazmunini chaqar ekanmiz, millatimiz haqidagi bor haqiqatni bilishimiz, uning nomi bilan mazmun-o'zagi o'rtasidagi tafovutni aniq-tiniq tasavvur etishimiz nechog'lik muhim ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ma'lumki, xalqimizning «o'zbek» atamasi bilan nomlanishi XVI asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu hol asosan yurtimiz hududlariga Dashti Qipchoqdan katta oqim sifatida kirib kelgan o'zbek degan umumiy nomni XIV-XV aslarda qabul qilgan urug'lar va qabilalar hayoti bilan bog'liq yo'sinda yuz bergan. Negaki, ular bu zaminga kelib joylashib, mahalliy aholi qatlami tarkibini boyitish, uning yuksak ma'naviyati, boy asriy qadriyatlarini o'zlashtirish barobarida o'zlarining umumiy o'zbek nomini asta-sekinlik bilan shu hududda yashagan barcha aholiga ham nisbat bera bordilar. Bu esa «o'zbek» atamasining shu davrdan e'tiboran butun Movarounnahr bo'ylab keng yoyilishiga,

[1] И.А.Каримов. Асарлар, 7-том, 143-бет.

bu yerdagi xalqning shu nom bilan atalishiga bois bo’ldi. Biroq shu narsa ravshanki, o’zbeklar, avvalo, qaysi qabilaga mansub bo’lsalar shu nomni uzoq vaqt saqlab qolganlar. Hatto XX asrga qadar ham Turkiston o’lkasida ajdodiy-qabilaviy nomlar saqlanib qolganligi buni tasdiq etadi. Ammo bu degani o’zbek xalqining kelib chiqishi faqat XVI asrda yuz bergan, degan ma’noni aslo anglatmaydi. Bu yerda gap faqat «o’zbek» iborasining etnik nom sifatida paydo bo’lgan vaqt xususida borayapti. Vaholanki o’zbek xalqi o’z mazmun, mohiyati, teran tomirlari bilan Turonzamin hududida juda qadimiy zamonlardan buyon yashab kelganligi, boy tarix, olamshumul ahamiyatga molik ma’naviyat durdonalarini ijod etganligi hammaga ma’lumdir. Shu ma’noda Prezidentimizning: «**Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz**»[1], deb aytgan so’zlari alohida ahamiyat kasb etadi.

«O’zbek» atamasi va uning kelib chiqishi, yoyilishi to’g’risida fikr yuritganda, bu masalaning yana bir qator muhim jihatlariga e’tibor qaratish kerak bo’ladi. Negaki, bu ham o’sha xalqning ma’lum ma’noda o’ziga xos xususiyatlarini, tabiati, mazmuni, mohiyatini tushunishda asqotadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda «O’zbek» atamasining kelib chiqishi, uni xalqimizga nisbat berilishi xususida ham tariximizda turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjuddir. Zero, ularni ko’zdan kechirish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va aniqlashtirish orqali ham xalqimiz tarixiga oid ko’p narsalarni oydinlashtirish, o’z tarixiy xotiramizni yanada boyitib borishimiz mumkin bo’ladi. Ma’lum bo’lishicha, «O’zbek» iborasi XIII-XIV asrlarda yashab o’tgan o’sha davrning mashhur tarixchilari Juvayniy va Rashididin asarlarida ham uchraydi. Mashhur bobokalonimiz, buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug’bekning «To’rt ulus tarixi» asarida ham «O’zbekiya», «O’zbeklar mamlakati» degan jumlalarga ko’zimiz tushadi. Bunda, bizning nazarimizda, Dashti Qipchoqda yashagan urug’, qabilalar yashagan joy, hudud nomlari ko’zda tutilgan bo’lsa kerak.

Ayrim mualliflar (X.Vamberi, G.Xovors, M.P.Pelo) Dashti Qipchoqda ko’chib yurgan turk-mo’g’ul qabilalarining bir qismi o’zlarini erkin tutganliklari sababli «o’zbek», ya’ni «o’z-o’ziga bek», «xo’jayin» deb atagan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, Xilda Xukxem) «o’zbek» etnonimini Oltin O’rda xoni O’zbekxon (XIV asr) nomi bilan bog’laydi. Boshqa yana bir guruh olimlar (V.V. Grigorev, A.A.Semyonov va B.Axmedovlar) esa, Oq O’rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da yashagan turk-mo’g’ul qabilalariga «o’zbeklar» degan nom berilgan degan fikrni bildiradilar. «O’zbek» atamasi O’g’iz qabilalari tarkibidagi Uz urug’i nomidan olingan, degan fikrlar ham mavjud.

Xullas, «O’zbek» atamasini dastlab Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy qabilalar qabul qilgan nom bo’lib, bu qavm, elatlarning yurtimizga o’rnashishi, tubjoy aholi odamlari bilan taqdiran qo’shilishi jarayonida «O’zbek» atamasi Turkistonda yashagan aholining umumiy nomiga aylanadi.

### 3. *Mustaqillik davrida O’zbekistonda milliy totuvlikning ta’minlanishi*

O’zbekiston milliy istiqlolining qo’lga kiritilishi o’zbek xalqining tarixiy taqdirida tub burilish yasash barobarida, uning tom ma’nodagi emin-erkinligi, ozodligi va mustaqilligini ta’minlab, ijtimoiy taraqqiyotning keng, istiqbolli yo’llariga olib chiqdi. Xalqimiz o’zgalarga tobelik va qaramlik asoratidan butunlay xalos bo’lib, o’zligini tanib, qaddini tiklab, jahon hamjamiyati tomon yuz tutdi. Uning tomonidan ko’p asrlar davomida yaratilgan bebaho ma’naviy qadriyatlar, asori atiqalar, moddiy va ma’naviy boyliklar barcha-barchasi yurt fuqarolarining umumiy mulkiga aylandi.

Mustaqillik ayni paytda milliy munosabatlarga ham bevosita daxl etib, bu sohadagi muammolar echimini muvaffaqiyatli hal etish yo’llarini belgilab berdi. O’zbekiston ko’p millatli mamlakat bo’lganligi bois ham milliy masalani to’g’ri, oqilona hal etish uning demokratik rivojlanish yo’lidan ilgarilab borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ustiga respublikada

[1] И.А.Каримов, Асарлар, 7-том, 144-бет.

ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligi, fuqarolar totuvligi, bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarining maromi ko'p jihatdan milatlararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, ularni aniq maqsadlar sari yo'naltirishga bog'liqdir. Mustaqil O'zbekiston hozirgi murakkab o'tish davrining barcha qiyinchiliklarini asta-sekin bartaraf etib, ilgarilab borar ekan, bunda sobiq sovetlar tuzumidan meros bo'lib qolgan milliy munosabatlar masalasidagi ko'plab ziddiyatli, muammoli masalalarni hal etish yo'lidan bormoqda. Ma'lumki, mustabid sovet hokimiyatining milliy siyosati shu darajada bir yoqlama yo'nalishda olib borilganki, millatlarning o'ziga xoslik, milliylik jihatlari muttasil inkor etilib kelingan. Xususan, o'zbek xalqining ko'p asrli asl ma'naviy qadriyatlari, islomiy diniy e'tiqodi, milliy udumlari, an'analari, marosimlarining cheklanib, tahqirlanib kelinganligi, ko'hna boy tarixi soxtalashtirilib, buzib talqin etilganligi, milliy tilining doimiy kamsitilganligi va shu singari salbiy holatlar buning yaqqol ifodasidir.

Xususan, 1924 - yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi va buning orqasida yagona Turkiston hududining bo'lib tashlanishi, bu yerda asrlar davomida birga yashab kelgan qon-qardosh xalqlarning bir-biridan ajratilishi hamda ular orasiga sun'iy to'siqlar tortilishi - bular sovetlar yuritgan shovinistik siyosatning klassik namunasi edi. Binobarin, 1924 - yilda tashkil topgan O'zbekiston respublikasi qariyb 70 - yil davomida hukmron Markazga qo'l-oyog'i bilan bog'lanib, uning izmida yashab keldi.

Ittifoqdosh respublikalar milliy manfatlarining muttasil inkor etilishi, ularning suveren haq-huquqlarining poymol qilinishi, ularga taalluqli hamma narsaga ittifoq davlatining hukumronligi oxir-oqibatda bu qizil saltanatni tarixning kutilmagan sinov-sinoatlariga duchor etdi. SSSR hayotining so'ngi kezlarida uning turli milliy hududlarida, jumladan, Boltiqbo'yi, Gruziya, Ozarbayjon, Qorabog', Qozog'iston, O'zbekiston singari joylarda voqe bo'lgan qator yirik mojarolar, qon to'kishlar ko'p jihatdan milliy-etnik ziddiyatlarning kuchayib borishi negizida yuz berganligi tasodifiy emasdir. O'tgan asrning 80-yillar oxiri-90 - yillar boshida sodir etilgan Farg'ona, O'sh qonli voqealari, ularning mudhish oqibatlari ham ayni shu noto'g'ri, bir yoqlama yuritilgan siyosat natijasi bo'lgan edi. Bular pirovardida SSSR qudratini tanazzulga yuz tuttirgan, uni parchalanishga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo'lgan.

Binobarin, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, millatlar o'rtasida totuvlikni mustahkamlash, barcha millat va elat vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratish yo'lidan bormoqda. Milliy istiqlol arafasida (1989 - yil 21- oktyabrda) O'zbekiston yangi rahbari tashabbusi bilan o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va shundan e'tiboran uning iste'mol doirasining kengayishiga keng ufqlar ochilishi respublikamiz hayotida chinakam favqulodda ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Yurt mustaqilligining qo'lga kiritilishi esa ona tilimiz mavqei va nufuzini yuksakka ko'tarib, uni jahon xalqlarining erkin milliy tillari qatoridan munosib o'rin egallashini ta'minladi. Ayni chog'da milliy tariximiz va u bilan uzviy bog'liq teran ma'naviy sarchashmalarimizning yuzaga chiqishi, tarixiy haqiqatning qaror topishi, o'zlikning anglanishi o'z navbatida o'zbek xalqining millat sifatidagi muhim, o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, uning ertangi porloq istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlaboq respublikada istiqomat qiluvchi barcha millat va elat kishilarining milliy tili, madaniyati, adabiyoti, sa'nati, urf-odatlari, rasm-rusmlari, an'analarini avaylab saqlash, ularni jonlantirish va yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mazkur elat va xalqlarning hayotiy masalalarini amalda hal etish va bu ishlarni yuksak darajada tashkillashtirish uchun milliy-madaniyat markazlari tuzilib, faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirda yurtimizda yuzdan ziyod shunday markazlar mavjud bo'lib, ular bu borada to'laqonli ish yuritmoqdalar.

Milliy madaniyat markazlari va ularga uyushgan madaniyat, adabiyot sa'nat va ilm-fan namoyandalari, faollar ishtirokida o'sha xalq va elatga xos milliy udumlar, marosimu bayramlar, qiziqarli mavzularga bag'ishlangan kechalar, uchrashuvlar, turli xil anjumanlar muntazam, an'anaviy tarzda o'tkazilib borilyapti. Bu esa shu xalq, elat odamlari hayotining jamiyatda to'la mazmunli kechishigagina samarali ta'sir ko'rsatib qolmay, ayni zamonda ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining oshishiga, ma'naviy-madaniy hayot ne'matlaridan to'la bahramand

bo’lishiga ham muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, mavjud milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ibratga loyiq ish tajribalarini to’plash, umumlashtirish maqsadida Toshkentda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgan. Uning faoliyati ham respublikada yashovchi barcha xalqlar, elatlarning o’zaro do’stlik, qardoshlik aloqalarini bundan buyon ham jipslashtirib, ularning madaniy va ma’naviy hayotini yaxshilash, takomillashtirib borish, O’zbekiston diyorining gullab-yashnashi va ravnaqiga munosib hissa qo’shishga yo’naltirilgan.

Hozirda respublikamizning ko’pgina maktablarida va boshqa ta’lim tizimlarida o’qishlar rus, qozoq, tojik, qirg’iz, qoraqalpoq va boshqa tillarda tashkil etilgan. Ular uchun har yili etarli miqdorda o’quv darsliklari, qo’llanmalar nashr etilib, o’quvchilarga etkazib berilmoqda. Shuningdek, rus, tojik, qoraqalpoq va boshqa tillarda vaqtli matbuot nashrlari chop etilmoqda. Turli tillarda radio, televidenie eshitirishlari va ko’rsatuvlari muntazam namoyish etib borilmoqda.

O’zbek xalqining o’z davlat mustaqilligini qo’lga kiritishi, demokratik xuquqiy davlat asoslarining yaratilishi, xalqimizning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o’zini to’la-to’kis namoyon etayotganligi, ko’p asrlik boy tarixi tilga kirganligi, milliy tilining yuksak mavqega ko’tarilgani, betakror ma’naviyati, buyuk ijodkorlik salohiyati e’tirof topgani – bular uning to’la ma’noda millat sifatida shakllanib, yuksalib borayotganligiga asosli dalolatdir. Zero, mana shu muhim hollarni ko’zda tutgan holda Yurtboshimiz ham «millatimiz hozir shakllanyabdi», deb bejiz ta’kidlab o’tmagan.

## Sinov savollari

1. Qanday omillar fuqarolarimizda o’z ajdodlari, nasl-nasabi kimlar ekanligini bilish tuyg’ularini uyg’otadi?
2. Urug’ qanday birlik sanaladi?
3. Qabila deganda nimalarni tushunasiz?
4. Massagetlar kim, ular haqida tarixiy manbalarda qanday fikrlar bildirilgan?
5. Saklar kim, ular haqida tarixiy manbalarda qanday fikrlar bildirilgan?
6. Milodimizning VI-VII asrlarida O’rta Osiyoda sodir bo’lgan etnik jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?
7. IX-XII asrlarda O’rta osiyolik tub aholi tarkibiga qanday etnik guruhlar kelib qo’shildi?
8. O’zbek xalqi qachon shakllandi?
9. XVI asrlarda O’rta Osiyoda yuz bergan etnik jarayonlar haqida so’zlang.
10. «O’zbek» atamasining paydo bo’lishini bilasizmi?

# 4-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

## REJA:

1. Eftaliylar sulolasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O‘rta Osiyo halqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. O‘rta Osiyo halqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida.

## Adabiyotlar:


1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. -T.: O’zbekiston, 1994. 52-73 betlar.
2. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi -T.: Sharq. 2000, 72-90-betlar.
4. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. -T.: Meros, 2002, 85-107 –betlar.
5. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.
6. Usmonov Q, Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. 1 qism. - T.: Moliya, 2000, 75-94- betlar.


### 1.Eftaliylar davlatining vujudga kelishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Eftaliylar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Rim va Vizantiya tarixchilari Martselin (IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofan Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favst Buzand (IV asr), xitoy solnomalaridan Bey-shi (VI asr) bergan ma’lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftaliylar Xitoy manbalarida «i-da», «e-da», armanlarda idal, xeptal, arablarda haytal, Suriya va lotin manbalarida eptal, abdal deb nomlanadi. Bunday turlicha atamalar har bir til va yozuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Rus va Vizantiya tarixchilarining aksariyati eftaliylarni turkiy qabila-massagetlarning so‘nggi bo‘g‘inidan kelib chiqqan deb fikr bildiradilar. Muqaddas «Avesto»da esa ular tatlar nomi bilan tilga olinadi. F.Vizantiyskiy esa eftallar nomini V asrning ikkinchi yarmida podshohlik qilgan Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog‘laydi. Biroq nima bo‘lganda ham shu narsa faktki, eftaliylar Turkiston mintaqasida yashab kelgan turkiy qavmlardandir.

Eftaliylar hukmdori Vaxshunvor Eftalon 457 yilda Chag‘aniyon (hozirgi Surxon erlari) va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundiradi. So‘ngra Eftaliylar Sug‘dda ham mustahkamlanib oladi. Ular ko‘p o‘tmay o‘z hududiy erlarini kengaytirshda davom etib, Qobul va Panjob vodiysini, Kuchu, Qashqar va Xo‘tonni (Sharqiy Turkiston) zabt etadilar. Xullas, ular avvalda Kushonlar saltanati egallagan hududlarni birin-ketin qo‘lga kiritib, O‘rta Osiyoda yirik davlatni barpo etadilar. Eftaliylar bir necha bor o‘zlarining g‘arbiy-janubdagi qo‘shnisi va eng kuchli raqibi Eron sosoniylari bilan ham urushlar olib boradilar. Xususan Eron shohi Peroz bilan bo‘lgan urushlarda ularning qo‘li baland kelib, Eron hukmdori ikki bor asirlikka tushadi. Katta to‘lov va majburiyatlar evaziga arang qutilgan Peroz o‘g‘li Kovadni uzoq muddat eftaliylarga garovga berishga majbur bo‘ladi. Perozdan so‘ng hokimiyatga kelgan Kovad (488-551) davrida ham Eron eftaliylarga xiroj to‘lashga majbur bo‘lgan. V asr boshlariga kelib Eftaliylar davlati shu qadar kuchayib ketdiki, ular 502-yilda Vizantiyaga ham yurish qilib unga katta talofat etkazadilar. 506 yilda ikki o‘rtada tuzilgan sulx shartnomasi bo‘yicha eftaliylar Vizantiyadan katta miqdorda o‘lja olib qaytganlar. Kovadning o‘g‘li Xusrav I Anushirvon ham 554 yilga qadar

eftaliylarga har yili xiroj to‘lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftaliylarga bergan kuchli zarbasi natijasidagina Eron eftaliylar ta’siridan qutilishga muvaffaq bo‘lgan.

Eftaliylar davrida davlat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan, biroq taxt otadan bolaga qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Mamlakatni markaziy hokimiyat noiblar orqali idora etgan. Davlatni boshqarish qonun-qoidalari bo‘lgan. Mamlakat lashkarini asosan otliq askarlar tashkil etgan.

Eftaliylar davlatida asta-sekin erga egalik qilish tartibida yangicha munosabatlar shakllanib bordi. Bu davrga kelib sinfiy tabaqalanishning keskin kuchayishi orqasida ayrim mulkdorlarning mavqei ko‘tarilib, ular jamoaning oddiy a’zolarini o‘z qo‘l ostigi kiritib, mulklarini ular hisobiga kengaytirib borganlar. Bu xil mulkdorlar dehqonlar deyilgan. O‘zining chek eridan ajralib, dehqonlar ta’siriga tushib, ularning erlarida ishlashga majbur bo‘lgan kishilar esa kadivarlar, ya’ni ijaradorlar deb atalgan. Shuningdek erkin jamoa asosida dehqonchilik qiluvchi aholi - kashovarzlar ham mavjud edi. Shu tariqa, kadivarlar boy dehqonlar foydasiga ma’lum to‘lov va majburiyatlar asosida ishlab berganlar. Shu bilan birlikda bu davlatda hali patriarxal-qulchilik munosabatlarining qoldiqlari ham mavjud edi. Chunonchi, boy dehqonlar mulklarida juda ko‘plab qullar bo‘lganligi, ulardan turli yumushlarda foydalanilganligi tarixiy manbalarda tilga olinadi

Bu davrda yangi tipdagi ko‘rkam va gavjum shahar-qal’alar vujudga keladi. Xorazmdagi Berkutqal’a, Bozorqal’a, Toshkentdagi Oqtepa shular jumlasidandir. Bir necha oilalardan tashkil topgan mazkur manzilgohlar qalin paxsa devorlar bilan o‘ralgan. Ularda hukmron tabaqa kishilariga xos hashamatli, bezakli ark-qasrlar, ko‘p xonali binolar bilan birlikda oddiy fuqarolarga mos qilib qurilgan odmiroq turar joylar ham o‘rin olgan. Eftaliylar poytaxti Poykand o‘z davrining eng ko‘rkam, obod shaharlaridan sanalgan. Bu erda hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish ishlari ancha rivojlangan. Shahar Buyuk ipak yo‘lida joylashganligidan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma-xil mollari bilan kelib savdo qilganlar. Buning uchun shaharda ko‘plab bozoru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo‘lgan. Mamlakatning savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, Sug‘diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan. Eftaliylar Eron, Hindiston, Xitoy va uzoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg‘in savdo aloqalarida bo‘lganlarki, bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog‘da o‘zaro yaqinlashuvlarida ham muhim rol o‘ynagan.

Eftaliylar davri madaniyati xususida gap borganda shuni qayd etish lozimki, bu paytlarda o‘lkada juda ko‘plab moddiy va ma’naviy yodgorliklar bunyod etiladi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o‘ymakorlik va ganjkorlik namunalari - bular ajdodlarimiz badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqal’a to‘g‘risida ma’lumot keltirib o‘tish joizdir. Uning tuzilishi to‘g‘ri burchakli bo‘lib (500x 360 m), gumbazsimon yo‘lakli va burjli mudofaa devori bilan o‘ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxonaga tomon asosiy ko‘cha o‘tgan. Ko‘ndalang tushgan ko‘chalar shaharni 10 ta mavzega bo‘lgan. Tuproqqal’aning shimoliy-g‘arbiy qismida maxsus ko‘tarma supa ustiga xom g‘ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turar-joy, xo‘jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo‘lgan. Qal’aning janubiy-sharqiy burchagidagi 4ta xonada teri va yog‘ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topiladi.

Bu davrda o‘lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o‘rtasida keng tarqalgan sug‘d yozuvi bilan birlikda undan bir qadar farq qiluvchi xorazm va eftaliy yozuvlari ham qo‘llanilgan. Bu yozuvlarda ajdodlarimizning tarixi, taqdiriga oid ko‘plab qimmatli bitiklar, ma’lumotlar bayon qilingan. Shuningdek eftaliylar davri qo‘shiqlari va eposlari Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o‘z ifodasini topgan. Eftaliylarda kishilar turli dinlarga e’tiqod qilganlar. Eng keng tarqalgan din-zardushtiylik bilan bir qatorda budda dini ham ancha rasm bo‘lgan. Bundan tashqari bu erdagi mahalliy aholi avvaldan e’tiqod qilib kelgan

Vaxsh, Mitra, Anaxita (Quyosh) xudolariga ham sig‘inganlar. Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan «Navro‘z» va unga xos marosimlar Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va aholi turar joylarida keng bayram qilingan. Eftaliylarning urf-odatlarida patriarxal-urug‘chilik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan. Chunonchi, Xitoy manbalarida aytilishicha, ularda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo‘lgan. Shuningdek hukmron tabaqa vakillarida esa buning aksi o‘laroq ko‘p xotinlilik hukm surgan. Agar boy-badavlat oila vakili vafot etgan bo‘lsa, uni barcha rasm-rusumlar bilan, tantanali suratda tosh daxmaga, oddiy kishilar murdasi esa tuproqdan yasalgan qabrga qo‘yilgan. Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari bo‘lib, ular zardushtiylik dininng muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etib borilgan. Xullas, Eftaliylar davrida o‘lkamiz odamlari o‘ziga xos boy madaniy va ma’naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo‘lishga harakat etganlar. Ayni chog‘da ular o‘zlaridan keyingi avlodlar uchun ham munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko‘plab noyob topilmalar, asori atiqalar guvohdir.

## 2. Turk xoqonligi. Xoqonlik davrida O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy rivoji.

Turkiy elatlarning keng sharqiy hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o‘zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko‘plab tarixiy manbalar tasdiq etadi. Mo‘’tabar Xitoy manbalari, mashhur «O‘g‘iznoma», Urxon-enasoy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg‘u, O‘g‘iz, To‘qqiz o‘g‘iz, O‘ttuz tatar, Karluq, Kitan, Tolis, Turk, Uyg‘ur, To‘qri (toharlar), Quriqan, Duba (tuba-tuva)va boshqalar yashardilar.

VI asr boshlarida Oltoyda siyosiy jarayonlar faollashadi. O‘sha paytda hozirgi Mo‘g‘uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. Sharqiy Turkiston, Farg‘ona, Sug‘diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron hududlarida esa eftaliylar hukmronlik qilardi. Manbalarda ta’kidlanishicha Xitoyning shimoliy qismida hukmronlik qiluvchi Vey sulolasi (386-558) xonadonlarining kelib chiqishi ham turkiy tilli xalqlarga borib taqalardi. Shunday qilib, VI asr boshlarida Uzoq Sharqdan Kaspiy dengizgacha bo‘lgan hududlarda hokimiyat tepasida turkiy sulolalar turardi.

VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug‘ining mavqei ko‘tariladi. Ashin urug‘idan Asan va Tuu 460-545 yillarda boshqa urug‘larni o‘zlariga bo‘ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar.Tuu o‘g‘li Bumin Tele qabilasini ham bo‘ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelik-dan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xoni qo‘shinlarini engib, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi. Bumin 551 yilda yangi davlat - Turk hoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O‘tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug‘i ortib borgan. U ko‘p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o‘lpon tariqasida yuz bo‘lakdan ipak mato berib turishga majbur bo‘lgan. 552 yilda Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning katta o‘g‘li Mug‘anxon (553-572) o‘tiradi. Mug‘anxon 558 yilda jo‘janlarga so‘nggi bor qaqshatqich zarba berib, o‘z davlati hukmronligini Tinch okeanigacha bo‘lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi Istami (unga «Yabg‘u» - bahodir unvoni berilgan edi) bo‘lsa, bu davrda xoqonlik hududini g‘arbga tomon kengaytirib, Ettisuv, Qashqar, Ural, Volga bo‘ylari va boshqa hududlarni egallaydi.

563-567 yillar davomida Istami yabg‘u qo‘shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib uning hududlarini, ya’ni hozirgi O‘rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan erlarni egallashga muvaffaq bo‘ladi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O‘rta Osiyo erlarini ishg‘ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Dastlab xoqonlik Eron bilan yaxshi qo‘shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intiladi. Eron shohi Xusrav 1 Anushirvonga turk malikasi uzatiladi, Eronga elchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffiyatsiz chiqqach, Eronning turklar bilan murosaga bormasligi, uning qat’iy dushmanligi ro‘yirost ma’lum bo‘ladi. Buning boisi Eron shohining O‘rta Osiyo hududlariga da’vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor

xoqonlikning Eron  bilan urushlar olib borishiga sabab bo‘ladi. Istami qo‘shiqlari Eron shohi Xisrav I ni engadi, Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillasi hajmida tovon to‘lash majburiyatini olishga majbur bo‘ladi. Mug‘anxon  va uning avlodlari g‘arbda Qora dengizgacha bo‘lgan hududlarni zabt etib o‘zlariga bo‘ysundiradilar.

Turk xoqonligi 568-569 yillarda o‘sha davrning qudratli davlati-Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini  o‘rnatishga intilib, so‘g‘d  savdogari Maniax boshchiligidagi elchilarni u erga yuboradi. Elchilar imperator Yustinian II qabulida bo‘ladi. Shundan so‘ng Vizantiyannig Zemarx  boshliq elchilari  xoqonlik davlatiga  keladi. Bu esa shu davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan deyishga asos beradi.

Turk hoqonligida boshqaruv tartiblari haqida gap borganda shuni ta’kidlash kerakki, Turk hoqonlari O‘rta Osiyo hududlariga hukmronlik qilsa-da, biroq o‘zlari bu hududga ko‘chib kelmadilar. Ular Ettisuv va boshqa hududlardagi markaziy  qarorgohlarida qolib, bo‘ysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o‘lponlar va to‘lovlar bilan kifoyalanganlar.  Bundan ko‘rinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki  siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashardi. Bu narsa ko‘proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Xitoy manbalarida ta’kidlanganidek, Zarafshon, Amudaryo  va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mustaqil hokimlik-davlatlar mavjud bo‘lgan: Samarqand, Ishtixon, Maymurg‘, Kesh, Nahshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari o‘zlariga  ancha mustqil bo‘lganlar. Buxorxudotlar zarb etgan tanga pullar keng muomalada bo‘lgan. Shu bilan birlikda bu davlat hokimliklari o‘rtasida o‘zaro adovat, kurash, ichki ziddiyatlar to‘xtovsiz bo‘lib turgan. Bu esa mahalliy aholi hayoti, turmushini nochor ahvolga duchor etgan. 585-586 yillarda Buxoroda zodagon dehqon va boy savdogarlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Unga Obro‘y boshchilik qiladi. Hoqon Qora-cho‘rin qo‘shinlari qo‘zg‘olonni bostirib, qo‘zg‘olonchilarni qattiq jazolaydi.

VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchayib  ketgan Xitoy O‘rta Osiyo hududlarini ham o‘z qo‘l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko‘tarib, sharqiy Turk xoqonligini yangidan tiklaganlaridan so‘ng va bu davlat  Xitoy uchun kutilmagan xavf-xatarni keltirib chiqargach, endilikda Xitoy O‘rta Osiyoga bo‘lgan o‘z da’vosidan voz kechib, butun diqqatini Tibetga qaratadi. Bu davrda O‘rta Osiyo hududlarida   Turk xoqonligi ta’siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahaliy hokimliklar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar, er-mulk uchun o‘zaro kurashlar ham sabab bo‘ladi. Bu esa pirovard oqibatda bu hududlarning arab istilochilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo‘ldi.

Endi xoqonlik davrida  Turonzaminda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, shu narsa ayon bo‘ladiki, Turk xoqonligining sharqiy erlaridan farqli o‘laroq bu hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Gap shundaki, sharqiy hududlarda yashagan ko‘pchilik ko‘chmanchi turklarda urug‘-qabilachilik munosbatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan.  Urug‘-qabilaning nomdor vakillari «beklar» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi - «Qurultoy» boshqargan. Katta patriarxal oilalar-xo‘jaliklarning boshliqlari «Kadxudolar» deb atalgan. O‘rta Osiyo erlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O‘lkaning Farg‘ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko‘plab suv ayirg‘ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan. Farg‘ona va Sug‘dda aholining bir qismi tog‘-kon ishlari bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Bu erlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek Iloqda qo‘rg‘oshin, kumush, Shaxrisabzda esa qizil tuz qazib olingan.

Xoqonlik davrida shaharlar hayoti xiyla rivoj topgan. Xitoy manbalarida tilga olingan Xorazm, Farg‘ona, So‘g‘d, Chu vodiysidagi shaharlar; shuningdek Tuproqqal’a, Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Toshkent, Isfara, Qubo (Quva), Koson va boshqalar o‘sha davrning hunarmandchilik va savdo-sotiq  tarmoqlari gurkirab rivojlangan shaharlari bo‘lgan.  Buyuk ipak

yo‘li bu shaharlarning xalqaro savdoda faol ishtirok etishini ta’minlagan. O‘rta Osiyolik qo‘li gul hunarmandlar, to‘quvchilar, zargarlar, miskaru temirchilar, ko‘nchiyu qurolsozlar ishlab chiqargan nafis, xaridorgir buyumlar, asbob-anjomlar dunyoning turli nuqtalariga yuborilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan rangli shishalar, qimmatbaho qog‘ozlar, zotdor otlarga xalqaro miqyosida talab katta bo‘lgan. Bu davrning o‘ziga xos muhim o‘zgarishlaridan yana biri- bu O‘rta Osiyo kulolchiligi hunarining yuksak san’at darajasida rivojlanganligidir.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma’naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar baxsiga sabab bo‘lgan Turk-ruin, Urxon-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma’lum bo‘ldi.

Turonzaminda turkiy yozuv bilan bir qatorda so‘g‘d va xorazm yozuvlari ham keng qo‘llanilgan. So‘g‘d yozuvi 22 ta belgidan iborat bo‘lib, chapdan o‘ngga qarab yozilgan. Shaharlarda so‘g‘d-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo‘lganligi haqida Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk» (XI asr) asarida qayd etib o‘tgan. Bu yozuvlarda ulug‘ ajdodlarimizning katta tarixi, boy madaniyatiga oid mislsiz ma’lumotlar aks etgan. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, o‘sha davrlarda ulug‘ ajdodlarimiz o‘z navqiron nasllari to‘g‘risida ham muttasil qayg‘urganlar. Shu boisdan o‘smir 5 yoshga to‘lishi bilan uni ilm olishga yo‘llab, dastavval, xat-savdo va hisob-kitobni o‘rganishga jalb etganlar. Bola o‘smir-balog‘at yoshiga etkach esa uni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o‘rganish uchun xorijiy ellarga yuborganlar.

Turk xoqonligida yashagan xalqlarning diniy tasavvurlari ham turlicha bo‘lgan, ko‘p xudolilik xukm surgan. Bu esa ularda turli xil osmoniy va er jismlariga-quyosh, oy, er-suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig‘inishlikni keltirib chiqargan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Hozirda «Tangri» iborasi Alloh nomiga nisbat sifatida qo‘llaniladi.

O‘rta Osiyo xalqlari orasida zardushtiylik dini bilan bir qatorda ko‘pgina joylarda buddizm, monizm yoki xristianlik dinlariga e’tiqod qilishlik keng yoyilgan. Bu narsa qadimgi ajdodlarimizning tor, biqiq holda hayot kechirmasdan balki, boshqa ko‘plab qavmlar, elatlar bilan bog‘lanib, aralashib, ma’naviy jihatdan yaqinlashib hayot kechirganliklaridan dalolat beradi. O‘rta Osiyo xalqlari orasida tasviriy san’at o‘ziga xos uslubda rivojlangan. Jumladan, Varaxsha xarobalaridan topilgan saroy binolari devorlari, peshtoqlariga bitilgan rang-barang, bir-biridan nafis va jozibador rasm-suratlarni (qurollangan yoxud ov qilayotgan jangchi askarlar, oq fillar, tuyalar, otlar va boshqa xil hayvonlar, parrandayu darrandalar v.x.z.) ko‘zdan kechirar ekanmiz, bunda ajdodlarimizning noyob iste’dodi va aql-zakovatiga tan beramiz va o‘zimizda g‘urur tuyamiz.

Shunday qilib, Turk xoqonligi o‘z davrida eng yirik davlat edi. Turon xonlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan munosabatlarda uzoq yillar o‘z hukmini o‘tkazganlar, Xoqonlik davri moddiy va ma’naviy madaniyati, uning nodir namunalari Turonzamin xalqlarining to‘laqonli turmush tarzini o‘ziga xos yo‘sinda aks ettirib qolmasdan, ular bobokalonlarimiz dahosining teranligidan, ularning yuksak ijodkorligi, izlanuvchanligidan ham shahodat beradi.

## 3. O‘rta Osiyo xalo‘lari arablar istilosi va hukmronligi davrida.

O‘rta asrlar dunyosida juda katta iz qoldirgan, Mag‘rib va Mashriqning ko‘plab davlatlarini o‘ziga bo‘ysundirib, qudratli saltanat darajasiga ko‘tarilgan Arab xalifaligi o‘zining ijtimoiy- tadrijiy taraqqiyoti davomida murakkab, ziddiyatili tarixiy jarayonlarni bosib o‘tgan. Eng muhimi, uning vujudga kelishi rivojlanish sari yo‘l tutishi ham g‘oyatda ziddiyatli alg‘ov-dalg‘ovli kechgan. Buning boisi shuki VI asrning o‘rtalariga qadar Arabiston yarim orolida

yashagan qabila, urug‘larning hayot tarzi qoloq bo‘lib, ularning mutlaq ko‘pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukm surgan. Ko‘chmanchi badaviy oilalari, urug‘lari o‘z chorva mollari uchun er-suv, o‘tloq qidirib keng sahrolarni kezib yurganlar. Faqatgina yarim orolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda ahvol birmuncha boshqacharoq bo‘lib, bu hududlarda arab qabilalari asosan o‘troq hayot kechirgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa Hijozning bosh shahri - Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarining turli mintaqalar bilan bog‘langanligi, savdo-tijorat va hunarmandchilik ishlarining kuchayib borishi pirovardida bu hududning har jihatdan mavqeini ko‘taribgina qolmay, shu bilan birga uning tarqoq qabila, urug‘larini birlashtirish, markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi etakchilik o‘rnini ham tayin qilib bergan. Xususan Makka aholisi tevaragida ko‘chmanchi arab qabilalarining birlashuvi jarayoniga turtki bergan yana bir muhim omil-bu shu erlik quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘idan chiqqan payg‘ambarimiz Muhammad Alayhi vassalam nomi bilan paydo bo‘lib, keng yoyila boshlagan islom dini va ta’limoti bo‘ldi. Gap shundaki, o‘zida yakka xudolilik g‘oyasini mujassamlashtirgan, xalqlarni birlik, ahillik, birodarlik, hamjihatlik, o‘zaro mehr-muruvvatlik, do‘stlik singari olijanob fazilatlarga da’vat etuvchi islom g‘oyalari har qanday to‘siqlarni, qiyinchiliklarni bartarf etib, turli-tuman arab qabila-qavmlari ongi, qalbiga yo‘l topib, ularni o‘zining yashil bayrog‘i ostiga birlashtira bordi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) hayotining oxirlariga kelib ko‘p sonli arab qabilalarining islom bayrog‘i ostida birlashuvi negizida Arab xalifaligiga asos solindi. Bu davlatning qudrati Payg‘ambarimiz noiblari-choriyorlari - Abu Bakr Siddiq (632-634), Hazrati Umar (634-644), Hazrati Usmon (644-656) va Hazrat Ali ibn Abu Tolib (656-661) davrida yanada ortib, hududiy chegaralari kengaya bordi. Xalifalik tarkibiga Shom, Iroq, Yaman va boshqa hududlar qo‘shib olindi. Ummaviylar davrida (661-750) Arab xalifaligi hukmronligi shu qadar katta hududlarga yoyildiki, uning tarkibiga G‘arbda Misr, shimoliy Afrika erlari, Andaluziya (hozirgi Ispaniya), shimoli sharqda Kichik Osiyoning katta qismi, Eron va O‘rta Osiyo, shimoliy-g‘arbiy Hind sarhadlari kirar edi.

Arab xalifaligining istilochilik yurishlarida O‘rta Osiyo erlarini bosib olish va uning xalqlarini itoatga keltirish, bu hududda islom dinini yoyish alohida o‘rin tutadi. Negaki bizning o‘lkamizdek boy-badavlat yurtni qo‘lga kiritish, unga hukmronlik qilish, behisob moddiy va ma’naviy boyliklarni tasarruf etish-bu arab hukmron doiralarining eng asosiy istilochilik maqsadlari bo‘lgan. VII asr o‘rtalariga kelib Eron hududlari egallangach, endilikda xalifalik e’tibori Xuroson va O‘rta Osiyo erlarini bosib olishga qaratiladi. Bunda Vatanimiz sarhadlarida arablar istilosi jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilganligini ta’kidlab o‘tmoq joizdir. Uning birinchi bosqichi - VII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, bu davrda ayrim arab lashkarboshlari qo‘shini Amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu erlarning boyliklarini talab, ma’lum o‘ljalarni qo‘lga kiritib, ortga qaytganligini kuzatish mumkin. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad- bu hududlarni yaqin kelajakda bosib olishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘lgan. Masalan, arab lashkarboshlari Ziyod bin Abu So‘fiyonning 666 yilda Marvga yurishi, 670 yilda uning o‘g‘li Ubaydulla ibn Ziyodning Amudan o‘tib Boykand, Romiton erlarini egallashi, so‘ngra Buxoro hukmdorini engib o‘z foydasiga sulx tuzib, katta xazina, boyliklarni qo‘lga kiritishi va nihoyat, 675-676 yillarda Said ibn Usmonning yangidan Buxoro va Samarqand tomon qo‘shin tortib kelishi va mahalliy hukmdorlarni engib, katta boylik va ko‘p sonli asirlar bilan Arabistonga qaytib ketishi-bular O‘rta Osiyo hududlarini egallash borasidagi dastlabki urinishlar edi.

O‘lkamizni bosib olishning ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi VIII asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Xususan, 704 yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O‘rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasi yuklanadi. Iste’dodli lashkarboshi Qutayba katta tayyorgarlik ko‘rgandan so‘ng 706 yilda Jayxun (Amudaryo)dan o‘tib Boykandni egallash sari harakatlanadi. Arablar mahalliy xalq qarshiligini engib shaharni qo‘lga kiritadilar, uning boyliklarini talaydilar. O‘lja olingan boyliklar tortib ko‘rilganda ularning og‘irligi 150 ming misqol (bir misqol-4,240gr) chiqadi. 707 yilga kelib Kesh, Naxshab ham og‘ir janglar bilan fath etiladi. 708-709 yillarda Qutayba qo‘shini Vardanze,

Romiton va So‘g‘d erlarini ishg‘ol qiladi. G‘oyatda usta diplomat va mohir sarkarda sanalgan Qutayba mahalliy hukmdorlarning o‘zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, bu hududlarni birin-ketin egallaydi. So‘g‘dning bosh shahri - Samarqand bosib olingach, qo‘lga kiritilgan oltin butlar va xazinalarning umumiy og‘irligi 50 ming misqolni tashkil etgan. Samarqand hokimi G‘urak (709-738) bilan tuzilgan Shartnomaga binan u arablarga yiliga 2200000 dirxam tovon to‘lashi, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o‘rnida berishi ko‘zda tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi - Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turar joy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o‘z joyidan mahrum etiladi. Samarqanddan so‘ng arab lashkari Buxoroni bosib olib uning boyliklarini talaydi. Biroq Qutayba tobe Buxoroni boshqarishni Buxoro xukmdori Xotun podshoning o‘g‘li Tog‘shoda izmida qoldiradi. Qutayba ibn Muslim 711-715 yillarda Toshkent, Xo‘jand, sharqiy Turkiston erlarini bosib olib, bu erlarda ham o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Shu tariqa, arablar Movarounnahr (daryo orti) deb nom bergan O‘rta Osiyo hududlari VIII asrning dastlabki o‘n yilliklari davomida bosib olindi. Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo‘ravonlik o‘tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma’naviy boyliklar, asori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan nodir kitoblar, qo‘l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko‘plab ibodatxonalari, muqaddas qadam jolari kunpaya- kun etildi. Ulug‘ bobokalonimiz Beruniy o‘zining «O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta’kidlaganidek, arablar mahalliy din, san’at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni o‘ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So‘ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiy hujjatlarni yo‘q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g‘ayritabiiy hol hisoblanib, ular ayovsiz yo‘q qilindi. Bularning o‘rniga arablar aholidan olingan mo‘may daromadlar, to‘lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjidu, madrasalar xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da’vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo‘lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulmu, asoratni kuchaytirish maqsadida turli xil soliq, o‘lponlarni joriy etdilar.

Arab xalifaligi xazinasiga to‘lanishi majburiy bo‘lgan markazlashtirilgan soliq turlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- xiroj, daromadning uchdan bir qismi miqdorida yig‘ilgan;
- ushr, davlat idora ishlari uchun daromadning 10 foizi miqdorida olingan;
- juzya-jon solig‘i, oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig‘ilgan;
- zakot, mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olingan. Aholidan olinadigan markazlashgan soliqlar hajmi daromadning qariyb yarmini tashkil etardi. Bundan tashqari aholiga mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklatilgan. IX asr arab tarixchisi Xo‘rdodbehning ko‘rsatishicha, xalifalikka faqat xiroj solig‘i hisobiga So‘g‘d viloyati 326 ming, Farg‘ona 280 ming, Shosh 607 ming, Ustrushon 50 ming dirham to‘lagan. Buxoro va Samarqandga belgilangan xiroj solig‘i miqdori bulardan ham ko‘p bo‘lgan, albatta. Shu boisdan istilochilar «kuch xirojda» deganlar. Mahalliy aholi ko‘zda tutilgan bu soliqlarni muntazam to‘lab borishga majbur etilgan. Bordiyu bunga qurbi etmasa o‘sha shaxsning eri, mulki tortib olinib, oilasi bilan ko‘chaga uloqtirilgan. Arablar dastlab juz’ya solig‘ini musulmon diniga kirmagan odamlarga joriy etganlar. Biroq keyinchalik hamma islomga kira boshlagach, bu soliq yana barcha erli aholiga bab-baravar solina bergan. Ayniqsa o‘lka aholisini islomlashtirish jarayoni g‘oyat murakkab kechgan. Arab ma’murlari bu sohada ko‘p hollarda zo‘rlik, zo‘ravonlik va kuch ishlatish yo‘li bilan mahalliy xalq vakillarini, islomni qabul qilishga undaganlar. Bunga ko‘nmaganlar yoxud bosh tortganlar esa shafqatsiz jazolangan. Ko‘p joylarda mahalliy kishilar noilojlikdan, qiyin-qistov asosida musulmonchilikni majburan qabul etgan bo‘lsalar-da, biroq arablar ko‘zdan nari ketishi bilan ular yana bu dindan qaytib o‘zlarining eski diniy aqida va marosimlariga amal qila berganlar. Hatto arablar ishonchini qozonib musulmon dinini tantanovor qabul qilgan Buxorxudot Tog‘shoda ham islom dinini xo‘ja ko‘rsinga yuzaki qabul qilgan bo‘lib, aslida zardushtiylik ahkomlariga amal qilgan. U vafot etganda ham ajdodlari diniy marosimlarga ko‘ra dafn etilgan. Bundan ko‘rinadiki, islom dini va uning ruknlarining mahalliy xalq orasida yoyilishi nihoyatda qiyin, murakkab kechgan.

Arablarning Vatanimiz hududida yurgizgan zo'ravonlik va mustamlakachilik siyosati, shubhasiz, erli aholining turli ijtimoiy qatlamlarining keskin norozililgiga sabab bo'ldi. Buning natijasida arablar hukmronligi davomida o'lkaning turli hududlarida xalq g'alayonlari yuzaga kelib, alangalanib bordi. 720-722 yillarda So'g'diyonada yuz bergan G'o'rak (Samarqand hukmdori) va Divashti (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo'zg'olon arablar hukmronlikligiga qarshi yo'nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo'lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g'azabga kelgan o'n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Xurosonning yangi tayinlangan va zolimligi bilan nom chiqargan noibi Al-Xoroshiy, uning lashkarboshisi Mussayyob ibn Bashir Ar Riyohiylar katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo'ladilar. Qo'zg'olon rahbarlaridan biri Divashti ham ushlanib qatl etiladi. 725-729 yillar davomida xalifalikning og'ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar ham xalq ozodlik kurashida sezilarli iz qoldirdi. Qo'zg'olonchilarning ancha qismi arab ma'murlari siyosatiga norzilik bildirib, islom dininidan chiqadilar. Kesh atrofida yuz bergan mahalliy aholining arablar bilan to'qnashuvi rostmona jangu jadal tusini olgan. 736-737 yillarda Tohariston va Sug'dda yangidan ko'tarilgan kuchli qo'zg'olon o'z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi xukmdori, usta diplomat, o'tkir siyosatchi Nasr ibn Sayyor (738-748)ning uddaburon siyosati, nizoli masalalarni xal etish borasidagi epchil tadbirlari tufayligina qo'zg'olon harakatlarini bartaraf etish, o'lkada muvozanatni saqlash mumkin bo'ldi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa uning nufuzli qatlamiga muayyan yon berishga majbur bo'ldi. Jumladan, u arablarning mahalliy aholi bilan qon-qardoshlik aloqalarini kuchaytirishga intildi. O'zi ham Buxorxudot Tog'shodaning qiziga uylandi. Islomni qabul qilgan kishilar juzyadan ozod etiladi va barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtirildi. Xiroj solig'i to'lash barcha uchun baravar deb e'lon qilinadi.

Muqanna qo'zg'oloni. Vatanimiz xalqlarinig arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixida alohida o'rin tutadi. Bu qo'zg'olon o'zining maqsad, vazifalari, yo'nalishi, jug'rofiy ko'lami va ommaviyligi bilan keskin farqlanib turadi. Gap shundaki, qo'zg'olon shunday bir paytda boshlanib, keng hududiy chegaralarni qamrab, aholining yangi-yangi qatlamlarini o'ziga jalb etib bordiki, uning quddratli oqimi, na'rasi ajnabiy hukmdorlarni ham sarosimaga solib qo'ydi. Ular joriy etgan tuzum va tartiblarni qaqshatishga olib keldi. Tarixda «oq kiyimlilar» nomi bilan mashhur bo'lgan bu qo'zg'olonga o'z zamonasining har tomonlama etuk kishisi, xalq dardi, qayg'usi va maqsadlarini chuqur tushungan, asl ismi Hoshim ibn Hakim, ammo Muqanna (ya'ni yuziga niqob kiygan ma'noda) nomi bilan tanilgan buyuk shaxs rahnamo bo'ldi. 776 yilda Marvda boshlangan xalq qo'zg'oloniga qadar ham Muqanna hayotning katta mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan, oddiy kir yuvuvchidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan (757-759), ummaviylar sulolasi inqiroziga kuchli ta'sir ko'rsatgan Abu Muslim qo'zg'olonida faol ishtirok etgan, ijtimoiy tenglik, erkin hayot va adolat g'oyalarini o'ziga singdirgan taniqli siymo bo'lgan. Shuning uchun ham uning yangidan xalq kurashiga bosh bo'lishi bu harakatning keng quloch yozishiga, uzoq muddat davom etishiga (14 yil) sabab bo'libgina qolmay, ayni chog'da arab hukmron doiralari uchun ham kutilmagan oqibatlarni vujudga keltirib, ularga katta hayotiy saboqlar berdi. Qo'zg'olon Marvda boshlangan bo'lsa-da, u tez orada Movarounnahrning keng hududlariga yoyildi. Muqanna qo'zg'oloni davomida Samarqand, Buxoro, Naxshobu, Kesh hudulari aholisi ham faol harakatga keldi. Uni Iloq, Ohangaron, Shosh, Farg'ona vodiysining ko'p sonli xalqi ham quvvatlab chiqdi. Qo'zg'olonning bosh g'oyasi - Vatanimiz xalqlari, ularning asl farzandlarining muqaddas yurtni ajnabiy hukmronlardan ozod qilish, uning mustaqilligini kurashib qo'lga kiritish g'oyasi to'la kuch bilan namoyon bo'ladi. Mana shu yuksak vatanparvarlik, yurtparvarlik tuyg'usi qo'zg'olonchilarga hayotiy ruh, ma'naviy madad bag'ishlagan, ularning uzoq vaqt davomida arablarning katta harbiy kuchlari bilan jon berib, jon olishib kurash olib borishiga, mislsiz qurbonlar berishiga sabab bo'lgan. Biroq shu bilan birga qo'zg'olonga tortilgan aholining hamma ijtimoiy tabaqalari ham shu ulug'vor g'oyaga sodiq bo'lgan, unga oxirigacha amal qilgan, deb xulosa chiqarib bo'lmaydi, albatta. Negaki qo'zg'olon kuchaygan kezlarda undan o'z xudbin maqsadlari yo'lida foydalanishni ko'zlab xalq

kurashiga qo‘shilgan yuqori tabaqa namoyandalari ham bo‘lgan. Ular keyinchalik qo‘zg‘olon pasayishi va mag‘lubiyat sari yuz tutgan kezda darhol xiyonat yo‘lini tutib, ajnabiylar bilan til topib, ularning tomoniga o‘tib ketganligi faktdir. Ammo bunday istisnolardan qat’i nazar, bir necha yillar davom etgan «Oq kiyimlilar» qo‘zg‘oloni yurtimizning ozodlik kurashi tarixida katta dovrug‘ taratdi, arab bosqinchilarini larzaga soldi, ularga sezilari zarbalar berdi. Qo‘zg‘olon Muqannaga katta madadkor, jangovar safardosh bo‘lgan Hakim ibn Ahmad, Xishriy va Bog‘iy, Girdak, So‘g‘diyon degan xalq qahramonlarini ham etishtirib chiqardi. Ular oxirgi tomchi qonlari qolgunga qadar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashdilar. 780-783 yilar qo‘zg‘olon harakatlari so‘nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqanna kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to‘plangan edi. Qo‘zg‘olonning bosh tayanch nuqtasi-Som qishlog‘i ham shu joyda bo‘lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo‘shinlari katta ustunlikka ega bo‘lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o‘z tomoniga jalb etib, qo‘zg‘olonchilarni tabora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o‘z tarafdorlari bilan so‘nggi nafasigacha kurashdi. Pirovardida esa dushman qo‘lida mag‘lub bo‘lmay, o‘zini yonib turgan olovga otib, qahramonlarga halok bo‘ladi. Bu voqea Beruniy ma’lumotiga ko‘ra 785 yilda sodir bo‘lgan. Garchand Muqanna qo‘zg‘oloni engilgan bo‘lsa-da, biroq u buyuk xalq qudratini, agar u birlashsa, uyushsa nimalarga qodirligini namoyon etdi. Qo‘zg‘olon ayni chog‘da xalifalikning Movarounnahrdagi mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligi davomini shubha ostiga solib qo‘ydi. Eng muhimi, u erk, hurlik va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo‘sh urdirdi, ularni ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddatkorlik bilan kurash olib borishga da’vat etdi. Buning samarasi esa IX asrning boshlariga kelib yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag‘darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to‘la namoyon bo‘ldi.

Arablar istilosi va hukmronligi Vatanimiz hududida qanchalik murakkab ijtimoiy-siyosiy oqibatlar bilan bog‘liq bo‘lmasin, shu bilan birlikda yakkaxudolik g‘oyasi, ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni o‘zida mujassam etgan islom dini va ta’limotining o‘lkamizda asta-sekin ildiz otib borishi ulug‘ ajdodlarimiz hayoti va tafakkurida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Butun arab dunyosini birlashtirish, uning ma’naviy qudratini kuchaytirishda etakchi omil rolini o‘ynagan islom dini va uning muqaddas kitobi-Qur’oni karim g‘oyalari va oyatlarining mahalliy xalqlarning ongi, shuuriga singib, ularning turmush va fikrlash tarzining ajralmas bir qismiga aylanib borishi, shubhasiz, ularning ma’naviy olamiga hayotbaxsh ta’sir ko‘rsatdi hamda yuksak moddiy va ma’naviy madaniyat namunalarini ijod qilib borishlarida yangi ufqlar ochib berdi. Buning asosiy boisi shundaki, Allohning yagonaligiga imon keltirish, uning yuksak insonparvarlik g‘oyalariga, olijanab shaxsiy fazilatlarga ishonch va e’tiqod-bular yurt kishilarida bir-birlarini quvvatlash, birlashish, o‘zlarini yagona makonda his qilish, o‘zaro hamkorlikda, keng sa’y-harakatlarda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirib bordi. Negaki, islom ta’limoti, Qur’oni karim g‘oyalari negizida tarkib topgan musulmonchilik ahkomlari va ruknlarining o‘lkamizga yoyilishi islomni qabul qilgan o‘tmishdoshlarimizning Alloh buyurgan olijanob amallarga rioya etib, ruhiy-ma’naviy poklanish sari harakatlanishi, shubhasiz, jamiyat hayoti va uning asosiy tamoyillarining sog‘lom negizlarda rivojlanib, takomilashib borishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu ma’noda Yurtboshimiz: «Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini bo‘lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida iymon-e’iqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o‘rni va ta’sirini yuksak baholaymiz»[1] deb ta’kidlaganligi bejiz emasdir. Zero, o‘lkaning ma’naviy yuksalishini ta’minlash, odamlarning bir-biriga qon-qardoshligi, hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil bo‘lgan asriy bebaho qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etgan islomiy ahkomlarning bugunda ham hayotimizda o‘z munosib o‘rnini topayotganligi islomning jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

### *Sinov savollari*

---

[1] «Туркистон» газ., 1999 йил 2 февраль

1. Eftaliylar davlatining yuzaga kelishi, uning huddiy kengayishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2. Eftaliylar davrida erga egalik qilish munosabatlarida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
3. Eftaliylar davriga oid moddiy va ma’naviy yodgorliklarni bilasizmi?
4. Mazdakchilar qanday g‘oyalarni ilgari surganlar?
5. Turk xoqonligiga qachon va kimlar tomonidan asos solingan?
6. Turk xoqonlarining xarbiy yurishlari va zabt etgan hududlarni ayta olasizmi?
7. Turk xoqonligi tarixiga oid qanday muhim tarixiy manbalarni bilasiz?
8. Turk xoqonligi davrida O‘rta Osiyo hududidagi davlat-boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
9. Turk xoqonligining ikkiga bo‘linib ketishining asosiy sababalri nimada?
10. G‘arbiy va Sharqiy xoqonliklarda yashagan aholi ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayotidagi muhim tafovutlar nimalarda ko‘zga tashlanadi?
11. Arab istilochilarining O‘rta Osiyoga yurishlari haqida so‘zlang.
12. Arab bosqinchilariga qarshi Vatanimiz hududida qanday xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lgan?
13. O‘rta Osiyo hududlarida islomlashtirish jarayoni qanday kechdi?
14. Arablar joriy etgan soliq turlari, ularning miqdorlarini bilasizmi?
15. «Qur’oni karim» g‘oyalarining hayotiyligi va yashovchanligini nimada, deb bilasiz?

## 5-mavzu: IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi: siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot
**(4 soat)**
**REJA:**

**1-Ma`ruza**
1.Tohiriylar davlati.
2. Somoniylar davlati.
3. Qoraxoniylar davlati.

**2-Ma`ruza**
1.G’aznaviylar davlati
2. Saljuqiylar davlati
3.Xorazmshohlar davlati

### Adabiyotlar:

1. Karimov I.A Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yiligiga bag’ishlangan tantanali marosimlarda so’zlangan nutqlar. T.6. -T.: O’zbekiston, 1998, 368-381 betlar.
2. Usmonov Q. va boshqalar. S. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, 91-50-betlar.
4. Buniyatov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: G’afur G’ulom, 1998, 112-133 betlar.
5. Usmonov Q., Sodiqov M.,Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. -T.: Meros, 2002, 107-132 betlar.
6. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. 1 qism. - T.: Moliya, 2000, 94-112 betlar.
8. Ma’naviyat yulduzlari.–T.: Meros, 2001. 5-11, 38-51, 71-81, 96-110 betlar.


Somoniylar sulolasi. Somoniylarning davlatni boshqarish tartibi .

Arablarning O‘rta Osiyo hududlaridagi deyarli bir yarim asrlik hukmronlik davri, bu hududning erksevar xalqlarining o‘z eli, Vatanining mustaqilligi yo‘lidagi jo‘shqin kurashini, intilishi so‘ndira olmadi.

Movarounnahrda Somoniylar davlatining yuzaga kelish jarayoni ham IX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bunda ham xalifa Ma’munning o‘ziga sodiq xizmat qilgan balxlik mahalliy hukmdorlardan Somon Xudot avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqining topshirganligi yangi mustaqil davlatning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, Asad ibn Somon o‘g‘illaridan – Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga Chag‘aniyon va hirot mulklari in’om etilgan edi.

IX asr o‘rtalariga kelib Ahmad va uning katta o‘g‘li Nasr Somoniylar Movarounnahr hududlarini birlashtirib, yaxlit mustaqil davlat barpo etishga muvaffaq bo‘ldilar. Nasr (856-888) va uning ukasi Ismoil (874-907) davrida bu davlat qudrati benihoya kuchayib bordi.

Tohiriylar davlati qulab (873y), uning tarkibiga kirgan Buxoro erlari Somoniylar tasarrufiga olinib, bu erga Ismoil noib etib tayinlangach (874 y), Somoniylar hukmronligi deyarli Movarounnahrning barcha hududlariga yoyiladi. Ammo ko‘p o‘tmay Ismoil o‘z hokimiyatini kuchaytira borgach, u o‘zining vassallik mavqeini tan olmay, Nasr hokimiyati xazinasiga to‘laydigan yillik daromad miqdorini keskin kamaytiradi.

Buning natijasida aka-ukalar o‘rtasida uzoq muddatli o‘zaro kurash boshlanadi. Oqibatda 888 yilda ular o‘rtasida katta urush bo‘lib, unda Ismoil g‘olib chiqadi. Shu davrdan boshlab u Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Akasi Nasr vafotidan so‘ng (892y) esa Ismoil Somoniylar davlatining birdan bir rasmiy rahbari – amiri bo‘lib qoladi.

Ismoilning 893 yilda ko‘chmanchi turkiy kabilalarga qarshi sharqqa qilgan muvaffaqiyatli yurishi, Tarozni egallab, katta o‘lja, asirlar bilan qaytishi ham Somoniylar qudrati yuksakligidan

yaqqol dalolat beradi. Ismoil Somoniy davlati qudratining o‘sib borishidan cho‘chigan va uni zaiflashtirishni ko‘zlagan Bag‘dod xalifasi Xurosondagi Safforiy hukmdorlarga yordam berib, ularni Ismoilga qarshi gij-gijlaydi. Bu esa 900 yilda ikkala davlat o‘rtasida katta urushga sabab bo‘ladi. Urush natijasi Somoniylar foydasiga hal bo‘lib, buning oqibatida Xuroson erlari ularning qo‘l ostiga o‘tadi. Xalifalikning esa bu erdagi ta’siri keskin pasayadi.

Ismoil katta, qudratli davlatga ega bo‘lgach, u markaziy davlat boshqaruvi tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi. Bu tizim uning o‘g‘li Nasr II davrida (914-943) ham takomillashib boradi.

Bunga ko‘ra podshoh (amir) saroyi oliy dargoh va devonlar (vazirliklar)ga bo‘linadi. Bunda eng asosiy siyosiy-ma’muriy va xo‘jalik boshqaruvi vazir devoni tasarrufida bo‘lgan. Boshqa devonlar esa unga bo‘ysungan. Mamlakat hayotida muhim rol o‘ynagan bu devonlar quyidagilardan iborat: Mustafiy devoni-davlat xazinachisi; devoni Amid al-mulk - davlatning muhim hujjatlari bilan, boshqa xorijiy ellar bilan, davlatlararo diplomatik munosabatlar o‘rnatish ishlari bilan shug‘ullangan.

Sohib ash-shu’rat devoni – harbiy ish, qo‘shinning oziq-ovqati, maoshi va hokazo sohalarni o‘z tasarrufiga olgan. Sohib al-barid devoni pochta-aloqa xizmati sohasi vazifalari bilan shug‘ullangan. U ayni chog‘da davlat sirlari, mas’ul lavozimdagi xodimlarning ish faoliyati bilan ham mashg‘ul bo‘lgan (ya’ni milliy xavfsizlik xizmati – bizning izoh). Bu devon boshlig‘i faqat markaziy hokimiyatga bo‘ysungan.

Davlatning muhtasib devoni esa bozorlardagi savdo-sotiq, toshu tarozi o‘lchovlari nazorati bilan shug‘ullangan.

Mushriflar devoni davlat ishlari nazorati, xazinaning daromad va xarajatlarini tekshirib borish bilan band bo‘lgan.

Shuningdek Davlat mulklari (erlari) devoni, Qozilik (sud ishlari) devoni, Vaqf (diniy muassasalar mulklari) devoni singari devonlarning ham markaziy davlat boshqaruvidagi roli va o‘rni alohida bo‘lgan.

Pochta-aloqa xizmatidan boshqa hamma devonlarning mahalliy bo‘limlari mavjud bo‘lib, ular mahalliy hokimlar, ularning idoralariga bo‘ysungan. har bir shaharda shahar boshlig‘i – rais ma’muriyati mavjud bo‘lgan.

Davlatda islom dinining ta’siri g‘oyatda katta bo‘lganligidan oliy diniy mansab – Shayxul-islomning roli yuqori darajada e’tirof topgan.

Somoniylar markaziy hokimiyat boshqaruvini qanchalik takomillashtirib bormasinlar, biroq ular mamlakatning hamma hududlarida ham o‘z hukmronlik ta’sirini birdek o‘tkaza olmaganlar. Masalan, Xorazm, Chag‘aniyon, Xuttalon viloyatlarining ichki mustaqilligi buni isbot etadi.

Somoniylar davrida qishloq xo‘jaligi, mahalliy ishlab chiqarish, hunarmandchilik, savdo-sotiq munosabatlari, shaharlar hayoti ancha yuksaldi. Mamlakat mustaqilligi ta’minlangan, nisbiy ichki siyosiy barqarorlik, kuchli markaziy hokimiyat tizimi mavjud bo‘lgan bir sharoitda jamiyatning barcha hayotiy sohalarida sezilarli o‘zgarishlar, ijtimoiy siljishlar yuz berib borgan. O‘lkaning Shosh, Farg‘ona va Xorazm vohalarida turli xil g‘alla ekinlari etishtirish, bog‘dorchilik, sohibkorlik, polizchilik, paxta etishtirish ancha kengayib bordi. Ko‘plab suv inshootlari barpo etildi.

Qishloq ahli xom ashyodan turli ishlov berish yo‘li bilan har xil matolar ishlab chiqara boshladi. Jumladan, Zandona qishlog‘ida sifatli bo‘z to‘qish (u chetga ham chiqarilgan), Samarqand yaqinidagi Vadar qishlog‘ida sarg‘ish tusli chiroyli yumshoq, pishiq matolar

tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu erdagi to‘qilgan matodan oliy amaldorlar ham kiyim tiktirishda foydalanganlar.

Shaharlarda ko‘plab hunarmandchilik korxonalari, o‘nlab karvonsaroylar, bozor rastalari mavjud bo‘lib, doimiy ravishda ishlab turgan. Shahar bo‘lish uchun mazkur joyda kamida 32 xil hunar-kasb turlari bo‘lishi kerakligi o‘sha davr uchun xos bo‘lgan.

Somoniylar davrida Samarqand, Buxoro, Marv, Shosh, Isfijob, shuningdek, Farg‘ona, Xorazm vohasi shaharlari savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sifatida g‘oyatda ravnaq topgan.

Buyuk ipak yo‘li bu shaharlarni xalqaro karvon savdosi bilan tutashtirib, ularda etishtirilgan barcha noyob mato-yu mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishini ta’minlagan.

Metall ishlash, nodir metallardan, chunonchi, oltin, kumush, mis va boshqa ma’danlardan qimmatli, bezakli buyumlar, asbob-anjomlar tayyorlash shaharlarda keng rivojlangan. Uch joyda (Buxoro, Samarqand, Farg‘ona) kumush pullar zarb etilgan. Shoshda charm mahsulotlari, Farg‘ona va Iloqda qurol-yarog‘lar yuqori darajada tayyorlangan. Shuningdek Farg‘ona vodiysi, Ohangaron, Samarqand, Nurota tumanlarida kon-ruda ishlab chiqarishi taraqqiy topdi. Ip - yigirish, to‘quvchilik va to‘qimachilik (gilamlar, poyondozlar v.b) hunarlari rivojlangan bo‘lib, bu soha yumushlariga xotin-qizlar ham jalb qilingan.

Somoniylar davrida mulk shakllari uch xil bo‘lib, birinchisi - mulki sultoniy, ya’ni davlat erlari, ikkinchisi - mulklar (xususiy mulklar) va uchinchisi - vaqf mulklaridan iborat edi. Somoniylar davrida davlat boshlig‘i o‘z farzandlari, yaqinlariga, amirlar, hokimlar, lashkarboshilarga ularning xizmatlari evaziga tuman, shahar, hatto viloyatlarni ham in’om qilgan. Bunday mulk iqto’, ularning egalari iqtadorlar deb atalgan. Iqtadorlar o‘ziga in’om etilgan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlar evaziga daromad olgan. Aholi iqtadorga bug‘doy, paxta, quruq meva, gazmol yoki pul shaklida soliq to‘lagan. Iqtadan foydalanish muddati davlat boshlig‘iga bog‘liq bo‘lgan. Avvallari iqto’ vaqtincha berilgan, iqtador bunday mulkdan mahrum ham etilgan, ayrimlari iqtadan umrbod foydalanganlar.

Somoniylar davlati o‘zining muayyan bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarda qanchalik yuksalish, muhim o‘zgarish jarayonlarini boshdan kechirmasin, biroq keyinchalik asta-sekin tushkunlik, parokandalik sari yuz tutib bordi. X asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan keyingi Somoniy hukmdorlar: Nuh ibn Nosir (943-954), Abdul Malik (954-962), Mansur ibn Nuh (961-971), Nuh II ibn Mansur (997-999) davrida mamlakat oliy hokimiyati ichida ham, mahalliy feodal beklar, amaldorlar o‘rtasida ham o‘zaro ichki nizolar, ziddiyatlar to‘xtovsiz kuchayib bordi. Davlatning harbiy tayanchi hisoblangan turk g‘ulomlaridan iborat qo‘shin boshliqlari oliy hukmdor saltanatiga bo‘ysunmay, ayrim viloyatlarni egallashga ko‘z tika boshladilar (Masalan, Alptegin, Abu Ali v.b.). Mahalliy hukmdorlarning o‘zboshimchalik, boshboshdoqlik xatti-harakatlarining avj olishi, ularni jilovlashga markaziy hokimiyatning ojizligi - bular davlatning yanada zaiflashuviga sabab bo‘ldi. Xalq norozilik harakati shu qadar alangalanib bordiki, hatto amir Abdumalik vafoti bahonasi bilan boshlangan qo‘zg‘olon amir saroyini bosib olib, uni yakson qilish bilan tugallandi.

Bunday jiddiy nizolar, ziddiyatli jarayonlar pirovard oqibatda Somoniylar davlati tanazzulini tezlashtirishga olib keldi. Buning natijasida sharqdan kelgan Qoraxoniylar sulolasi Somoniylar hukmronligini barham topdirib, uning hududlarini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi.

## 2. Qoraxoniylar davlati.

Markaziy Osiyoning o‘rta asr tarixida muhim o‘rin tutgan va xiyla uzoq davr hukm surgan (X-XII asrlar) turkiy qoraxoniylar sulolasi to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, bunda shu narsani chuqurroq anglamoq joizki, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining talay hududlarida, ayniqsa uning sharqiy qismida juda qadim davrlardan buyon turli nomlar bilan atalgan turkiy qabilalar, elatlar yashab kelgan. Ular mahalliy so‘g‘dlar va boshqa xalqlar bilan yonma-yon yashab, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik va aloqalarda bo‘lib, birgalashib tarix yaratganlar, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni tezlashuviga munosib ta’sir ko‘rsatganlar.

Turkiy elatlarga mansub qorluqlar, chigillar, yag‘molar, to‘xsilar, turgashlar, arg‘ular, yabakular, o‘g‘izlar, qirg‘izlar, qipchoqlar va boshqalar nafaqat Sharqiy Turkiston va Ettisuv kengliklari bo‘ylab, balki shuningdek Farg‘ona, Shosh vohalarida, mintaqaning boshqa hududlarida ham istiqomat qilganlar.

Qorluqlar tarixiga oid «hudud al-Olam» kitobida naql qilinishicha, turkiy elatlar yashagan hududlarda gavjum qishloqlar bilan birlikda o‘ziga xos yuksak madaniy hayotga ega bo‘lgan ko‘plab shaharlar ham mavjud bo‘lgan. Qorluqlarda rivojlangan dehqonchilik bilan birga hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq sohalari ham ancha taraqqiy topgan. Boshqa turkiy qavmlar ham o‘ziga xos ijtimoiy rivojlanish darajasiga va turmush tarziga ega bo‘lganlar. Bu esa ularda davlatchilik tizimining xiyla mustahkam negizda vujudga kelib, takomillashib borishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mintaqamizning sharqiy hududida, hozirgi Ettisuv, Sharqiy Turkiston o‘lkalarida X asr o‘rtalariga kelib turli turkiy qavmlar, elatlarning o‘zaro birikuvi va qo‘shiluvi davomida Qoraxoniylar davlatining yuzaga kelganligi buning yaqqol ifodasi bo‘ldi. Bu davlatning tayanch negizining yaratilishida ayniqsa qorluq, chigil va yag‘mo elatlarining roli va ta’siri katta bo‘lgan. Mazkur davlatga asos solgan siymo Satuk Abdulkarim Bug‘roxon (Qoraxon) yag‘molar qavmiga mansub bo‘lgan. Qoraxon so‘zining lug‘aviy ma’nosi esa turkiy qabilalarda «ulug‘», «buyuk» degan tushunchani anglatgan.

Bu davlatning qudrati yuksalib, u tez orada katta hududlarni o‘z qo‘l ostiga kirita boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog‘un shahri bo‘lgan. Abdulkarim Bug‘raxon vafotidan keyin (955y) uning vorislari davrida Markaziy Tyan-Shan va Ettisuv o‘lkalari egallandi. Endilikda Qoraxoniylar Somoniylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahr erlarini butunlay egallashga kirishadilar. Bu davrda Somoniylar davlatining chuqur ichki ziddiyatlar, sinfiy ixtiloflar orqasida tanglik holatiga tushib qolganligidan foydalangan Qoraxoniylar hukmdorlar - hasan va Nasr Bug‘raxonlar etakchiligidagi qo‘shin Somoniylar qarshiligini qiyinchiliksiz engib, ikki bor (992-999 yillarda) poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari qoraxoniylar tasarrufiga o‘tadi. Bu voqea XI asr boshlarida sodir bo‘ladi. Shu tariqa, Qoraxoniylar hukmronligi katta hududlarga yoyiladi. 1041 yilga kelib Qoraxoniylar hokimiyati ikkiga: markazi Buxoro bo‘lgan G‘arbiy xonlikka va markazi Bolasog‘un bo‘lgan sharqiy xonlikka bo‘linib ketadi. Keyingi xonlik tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh, Sharqiy Farg‘ona, Ettisuv va Qashqar erlari kirgan.

Qoraxoniylar davlatining boshqaruv, idora qilish tizimini ko‘zdan kechirarkanmiz, ularda Somoniylardan farqli o‘laroq markaziy boshqaruv tizimiga qaraganda hududiy boshqarish tartibi ko‘proq o‘rin tutgan. Buning asosiy sababi shuki, xonlik hududlari nihoyatda bepoyon bo‘lganligidan, har bir yirik hudud yoki viloyat iloqxonlar tomonidan nisbatan mustaqil idora qilingan (Masalan, Samarqand, Buxoro, Ettisuv v.b.). Iloqxonlar tegishli miqdordagi yillik xiroj yoki to‘lovlarni markaziy xokimiyat hukmdori - Tamg‘achxonga yuborib, amalda o‘z mulklarini mustaqil boshqarganlar.

Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, turli sulolaviy urushlar, ziddiyatli jarayonlarda kechganligini ta’kidlamoq joizdir. Ayniqsa xonlikning muhim hayotiy markazlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Balx va Termiz kabi joylarni qo‘lga kiritish uchun saljuqiylar, qoraxitoylar bilan ko‘p bor urush harakatlari olib borishga to‘g‘ri kelgan.

Xususan saljuqiylarning so‘ngi podshohi Sulton Sanjar (1118-1157) qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmdori Arslonxon (1102-1130)ning zaiflashib qolganligidan va mahalliy ruhoniylar fitnasidan foydalanib, Samarqand va uning atroflarini bosib oladi. Shundan so‘ng Qoraxoniylar sulolasiga mansub mahalliy xonlar amalda Sulton Sanjarga tobe bo‘lib qoladilar. Biroq ko‘p o‘tmay bu hududlar yangidan sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar ta’siriga tushib qoladi.

Faqat 1211 yilga kelib, ya’ni so‘nggi horazmshoh-Alouddin Muhammad (1200-1220) davrida Qoraxoniylarning Movarounnahr-dagi rasmiy boshqaruvi butunlay barham topadi.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-qtisodiy hayotida bir qator muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, Qoraxoniylar o‘lkani zabt etgach, bu erda ko‘p asrlardan

buyon hukm surib kelgan erga egalik qilishning muhim shakli – dehqon mulkchiligini tugatib, bu mulklarni davlat tasarrufiga oladilar. Bu mulklar o‘z navbatida qoraxoniylarga tobe bo‘lgan sodiq amaldorlar, harbiy lashkarboshilar, davlat xizmatchilari yoki ularga yon bosgan yuqori ruhoniylar, din peshvolariga mulk qilib beriladi. “Dehqon” tushunchasi shundan boshlab amalda mulk egasi emas, balki erni ishlovchi, unda mehnat qilib kun kechiruvchi ijtimoiy toifa maqomiga ko‘chadi.

Ikkinchidan, Qoraxoniylar davriga kelib er-mulkka egalik qilishning “iqto’” va iqtadorlik munosabatlari yanada chuqur ildiz otadi. Iqtadorlar o‘z tasarrufidagi hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlar evaziga katta daromadlar olganlar. Uchinchidan, O‘rta Osiyo hududlarining Qoraxoniylar davlati tarkibiga o‘tishi erli aholi etnik tarkibida ham muhim o‘zgarishlarni vujudga keltira bordi. Qoraxoniylar hokimiyatining bu hududga yoyilishi ayni zamonda turkiy qavmlar, urug‘-qabilalarning sharqiy hududlardan ko‘plab miqyoslarda kelib, o‘rnashib, o‘troqlashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Buning natijasida XI-XII asrlarga kelib Movarounnahr aholisi tarkibida turkiy etnoslar uzil-kesil ustivorlikka ega bo‘ldi. Bu esa, shubhasiz, o‘zbek xalqining etnik shakllanishi jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ayni chog‘da turkiy tilning iste’mol doirasi to‘xtovsiz kengayib bordi.

Shu bilan birga bu tilning mahalliy xalq, elatlarning adabiy tili sifatidagi mavqei va maqomi ham tarkib topib bordi. Go‘zal va nafis qadimgi turkiy, ya’ni eski o‘zbek adabiyotining ijodiy namunalari hisoblangan Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib va Ahmad Yugnakiylarning betakror ijodiyoti bunga yorqin dalil bo‘la oladi.

3. G‘aznaviylar davlati.

Aslan Somoniylar tarkibida bo‘lib kelgan G‘azna mulkining X asr ikkinchi yarmiga kelib mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lishi avvalo shu davrda mintaqada kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar hamda ayrim sulolaviy kuchlarning o‘zaro kurashlari va uning oqibatlari bilan bog‘liqdir. Negaki Somoniylar davlatining biz tilga olgan vaqtga kelib har taraflama ichki ziddiyatlarga duch kelishi, tobora zaiflashib borishi tabiiy suratda uning hududiy parchalanishiga sabab bo‘ldi. 961 yilda Somoniy hukmdor Abdulmalik vafotidan so‘ng davlatning zaiflashganligidan foydalanib G‘azna mulkini qo‘lga kiritgan, asli turkiy g‘ulomlardan bo‘lgan salohiyatli lashkarboshi Alptaginning bu hududda yangi davlatga asos solganligi ham shundandir. Biroq G‘aznaviylar davlatining yuksak maqomini qaror topishi va keng e’tirof etilishi Sabuktegin nomi bilan bog‘liqdir.

Tarixiy manbalarda, jumladan, Muhammad Shabangaranning «Majma-ul ansob» kitobida guvohlik berilishicha, uning asli kelib chiqishi turkiy barsxon qabilasidan bo‘lib, yoshligida asir olinib, taqdir taqazosi bilan Movarounnahrga olib kelingan. Asta-sekin o‘z mehnati, iste’dodi bilan amal pillapoyalariga ko‘tarilib, Somoniylar davlatining etuk harbiy lashkarboshisi darajasiga erishgan. U katta xizmatlari evaziga 977 yilda G‘azna mulkini qo‘lga kiritib, asta-sekin uning mustaqilligini ta’minlash, qudratini oshirish borasida ustamonlik bilan siyosat yuritadi. O‘sha davr an’anasiga ko‘ra xalifalik tomonidan unga «dinu davlat himoyachisi»faxriy unvoni berilganligi ham bejiz emasdir.

G‘oyatda salohiyatli, uzoqni ko‘ra bilgan Sabuktegin Somoniylar davlati ichida davom etayotgan o‘zaro nizolardan foydalanib, qisqa vaqt ichida Qobul daryosi havzasi erlarini G‘azna viloyatiga qo‘shib, mustaqil davlat tuzishga muvaffaq bo‘ladi.

Ayniqsa X asr oxirlariga kelib Qoraxoniylarning Somoniylarga qarshi urush harakatlari kuchaygach va somoniy hukmdorlarning tang axvolga tushib qolganligidan foydalanib, Sabuktegin o‘z hududlarini yanada kengaytirishga intiladi. U somoniy hukmdorlar da’vatiga javoban ularga harbiy madad ko‘rsatib, buning evaziga Xurosonga egalik qilish huquqini qo‘lga kiritadi. Shu tariqa, Qoraxoniylar Somoniylar hukmronligini qulatib, Movarounnahrni egallagunlariga qadar Amudaryoning janubida Sabuktegin va uning vafotidan so‘ng esa (997) o‘g‘li Mahmud G‘aznaviyning ancha kuchaygan G‘azna davlati tashkil topgan edi.

G‘aznaviylar davlatining eng yuksalgan, qudratli saltanatga aylangan davri Sulton Mahmud (998-1030) podsholigi vaqtiga to‘g‘ri keladi. Negaki o‘zida noyob harbiy sarkardalik iste’dodi, etuk davlat donishmandi, yuksak aql-zakovat sohibi sifatlarini mujassamlashtirgan, nihoyatda qattiqqo‘l, ayyor Mahmud o‘z jahongirlik shuhrati-yu, hukmronligini butun choralar bilan qaror topdirishga intildi. Bu yo‘lda ko‘plab jangu jadallardan ham qaytmadi. Shu bilan birga Mahmud G‘aznaviy shaxsi nihoyatda ziddiyatlidir. Chunki u qanchalik qattiqqo‘l, shafqatsiz bo‘lmasin, u ayni zamonda ilmli, ma’rifatli, donishmand siymo bo‘lgan, g‘azalnavis shoir sifatida qalam tebratgan, ilm-ma’rifat ahliga katta homiylik ko‘rsatgan. Binobarin, biz bu tarixiy shaxsga baho berishda mana shu jihatlarni ham ko‘zda tutmog‘imiz kerak bo‘ladi.

Kezi kelganda Sulton Mahmud katta qo‘shin tuzib, uni o‘sha davrning eng zamonaviy qurol-aslahalari bilan, etarli maosh bilan ta’minlab, shundan so‘ng juda ko‘plab bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi. U XI asr boshlarida Amudaryo bilan belgilangan shimoliy chegaralarni Qoraxoniylar bilan kelishib olgach, o‘zining asosiy e’tiborini janubda - hindiston, g‘arbda - Xuroson va unga chegaradosh hududlar tomon qaratadi. Faqat hindistonga 17 bor yurish qilib, u erdan katta miqdorda o‘lja-boyliklar olib keladi. Birgina 1019 yilda Kanuadja shahrini egallab, olib kelingan o‘lja – katta miqdordagi oltin, kumush va qimmatbaho buyumlardan tashqari 350 ta fil va 57 ming asir-qulni tashkil etadi. U 1008 yilda Qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomani buzib, Amudaryo shimolidagi Chag‘aniyon va Xuttalon viloyatlarini bosib oladi. 1010-1011 yillarda esa Mahmud katta qo‘shin bilan jang qilib G‘ur viloyatini egallaydi. 1017 yilga kelib esa Mahmud G‘aznaviyning nigohi geografik jihatdan qulay nuqtada joylashgan, boy hudud - Xorazmga qaratiladi. U Xorazmshohlar saltanatidagi qaltis siyosiy vaziyatdan, xususan Xorazmshoh Ma’munning o‘limidan foydalanib, u erga katta qo‘shin yuborib, osonlik bilan Xorazmni tobe qiladi. Ayni paytda shuhratparast Sulton Xorazm Ma’mun akademiyasining bir qator atoqli namoyandalarini, shu jumladan, Abu Rayhon Beruniyni G‘aznaga oldirib keladi. Uning so‘ngi istilochilik yurishlaridan biri 1029 yilda Eronning Rey shahrini egallash bo‘ladi. Shahar olingach, qo‘lga kiritilgan katta boylik G‘aznaga olib kelinadi.

Mahmud G‘aznaviyning harbiy yurishlari oqibatlaridan biri shu bo‘ldiki, shimoliy hindiston viloyatlarining bosib olinishi natijasida turkiy aholining ancha qismi bu joylarga kelib joylasha boshlaydi. Bu esa hindistonning keyingi tarixiy taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mahmud davrida G‘aznaviylar davlati hududlari benihoya kengayib, mamlakat shaharlarida, ayniqsa G‘aznada katta inshootlar, salobatli masjidu madrasalar, kutubxonayu shifoxonalar, ilm maskanlari ko‘plab barpo etilgan bo‘lsa-da, biroq ko‘pchilik aholining moddiy – maishiy ahvoli nochor kechgan, turli xil soliq va majburiyatlar odamlarning tinkasini quritgan.

Katta qo‘shin tutish, son-sanoqsiz besamar urushlar olib borish, yuqori davlat amaldorlaridan tortib to mahalliy beklar, mansabdorlarning o‘zboshimchaligi, suiiste’molchiligi – bular xalq ommasi zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan, ularni og‘ir qismatga duchor etgan. Urushlar bilan band bo‘lish orqasida mamlakat xo‘jaligiga e’tibor berilmasligi, ekin-maydonlarining qarovsiz holga kelishi, sug‘orish inshootlarining ishdan chiqishi va shu singari hollar, dastavval, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1011 yilda Xuroson o‘lkasida boshlangan ocharchilik minglab odamlarning nobud bo‘lishiga olib kelgan. Shu bois Mahmud G‘aznaviy davlati tashqaridan go‘yo g‘oyatda qudratli ko‘ringani bilan haqiqatda esa uning ichdan emirilishini, omonatligini payqash qiyin emas. Zero, uning vafotidan keyin ko‘p o‘tmay bu saltanatning tushkunlik sari yuz tutganligi shundandir. Bu o‘rinda shuni aytish kifoyaki, Sulton Mahmud vafotidan keyinoq Xorazm o‘z mustaqilligini tiklashga erishdi. Shuningdek saljuqiy-turklarning Xuroson hududlarini egallash sari harakatlari kuchaydi. Agar Mahmud davrida uning roziligi bilan Xurosonning ayrim hududlariga saljuqiy qabilalar kelib joylashgan bo‘lsa, endilikda ular butun Xurosonni ishg‘ol qilishga kirishdilar. O‘lkaning G‘aznaviylar siyosatidan, haddan ziyod soliq-to‘lovlar asoratidan norozi bo‘lgan mahalliy aholisi ham Saljuqiylarni qo‘llab-quvvatlab chiqdi. Bu esa ikki o‘rtadagi harbiy to‘qnashuvlarning pirovard yakuniga ham hal qiluvchi ta’sir o‘tkazdi. G‘aznaviylar qo‘shini bilan Saljuqiylar o‘rtasidagi birinchi katta urush 1035 yilda Nissa shahri yonida bo‘lib o‘tdi. U Saljuqiylar

g‘alabasi bilan yakunlandi. Ko‘p o‘tmay Saljuqiylar o‘z g‘alabalarini mustahkamlab, Xurosonning ancha qismini, jumladan, Nishopurni qo‘lga kiritdilar (1038y).

1040 yil bahorida Dandanakan yonida (Saraxs bilan Marv oralig‘i) bo‘lgan so‘nggi hal qiluvchi jangdan so‘ng Ma’sud G‘aznaviy qo‘shini qaqshatqich zarbaga uchrab, butun Xuroson o‘lkasidan mahrum bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay Ma’sud ukasi Muhammad tomonidan qatl qilindi (1041y). Ketma-ket yuz bergan saroy fitnalaridan so‘ng g‘aznaviylar hokimiyatini egallagan Ma’sudning o‘g‘li Mavdud ham bir necha bor kuch to‘plab saljuqiylar bilan urush olib borgan bo‘lsa-da, ammo o‘z qo‘shinini mag‘lubiyatdan saqlab qola olmadi. 1059 yilda G‘aznaviylar davlati uchun muhim strategik ahamiyatga molik - Balxning saljuqiylar qo‘liga o‘tishi g‘aznaviylarning so‘ngi umidini ham puchga chiqardi. Bu esa pirovardida G‘aznaviylar davlatining puturdan ketkazib, tarix sahnasidan tushib ketishiga sabab bo‘ldi.

4. Saljuqiylar davlati.

Vatanimiznigina emas, balki butun turk dunyosi tarixida ham salmoqli iz qoldirgan Saljuqiylar sulolasi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, ular tuzgan davlatning o‘z davrida g‘oyatda keng hududlarga yoyilganligi, unga uyushgan, tarkibiga kirgan turli xalqlar, elatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, olg‘a siljishlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, Saljuqiy turklarning kelib chiqishi Sirdaryo quyi etaklarida, Orol havzasida yashagan, ko‘proq ko‘chmanchi hayot kechirgan o‘g‘iz urug‘lariga borib taqaladi. «O‘g‘iznoma» kitobida naql qilinishicha, o‘g‘iz urug‘lari, qavmlari juda qadim tarixga ega bo‘lib, ularga ilk bor O‘g‘izxon nomli buyuk shaxs boshchilik qilgan. IX asr oxiri X asr o‘rtalariga kelib Orol bo‘yi va Kaspiy dengizi shimolida O‘g‘iz urug‘lari ittifoqi shakllangan. X asr oxirlarida Sirdaryo etagida poytaxti Yangikent bo‘lgan o‘g‘izlar davlati tashkil topadi. XI asr o‘rtalariga kelib bu davlat sharqdan bostirib kelgan qipchoqlar zarbasiga uchraydi. Natijada o‘g‘iz urug‘larining bir qismi shimolga – rus dashtlariga, bir qismi old Osiyo mamlakatlariga chekinadi, yana bir qismi esa hozirgi Turkmaniston hududiga o‘tib, erli aholi bilan qo‘shilishib, turkmanlar nomi bilan atalib ketadi. Tarixchi Rashiddidin, shuningdek, Mahmud Qoshg‘ariy, Abul G‘oziylarning ma’lumotlariga qaraganda, o‘g‘izlar 22 yoki 24 qabiladan, chunonchi, chavdir, emreli, ichdir, yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi, taturga va boshqalardan tashkil topgan.

Sirdaryo quyi oqimida paydo bo‘lgan o‘g‘iz davlatining dastlabki yobg‘usi (podshosi) Saljuqbek bo‘lgan. Uning avlodlari Tug‘rulbek, Dovudbek, Chag‘ribek va Shakarbeklar o‘z davrlarida saljuqiylar shuhratini yuksakka ko‘tardilar.

hozirgi Turkiya turklari, Iroq, Eronda yashovchi turkmanlar, gagauz, ozarbayjon xalqlarining shakllanishida saljuqiy turklarning roli va ta’siri alohidadir.

Somoniylar hukmronligi davrida ularning ruxsati bilan saljuqiy qabilalari Zarafshon vohasiga, Nurotaning tog‘li erlariga kelib o‘rnashib, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Keyinroq Movarounnahr hududlari qoraxoniylar sulolasi tomonidan egallanib, ularning chorvador xo‘jaliklari bu erlarni band etgach, saljuqiylarning yashash sharoitlari mushkullashadi. Shu bois ular g‘arbga tomon siljishga majbur bo‘ladilar. XI asrning 20-30 yillariga kelib saljuqiy urug‘-qabilalarning hozirgi turkman erlari orqali G‘aznaviylar tasarrufidagi Xuroson o‘lkasiga kirib borishi faollashadi. 1038 yilda Saraxsda, 1040 yilda Dandanakanda bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi urushlar davomida saljuqiylar g‘aznaviylarni engib, butun Xuroson erlarini egallab, o‘z davlati markazini shu hududga ko‘chiradilar. Shu tariqa Nishopur shahri Saljuqiylar poytaxtiga aylanadi. Saljuqiylar hukmdori Tug‘rulbek egallangan Movarounnahr va Xuroson hududlarini o‘z avlodlari - Chag‘rilbek va Dovudbeklar tasarrufida qoldirib, o‘zi g‘arbga tomon harbiy yurishlarni davom ettiradi. Tug‘rulbekning 1038-1063 yillarni o‘z ichiga olgan hukmronlik davri old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo‘lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi.

Bu davr mobaynida Saljuqiylar Gurgon, Tabariston, Xorazm, Azarbayjon, Kurdiston hududlarini, hozirgi g‘arbiy Eron viloyatlarining bir qismi, Fors, Kermon viloyatlarini egallaydilar. 1055 yilda esa xalifalik markazi Bag‘dod ishg‘ol qilinadi. Ayni paytda Vizantiyaning Kavkazdagi ta’siriga ham kuchli zarba beriladi. Shunday qilib, Tug‘rulbek kuchli

Saljuqiy sultonligiga asos soladi. Uning vorisi Alp-Arslon (1063-1072) ham jahongirlik yurishlarini davom ettiradi. Jumladan, u Vizantiya imperatori Roman IV Diogenni mag‘lubiyatga uchratib, O‘rta Er dengizi qirg‘oqlarigacha bo‘lgan Kichik Osiyo erlarini qo‘lga kiritadi. Shu tariqa, qudratli Saljuqiylar saltanati Movarounnahrdan to O‘rta Er dengiziga qadar bepoyon hududlarga yoyiladi.

Alp-Arslon mamlakat poytaxtini Nishopurdan Marvga ko‘chiradi. U o‘z podsholigi davrining katta qismini yana sharqqa - Movarounnahrning qoraxoniylar ta’sirida bo‘lgan joylarini egallashga qaratadi. Shu maqsadda u Xorazm erlarini, so‘ngra Jand, Sabronni qo‘lga kiritadi. Keyinroq Chag‘aniyon va Xuttalon viloyatlarini bosib olish uchun qo‘shin tuzadi. Biroq Alp-Arslonning 1072 yilda 200 minglik qo‘shin bilan Amudaryo kechuvidan o‘tish chog‘ida o‘z chodirida mahalliy qal’a boshliqlaridan Yusuf al - Xorazmiy tomonidan kutilmaganda o‘ldirilishi uning keyingi rejalarining amalga oshuviga imkon bermaydi.

Saljuqiylar davlati qudratining Movarounnahr va Xurosondagi eng kuchaygan payti Malikshoh (1072-1092) davriga to‘g‘ri keladi. Gap shundaki, xuddi shu yillarda Malikshoh va uning tadbirkor, dono vaziri Nizomulmulk (asli ismi Abu Ali ibn Ali ibn Ishoq) tomonidan mamlakat hayotining ko‘plab sohalarida juda muhim ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Avvalo, Saljuqiylar davlatining Movarounnahrdagi maqomi yanada mustahkamlandi. Malikshoh muhim strategik ahamiyatga molik bo‘lgan Balx va Termiz hududlarini Qoraxoniylardan qaytarib oldi. Shuningdek Qoraxoniylar hukmdori Shamsulmulk vafotidan so‘ng vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, 1089 yilda katta qo‘shin tortib Buxoro va Samarqandni egallaydi va yangi xon Ahmadni asir qiladi. Garchand tez orada Ahmad Qoraxoniylar xonligi taxtiga qaytarilgan bo‘lsa-da, biroq amalda Qoraxoniylar Saljuqiylarga tobe bo‘lib qoladi.

Malikshoh davrida davlat xokimiyatining kuchayishida dono vazir Nizomulmulk (1017-1092) roli benazirdir. Katta huquq va keng vakolatlarga ega bo‘lgan birinchi vazir markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, davlat amaldorlarining mas’uliyati, javobgarligini oshirishga, davlatning moliya, soliq va boshqa boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berdi. U o‘zining bu boradagi yuksak salohiyati va tajribasini umumlashtirib, mashhur «Siyosatnoma» asarini yozadi. Bu kitob katta shuhrat va e’tirof qozonib, mana, necha asrlardirki, Sharq va G‘arb mamlakatlarining davlat arboblari, vaziru vuzarolari uchun siyosat bobida muhim dasturulamal qo‘llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Mustaqilligimiz sharofati tufayli bu nodir kitob 1997 yilda ilk bor ona tilimizda nashr qilinib, o‘zbek kitobxonlari qo‘liga etib bordi.

Nizomulmulkning rahnomoligi va tashabbusi bilan Bag‘dod, Nishopur, hirot, Balx, Marv kabi shaharlarda oliy madrasalar ochilib, ularda juda ko‘plab o‘qimishli yoshlarning ta’lim-tarbiya olishi yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Mamlakat shaharlarining hunarmandchilik va savdo-sotiq, karvon savdosi markazlari sifatidagi mavqei kuchayib, xalqaro Ipak yo‘lining roli ortib bordi.

Tashqi savdoning rivojlanishiga to‘sqinlik tug‘diruvchi haddan ziyod boj to‘lovlarining bekor qilinishi tadbiri ham Nizomulmulk siyosatining muhim jihatlaridan bo‘lgan. Nizomulmulk davrida Saljuqiylar qo‘li ostidagi hududlarda «iqto’» tizimi kuchli rivojlangan bo‘lib, uning bilan bog‘liq mulkiy munosabatlar qishloq xo‘jaligi sohasida etakchi mavqe egallagan.

Saljuqiylarning eng so‘nggi hukmdori Sulton Sanjar (1118-1157) podsholigi bu davlatning, ham yuksalishi, ham halokatga yuz tutishi bilan o‘ziga xos murakkab, ziddiyatli davrni aks ettiradi.

Negaki bu yillarda Saljuqiylar hukmronligi Xuroson va Movarounnahrda yanada mustahkamlandi. Qoraxoniylar hukmdorlari amalda ularga tobelik maqomiga tushib qolgan edi.

Ayniqsa 1130 yilda Sanjar tomonidan bu sulolaning asosiy hayotiy markazlari Samarqand, Buxoroning egallanganligi (garchand bular ya’ni Qoraxoniylarga qaytarib berilgan bo‘lsa-da) fakti ham fikrimizni isbot etadi. Bu davrda Xorazm erlari ham amalda saljuqiylar ta’sirida bo‘lib, Xorazmshohlar, masalan, Qutbiddin Muhammad, Otsiz v.b. rasman ularga itoat etardilar. (Faqat Otsiz (1127-1156) hukmronligining so‘nggi davrlari bundan istisno xolos).

Saltanatning g‘arbiy hududlari ham deyarli Sulton Sanjar hukmronligi ta’sirida bo‘lgan.

Biroq XI asrning 40-yillariga kelib saljuqiylar davlatining mavqei puturdan keta boshlaydi. Bunda ayniqsa Sharqdan bostirib kelgan qoraxitoylar bir vaqtning o‘zida ham

qoraxoniylar va ham saljuqiylar saltanatiga katta xavf soladi. Sulton Sanjar va qoraxoniylar xoni Mahmudning birlashgan qo‘shini 1141 yilda Samarqand yaqinidagi Katvon cho‘lida qoraxitoylar bilan bo‘lgan hal qiluvchi jangda qaqshatqich mag‘lubiyatga uchragach, Movarounnahr erlari qoraxitoylar qo‘li ostiga o‘tadi. Saljuqiylar esa katta hududlarga egalik qilish huquqidan mahrum bo‘ladi. Endilikda ular katta kuch to‘plab, yangidan Qoraxitoylarga qarshi urush qilish emas, balki asosan bo‘ysunmaslikka harakat qilayotgan Xorazmni qo‘oda tutish, Xuroson o‘lkasida yuz berayotgan g‘alayonlarni bostirish ishlari bilan ko‘proq band bo‘ldilar.

Qoraxitoylar esa Movarounnahrni ishg‘ol etish bilan birga, bu erdagi sulolalar hukmronligini yiqitmay, ularni o‘zlariga vassal qilish, muntazam boj, xiroj olib turish sharti bilan kifoyalandilar.

Shuning uchun ham Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va boshqalar Bolasog‘unda turuvchi qoraxitoylar hukmdori Gurxonga kelishilgan miqdordagi xiroj-o‘lponni yuborib turishga majbur edilar. Sulton Sanjarning keyingi taqdiri ham favqulodda holatda kechdi. U 1153 yilda Balx viloyatining tog‘li hududida ko‘chib yuruvchi g‘uz qabilalarining g‘alayonlarini bostirish chog‘ida kutilmaganda asirga tushib qoladi. U uch yil davomida g‘uzlar qo‘lida asirda bo‘ladi. Bu vaqt ichida g‘uzlarning Xuroson va Movarounnahrning janubiy-sharqiy erlariga bosqinlari tez-tez takrorlanib turadi.

Faqat 1156 yildagina Sulton Sanjar tutqunlikdan qutulishga muvaffaq bo‘ladi va bir yildan so‘ng vafot etadi. Uning o‘limi bilan bir vaqtda o‘z davrida qudratli bo‘lgan markazlashgan saljuqiylar davlati-yu, uning shonu-shuhrati ham so‘nadi. Bu davrga kelib Kermon o‘z mustaqilligiga erishadi. Fors va Ozarbayjon hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo‘ladi. Xuroson ham Saljuqiylar tobeligidan chiqadi. Arab xalifaligi o‘zining avvalgi mustaqilligini tiklaydi. Ayni chog‘da Kichik Osiyo hududida Saljuqiy turklarning uzil-kesil joylashuvi jarayoni kuchayadi ham ularning mustaqil davlat tuzilmalari vujudga kela boradi.

5. Xorazmshohlar davlati.

Xorazm vohasi o‘zining qulay strategik va jug‘rofiy mavqei hamda qadimdan rivojlangan hudud bo‘lganligidan, u Markaziy Osiyo mintaqasida turli davrlarda kechgan muhim tarixiy jarayonlarda alohida o‘rin tutib, o‘z muayyan ta’sirini o‘tkazib borgan. Vatanimiz hududida miloddan avvalgi so‘nggi ming yillik boshlaridagi ilk davlatchilik tuzilmalari ham shu hududda vujudga kelgan. Milodimizning turli bosqichlarida ham xorazmshohlar sulolasi nomi bilan hukmronlik qilgan hukmdorlar xonadoni tarixdan ma’lum. Bular: IV-X asrlarda afrig‘iylar xonadoni, 995-1017 yillarda ma’muniylar (Ma’mun I, Abdulhasan Ali, Ma’mun II), 1017-1041 yillarda esa oltintoshiylar (Oltuntosh, horun, handon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan davlat boshqaruvini amalga oshirganlar.

Biroq ming taassufki, XI asrning boshlarida yuz bergan tarixiy jarayonlar taqozosi bilan Xorazm davlati tanazzullikka uchrab, Zaiflashib, mintaqaning boshqa sulolalari, chunonchi avval boshda G‘aznaviylar hukmronligi (1017-1044), undan so‘ng buyuk saljuqiylar boshqaruvi ta’siriga tushib qolgandi. Shuningdek XI asrning 40 yillarida sharqdan bostirib kelgan ko‘p sonli Qoraxitoylar ham Xorazm erlarini ishg‘ol etib, bu hududlardan belgilangan miqdordagi Xirot to‘lovlarini olish huquqini qo‘lga kiritgandilar. Binobarin, XI asr ikkinchi yarmiga kelib Xorazm oldida yangidan mustaqillikka erishish vazifasi ko‘ndalang bo‘lib turardi.

Bunda shuni ta’kidlash joizki, Xorazmning qaytadan mustaqillikni qo‘lga kiritishi,bugina emas, hududiy jihatdan kengayib, butun-butun o‘lkalarni o‘z tarkibiga kiritib, qudratli saltanat darajasiga ko‘tarilishi, so‘ngra uning pirovardida inqirozga yo‘liqishi - bu jarayonlar yangi sulola - anushteginlar sulolasi (1097-1231) nomi bilan uzviy bog‘liqdir.

Xususan saljuqiy hukmdorlardan Malikshoh (1071-1092) davrida katta obro‘ - martabaga erishgan harbiy lashkarboshi Alpteginning Xorazm hukmdori etib tayinlanishi (1077-1097) hamda ko‘p o‘tmay uning Xorazmshoh unvoniga sazovar bo‘lishi – bu Xorazmning mustaqillikka erishishida jiddiy qadam bo‘lgan edi. 1097 yilda uning o‘rniga Xorazm taxtiga o‘tirgan va Xorazmshoh unvoni sohibi Qutbiddin Muhammad o‘lka mustaqilligini ta’minlashda

muhim rol o‘ynagan. Qutbiddin Muhammad ham Saljuqiylar hukmronligini tan olgan holda Xorazmni idora qildi. Biroq shunga qaramay o‘lkaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun ham muhim imkoniyatlar topa bildi.

Zero, Xorazmning jug‘rofiy qulayligi, iqlim sharoiti, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi - bular o‘lkaning tez yuksalib borishiga imkon tug‘dirdi.

Xorazm mustaqilligini ta’minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbiddin Muhammadning o‘g‘li Jaloliddin Otsiz (1127-1156)ning roli alohidadir. Negaki u Qoraxoniylar kuchsizligidan va Saljuqiylar zaifligidan foydalanib, o‘z davlati qudratini yuksaltira bordi. Uning 1141 yilda oltin tangalar zarb ettirib muomalaga chiqarishi ham Xorazm mustaqilligining muhim belgisi bo‘lgan.

U Qoraxitoylar bilan kelishib, ularga har yili 30 ming dirxam miqdorda to‘lov to‘lash sharti bilan amalda o‘z davlatining ichki mustaqilligini ta’minlaydi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi ravnaqi, hududlarining benihoya kengayib borishida Alovuddin Takashning o‘rni va roli katta bo‘lgan. Uning hukmronlik davrida (1172-1200) Xorazm vohasida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Yangidan qad rostlagan o‘nlab shaharlarning obodonlashuvidan tashqari ularning savdo-sotiq, hunarmandchilik, karvon savdosi bobidagi dovrug‘i yanada ortdi, qishloq xo‘jaligi, ziroatchilik tarmoqlari rivojlandi, ko‘plab kanallar, suv inshootlari barpo etildi. Bunday tarzdagi ijobiy jarayonlar Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida ham davom ettirildi. Ayni zamonda o‘ziga xos markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi tizimi vujudga keltirilib, takomillashtirilib borildi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini mustahkamlash, uning ichki taraqqiyotini ta’minlash hamda izchil tashqi siyosat olib borishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Anushteginlarning davlat boshqaruvi ham ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo‘lgan.

Dargohda ulug‘ xojib mansabi alohida o‘rin tutgan. U hukmdorning xos kishisi sanalib, lozim bo‘lgan hollarda vazirlar faoliyatini ham nazorat qilgan. Xojiblar hukmdor nomidan muhim davlat ahamiyatiga dahldor masalalarda muzokaralar ham olib borganlar. Dargohdagi yana bir oliy lavozim sohibi ustozdor hisoblangan. Xazina mablag‘larining butun tasarruvi uning ixtiyorida bo‘lgan. Dargoh hayotiga oid ko‘plab muhim masalalar ustozdor nazarida turgan. Davlatdagi tashtdor lavozimi ham muhim sanalib, u sultonning eng sirdosh kishisi hisoblangan. Tashtdor hukmdor mahfiy sirlaridan ogoh bo‘lib, doimo u bilan bahamjihat holda faoliyat yuritgan. Oliy lavozimlardan yana biri - qissador bo‘lib, u Sulton nomiga kelgan arz, shikoyatlarni yig‘ib, o‘rganib, ularni hukmdor hukmiga havola qilib borgan. Dargohdagi xizmat turlari ichida Chashnigir - sultonga beriladigan ovqat, ichimliklarni tekshiruvchi, jomador, davatdor (kotib), sharobdor, bayroqdor (amiri alam), xizmatkorlar boshlig‘i (maliki xavas) kabi vazifalar ham alohida ko‘zga tashlanib turadi. Ijroiya ishlar devonlar (vazirliklar) tomonidan amalga oshirilgan. Ayniqsa bunda bosh vazir katta mavqega ega bo‘lib, u faqat hukmdorga bo‘ysungan. Mansabdorlarni ishdan olish, ishga tayinlash, maosh, nafaqa tayinlash, xazina va soliq tizimini nazorat qilish, mahalliy vazirlar hisobotini olish va shu kabilar uning vakolatida bo‘lgan[1] .

Devonlar ham o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritganlar. Masalan, insho yoki tug‘ro devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug‘ullangan. Shuningdek moliya ishlari bilan istifo devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan ishrof devoni, harbiy ishlar bilan devoni arz yo jaysh shug‘ullangan. Sulton xonodoni hayotiga, iqtisodiyotiga tegishli yana bir muhim devon mavjud bo‘lib, u devoni xos nomi bilan atalgan.

So‘nggi Xorazmshohlar davrida harbiy sohaga alohida ahamiyat berilgan. Bunda bir necha yuz minglik qo‘shindan tashqari oliy hukmdorning maxsus shaxsiy gvardiyasi (haros) katta mavqega ega bo‘lgan. Sulton Muhammadning shaxsiy gvardiyasi 10 ming nafar kishidan tashkil topgan. harbiy qismlarda harbiy nazoratchi, sinohsalor, sohibi jaysh (viloyat qo‘shini boshlig‘i), amir ul-umaro, malik (10 ming qo‘shin boshlig‘i), chovush (chopar), josus (razvedkachi), askar qozisi kabi mansablar ham mavjud bo‘lgan.

---

[1] Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати. Т., «Ғофур Ғулом» нашр, 1998, 124-бет.

Takash va Muhammad Xorazmshohlarning katta qo‘shin tuzib boshqa mamlakatlar, ellarni bosib olish, ularni o‘z tasarruflariga kiritish borasida olib borgan ko‘p yillik istilochilik yurishlari, bir tomondan, Xorazmshohlar saltanati shuhratini oshirib, uning hududlarini benihoya kengaytirishga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, bu hol pirovard oqibatda bu davlatning chuqur ichki tushkunlikka, tanazzullikka yo‘liqishiga ham sabab bo‘ldi.

Jumladan, Takash o‘zining 80-90 yillardagi istilochilik yurishlari davomida Saraxs, Nishopur, Rey, Marv kabi muhim shaharlarni ishg‘ol etgan.

U g‘urlar podshosi G‘iyosiddin Muhammad bilan ko‘p davrlar urush qilib, old Osiyoga chiqishga muvaffaq bo‘ldi. 90-yillar boshlarida Takash qo‘shini saljuqiylar podshosi Tug‘rulbek II armiyasini ham engib, Eron, Kichik Osiyo hududlari tomon siljib bordi.

Takash vafotidan so‘ng davlat hukmdori bo‘lgan Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida ham mamlakat hududlari kengayishda davom etadi. Bu vaqtga kelib Xorazmshohlar davlati hududlari g‘arbiy-janubga qarab, Xormuz, Fors qo‘ltig‘i, Iroq erlariga qadar yoyiladi. Uning tarkibiga 400 dan ziyod shaharlar kirardi. Xorazmshoh Bag‘dod xalifaligini qo‘lga kiritish uchun ham intilgan. Bu esa butun musulmon olamining unga nisbatan qahru-g‘azabiga sabab bo‘lgan.

Muhammad Xorazmshoh 1211 yilda qoraxitoylarni uzil-kesil quvib, Xorazm dovrug‘ini ko‘targanidan so‘ng, u o‘ziga ortiqcha bino qo‘yib, o‘zini “Iskandari Soniy”, “Allohning erdagi soyasi” deb ulug‘lashni buyuradi. Garchand Xorazmshoh qanchalik o‘zini ko‘klarga ko‘tarmasin yoxud bosqinchilik urushlari olib bormasin, biroq bundan mamlakatning chuqur ichki ziddiyatlar va tanazzulliklarga duchor bo‘lganligini istisno etib bo‘lmaydi. Shohning katta qo‘shin tuzib, to‘xtovsiz olib borgan besamar urushlari, uning asoratli oqibatlari, eng avvalo, mamlakat xalqining tinkasini quritayozgandi. Buning ustiga mahalliy hokimlar, bek-amaldorlarning o‘zboshimchalik bilan xalq boshiga solayotgan behad jabr-zulmi, bunga javoban yuz berayotgan xalq g‘alayonlari (masalan, 1206-1207 yillarda Buxoroda, 1212 yilda Samarqandda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar) saltanatning ichdan emirilishiga sabab bo‘lmoqda edi. So‘ngra oliy hokimiyat ichidagi kuchli muxolifatchilik harakati, xususan Xorazmshoh bilan uning onasi Turkon Xotun tarafdorlari o‘rtasidagi ochiq-oshkor tarzdagi siyosiy kurash ham Xorazm davlatining beqarorlik holatini yaqqol ko‘rsatardi.

Qo‘shni Xorazmshohlar davlatida kechayotgan bu xildagi chuqur tanazzullik holatlaridan to‘la xabardor bo‘lgan, undagi barcha jarayonlarni o‘zining maxsus josuslik mahkamasi orqali sinchkovlik bilan kuzatib turgan Sharqdagi boshqa bir qudratli mo‘g‘ul davlati hukmdori Chingizxon esa katta harbiy tayyorgarlik ko‘rib, tez orada Movarounnahr sarhadlari tomon istilochilik urushlarini boshlashga chog‘lanayotgandi.

Darhaqiqat, XIII asrning birinchi choragida amalga oshirilgan mo‘g‘ul-tatar galalarining shafqatsiz bosqini nafaqat Xorazmshohlar davlati tarixida, balki shu bilan birga unda yashagan barcha ulug‘ ajdodlarimiz qismatida ham mislsiz fojia bo‘ldi.



(X-XI asrlar) (X-XII asrlar) (1097-1231)

Sinov savollari.

1. Xalifalikning Xuroson va Movarounnahrdagi hukmronligi ta’sirining tugatilishiga siz qanday omillar sabab bo‘lgan, deb bilasiz?
2. Somoniylar sulolasi tomonidan Movarounnahr hududlari qaysi davrga kelib yaxlit, mustaqil davlat sifatida tarkib topdi?
3. Ismoil Somoniyning davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirgan islohoti qanday maqsadlarni ko‘zda tutgan?
4. Somoniylar davrida o‘lkaning iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jihatlardan yuksalishiga qanday muhim omillar sabab bo‘lgan?
5. Somoniylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini tushuntirib bering?
6. Mintaqamizda kechgan turkiy qavmlar, elatlar hayoti, turmush tarzi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
7. Turkiy Qoraxoniylar davlatining yuzaga kelish jarayoni qanday tarixiy sharoitda kechgan?
8. Iqto’ tizimi va uning kimlar manfaatini ko‘zlab amalga oshirilganligi xususida tushuncha bering?
9. Qoraxoniylar sulolasi boshqaruvi tizimiga oid o‘ziga xos jihatlar va xususiyatlar nimada?
10. Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida mintaqa xalqlarining turmush tarzida, etnik tarkibida qanday muhim o‘zgarishlar ro‘y bergan?
11. Mahmud G‘aznaviyni tarixiy shaxs sifatida qanday baholash mumkin?
12. G‘aznaviylar davlatining tez yuksalib va tez inqirozga uchraganligining asosiy sabablarini tushuntirib bering?
13. Buyuk Saljuqiylar davlati qachon, qay tariqa va qaysi hududlar bo‘ylab vujudga kelgan?
14. Malikshoh davrida Saljuqiylar davlatida qanday muhim o‘zgarishlar amalga oshirilgan?
15. Buyuk Saljuqiylar davlati inqirozining asosiy sabalarini tushuntirib bering?
16. XI asr ikkinchi yarmiga kelib Xorazmning yangidan mustaqillik maqomiga ega bo‘lishi va uning yuksalib borishiga turtki bergan omillar to‘g‘risida tushuncha bering?
17. Xorazmshohlar saltanatidagi davlat boshqaruvi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
18. Xorazm davlatidagi ichki ziddiyatlar, muholifatchilik holatlarining kuchayib borishi qanday oqibatlarga sabab bo‘ldi?

## 6-mavzu: Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi

**REJA:**

1. Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ullarning Movarounnahrga bosqini. Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi.
2. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.
3. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti.

**Adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlangan nutqi. T.8.-T.: O’zbekiston, 2000, 72-78 betlar.
2. Usmonov Q. va boshqalar O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 146-163-betlar.
3. Buniyatov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: G’afur G’ulom, 1998, 134-150-betlar.
4. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. -T.: O’zbekiston, 1999. 7-68 betlar.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. - T.: Meros, 2002, 151-171 betlar.
6. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik -T.: 2003.


### 1.Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ullarning Movarounnahrga bosqini . Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi.

O‘z dovyurakligi ustakorligi, makkorligi bilan mashhur bo‘lgan Temuchin (1155-1227) XII asrning oxirlariga kelib nafaqat mo‘g‘ullarning ko‘p sonli urug‘-qabilalarini, shu bilan birga ular bilan yonma-yon, qo‘shni yashab kelgan ko‘plab turkiy elatlar, chunonchi, jaloirlar, oyratlar, qaraitlar, naymanlar, qoraxitoylar, qirg‘izlar, uyg‘urlar, qorluqlar va boshqalarni ham birin-ketin bo‘ysundirib, kuchli davlatga asos soldi. Bu davlat harbiylashgan tizimga asoslanganligi bilan ajralib turardi. Qo‘shinlarga: o‘n jangchiga bir boshliq – o‘n boshi, shuningdek yuz boshi, ming boshi va tumanboshilar boshchilik qilardi. Tuman deganda o‘n minglik qo‘shingina emas, balki shu qo‘shin safini to‘ldirishi kerak bo‘lgan butun bir tuman, ya’ni besh – o‘n ming o‘tovli yoki 50 mingga yaqin aholini jamlagan hudud nazarda tutilardi. har bir shunday tuman tepasiga tayin qilingan tumanboshi faqat o‘n ming jangchining qo‘mondoni bo‘libgina qolmay, ayni zamonda o‘z tasarrufidagi minglab fuqarolarning taqdirini ham hal etuvchi hokimi mutlaq hisoblanardi. Mazkur tumandagi barcha sudlov, jinoiy – javobgarlik va fuqarolik ishlari ham to‘laligicha uning tasarrufida bo‘lgan.

Temuchin oliy hokimiyat muruvvatlarini o‘zining o‘g‘illari va eng yaqin kishilariga topshiradi. Jumladan, uning yaqin safdoshlaridan Subitoy, Xubiloy, Jebe, farzandlari: Jo‘jixon, Chig‘atoy, O‘qtoy, To‘luyxonlar birinchi bo‘lib tuman sohiblari bo‘lganlar.

Temuchinning mo‘g‘ullarning ulug‘ xoqoni sifatidagi o‘rni va mavqeini har jihatdan mustahkamlash, bunga qonuniy tus berishda 1205 yili poytaxt Qoraqurumda bo‘lib o‘tgan umummo‘g‘ul Qurultoyi alohida ahamiyatga molik bo‘ldi. Qurultoyda Temuchin barcha mo‘g‘ul - tatar xonlarining ulug‘ xoni /qooni/ deb e’lon qilindi va unga Chingizxon laqabi berildi. (Chingizxon laqabi turli mualliflar tomonidan turlicha, chunonchi, «kuchli», «qudratli», «toza» yoki dengizlar /Dengizxon/, okeanlar hukmdori va xokazo ma’nolarda talqin qilinib kelinadi). Qurultoy tomonidan qabul qilingan «Yaso» hujjati /mo‘g‘ullar davlatining asosiy qonunlari majmuasi/ ulug‘ xon hokimiyatini yanada mustahkamladi. «Yaso» mo‘g‘ul jamiyatidagi mulkiy

tengsizlikning ifodasi sifatida ko‘zga yaqqol tashlanadi. U yangi paydo bo‘lgan hukmron tabaqa - tarxonlarga katta imtiyozlar berilishini ko‘zda tutardi.

Chingizxon ulug‘ hoqon deb e’lon qilingan birinchi kundayoq o‘zining eng yaqin kishilaridan 95 nafarini bahodur, mingboshilar etib tayinlaydi va bir necha ming kishiga tarxonlik yorliqlari beriladi. Chingizxon ayni paytda 10 ta oliy hokimiyat lavozimlarini ta’sis etadi va 150 kishidan iborat shaxsiy gvardiya hamda mingta «dovyurak» jangchilardan tarkib topgan shaxsiy drujina tuzadi (Keyinchalik uning soni 10 ming kishiga etkaziladi). Butun mamlakatda kuchli temir intizom, qattiqqo‘l tartib o‘rnatilib, jangovar harbiy safarbarlik ishlari avga oldirib borildiki, bu hol Chingizxoning xorijiy ellarni zabt etishdan iborat o‘z oldiga qo‘ygan yovuz, agressiv maqsadlarini tez orada amalga oshirishga imkon yarata bordi.

XIII asr boshlariga kelib Chingizxon qo‘shni davlatlar va xonliklarni birin - ketin bosib olishga kirishadi. Agar 1206 yilga qadar bepoyon G‘o‘bi sahrosidagi qavm - qabilalar itoatga keltirilgan bo‘lsa, 1206 - 1211 yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari /buryat, yoqut, oyrat, qirg‘iz va uyg‘urlar/ bo‘ysindiriladi. Mo‘g‘ul sarkardasi Xubiloy Ettisuvning shimoliy hududlarini ishg‘ol etib, bevosita Xorazmshohlar davlati chegaralariga yaqinlashib boradi. 1211 yilda uyg‘urlar eri istilo etilgach, Chingizxon Xitoyga hujum boshlaydi. 1215 yil boshlariga kelib Shimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishg‘ol etiladi. 1217 yilda Xuanxe daryosining shimolidagi barcha erlar mo‘g‘ullar tasarrufiga o‘tadi. 1218 yilga kelib esa Ettisuv hududining qolgan qismi ham mo‘g‘ullarga tobe bo‘ladi. Endilikda Chingizxonning asosiy bosh maqsadi uning jahonga hukmron bo‘lishiga katta to‘g‘onoq bo‘lib turgan buyuk Xorazmshohlar qo‘shinini tor-mor keltirib, uning erlarini o‘z qo‘l ostiga kiritish edi.

Bu davrda Xorazmshohlar davlatining ichki ijtimoiy - siyosiy hayoti g‘oyatda murrakab, ziddiyatli kechayotgan edi. Bu davlat tashqaridan ulug‘vor, keng hududlarga yoyilgan, qudratli saltanat tarzida ko‘rinsa-da va uning hukmdori Muhammad Xorazmshoh o‘zini «Iskandari soniy», «xudoning erdagi soyasi» deb bilsa-da, biroq haqiqatda esa mamlakat allaqachonlardan buyon ichdan emirilishga, tanazzullikka yuz tutgan edi. Avvalo, oliy hokimiyat boshqaruvida chuqur ixtiloflar mavjud edi. Bir tomondan, Muhammad yurgizayotgan rasmiy siyosatga nisbatan uning onasi Turkon Xotun va uning qavmlaridan iborat nufuzli siyosiy kuchlar doimiy muxolifatchilik munosabatida bo‘lib kelmoqda edi. Ikkinchi tomondan, mahalliy hududlar beklari va hokimlari markaziy hokimiyat bilan hisoblashmay o‘zboshimchalik qilar, xalqqa haddan ziyod jabr - zulm o‘tkazardi. Bu davrda Xorazmshohlar davlati oliy devonida ham, mahalliy hokimlar, amaldorlar o‘rtasida ham poraxo‘rlik, xoinlik, sotqinlik holatlari avj olib borayotganligi sir emasdi. Uchinchidan, xalqning hokimiyatdan noroziligi ko‘plab g‘alayonlarni keltirib chiqarmoqda edi. Bunday qaltis vaziyat, shubhsiz, mamlakat birligiga raxna solayotgan, uni tobora zaiflashtirayotgan edi.

Buning ustiga Muhammad Xorazmshohning xalifalik hududlarini qo‘lga kiritish da’vosi bilan 1217 yilda Bag‘dod sari qo‘shin tortishi ham xalifalikdagi hukmdorlarni qahru g‘azabga keltirgandi. hatto xalifa an-Nosir Chingizxonga elchilar orqali maxsus noma yo‘llab, undan yordam so‘raydi, mo‘g‘ul qo‘shinlarini Movarounnahr mulklariga bostirib kirishiga ham ishora qilgan edi.

Chingizxon qo‘shni davlatdagi bu xil siru – sinoatlardan to‘la xabardor edi. U Xorazm davlatidan Mo‘g‘ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlardan iborat o‘z josuslik mahkamasini tashkil qilib, ular xizmatidan foydalanib kelardi. Mahmud Yalovach, hasan Xoji, Yusuf O‘troriy singari kishilar shular jumlasidan edi. Shu bois Chingizxon va uning o‘rdasi Xorazmshohlar davlatida kechayotgan barcha ziddiyatli voqealardan, uning zaif nuqtalaridan xabardor edi. Chingizxon barcha vositalarni ishga solib, kerak bo‘lsa shuhratparast shoh Muhammadni tinchlantirib, amalda Movarounnahr ustiga yurishga puxta hozirlik ko‘radi. Ayni chog‘da urushga bahona izlash harakatida bo‘ladi. Xuddi shunday qulay bahona 1218 yilda sodir bo‘ldi. Shu yili Chingizxon amri bilan Xorazm davlatiga 500 tuyada qimmat baho sovg‘alar, tillo-kumush bisotlar, savdo mollari ortilgan, asosiy tarkibi musulmon savdogarlaridan iborat 450 kishilik karvon yuborildi. Biroq karvon O‘trorga kelib qo‘nishi bilanoq Xorazmshohning maxsus topshirig‘i bilan O‘tror hokimi uni yo‘q qilishga buyruq beradi. Shu tariqa, karvon

butunlay talanib, qirg‘in qilinadi. Chingizxon uchun endi Movorounnahrga bostirib kirish fursati etgan edi. Bu vaqtga kelib Chingizxon va uning lashkarboshilari tasarrufida 60 tumanli /ya’ni 600 ming nafarli/ jangovor qo‘shin tayyor holga keltirib qo‘yilgandi.

Chingizxon qo‘shinining hujumi xavfi yaqinlashib kelayotganligini Muhammad Xorazmshoh va uning arkoni davlati ham yaxshi bilardi. Shoh muayyan harbiy tayyorgarliklar ko‘rish, shaharlarning mudofaa istehkomlarini mustahkamlash, qo‘shinlar safini kupaytirish harakatida bo‘ldi. Biroq asosiy harbiy strategik masalalarda u o‘ta no‘noqlik, nodonlik va kaltabinlik qildi. U o‘zining sarkarda o‘g‘li Jaloliddin, Xo‘jand hokimi, dovyurak bahodir Temur Malik singari etuk kishilarning harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarda to‘plab, dushmanga hal qiluvchi zarbalar berish kerakligi to‘g‘risidagi to‘g‘ri, dono maslahatlarining ahamiyatini tushunmadi, ularga quloq solmadi. Sulton o‘z qo‘shinlarini turli shaharlarda alohida-alohida joylashtirishdan iborat xato taktikani qo‘lladi. Chingizxonning son-sanoqsiz qo‘shinlari mamlakatga bostirib kira boshlagach, Xorazmshoh o‘z tinchi, halovatini ko‘zlab, mamlakat taqdirini o‘z holiga tashlab, yaqin xeshu aqrabolari bilan janubga tomon siljishi (qochishi) ham xoinlik bo‘ldi. Bunday holat tez orada butun mamlakat uchun fojiali oqibatlarga olib keldi, yurt himoyachilari taqdiri, ruhiyatida o‘chmas, asoratli iz qoldirdi. Xalqning sog‘lom, vatanparvar kuchlari esa yurt ulug‘larining bunday ikkilanishi, xiyonatiga qaramay, muqqadas ona zaminni ko‘krak kerib himoya qilish, bosqinchilarga qarshi qahramonlarcha kurashga tashlandilar. Bu mislsiz jangu jadallarda ularning qancha - qanchasi o‘zlarini yurt ozodligi uchun qurbon qildilar.

Mo‘g‘ullarning birinchi hujumiga duchor bo‘lgan hudud O‘tror shahri bo‘ldi. Chingizxon va uning lashkarlarining o‘trorliklardan alohida o‘chi borligi avvaldan ma’lum. Negaki Chingiz yuborgan savdo karvoni huddi shu erda saronjom qilinganligi ularning yodidan ko‘tarilmagandi. Chig‘atoy va O‘qtoyning son-sanoqsiz kuchlari shahar qal’alariga bosqin uyushtirgan kezlarda O‘trorliklar ularga qarshi mardonavor jang qildilar, qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Shahar aholisi G‘oirxon /Inalchuq/ va Qorachor bahodirlar etakchiligida tengsiz dushman bilan uzoq vaqt jon berib, jon olishdilar. Shahar mudofaasi 5 oydan ziyod davom etdi. Xalq qarshiligi mislsiz bo‘ldi. Biroq shahar dushman tomonidan egallandi.

Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» kitobida ta’kidlanganidek: «... O‘trorning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar va qatl qildilar. …O‘tror xisorini qo‘lga kiritib, er bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, ra’iyat va hunarmandlarning ba’zilarini hibsga oldilar, ba’zilarni esa qul qilib haydadilar».

Mo‘g‘ul bosqinchilari Movarounnahrning boshqa hududlarida ham ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yovuzliklarni sodir etdilar. Buning yaqqol ifodasini ularning gullab-yashnagan Buxoro, Samarqand, Xo‘jand singari shaharlar va ularning aholisiga nisbatan qilgan behad yovuzliklari misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Chingiz qo‘shini 1220 yilning ilk bahorida musulmon Sharqining yirik islom markazlaridan sanalgan Buxoro ustiga balo-qazodek yopirilib keladi. Buxoro xalqi bir necha kun davomida dushmanga matonat bilan qarshilik ko‘rsatadi. Bu esa Chingizxonni darg‘azab etadi. Natijada u shaharni yakson qilish, boyligini talash, xalqini qirg‘in qilishga buyruq beradi. Buxoro qamali 12 kechayu-kunduz davom etdi. Mo‘g‘ullar yondirilgan, kuli ko‘kka sovurilgan shaharni egallagach, ko‘ngillariga siqqan noma’qulchiliklarni amalga oshirdilar, shahar himoyachilari butunlay qirib tashlandi.

Chingizxon galalari Xorazmshoh davlatining eng yirik va obod shaharlaridan biri Samarqandni qo‘lga kiritish uchun ham barcha makkorona tadbirlarni qo‘lladilar. 100 mingdan ziyod sara qo‘shinlar to‘plangan, mustahkam istehkomlar barpo qilingan nuqtalarga o‘z kuchlarini tashlab ko‘rdi, atrof joylarni oldin bosib olib, shaharni tashqi dunyodan ajratishga harakat etdi yoxud boshqa bahodirlar qo‘shinidan qo‘shimcha kuchlar chorlab, bu joyga son-sanoqsiz jangovar lashkar to‘plashga muvaffaq bo‘ldi. Shu tariqa, uch kunlik qattiq jangdan so‘ng Chingizxon qo‘shini shaharga yorib kirish va uni butunlay o‘ziga bo‘ysundirishga erishadi.

Mo‘g‘ul istilochilariga qarshi ulug‘ ajdodlarimizning qahramonona kurashida Xo‘jand himoyachilari ko‘rsatgan favqulodda jasorat alohida o‘rin tutadi. Temur Malik boshchiligidagi mudofaa kuchlari qariyib 5 oy davomida ko‘ksilarini qalqon etib, yovuz dushman hamlasini daf etib, behisob qurbonlar berib o‘z yurtini himoya qildilar, ilojsiz qolgan paytdagina olov ichida

yonayotgan shahar qal'asini tark etdilar. Shunda ham Temur Malik bir qism dovyurak, qo'rqmas jangchilari bilan Sirdaryoga yo'nalib, maxsus orolda joylashib dushman bilan mardlarcha olishadi. Nihoyat, ular maxsus kemalarda mo'g'ullar hujumiga bardosh berib, yo'l-yo'lakay jang qilib, Xorazm sari harakatlanadilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik faoliyati Xorazm va ona yurtning boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida davom etdi.

Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Xo'jand singari hayotiy markazlarining qo'ldan ketishi Xorazmshoh va uning arkoni davlatini shu qadar larzaga soldiki, buning natijasida hukmdor o'z saltanatining janubiy-g'arbiy hududlariga tomon chekinib bordi. O'zining kaltabin siyosati, qat'iyatsizligi, qo'rqoqligi orqasida kechagi «qudratli» xukmdor endilikda ojizu notavon bir kimsaga aylanib qoldi. Ilojsiz qolgan shoh oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura oroliga qochadi. O'sha erda katta o'g'li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220 yilning dekabrida xoru-zorlikda bandalikni bajo etadi. Uning boshqa o'g'illari: Ozloqshoh va Oqshohlar ham mo'g'ullar tomonidan asir olinib, qiynab o'ldiriladi. Podshoh bilan ko'p yillar muxolafatchilik qilib, mamlakatning parokandalikka, chuqur ziddiyatlarga yo'liqishiga sababchi bo'lgan, o'ziga haddan ziyod bino qo'ygan, saltanat ichida saltanat qurgan Turkon xotun qismati ham oxir-oqibat fojiali yakun topdi. U ham mo'g'ullar tomonidan asir olinib, behisob molu dunyosi talanib, o'zi Mo'g'ulistonga haydab ketiladi. Tarixiy manbalarda Turkon xotunning Chingizxon xotinlaridan biriga cho'ri sifatida tortiq qilingani aytiladi.

Xorazm poytaxti Gurganch mudofaasi ham mo'g'ullar istilosi tarixining alohida bir fojiali sahifasi bo'lgan desak xato bo'lmaydi. Gurganch qamali 7 oy davom etdi, hadsiz-hisobsiz qurbonlar berildi. Shahar egallangach, mo'g'ullarning bu erda sodir etgan mislsiz yovuzliklarini bayon etishga qalam ojizlik qiladi. Barcha erkaklar, bolalar qilichdan o'tkaziladi. Xotin-qizlar qip-yalang'och qilinib, bir-biri bilan urishishga majbur etiladi, so'ngra mo'g'ul jangchilari tanloviga beriladi, qolganlari qirib tashlanadi. hech kimga shafqat ko'rsatilmaydi. Shaharning o'zini er bilan barobar qilish uchun Amu to'g'oni ochib yuborilib, Gurganch suv ostida qoladi. Shahardagi uzoq asrli ma'naviyat durdonalari, qimmatli qo'lyozmalar, kitoblar saqlanib kelgan kutubxonalar, barcha asori-atiqalar er bilan yakson etiladi.

Movarounnahrning asosiy shaharlarini bosib olgan, behisob boyliklarga ega bo'lgan, o'z g'alabalaridan g'ururlangan mo'g'ullar 1221 yil davomida Xuroson o'lkasi hududlari tomon hujum boshlab, birin-ketin Balx, Termiz, Marv, Nishopur, hirot, Mozandaron singari boy shaharlar, qal'alarni bosib oldilar. Biroq shuni aytish joizki, mo'g'ul bosqinchilari Movarounnahr va Xuroson erlarini osonlikcha qo'lga kiritgan emaslar. Ular bu erlarda mahalliy xalq va uning qo'rquv bilmas, sheryurak farzandlarining tillarda doston bo'lgilik mardlik jasoratlariga duch keldilar, katta talofatlar berdilar. Shu o'rinda Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, jasur lashkarboshi Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga to'xtalib o'tmoqlik joizdir. U mo'g'ullar istilosi boshlangan kundanoq doimo yurt himoyachilari tomonida turdi, ularga rahnamo bo'ldi. Ona Vataniga bo'lgan cheksiz mehr hissi, farzandlik burchi uni shu qadar elga mashhur qildiki, hatto uning nomini eshitgan Chingizxonning ham sochi tik bo'lib, yuzi tundlashar, uni qo'lga tushirish yoxud jismonan yo'q qilish chora-tadbirlarini izlardi. Jaloliddin o'zining botir jangchilari bilan o'n yillar davomida hali Movarounnahr, hali Afg'on va hind, hali Eron yoki Kavkaz orti hudularida paydo bo'lar, yangidan xalq lashkarlarini jamlab, mo'g'ul bosqinchilari zulmi va hukmronligiga qarshi tinim bilmay jang qilar, xalq erki, ozodligi va hurligi yo'lida sabot bilan kurashardi.

Ayniqsa shu o'rinda uning Chingizxonning katta qo'shini bilan Sind daryosi qirg'oqlarida yuz bergan tengsiz jangdagi mislsiz jasoratini keltirib o'tish joizki, bunga mo'g'ul hukmdorining o'zi ham tan berib, lol qolgan edi. Bu hayot – mamot jangida Xorazm bahodiri, uning yigitlari arslonlardek jon berib, jon olardi. «Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuprog'ni qonga bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rsa edi, u sulton Jalol (uddin) ning qo'lini o'pgan bo'lardi».[1]

---

[1] Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи., Т., Чўлпон, 1994,182-бет.
[2] Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т., 183-184 бетлар.

Ammo Chingizxon lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda holiga tushib qolgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar sara lashkar jang oqibatini Chingizxon foydasiga hal qiladi. Nochor, tang ahvolga tushib qolgan Jaloliddin qora to‘riq otiga minib, so‘nggi bor mo‘g‘ullarga hamla qilib, so‘ng ot jilovini ortga tortadi.

Sovutini elkasidan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o‘zini Sind daryosiga otadi. Jaloliddin bahaybat daryo to‘lqinlarini shiddat bilan kesib o‘tib narigi sohilga o‘tib oladi. Uning etti jangchisi ham bunga muvaffaq bo‘lishadi.

Bu g‘aroyib manzarani o‘z ko‘zi bilan kuzatib turgan Chingizxon hayratdan tang qolib, o‘g‘illariga qarata shunday degan ekan: «Otadan dunyoda hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo‘lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo‘lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug‘ xudo ishidir»[2] .

Jaloliddin goh zafar quchdi, goh mag‘lubiyat alamini tortdi, biroq kuchli dushman oldida bosh egib, mag‘lub bo‘lmadi. Lekin ne ko‘rgilikki, Jaloliddin Manguberdining aziz umri yovlar bilan jang maydonida, yakkama-yakka olishuvda emas, balki bir alamzada qurdning banogoh tig‘idan xazon bo‘ldi. Bu mudhish voqea 1231 yilning 17-20 avgustlarida Ozarbayjon hudularida sodir etildi.

Jaloliddinning el - ulus, vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi fidoyiligi, mislsiz jasorati mangulikka daxldordir. Istiqlol nashidasini surayotgan mustaqil O‘zbekistonda ulug‘ ajdodlar ruhining e’zozlanayotgani, jumladan, Jaloliddin Manguberdi qutlug‘ tavvaludining 800 yillik yubileyi umummamlakat miqyosida keng nishonlanganligi ham buning yaqqol ifodasidir.

Shunday qilib, mo‘g‘ul istilochilari qisqa davr ichida goh beadad qirg‘inliklar keltirish, goh mahalliy xalqlar orasida g‘ulg‘ula, havf-xatar solish, yoxud ular orasidagi xiyonatkor, sotqin unsurlarni ishga solish orqasida Movarounnahr va Xuroson erlarini egallab, bu hududlarga mislsiz moddiy va ma’naviy zarar etkazib, o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldilar. Kechagina gullab-yashnagan vodiylar, yam-yashil, obod qishloqlar, suv inshootlari, to‘g‘onlar yakson etildi, ekin maydonlari suvsizlikdan qovjirab qoldi. Buyuk ipak yulining shuxrati so‘ndi, shaharlar hayoti fayzsiz bo‘lib qoldi. Xalqning ko‘p asrlik ma’naviy bisoti, noyob asori atiqalari, qadriyatlari oyoq osti qilindi.

## 2. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.

Chingizxon o‘z hukmronligining so‘ngi davrlariga kelib, o‘z qo‘l ostiga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o‘rtasida taqsim qiladi. Chunonchi, Irtish daryosining narigi tomonidan to «mo‘g‘ullar otining tuyog‘i etgan joygacha» bo‘lgan erlar, Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoliy - g‘arbiy qismlari to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jiga berildi. Qashqar, Ettisuv va Movarounnahr erlari Chingizning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga berildi. Keyinroq Baroqxon /1266-1271/ davrida Chig‘atoylar hukmronligi hozirgi Shimoliy Afg‘on hududlarigacha yoyildi. Chig‘atoy O‘rdasi /ko‘shi/ Ili daryosi bo‘yida edi. Uchinchi o‘g‘il O‘g‘adoy /O‘qtoy/ga esa G‘arbiy Mo‘g‘uliston va unga tutash o‘lkalar ajratildi. Kenja o‘g‘il To‘luyxonga ota ulusi - Xanka-Mo‘g‘uliston, ya’ni shimoliy Mo‘g‘uliston meros qilib berildi. Keyinchalik Chingizxonning jahongirlik yurishlarini davom ettirib, Sharqiy Evropaning katta qismini bosib olib, Oltin O‘rdaga asos solgan uning nabirasi Botuxon hukmronligi davrida /1227-1255y./ Movarounnahrning qator hududlari, chunonchi, Xorazm shimoli, Sirdaryo quyi etaklari ham uning ta’sirida bo‘lgan. Chig‘atoy avlodlaridan Olg‘uy /1261-1266/, Baroqxon /1266-1271/ davrlariga kelibgina Chig‘atoy ulusi /Movarounnahr erlari/ Oltin O‘rda ta’siridan holi bo‘lishga muvaffaq bo‘ladi.

Shunday qilib, Chingizxon avlodlari o‘rtasidagi merosiy bo‘linish natijasida Movarounnahr asosan Chig‘atoy va uning vorislariga o‘tib, u Chig‘atoy ulusi nomi bilan atala

boshladi. Endilikda Mo‘g‘ul hukmdorlari Movarounnahr o‘lkasini boshqarishga kirishar ekanlar, ular qanday qilib bo‘lmasin, uning xalqini yanada itoatga keltirish, bu erdan mo‘g‘ul zodagonlari uchun ko‘proq soliq va o‘lponlar o‘ndirish, qo‘shimcha majburiyatlar yuklash harakatida bo‘ladilar. Qizig‘i shundaki, mo‘g‘ullar Movarounnahrni idora etishda bu erlik juda ko‘plab sotqin, xoin kimsalar xizmatidan ustamonlik bilan foydalandilar. Shu o‘rinda Mahmud Yalovach, Badriddin Amid, hasan Xo‘ja, Ali Xo‘ja, Yusuf O‘troriy, Qutbiddin Xabash Amid singari mo‘g‘ul hukmdorlari bilan yaqindan hamkorlik qilgan mahalliy amaldorlar ismlarini keltirib o‘tish joizdir. Shu boisdan ham ulug‘ qoon O‘g‘adoy /1227-1241/ va Movarounnahr hukmdori Chig‘atoy /1127-1241/ davrida bu hudud ular tomonidan mahalliy yirik savdogar, diplomat, sotqinlik evaziga mo‘g‘ullar ishonchini qozongan Mahmud Yalovach tasarrufiga berilgani tasodifiy emasdir. U qoon nomidan raiyatni boshqaradi. Uning qarorgohi /poytaxti/ Xo‘jand edi. harbiy hokimiyat, aholini ro‘yhatdan o‘tkazish, soliq yig‘ish ishlari doruxachi va tamg‘ach deb ataluvchi mo‘g‘ul amaldorlari qo‘lida bo‘ladi. Mo‘g‘ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko‘p sonli jangchilar Mahmud izmiga bo‘ysundirilgan. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasi uchun quydagi soliqlar undirilgan:

1. Kalon yoki er solig‘i. Dehqon erning sharoitiga va sifatiga qarab hosilning o‘ndan birini to‘lagan. Oliy mansabdorlar undan xoli bo‘lganlar.

2. Ko‘pcho‘r va shulsi solig‘i. Ko‘chmanchi aholidan ko‘pcho‘r solig‘i bo‘yicha har yuz bosh qora moldan bittasi olingan. Shulsi solig‘i bo‘yicha har bir qo‘ra mayda moldan bir qo‘y, ming otdan bir biya olingan.

3. Targ‘u solig‘i hunarmandlar va savdogarlardan olinib, ishlab chiqarishdan yoki sotilgan molning o‘ttizdan bir qismi hajmida belgilangan.

4. Tuz solig‘i;

5. Jon va kumush solig‘i.

Bundan tashqari aholi turli-tuman to‘lovlar berishga majbur etilgan. Masalan, aholi savdo yo‘llarida bekatlar-yomlar uchun go‘sht, un, guruch berishga hamda yomlar uchun ot-ulov berishga ham majbur etilgan. Bosib olingan mamlakat hunarmandlari «din tugun» deb atalgan maxsus o‘lpon to‘lab turganlar.

Mo‘g‘ullarning Movarounnahr hududini bosib olib, shib-shiydom etib, talon-taroj qilishi, so‘ngra mahalliy aholini haddan ziyod soliq, o‘lpon va to‘lovlar yo‘li bilan zulm-asoratga duchor etishi, pirovard oqibatda xalqning ko‘tarilishiga, o‘z erki, mustaqilligi uchun qalqishiga sabab bo‘ldi. 1238 yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog‘ida boshlangan oddiy elaksoz, hunarmand Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni shu tariqa yuz bergan edi. Kelgindi mo‘g‘ul zodagonlarining mahalliy yuqori tabaqa vakillari bilan til biriktirib, bechorahol xalqni talab, boylik ortirayotganligi, shohona ayshu ishrat qurayotganligi, oddiy fuqaroning turmushi tobora nochorlashib boryotganligi Mahmud Torobiy va uning maslakdoshlarini g‘azabga keltirdi va qo‘lga qurol olib mo‘g‘ullar zulmini ag‘darib tashlash uchun kurashga undadi. Uning tevaragiga ming-minglab alamzada oddiy mehnat kishilari to‘planishdi. Buxoro atrofidagi qishloqlar aholisi bilan ko‘payib borgan qo‘zg‘olonchilar Buxoroga kelib, mo‘g‘ul amaldorlarini, shuningdek mahalliy zodagonlar, sadrlarni engib, shaharni egallaydilar. Buxoro sadrlari Mahmud Torobiy hokimiyatini tan olib, uni xalifa deb e’lon qilishga majbur bo‘ladilar.

Mahmud Torobiy Buxoroni egallagach, hukmron kuchlar hokimiyatini cheklaydi va oddiy xalq manfaatlarini ko‘zlaydigan bir qator tadbirlar o‘tkazadi. Shu boisdan ham Torobiy shaxsini kamsitishga uringan tarixchi Juvayniy bu xususda shunday yozadi: «amaldor va mo‘tabar zotlarning katta qismini u xaqorat qildi, kamsitdi, ayrimlarini o‘ldirdi, qolganlari qochishdi. Oddiy fuqaroga va daydilarga esa hurmat-izzat ko‘rsatdi». Qo‘zg‘olonchilar zarbidan Karmanaga qochgan mo‘g‘ul bosqoqlari va amirlari qo‘zg‘olonni bostirish uchun yangidan katta kuch to‘playdilar va Buxoroga yurish boshlaydilar. Ammo bu davrga kelib katta kuchga aylangan qo‘zg‘olonchilarning qo‘li baland keladi. 10 mingdan ziyod mo‘g‘ul askarlari qirib tashlanadi. Mo‘g‘ullar yana Karmanaga chekinishga majbur bo‘ladilar. Biroq qo‘zg‘olonchilar g‘alabasi ham ularga qimmatga tushadi. Negaki mana shu hal qiluvchi olishuvda qo‘zg‘olon rahnamolari - Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar halok bo‘ladi. Bu esa

qo‘zg‘olonchilarning amalda yakkalanib qolishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham tez orada qo‘zg‘olonga qarshi yuborilgan Eldiz No‘yon va Jikan Qo‘rchi boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari uni tor-mor etadilar. Bu jangu jadal to‘qnashuvda 20 mingdan ziyod qo‘zg‘olonchilar xalok bo‘ladi. Garchi bu xalq qo‘zg‘oloni mag‘lub etilsa-da, biroq u Movarounnahr erksevar xalqining ozodlik va mustaqillik yo‘lidagi mardonavor kurashi, qat’iyatini to‘la namoyon etdi. Ayni chog‘da Torobiy qo‘zg‘oloni mo‘g‘ul hukmdorlari uchun mahalliy xalq bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish, boshqacha siyosiy va taktik yo‘llarni qo‘llanish uchun ham muhim saboq berdi. Mahalliy xalq orasida ancha obro‘sizlanib qolgan Mahmud Yalovachning mo‘g‘ul hukmdorlari tomonidan Movarounnahrdan olinib, Pekinga hokim etib tayinlanishi, uning o‘rni katta o‘g‘li Ma’sudbekka berilishi ham qo‘zg‘olonning muhim saboqlaridandir.

Darhaqiqat, Ma’sudbekning Movarounnahrdagi hukmronlik davri (1238-1289 yy)ni ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu shaxsning otasidan keskin farqli o‘laroq g‘oyatda ustakorlik, ehtiyotkorlik bilan ish yuritganligini, siyosiy, diplomatik sohalarda epchillik bilan siyosat olib borganini ko‘ramiz. Gap shundaki, Ma’sudbek bir tomondan, hukmron mo‘g‘ul xonlari, aslzodalari bilan umumiy til topishga harakat etib, ularning manfaatlari, qiziqishlariga mos keladigan siyosat yurgizgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, Movarounnahr hududlarining iqtisodiy yuksalishi, savdo-sotiqning jonlanishi, siyosiy barqarorlikni ta’minlash bobida katta sa’y-harakatda bo‘ldi. Bu esa o‘lkada ko‘pgina muhim ijobiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishida yaqqol namoyon bo‘ldi. U mo‘g‘ul xonlari o‘rtasidagi toju-taxt, hukmronlik uchun yuz bergan o‘zaro ixtiloflardan ustalik bilan foydalanish, ayniqsa o‘lkada savdo-sotiqni jonlantirish, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U o‘zining nufuzli ta’siri bilan mo‘g‘ullar ulug‘ hoqonlari-Guyukxon (1246-1248), Manguxon (1251-1260) hamda Chig‘atoy xonlaridan Olg‘uyxon (1261-1266) singari hukmdorlarni Movarounnahrga nisbatan tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga ko‘ndira bildi.

Ma’sudbekning bevosita tashabbusi bilan 1271 yilda o‘tkazilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bir xil vazn va o‘lchovdagi sof kumush tangalar zarb etildi. Bu tangalar qaerda zarb etilishidan qat’iy nazar umumdavlat muomalasiga kiritildi. Pul islohoti savdo-sotiq va xo‘jalik ishlarida ijobiy voqea bo‘ldi. Bu tadbirning muhim tomoni shundaki, kumush tangalar zarb etish emin-erkin bo‘lib, xohlagan shaxs o‘z kumush buyumini zarbxonaga olib kelib, o‘zi istaganicha sof kumush tangaga aylantirishi mumkin edi.

Ma’sudbek davrida mo‘g‘ullar istilosi paytida xonavayronlikka yuz tutgan Buxoro, Samarqand, ho‘jand, Toshkent, Termiz singari shaharlar ancha gavjumlashib, yangidan savdo-sotiq, hunarmandchilik ishlari rivojlanib bordi. O‘sha davr me’morchiligi, shaharsozligi talablariga javob beradigan bir qator yangi obod shaharlar, jumladan, Andijon, Urganch, keyinroq Qarshi shaharlari bunyod topadi. Farg‘ona muzafotidagi O‘zgan, Axsikent, Marg‘ilon, Isfara, Kubo /xozirgi Quva/ shaharlari ham o‘sha zamonning obod va rivojlangan shaharlari sirasiga kirgan.

Movarounnahr hududlarida yuz bergan bu xildagi ijobiy o‘zgarishlarda Chig‘atoy ulusi xoni tashabbusi bilan mo‘g‘ul no‘yonlari va shohzodalarining 1269 yilda Talas vodiysida bo‘lib o‘tgan qurultoy va undagi tarixiy kelishuvning roli va ta’siri katta bo‘ldi. Mazkur qurultoy barcha mo‘g‘ul xonlari, aslzodalariga qaerda yashashlaridan qat’i nazar mahalliy aholi hayoti, turmush tarziga aralashmaslik, belgilab qo‘yilgan soliq, to‘lovlar bilan qanoatlanish, ekin maydonlarini payxon qilmaslik majburiyatini yukladi. Ularni Movarounnahr erlariga ko‘chib, asta sekin o‘troq hayotga o‘ta borishga da’vat etdi. XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo‘g‘ullarning mahalliy aholiga, ularning turli ijtimoiy qatlamlariga nisbatan munosabatlari ham keskin o‘zgarib bordi. Dastavval mo‘g‘ullarning hukmron doiralari erlik aholining yirik mulkdorlari, ruhoniylari, savdo-sotiq, hunarmand tabaqalari bilan umumiy til topib boradi. Bu hol shaharlar hayotining to‘la tiklanishi, gavjumlashishida, savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi, hunarmandchilik turlarining ko‘payib, yuksalib borishida, ziroatchilik tarmoqlarining o‘sishi, karvon yo‘llarining izga tushishida yorqin ko‘zga tashlanadi. Ayni paytda bir mahallar islom arkonlarini oyoq-osti qilgan, din peshvolarini tahqirlab, ho‘rlagan mo‘g‘ul xonlari, amaldorlari

tarixiy vaziyat taqazosi bilan endilikda o‘z qarashlarini o‘zgartirib, musulmon ruhoniylariga hayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo‘la boshladilar.

XIV asr birinchi choragiga kelib, Chig‘atoy ulusida islom rasmiy davlat dini maqomiga ega bo‘ldi. Mo‘g‘ul ulug‘larining islomga munosabatining o‘zgarishi, asta-sekin uni qabul etishi ularning mahalliy aholi bilan yaqinlashuvi va shu hududda chuqur tomir otib borishlarida o‘z ifodasini topib bordi. Shuningdek mo‘g‘ul qabilalari, elatlari bilan birga XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab turkiy urug‘-qavmlar ham Movarounnahrga kelib o‘rnasha boshladi. Jumladan, barloslar Qashqadaryoda, jaloirlar Ohangaron vodiysida, arlotlar Afg‘oniston shimolida, kavuchinlar Tojikiston janubida, turkiylashgan mo‘g‘ullar urug‘i-so‘fiylar Xorazmda joylashib, chuqur tomir otib bordi. Bu esa turkiy xalqlar, elatlarning o‘lkadagi mavqeining yanada mustahkamlanishiga, turkiy til va uning shevalari ta’sirining ortib borishiga bois bo‘ldi. XIV asrdan boshlab Chig‘atoy ulusida mo‘g‘ul xonlari boshqaruvi sohasida ham muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar, dastavval, Chig‘atoy xonlaridan Duvoxon /1282-1306/, uning o‘g‘illari Kebekxon /1318 - 1326/, Tarmashirin /1326 - 1334/ nomlari bilan bog‘liqdir. Jumladan, Duvaxon davrida katta vakolatga ega bo‘lgan Ma’sudbek singari yurt hukmdorlari sa’i-harakatlari bilan shaharsozlik rivojlanganligi, savdo-sotiq ahli katta naf topganligi, qishloq xo‘jaligi ancha yuksalganligi ko‘zga tashlanadi. Kebekxon esa o‘z qarargohini mo‘g‘ul hukmdorlari orasida birinchi bo‘lib Movarounnahrga ko‘chirdi. Qashqadaryo vohasidagi Nasaf shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda uning buyrug‘i bilan saroy /mo‘g‘ulcha ma’nosi «qarshi»/ bunyod etilib, Qarshi nomi bilan poytaxtga aylantirilishi o‘sha davrning muhim voqealaridan bo‘lgan.

Kebekxonning muhim xizmatlaridan yana biri-bu uning pul va ma’muriy-hududiy sohalarda o‘tkazgan islohotlaridir. Xususan 1321 yilda o‘tkazilgan pul islohotida xulagiylar davlati va Oltin O‘rdadagi amaldagi pul tizimi hisobga olingan edi. Og‘irligi 8 grammdan ortiq bo‘lgan yirik kumush tanga 1 dinor deb atalgan, u 8 dirhamga, ya’ni 8 ta mayda tangachaga teng bo‘lgan. Yangi pul birligi «Kepaki» nomi bilan mashhur bo‘lgan. 1 dinor kepakiyning vazni ikki misqolga, bir dirham kepakiy esa 1/4 misqolga teng bo‘lgan. Islohotning dastlabki yillarida Kebek nomi bilan mashhur bo‘lgan bu tangalar ko‘plab hajmlarda Samarqand va Buxoroda zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu ikki xil qimmatga ega bo‘lgan kumush tangalar keyinchalik boshqa hukmdorlar tomonidan ham chiqarilgan. Masalan, Tarmashirin davrida O‘trorda ko‘plab kumush tangalar chiqaradigan zarbxona muntazam ishlab turgan. Kebekning pul islohoti tashqi va ichki savdoning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratib berishga xizmat qildi.

Ma’muriy islohotga ko‘ra Movarounnahr hududlari tumanlar (mo‘g‘ullar tartib qilgan 10 ming askar beradigan, aholisi 40-50 ming nafar bo‘lgan, hozirgi tumanlarimizga qiyos etsa bo‘ladi - izoh) ga bo‘lindi. Jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg‘ona viloyatida 9 ta tuman tarkib topgan. Kebekxonning o‘lkada tinchlik, osoyishtalik va totuvlik o‘rnatish borasidagi siyosatini Tarmashirin izchil davom ettirdi. U islomni qabul etib, uni davlatning rasmiy dini darajasiga ko‘tardi. Kebekxon yo‘nalishida siyosat yurgizgan mo‘g‘ul xonlarining navbatdagi vakili Qozonxon /1334-1346/ ham Movarounnahr hududlari birligini saqlash, tubjoy aholi manfaatlarini himoya qilish uchun mahalliy mo‘g‘ul va turk amirlari, no‘yonlarining olib borayotgan bir yoqlama kurashlarini bartaraf etishga intildi. U o‘zi uchun qarorgoh sifatida Qarshi bilan Buxoro oraligida (hozirgi Muborak tumani hududida) mashhur Zanjirsaroy qal’asini qurdirdi. Biroq markazdan qochuvchi kuchlarning, dastavval, ko‘chmanchi mo‘g‘ul amirlarining kuchayib borayotgan ta’siri va fitnasi oqibatida 1346 yilda Qozonxon qatl etiladi. Shundan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan amir Qozog‘on (1347-1358) o‘tmishdoshlaridan keskin farq qilib ko‘chmanchi mo‘g‘ul zodagonlari manfaatlarini yoqlab siyosat yurgizdi. Uning o‘zi ham bir joyda muqim yashamasdan ko‘p vaqtini talonchilik yurishlarida o‘tkazardi. Buning oqibatida uning davrida mahalliy aholi tub manfaatlari bilan mo‘g‘ul hukmdorlari manfaatlari tobora zid kela bordi. Bu esa Movarounnahrda yana siyosiy vaziyatning keskinlashuviga, hokimiyatga intiluvchi kuchlarning faol harakatga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu kurashlarning avj olib borishi oqibatida amir Qozog‘on ham haloq bo‘ladi.

Ayniqsa XIV asrning 40-60 yillariga kelib Movarounnahrning hududiy parchalanishi kuchayib borganligi, markazdan qochuvchi kuchlarning besamar urushlari, ayrim mo‘g‘ul xonlarining nomigagina hukmdor bo‘lib, amalda ayrim ta’sirli sulolaviy kuchlar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lganligi-bular shak-shubhasiz, o‘lka hayotining har jihatdan tushkunlik va tanazullik girdobiga g‘arq etdi. XIV asrning 40 yillarida Chig‘atoy ulusi ikki qismga: Ettisuv, Farg‘onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo‘g‘ulistonga va g‘arbiy ulus, ya’ni Movarounnahrga bo‘linib ketdi.

Bunday sharoitda Movarounnahr yurtini birlashtirish, mahalliy hukmdor unsurlarning o‘zboshimchalik, boshboshdoqlik harakatlariga chek qo‘yish, jafokash xalqni mo‘g‘ullar zulmi va istibdodidan butkul xalos etish va unda qudratli markazlashgan davlat barpo etishdan iborat yuksak vazifa tarixiy zaruriyat taqazosi bilan kun tartibiga qo‘yildi. Uni muvaffaqiyatli uddalash esa ulug‘ bobokolonimiz Amir Temurga nasib etdi.

## 3. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti.

Bosqinchi yovlar azaldan yuqori tsivilizatsiya o‘chog‘i sanalgan, ulug‘ ajdodlarimiz aql-zakovati va donishmandligi bilan yaratilgan yuksak moddiy va ma’naviy madaniyat, betakror obidalar, asori-atiqalar makoni bo‘lgan bu azim yurtni qanchalik xonavayron etmasinlar, biroq xalq irodasini, uning buyuk bunyodkorlik, ijodkorlik salohiyatini sindira olmadilar. Aksincha bu yurtning mag‘rur va erksevar kishilari, bir tomondan, muqaddas Vatan tuyg‘usini dillariga mustahkam jo aylab, ozodlik va mustaqillik yo‘lida jonbozlik bilan kurash olib borgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan esa, ular asriy xalq an’analari, udumlariga sodiq qolib, yaratuvchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Zero, o‘lmas xalq dahosi yangi-yangi salohiyatli ijodkorlar avlodini etishtira borgan. Shu bois uchun ham sahroyi mo‘g‘ullar xarobazorga aylantirgan kultepalar o‘rnida ko‘p o‘tmay yangidan ko‘rkam shaharlar, me’morchilik obidalari qad rostlab, hayot yana yangidan izga tushib bordi. Mahalliy xalq orasidan etishib chiqqan ajoyib me’morlar, naqqoshu-hunarmandlar sa’y-harakati, mahorati bilan betakror moddiy madaniyat namunalari yaratilib, bundan o‘lka hayoti o‘zgacha fayzu manzora kasb etib bordi. Bu davrda bunyod etilib, gavjum savdo-sotiq, hunarmandchilik markazlariga aylana borgan Andijon, Qarshi, Urganch, qaytadan ta’mirlanib chiroy ochgan, oldingi mavqeini tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Termiz singari shaharlar, ularning o‘ziga xos me’morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi. Ko‘hna Urganchda qad ko‘targan, balandligi 62 metrli ulug‘vor minora XIII asr arxitekturasining noyob yodgorligi hisoblanadi. Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To‘rabek xonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xo‘janddagi Tubaxon maqbarasi va shu singarilar XIV asrning nodir me’moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

Xalq amaliy san’ati, kulolchilik namunalarini, sirli naqshinkor sopolli idishlar, shu jumladan, ko‘zalar, chinni buyumlar, uy-ro‘zg‘or ashyolari, binolar peshtoqiga bitilgan, san’at darajasidagi nastalik bitiklari-bular O‘rta Osiyo moddiy madaniyatining XIII-XIV asrlarda ham rivojlanishda davom etganligidan shahodat beradi. Bu davrda ilm-fan, ayniqsa tarixshunoslik rivojida ham muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Tarixshunos Juvaniyning «Tarixi jahongusha» /Jahon fotihi tarixi/, Rashididinning «Jomeut-tavorix» /«Yilnomalar majmuasi»/ asarlari mo‘g‘ullar istilosi va hukmronligi davri tarixini chuqur o‘rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek o‘lkada badiiy adabiyot sohasi ham anchayin ravnaq topdi. O‘rta Osiyo xalqlari orasidan badiiy adabiyotning ko‘plab yirik namoyandalari etishib chiqdi. Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin Sa’diy, Xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Pahlavon Mahmud, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi singari xalq orasidan chiqqan mumtoz ijodkorlar ko‘plab umrboqiy, o‘lmas asarlar yaratdilar. Jumladan, XIII asrning ikkinchi yarmi hamda XIV asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan yurtdosh daho shoirimiz Pahlavon Mahmud ijodi bu jihatdan

ibratlidir. Uning tug‘ilgan yili noma’lum bo‘lib, vafot etgan davri manbalarda 1322 yil deb ko‘rsatiladi. U hunarmand oilada dunyoga kelgan. O‘zi ham po‘stinduzlik bilan shug‘ullangan, o‘z zamonasining ilg‘or, ma’rifatparvar kishilaridan bo‘lgan. Pahlavon Mahmud nomi bilan zikr qilingan barcha tazkiralarda u g‘azal, ruboiy janrlarida samarali ijod qilgan shoir sifatida tilga olinadi. Biroq, Mahmudni elga mashhur etgan, avlodlar ehtiromiga sazovor qilgan narsa, bu, eng avvalo, uning otashnafas ruboiylaridir. Shoirning ijtimoiy, falsafiy qarashlari ham uning ruboiylari mazmunida aks etgan. Umuman Pahlavon Mahmud she’riyatida keng ma’nodagi hayotiy voqealar, insoniy kechinmalar, chuqur ahloqiy, falsafiy qarashlar ifodalanganki, bu hol shoirning o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga faol munosabatda bo‘lganidan dalolat beradi.

XIII asr oxiri va XIV asr birinchi choragida Turkistonda kechgan adabiy jarayonni Burxoniddin o‘g‘li Nosiriddin Rabg‘uziy ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa bunda uning qalamiga mansub «Qissai Rabg‘uziy» asari adib nomini asrlar osha sarbaland etib kelmoqda. Bu asar ilk o‘zbek nasrining dastlabki namunasi sifatida ham qimmatlidir. Rabg‘uziy asaridagi dunyoviy ruh bilan sug‘orilgan ko‘plab she’riy parchalar g‘azalchilik janrining keyingi rivoji uchun ham ayricha ahamiyat kasb etadi. XIV asr turkiy (eski o‘zbek) adabiyotining yirik namoyandalari- Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Suxayl va Guldursun», «Sinbadnoma», «Gulistoni bit-turkiy» she’riy asarlari-dostonlari ham o‘sha davr ma’naviy madaniyatining bebaho durdonalari hisoblanadi.

Shunday qilib, XIII-XIV asrlar davomida Movarounnahr hududi mo‘g‘ullar hukmronligi bilan bog‘liq tarzda qanday ziddiyatli, murakkab jarayonlarni o‘z boshidan kechirmasin, uning ko‘hna madaniyati, ilm-urfoni an’anaviy ravishda o‘ziga yo‘l topib, rivojlanishda davom etadi. Xalq dahosi, ijodkorligi uning salohiyatli namoyandalari sa’y-harakatlari, tashabbuslari ila sayqal topib, yangi - yangi qirralar kashf etib boradi. Bu esa, shubhasiz o‘lka xalqlari ma’naviy merosi, qadriyatlarining mazmunan boyib, yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib borgan.

***Sinov savollari***

1. Chingizxon shaxsi to‘g‘risida nialarni bilasiz?
2. Chingizxon 1219 yilgacha qanday hududlarni istilo etgan edi?
3. Muhammad Xorazmshoh davlatining ichki ahvoli qanday edi?
4. Movarounnahr shaharlari qanday mudofaa qilindi?
5. Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning mug‘ullarga qarshi qurashlardagi beqiyos jasorati haqida so‘zlang.
6. Chig‘atoy ulusi qanday vujudga keldi, u qay tarzda boshqarildi?

## 7-Mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida oʻzbek davlatchiligining yuksalishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot

**REJA:**

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Uning markazlashgan davlat tuzishdagi tarixiy xizmati.
2. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. «Temur tuzuklari».
3. Ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

**Adabiyotlar:**


1. Karimov I.A Amir Temur - faxrimiz, g'ururimiz. T. 5. -T.: O'zbekiston, 1997, 181-192 betlar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat» 2008, 45-50, 149-155-betlar
3. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 164-185-betlar.
4. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi -T.: Sharq, 2000. 151-171 betlar.
5. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli. -T.: "Fan", 1993. 5-47 betlar.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-T.: Meros, 2002. 171-194 betlar.
7. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.


Amir Temur Vatanimiz tarixida, oʻzbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat koʻrsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof topgan yorqin siymodir.

Afsuski, Amir Temur nomi mustamlakachilik davrida inkor etilib, avlodlar nazaridan chetga surilib kelingan edi. Biroq oʻz zamonasida buyuk davlat qurgan, uni yuksak rivojlanish pogʻonasiga koʻtargan, jahonga shuhrat taratgan Amir Temurning tarixiy xizmatini jahon afkor ommasi nazaridan yashirish, uni qatagʻonlik zanjirida ushlab turish vaqti oʻtdi. Milliy istiqlol tufayli oʻz ona tariximizni xolisona yoritish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish barobarida Amir Temur bobomizning nomini, nuroniy qiyofasini tiklash baxtiga muyassar boʻldik. Milliy istiqlolimizning tolmas kurashchisi, Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1996 yilning Amir Temur yili deb e'lon qilinishi va shu yili buyuk bobokalonimiz tavalludining shonli 660 yilligini butun mamlakatimizda hamda YuNESKO tashabbusi bilan butun dunyo miqyosida keng nishonlanishi - bu hozirgi minnatdor avlodlarning, qolaversa, jahon ahlining bu buyuk zotga, uning ulugʻvor ishlariga bildirgan cheksiz hurmati va e'zozi ramzidir.

Temur Taragʻaybek oʻgʻli siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60-yillari moʻgʻullarning Chigʻatoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan, ularning mahalliy xalqlarga zulmi, zugʻumi tufayli tushkunlik, porokandalik jarayoni yuz berayotgan edi. Oʻlkaning turli hududlarida mustaqillik da'vosi bilan ish koʻrayotgan mahalliy sulolalar, chunonchi, Xorazmda soʻfiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar va hokazo kuchlarning ajratuvchilik harakatlari yurt butunligiga jiddiy havf tugʻdirayotgandi. Buning ustiga oʻx xkumronligini mustahkamlash maqsadida 1360 yilda katta qoʻshin bilan Movarounnahrga bostirib kelgan Moʻgʻuliston xoni Tugʻluq Temur xuruji ham dard ustiga chipqon boʻlgan edi. Bunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydonida hozir boʻlgan yosh Temurbek oldida nihoyatda ehtiyotkorlik, aql-zakovat

bilan ish ko‘rish, o‘z atrofiga yurtparvar, vatanparvar kuchlarni to‘plash, so‘ngra qulay imkoniyat tug‘ilishi bilan yurt dushmanlariga qaqshatqich zarba berish vazifasi turardi.

Temurbek uddaburonlik, o‘ziga xos taktika qo‘llab, o‘zining bosh orzu-maqsadlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozasi bilan vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361 yilda Tug‘luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o‘tar-o‘tmay, Balx hokimi Amir Husayn bilan do‘stlashib, u bilan birgalikda mo‘g‘ullardan ona yurtni ozod qilishga kirishadi va 1362-1364 yillarda mo‘g‘ul qo‘shinlariga bir necha marta zarba beradi.

Tug‘luq Temurning o‘g‘li Ilyosxo‘ja 1365 yil bahorida Movarounnahrga yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo‘yidagi «Loy jangi»da Amir Temur va amir Husayn qo‘shininig Ilyosxo‘ja boshliq mo‘g‘ul qo‘shinidan engilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo‘ldi. Ilyosxo‘ja qo‘shinlari Samarqandga tomon yurdi. Hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi mudofaaga ko‘tarildi, bu harakat sarbadorlar harakati nomi bilan mashhurdir. Samarqand bu harakatning markaziga aylandi. Harakatga Kalaviy (paxta savolovchi) va mohir mergan Xo‘rdak Buxoriylar boshchilik qiladilar. Jome masjidida to‘plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonzoda da’vati bilan mug‘ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo‘ja Samaraqandda katta zarbaga uchrab Movaraunnahrdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Samaraqandda hokimiyat sarbadorlar qo‘liga o‘tdi. Ular xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ko‘rdi, mo‘g‘ullarga tarafdorlik qilganlarning er va mulklari musodara etildi.

Samarqand sarbadorlari g‘alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366 yil bahorida Samarqandga keldilar va hiyla bilan Sarbadorlar boshliqlarini qo‘lga olib, o‘ldirdilar. Amir Temurning sa’y-harakatlari tufayligina Mavlonzoda tirik qoldi. Movaraunnahrda hukmronlik amir Xusayin qo‘liga o‘tdi. Amir Husayin Movaraunnahrda Amir Temurni qoldirib o‘zi Xurosonga ketdi.

Amir Temurning keyingi jo‘shqin faoliyati davomida uning amir Husayn bilan do‘stligi, ittifoqi mustahkam bo‘lolmadi. Tabiatan shuhratparast, hokimiyatparast shaxs bo‘lgan amir Husayn qanday qilib bo‘lmasin Amir Temurga pand berish, unga xiyonat qilishdan qaytmadi. Sharofiddin Yazdiy aytganidek, «ularning o‘rtalarida sadoqat va do‘stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat’iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning ko‘ngli makr va g‘addorlik o‘y-hayolidan bo‘shamasdi» (Sh.Yazdiy. «Zafarnoma», 207-bet).

Xalqimizda «birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan» deyilganidek, amir Husayn o‘zi qazigan chohga o‘zi yiqildi. Vaziyat taqozasi bilan Amir Temur amir Husayn o‘rnashib olgan Balxga 1370 yilning bahorida qo‘shin tortib bordi va uni mahv etdi. Shundan so‘ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo‘lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtni boshqarish jilovini qo‘lga kiritgan Amir Temur oldida hali g‘oyatda katta, murakkab vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turardi. Eng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Buningsiz mamlakat taraqqiyotini olg‘a bostirish, uning dovrug‘ini jahon miqyosida ko‘tarish mumkin emasdi.

U dastavval, sharqiy hududlarni mo‘g‘ullar ta’siridan xalos etib, o‘z davlatiga qo‘shib olish uchun 1370 yil oxiri va 1371 yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qildi. Mo‘g‘ul xoni Kepak Temurga qaqshatqich zarba berilishi orqasida Farg‘ona mulki va boshqa bir qator hududlar egallandi. Shundan so‘ng Afg‘oniston shimolidagi Shibirg‘on viloyati ham uning davlatiga qo‘shib olindi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo‘g‘uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi. Garchand ular harbiy yurishlar deb atalsa-da, aslida mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlarini mo‘g‘ullar hujumlaridan qutqarish, qaratilgan urushlari edi. Amir Temur mana shu tinimsiz jangu jadallar davomida o‘z mamlakatining sharqiy hududlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga muvaffaq bo‘ldi.

Uning qudratli mo‘g‘ul hukmdorlaridan sanalgan amir Qamariddin bilan olib borgan ko‘p yillik urushlari ham mana shu yuksak maqsadga qaratilgan edi. O‘z tasarrufida Qoshg‘ar, Issiqko‘l va Ettisuv vohasini birlashtirgan hamda 1369 yili Ilyosxo‘jani taxtdan ag‘darib, Mo‘g‘uliston xoni bo‘lib ko‘tarilgan Qamariddin bilan 1370-1389 yillar davomida Amir Temur

hayot-mamot janglari olib bordi. Bu jangu jadallar oqibatida Movarounnahrga qarashli asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga qo‘shib olindiki, bu hol yurtimiz hududida markazlashgan davlatning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Yana shuni alohida qayd etish lozimki, Amir Temur Xorazm erini qaytarib olish bobida ham katta sa’y-harakatda bo‘ldi. Buning uchun ko‘p bor qo‘shin tortishga to‘g‘ri keldi. Gap shundaki, Xorazmni boshqarayotgan So‘fiylar sulolasi (Husayn, Yusuf, Sulaymon So‘fiylar) Amir Temurning necha bor elchilar yuborib, nomalar jo‘natib, masalani tinch yo‘l bilan bartaraf etish to‘g‘rsidagi adolatli takliflariga ko‘nmasdan, bu hududni tish-tirnog‘i bilan bermaslikka urunganidan keyingina qurol ishlatishga to‘g‘ri kelgandi. Shu boisdan ham Amir Temur 5 marotaba (1371, 1373, 1375, 1379, 1388) Xorazm hukmdorlariga qarshi harbiy yurish uyushtirishga majbur bo‘lgan.

Faqatgina 1388 yilgi so‘nggi Xorazm yurishi natijasida Sulaymon So‘fiy hukmronligi ag‘darilib, bu o‘lka Temur saltanati tarkibiga uzil-kesil qo‘shib olindi. Bunga qadar Shosh, Termiz, Hisor, Badaxshon, Qunduz singari hududlar hukmdorlari Amir Temur hokimiyatini e’tirof etib, uning itoatiga bo‘ysungandilar.

Shunday qilib, Amir Temur necha yillar davom etgan qonli va qonsiz kurashlar, muhim tadbirlar, kezi kelganda diplomatik aloqalarni muvaffaqiyatli qo‘llanish natijasida mamlakatni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etdi, feodal tarqoqlik, o‘zaro nizolarni bartaraf etdi, Movarounnahr va Xuroson hududlari birlashtirilib, yagona markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. Shu narsa diqqatga sazovorki, ulug‘ Amir keyinchalik o‘zining ko‘plab jahongirlik yurishlari oqibatida qudratli saltanat barpo etib, uning ayrim-ayrim hududlarini o‘z avlodlariga suyurg‘ol mulk qilib bo‘lib bergan bo‘lsa-da, biroq u hech qachon Movarounnahrni biror-bir o‘g‘li yoki avlodiga mulk qilib bermagan, uning yaxlitligi, butunligini ko‘z qorachig‘idek asragan. Buning boisi shuki ulug‘ bobomiz Vatan yagonaligi, bo‘linmasligi, muqaddasligini har narsadan a’lo bilgan.

Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o‘z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish, jug‘rofiy kengliklarga chiqish maqsadida XIV asrning 80 yillaridan e’tiboran xorijiy yurtlar tomon ko‘plab harbiy yurishlar uyushtiradi. Uning 1386-1388 yillardagi «uch yillik», 1392-1396 yillardagi «besh yillik» va nihoyat 1398-1404 yillardagi «etti yillik» yurishlari xuddi shu maqsadlarga qaratilgandi. Bu harbiy yurishlar davomida Eron, Kavkaz orti hududlari, shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq erlari, Kichik Osiyoning talay qismi egallanib, ular Amir Temur davlati tarkibiga qo‘shib olindi. Shu tariqa, qudratli saltanat vujudga keldiki, uning dovrug‘i butun olamni tutdi. Biroq kezi kelganda shuni ta’kidlash joizki, sohibqironning ko‘plab harbiy jahongirlik yurishlariga faqat bir yoqlama nuqtai nazardan baho berib bo‘lmaydi. Negaki bu yurishlar goho mamlakat hududlariga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish, goho muqaddas islom ta’limoti g‘oyalarini, ularning tahqirlovchilaridan himoya qilish yohud sohibqiron davlatiga muttasil dushmanlik qilib kelgan xorijiy davlatlarga nisbatan so‘nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Jumladan, Amir Temurning Oltin o‘rda xoni To‘xtamishga qarshi bir necha marta (1389, 1391, 1394-1395yy.) olib borgan jangu jadallari, eng avvalo, yurt osoyishtaligi, uning hududiy yaxlitligini ta’minlash maqsadiga yo‘naltirilgan edi. Ayniqsa To‘xtamishning Xorazm erlariga da’vosi bunda muhim sabablardan biri bo‘lgandi. Amir Temur tomonidan Oltin O‘rdaning mavh etilishi esa, tabiyki, uning tarkibiga kirgan hududlarning, chunonchi, rus knyazliklarining mustaqillikka erushuvida ayricha ahamiyatga ega bo‘lganligi tarixiy faktdir.

Shuningdek Sohibqiron qo‘shinining Turkiya sultoni Boyazid kuchlari bilan 1402 yilda Anqara yaqinida bo‘lib o‘tgan hayot-mamot urushi ham, avvalo, turk sultonining qaysarligi, manmanligi, murosasizligi, adolat talabiga qo‘l siltaganligi orqasida yuz bergan. Bu beomon jangni o‘z foydasiga hal etgan Amir Temur esa ayni paytda o‘z davlati qudratini nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham namoyish etishga musharraf bo‘ldi. Shu buyuk g‘alabadan so‘ng G‘arbiy Ovro‘paning Angliya, Frantsiya, Ispaniya singari nufuzli davlatlari va ularning hukmdorlari Amir Temur davlati bilan yaqindan aloqa bog‘lash, hamkorlik qilish, ayniqsa savdo-sotiq munosabatlarini o‘rnatishga faol yo‘l tutganliklari shundan yaqqol dalolatdir. Bu

davrga kelib Buyuk ipak yo‘li shuhratining yanada ortishi davomida Movarounnahr va Xuroson dunyoning turli mamlakatlari bilan har jihatdan yaqindan bog‘lanib, xalqaro karvon savdosining eng muhim markaziga aylandiki, bu esa Vatanimizning iqtisodiy, madaniy va ma’naviy yuksalishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan uni omilkorlik bilan idora qilish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirib borishga ham ahamiyat berdi. U o‘zbek davlatchiligining somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar davrida tarkib topib, rivojlanib borgan tizimi, tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab, ehtiyojlariga qarab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.

Amir Temur o‘zigacha shakllangan o‘zbek davlatchiligining quyidagi 8ta asoslariga izchil amal qilish bilan birga ularni mazmunan boyitishga jiddiy ulush qo‘shdi:

1. Davlat o‘z vakolatini bajarmog‘i uchun eng avvalo siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi zarur.

2. Davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi kerak.

3. Davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, g‘oyalar asosida boshqarilmog‘i lozim.

4. Boshqaruvning turli bo‘g‘inlari, yo‘nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma’lum bir tizim shakllangan bo‘lishi darkor.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli (taraqqiyoti) davlatning diqqat markazida turmog‘i kerak.

6. Fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish davlat ahamiyatiga molik qat’iy siyosat sifatida qaralmog‘i lozim.

7. Har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda hal etib borishi darkor.

8. Davlatni boshqaruvchi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamog‘i kerak.

Amir Temur bu milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirish bilan birga yangidan qo‘shgan muhim to‘qqizinchi asos, u ham bo‘lsa jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va ularning manfaatlarini ta’minlashdir. Shundan kelib chiqib Amir Temur dunyo tarixida birinchi bo‘lib jamiyat ijtimoiy tarkibini 12 tabaqaga ajratib, ularning har birining alohida mavqei, manfaatlarini, shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab bergan.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya’ni dargoh va vazirliklardan iborat bo‘lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o‘zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko‘rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog‘liq ishlar oliy devon zimmasida bo‘lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya’ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo‘lib, o‘ziga xos ravishda hisob berib turgan.

Shayhulislom, Qozi al-quzzat (Oliy sudya), Qoziyi ahdas (ahloq-odob bo‘yicha), Qoziyi askar (harbiy sudya), Sadri a’zam (vaqf mulklari vaziri), Muxtasib (shariat qoidalari, bozorlardagi narx-navolar nazorati bilan shug‘ullanuvchi vazir), saroy vaziri, Yasovul, Eshikog‘a singari yuqori lavozimlar ham davlat hokimiyati tizimining eng asosiy bo‘g‘inlari hisoblangan. Amir Temur davlatining eng muhim xususiyatlaridan biri unda adolat me’zoniga, qonun ustivorligiga alohida ahamiyat berilganligidir. U har doim «Kuch - adolatda» deb ta’kidlar va unga amal qilardi. Uning davlat boshqaruvi tizimi masalalariga bag‘ishlangan mashhur tuzuklarida ham har bir ishda adolat me’zoniga amal qilishlik, nohaqlik, adolatsizlikka nisbatan murasasizlik g‘oyasi chuqur ifodalanganligi bejiz emasdir. Zero, xoh moliya-soliq tizimida, xoh savdo-tijorat sohasida yohud mulkiy masalalarda bo‘lsin, hamma narsada adolat ko‘zi bilan, qonunchilik qoidalari, talablariga asoslanib ish yuritish Temur qat’iyat va izchillik bilan o‘tkazgan qattiqqo‘l siyosatning asosiy me’zoni bo‘lgan. O‘z amali, mansabini suiiste’mol qilishlik, poraxo‘rlik, maishiy buzuqlik kabilar og‘ir jinoyatlar sanalib, ularni sodir etuvchilar qattiq jazolanganlar.

Amir Temur tuzuklariga asos qilib olingan davlatchilik siyosatining muhim jihati yana shundan iboratki, uning davrida har bir sohaga kadrlar tanlash, lavozimlarga tayinlashda ularning iqtidoru qobiliyatiga, bilimu iste'dodiga, nasl-nasabiga alohida e'tibor berilgan. Davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan xodimlar doimo rag'batlantirilib, martabalari oshirib borilgan.

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharqu g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzullikka uchrab bordi. Buning asosiy boisi avvalo shundaki, Amir Temur tasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustiga ulardagi mavjud turli-tuman muholifatchi kuchlar ertami-kech o'z hududiy mustaqilligi uchun harakat etishlari tabiiy edi.

Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan yana bir muhim sabablardan biri - ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt talashib boshlanib ketgan va bir necha yilga cho'zilgan o'zaro besamar urushu nizolardir. Gap shundaki, Amir Temur vafotidan so'ng uning ko'p sonli vorislari uning dono vasiyatlari, o'gitlariga quloq osmay, asosiy hokimiyatni egallash yo'lida jangu-jadalga kirishadilar.

Amir Temur Xitoy yurishiga otlangan bir paytda O'trorda 1405 yil 18 fevralda kasallanib vafot etgan paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi (Mironshoh va Shohruh Mirzolar) va 19 ta nevara, 15 chevara, shuningdek qizlari Og'a begim, Sulton Baxt begim va Og'a begimning o'g'li Sulton Husayn Mirzolar qolgan edi.

Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rnini Qobul, Qandahar va Shimoliy Hind erlarini boshqarib turgan nabirasi Pirmuhammad (Jahongir Mirzo o'g'li) egallashi kerak edi. Biroq shahzoda Halil Sulton (Mironshoh o'g'li)ning o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini hukmdor deb e'lon qilishi, tabiiyki, boshqa shahzodalarning ham qo'zg'alishiga, saltanatning darz ketishiga olib keldi. Buning oqibatida tez orada g'arbiy hududlarning ancha qismi mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Ozarbayjon tomonda turkmanlarning Oq quyunli va Qora quyunli sulolalarining Temur saltanatiga bo'ysunmaslik va unga qarshi qarshilik harakati kuchaydi. Amir Xudaydod va Shayx Nuriddinlar esa Movarounnahrning turli hududlarida bosh ko'tardilar. Faqat qat'iyatli, shijoatli Shohruh Mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat jilovini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. U 1409 yilda Movarounnahrdagi vaziyatni o'z foydasiga hal etib, uni katta o'g'li Ulug'bekka topshiradi. O'zi esa Xuroson hukmdori bo'lib qoladi (1407-1447).

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394 yilda Sultoniyada tavallud topgan. Bobosi Amir Temur unga katta mehr bilan qarab yoshligidan o'z tarbiyasiga olgan. Ulkan tug'ma iste'dod, aql-zakovat sohibi bo'lgan Ulug'bek (Sohibqiron xonadonida uni shunday nom bilan erkalashganlar) davlat boshqaruvini puxta egallashdan tashqari diniy va dunyoviy bilimlarni ham etuk darajada o'zlashtirgan. U Movarounnahr taxtini egallaganida endi 15 yoshga to'lgan edi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409-1449) temuriylar saltanatining an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab berishida alohida davrni tashkil etadi. Negaki, bunda donishmand hukmdorning katta sa'y-harakatlari, to'g'ri yo'naltirilgan siyosati tufayli mamlakat dahlsizligi, tinchligi va osoyishtaligi nisbatan ta'minlandiki, bu esa uning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davr tarixchilarining yakdil fikricha, Ulug'bek bobosi davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib-qoidalarni to'la saqlashga harakat qilgan. Soliq va moliya siyosatida ham bunga amal qilgan. To'g'ri, Ulug'bek Amir Temur singari jangu jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'bati ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqoza qilgandagina u harbiy yurishlarga otlangan. Masalan, 1414 yilda Farg'ona hukmdori shahzoda Ahmad itoatdan bosh tortishga uringan paytda u katta qo'shin tortgan va bu yurish bilan nafaqat Ahmadni itoatga keltirib qolmay, ayni chog'da sharqiy Turkiston erlarini ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olishga muvaffaq bo'lgan. 1425 yilga kelib Ulug'bek Mirzo Issiqko'l tarafga yurish qilib, u erdagi isyon ko'targan mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakatning sharqiy chegaralarini ancha mustahkamlashga erishadi. Biroq hukmdorning 1427 yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi

Sig‘noq va uning atrofida hududiy da’volar bilan bosh ko‘targan Dashti qipchoq aslzodalaridan bo‘lgan Baroqxonga qarshi yurishi uning uchun kutilmaganda muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Bu mag‘lubiyat Ulug‘bekni hokimiyatdan mahrum bo‘lishiga ham olib kelayozgandi. Otasi Shohruxning katta qo‘shin bilan etib kelishigina uni yana o‘z hukmronligini qayta tiklashiga imkon berdi. Shundan so‘ng Ulug‘bek Mirzo urush harakatlaridan ko‘ra ko‘proq o‘z faoliyatini mamlakat ishlari, ichki siyosat masalalari bilan shug‘ullanishga qaratadi. Shu boisdan ham endilikda uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnaqiga oid masalalar asosiy o‘rin egallaydi. Mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik va ziroatchilik avvalgidek rivojlanishda davom etadi. Ko‘plab sun’iy sug‘orish inshootlari barpo etiladi. Mamlakat Buyuk ipak yo‘li orqali halqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlarda ko‘plab hashamatli madrasalar, masjidu maqbaralar, karvon saroylar qad rostlaydi. Uning bevosita rahnamoligida qurilgan tenggi yo‘q me’moriy inshoot - rassadxona o‘sha davr ilm-fani va texnikasining eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan edi.

Ulug‘bekning 1428 yilda o‘tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo‘lga qo‘yishda muhim voqea bo‘lgan. Ulug‘bek davlati muomalaga chiqargan yangi vazndagi tanga pullar o‘z qadri, qimmati bilan iqtisodiy hayotni jonlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirishda alohida rol o‘ynadi. Uning davrida ham yuqori feodal tabaqa vakillariga, harbiy sarkardalar, oliy ruhoniylarga avvalgidek alohida imtiyozlar berish tartibi hukm surdi. Bundan tashqari davlatning katta ma’naviy tayanchi hisoblangan diniy muassasalar ixtiyorida ulkan miqyosdagi vaqf erlari to‘plangan edi.

Temuriylar davrida aholi to‘laydigan turli-tuman soliqlar orasida xiroj (er solig‘i) alohida ajralib turardi. Dehqonlar etishtirgan hosilning kamida uchdan bir qismi xiroj solig‘iga to‘langan. Bundan tashqari ushr (daromadning o‘n bir qismi), tamg‘a (savdo-sotiq, hunarmand ahlidan olinadigan soliq), zakot, tutun solig‘i, bog‘ solig‘i, uloq (davlat xizmatidagilar uchun) dorug‘ona (harbiy qo‘riqchilar uchun), mirobona (suv etkazib beruvchilar uchun), Yasoq (chorva mollar uchun), begor (davlat hisobiga ishlab berish: saroy qurilishi, ariq, kanallar qazish uchun) va boshqa soliq va majburiyatlar joriy etilgandi.

Ulug‘bek o‘z davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritishga, ilm-fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo tijorat va hunarmand ahliga ko‘p rag‘bat ko‘rsatishga harakat qilmasin, unga qarshi muxolifat kuchlar ham bor edi. Ulug‘bek zamindor feodallarning oddiy fuqarolarga nisbatan suiiste’molchiliklarini cheklash tadbirlarini ko‘rganda, ular «taxtdagi olim»ga qarshi chiqdilar. Ruhoniylar orasidagi jaholatparast unsurlar Ulug‘bek islom diniga zarar keltiruvchi «betavfiq hukmdor» deb tashviqot yuritdilar. Shu tariqa jaholatparastlik ilmga, o‘z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘yyuchilar taraqqiyotga qarshi chiqdilar. Ulug‘bek mamlakatdagi turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni, mutaassib, reaktsion kuchlar muxolifatchiligini oxirigacha bartaraf eta olmadi. Bu esa XV asrning 40 yillari oxirlariga kelib Movarounnahr davlatini beqarorlik va chuqur ijtimoiy larzalarga duchor etdi. Mamlakat qo‘shinining jangovor holatda bo‘lmaganligi va turli joylarga sochilganligi esa Dashti qipchoq ko‘chmanchilarining bu erlarga tez-tez bostirib kelib, yurtni talash uchun keng yo‘l ochib bergandi. Xususan 1447 yilda Shohruh Mirzo vafoti munosabati bilan Ulug‘bekning ota taxtiga da’vogarlik qilib Xurosonga yurishi, jiyani Alovudovla va boshqa merosxo‘rlar bilan hokimiyat talashishi, uning yo‘qligida Abulxayrxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklarning Movorounnahr erlarini g‘orat qilishi va nihoyat, qora kuchlar ig‘vosi tufayli o‘z o‘g‘li Abdullatif bilan boshlangan nizoning katta jangga aylanib, unda Ulug‘bekning mag‘lub bo‘lishi - bular nafaqat uning fojiali o‘limi bilan yakun topib qolmay, ayni paytda Temuriylar sulolasi inqirozini yanada ham chuqurlashtirishga olib keldi. Ilm-fanga katta zarar etkazildi, Ulug‘bek akademiyasi tarqalib ketdi, kutubxonadagi kitoblar yondirildi, olimlar boshi oqqan tomonga ketishga majbur bo‘ldilar.

Ulug‘bek o‘limidan so‘ng tez orada oqpadar Abdullatifning o‘ldirilishi, undan keyin Samarqand hokimiyati tepasiga kelgan Abusaid Mirzo (1451-1468)ning davlatni boshqarish o‘rniga asosiy vaqtini Eron va Xuroson hududlarida harbiy yurishlar bilan o‘tkazishi, uning vafotidan so‘ng Movarounnahrda hukmronlik qilgan avlodlari Sulton Ahmad (1468-1493),

Sulton Mahmud (1493-1494) va Sulton Ali Mirzo (1494-1501) davrida yurtning yanada ichki ziddiyatlaru tanazzullikka yuz tutishi pirovard oqibatda Temuriylar hukmronligining barham topishiga olib keldi. XV asrning 90-yillari boshlarida Farg‘ona mulkida otasi Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng hokimiyat jilovini qo‘lgan olgan navqiron va shijoatli Bobur Mirzo (1482-1530)ning Temuriylar saltanatini tiklash va saqlab qolish yo‘lida ko‘chmanchi o‘zbeklar hukmdori Muhammad Shayboniyxonga qarshi olib borgan bir necha yillik jangu jadal harakatlari ham natijasiz tugadi. Buyuk orzulari sarobga aylangan, vujudini umidsizlik qoplagan Bobur Mirzoning shundan so‘ng Afg‘on va Hind erlari sari bosh olib ketishga majbur bo‘lganligi boisi ham mana shundandir.

Xurosonda XV asrning ikkinchi yarmida Abusaid Mirzo o‘limidan so‘ng (1469) hokimiyatga kelgan Husayn Boyqaro (1438-1506) davrida bu o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ko‘plab muhim o‘zgarishlaru siljishlar yuz berganligi faktdir. Buning boisi shundaki, Temuriy shohzodalar ichida ja’sur va tadbirkor, salohiyatli va ma’rifatli hukmdor bo‘lgan Husayn Boyqaro o‘zining salkam 40 yillik hukmronligi davrida Xuroson mamlakatida katta xayrli ishlarni amalga oshirish, saltanat qudratini ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi. Bu ulug‘vor ishlar va sa’y-harakatlarda uning maktabdosh do‘sti, buyuk donishmand siymo, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari (1441-1501)ning roli beqiyosdir.

Ulug‘ Navoiyning Boyqaro saroyida birinchi vazir sifatida katta mavqe va nufuzga ega bo‘lishi, albatta, ko‘plab muhim davlat masalalarini oqilona, raiyat foydasiga hal etishda qo‘l kelgan. Ayniqsa poytaxt Hirot va uning tevarak-atroflarida qanchalab obodonchilik ishlarini ro‘yobga chiqarishda, ko‘plab salobatli me’morchilik obidalari, xalq xo‘jalik inshootlarini barpo etishda bu ikki ulug‘ zotning bahamjihat sa’y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixchi Xondamirning ma’lumoticha Husayn Boyqaro davrida bunyod etilgan yirik inshootlarning soni 40 dan ortadi. Hirotda bunyod etilgan o‘nlab serviqor masjidu madrasalar (shu jumladan 403 gumbazi, 130 ta ravoqi va 44 ta ustuni bo‘lgan ulkan jome’ masjidi), shifoxonayu hammomlar, ilm maskanlari, suv inshootlari - bular Xuroson davlatida kechgan katta bunyodkorlik ishlaridan yaqqol nishonadir.

Choshmag‘ul mavzesida A.Navoiy tashabbusi bilan Turuq -band suv omborining qurilishi Mashhad va uning atroflarini ob-hayot bilan ta’minlashda benazir ahamiyatga ega bo‘lgan. Biroq neajib holki, Husayn Boyqaro davlati ham ichki feodal ziddiyatlarning kuchayib borishi, amaldorlarning fitna-fasodi, sotqinligining avj olishi, yosh shohzodalar o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqishi, gazak olib borishi davomida XV asr oxirlariga kelib inqiroz sari yuz tutib bordi. Ayniqsa Husayn Boyqaroning sevimli nabirasi shohzoda Mo‘min Mirzoning fojiali o‘limidan keyin podsho bilan uning o‘g‘illari o‘rtasidagi nizolar to‘xtovsiz kuchayib bordiki, uni bartaraf etishning sira iloji qolmagandi. Hatto bu ishga qo‘l urib, ota-bobolar o‘rtasidagi dushmanlikka nuqta qo‘yish, ularni murosaga keltirib, saltanat birligi, tinchligi va osoyishtaligini qaror toptirishga uringan Alisher Navoiydek buyuk zotning sa’y-harakatlari ham behuda ketdi. Bu esa Movarounnahr hududlarini egallab Xuroson sarhadlariga ko‘z tikib turgan Muhammad Shayboniyxon bosh bo‘lgan o‘zbek beklari va amirlari uchun ayni qo‘l keldi. XVI asr boshlariga kelib, ya’ni Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng (1506) Xuroson erlari tomon yurish boshlagan Shayboniyxon qo‘shini Badiuzamon va Muzaffar Mirzo qo‘shinlarini birin-ketin engib, tez orada butun Xuroson o‘lkasini o‘z qo‘l ostiga kiritib oladi.

Shu tariqa, qariyb bir yarim asr davom etgan o‘z davrida Vatanimiz nomini shonu shuhratga burkagan, uni ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga olib chiqqan, ulug‘ ajdodlarimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Temuriylar saltanati hukmronligi tarix taqozasi bilan halokatga mahkum bo‘ldi. Biroq bu murakkab, ziddiyatli tarixiy jarayon keyinchalik yangi-yangi avlodlar uchun juda ko‘plab hayotiy masalalarning mag‘zini chaqish, istiqlolni tiklash yo‘llida bitmas - tuganmas saboq va o‘rganish manbai bo‘lib xizmat qildi.

**Moddiy madaniyat.** Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o‘tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko‘tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun tarovati, yorqin manzarasi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari tsivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho‘qqisi hisoblangan Temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o‘ziga xos yuksak bosqich bo‘ldiki, uning qudratli aks sadosi asrlar osha minnatdor avlodlar dili va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda.

Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida halq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, mislsiz asori atiqalaru monumental me’moriy obidalar bunyod etildi, ilm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining donoligi, ilm-fan, ma’rifat ravnaqiga rag‘bat, katta sa’y-harakat bog‘langanliklari natijasidir, albatta.

Xususan Amir Temur siymosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning o‘zi yuksak ma’rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan qanchadan-qancha noyob iste’dodlar, ilmu urfon va din ahillari, me’moru hunarmandlarni parvarishlab o‘stirish barobarida mamlakat obodonligi, ravnaqi uchun ham doimiy harakatda, izlanishda bo‘ldi. Uning davrida Samarqandda va yurtning boshqa hududlarida qad rostlagan serhasham saroylar, bog‘-rog‘lar, masjidu madrasalar, ravotu karvonsaroylar, ko‘priklar, suv havzalari va boshqa inshootlar sohibqiron salohiyati va faoliyatining nechog‘lik ko‘p qirraliligidan dalolat beradi. Amir Temur davrida Samarqandda bunyod etilib, tevarak-atrofga husnu latofat bag‘ishlagan, bir-biridan ko‘rkam o‘nlab bog‘lar, chunonchi, «Bog‘i Dilkusho», «Bog‘i Jahonaro», «Bog‘i Davlatobod», «Bog‘i Nav», «Bog‘i Zag‘on», shuningdek o‘z davrining tengsiz me’moriy obidalari - «Ko‘ksaroy», «Bo‘stonsaroy», Go‘ri Amir maqbarasi, Registon majmui, Shohi Zinda ansambli, Bibixonim masjidi va madrasasi, Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi va shu singari noyob inshootlar Amir Temur davrida moddiy madaniyatning yuksak darajada rivoj topganligiga ishonchli guvohdir. Mirzo Ulug‘bek zamonida (1409-1449) Samarqand, Buxoro, G‘ijduvon va boshqa shaharlarda qurilgan muhtasham masjidu madrasalar, ilm-urfon maskanlari, saylgohlar va boshqa noyob inshootlar bunyod etilgan. Uning rahnamoligida 1420-1428 yillar mobaynida qurilgan rasadxona o‘sha davrning tenggi yo‘q oliy inshooti bo‘lgan. Bu mahobatli bino tsilindr shaklida, uch oshiyonli bo‘lib, aylanasi 47, balandligi esa 31 m. atrofida edi. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Olimlar va xodimlar uchun rassadxona atrofida ko‘plab hujralar barpo qilangan. Rassadxonaning boy kutubxonasi bo‘lib, uning kitob fondi 160 mingdan oshar edi.

Rassadxona etagida Ulug‘bek bobosi Amir Temur an’anasini davom ettirib, ikkita chorbog‘ qurdirdi. Ularning biri «Bog‘i maydon», ikkinchisi esa «Chinnixona» nomi bilan ataldi. Bog‘i maydon o‘rtasida bunyod etilgan ikki oshiyonli binoning devor va ustunlari oq marmar bilan qoplangan edi. Chinnixonadagi binolarning biri toshdan, ikkinchisi esa chinnidan bo‘lgan.

Xurosonning obod o‘lka sifatida gullab-yashnashi ham Temuriylar davriga to‘g‘ri keladi. Shohruh Mirzo va uning vorislari tomonidan barpo etilgan 150 dan ziyod mashhur obidalar, jumladan «Bog‘i Zog‘on», «Bog‘i jahon» qal’a maskanlari, «Gavharshodbegim» madrasasi, Boysunqur «Nigoristoni» (kutubxonasi), yoxud Husayn Boyqaro davrida (1469-1506) uning do‘sti, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot va uning atrofida qurilgan 300 dan ziyod noyob bino va inshootlar: masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh, hammom, shifoxona, saroylar, istirohat bog‘lari, rabot, karvonsaroylar, suv havzalari, ko‘prik, qorizlar-bular hammasi tumuriylar zamonasi madaniy yuksalishining ishonchli tasdig‘idir.

**Ilm-fan ravnaqi.** Temuriylar ma’naviy madaniyati to‘g‘risida gap borganda, dastavval, ona yurtimiz Uyg‘onishi davrining ikkinchi bosqichi bo‘lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog‘lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo‘shgan bebaho hissasi haqida har qancha g‘ururlansak arziydi.

Ulug‘bek davrining taniqli tarixchisi va adibi Davlatshoh Samarqandiyning mana bu so‘zlari ham harakterlidir: «Olim, odil, g‘olib va himmatli podshoh Ulug‘bek Ko‘ragon ... yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, Maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho‘qqisiga ko‘tarildi ...»[1] .

---

[1] Самарқандий Д. «Шоирлар бўстони», Т., Ғафур Ғулом нашр, 1981, 148-бет.

Ulug‘bek ilmiy maktabining eng katta yutug‘i, avvalo, astronomiya va matematika fanlari sohasida yaratilgan muhim kashfiyotlardir. Masalan, Ulug‘bek qalamiga mansub «Ziji ko‘raganiy» asari o‘zining beqiyos to‘g‘ri ilmiy echimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham olimlar e’tiborini qozonib kelmoqda. Shuningdek bu ilmiy maktab olimlarining uchinchi darajali aligebraik tenglamalarini echib, bir darajali yoyning sinusini aniqlash borasidagi tadqiqotlari ham matematik tafakurning katta yutug‘idir. Ulug‘bek davrining fan peshvolaridan Qozizoda Rumiyning «Risola fil hisob» («Hisobga doir risola», «Sharhi Mulaxxas» fil-hay’at (Astronomiya asoslariga sharh), «Risolatul jayb» («Sinus haqida risola»); G‘iyosiddin Jamshidning qomusiy mazmunga molik besh kitobdan iborat yirik matematik asari- «Miftoxil hisob» («Hisob ilmi kaliti»), Ali Qushchining «Risola dar ilmi hisob», «Risola dar handasa», «Risola dar falokiyot», «Risolai mantiq» singari asarlari o‘z davri ilmiy tafakkurining bebaho yutug‘i bo‘lib qolmay, ular ayni chog‘da ilm-fanning keyingi rivojiga ham samarali ta’sir ko‘satdi. Bu davrning yana bir muhim yutug‘i-bu ijtimoiy fanlar, xususan tarixshunoslik sohasida ham katta tadqiqotlarning yaratilganligidir. Bu xayrli ishning kushoyish topishida ham temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo‘lgan. Jumladan, Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta’sir ko‘rsatganligi shubhasizdir. Temuriylar davrida salmoqli iz qoldirgan alloma olimlardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning «Zafarnoma», Xofizu Abruning «Zubdat at-tavorix», A.Samarqandiyning «Matla ul-sa’dain» va «Majma’ ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi o‘rni va ikki azim daryoning quyilish joyi»), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning etti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bog‘i»), Xondamirning «Makorimul axloq» («Yaxshi fazilatlar»), «Xabibus siyar fi axboru afodul bashar» («Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari») asarlari o‘sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklik darajasini o‘zida ifoda etadi. Ularning har birida nafaqat u yoki bu hukmdorlarning davlat siyosati yohud harbiy yurishlari, yohud shaxsiyatlariga oid ma’lumotlar aks etib qolmay, balki shu bilan birga tilga olinayotgan davrning barcha murakkab, ziddiyatli jarayonlari, tarixiy voqealar, hodisalar silsilasi ham ishonarli tarzda yoritilganligiga amin bo‘lamiz.

**Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san’at va musiqa madaniyati rivoj topdi.** Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayh Muhammad, Junand Naqqosh, Temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi maktabi atoqli vakillari Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi benazirdir. Masalan, nastalik xatining mislsiz ustozi, «Qiblat ul-kuttab» (Kotiblar peshvosi) unvoni sohibi bo‘lgan S.Mashhadiy A.Navoiy va H.Boyqaroning ko‘plab bebaho qo‘lyozmalarini kitobot holiga keltirishda katta zahmat chekkan. Bundan tashqari Nizomiy, Farididin Attor, Xo‘ja Xofiz, Sa’diy Sheroziy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyotimiz daholarining ko‘plab asarlari ham uning betinim sa’y-harakatlari bilan ko‘chirilib, avlodlarga armug‘on etilgan.

Tasviriy san’atda Shamsiddin Muhammad ibn Abdulhay, Shayx Turoniy, Abdulla Xiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir nomlari alohida ko‘zga tashlanib turadi. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari yohud jang tafsilotlari o‘zining tabiiyligi, tiniqligi va originalligi bilan kishini hayratga soladi.

Amir Temur nabirasi (Shohruh Mirzo o‘g‘li) Boysunqur Mirzo homiyligida bunyod topgan o‘ziga xos badiiy akademiya rolini o‘ynagan uning Nigoristonida ijod qilgan ko‘plab mo‘yqalam sohiblari tomonidan mukammal tarzda ishlangan son-sanoqsiz rangli tasvirlar, miniatyura namunalari, kitob bezaklari, chunonchi, hind xalqi eposi «Kalila va Dimna», Sa’diyning «Guliston», Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyning «Xamsa» va boshqa asarlarga ishlangan tasviru-bezaklar hanuzga qadar ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Musavvirlik san’atining tengi yo‘q yulduzi Kamoliddin Behzod (1455-1537) ijodi ham Temuriylar davri san’atining yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. Uning mo‘yqalamiga oid hadsiz-hisobsiz rangin tasvirlar, chunonchi, Yazdiyning «Zafarnoma», Jomiyning «Salomon va Ibsol», Sa’diyning «Bo‘ston» va «Guliston», Nizomiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan miniatyura

namunalari yohud Hirotdagi «Bog‘i Behisht», «Ov qilayotgan Bahrom Go‘r», «Tuyalar jangi» tasvirlari va shunga o‘xshash rassomlik asarlari bu tug‘ma ijodkor iste’dodining yuksak mahoratidan shahodat beradi.

Temuriylar davri madaniy hayotida musiqa san’ati ham shubhasiz, alohida o‘rin tutgan. Alisher Navoiy «Mezonul-avzon» asarida xalq qo‘shiqchiligining sakkiz turi rivojlanganligini qayd etadi. Bular - tuyuq, changchi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod va shu kabilar. Amir Temur davrida san’at va musiqa olamida mashhur bo‘lgan siymolardan biri Abduqodir Go‘yanda (1334-1435) bo‘lib, uning hayotining katta qismi Samarqandda kechgan. Temuriylar davri musiqa san’atida Hirot ijodiy muhitining o‘rni katta bo‘lgan. Hirot musiqashunoslari o‘z ijodlarida Navoiyning she’r va g‘azallaridan keng foydalanganlar.

**Badiiy adabiyot.** Amir Temur va temuriylar davri madaniy muhitining yorqin sahifasini turkiy (eski o‘zbek) adabiyotining ravnaqisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Gap shundaki, sarchashmalari ancha olisdan boshlangan bu adabiyot bu davrga kelib yanada sayqal topib, uning badiiy imkoniyatlari yangi ufqlar kashf etib, o‘zining yuksak rivojlanishiga erishdi. Buning natijasida yangi-yangi nomdor shoiru adiblar ijod maydoniga kirib kelib, o‘z betakror, umrboqiy asarlari bilan badiiy tafakkur xazinasiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

O‘zbek mumtoz adabiyotining tamal toshini qo‘ygan Mavlano Lutfiy (1366-1465) dan boshlab Haydar Xorazmiy (XIV asr oxiri, XV asr boshlari), uning zamondoshlari Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy singari zabardast turkigo‘y shoirlar ijodi ravnaqi tufayli mumtoz adabiyotimiz yangi marralarga ko‘tarildi va uning xilma-xil janrlarida bir-biridan go‘zal, nafis va baquvvat badiiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi.

Lutfiyning «Gul va Navro‘z», Xorazmiyning «Mahzunul asror» («Sirlar xazinasi»), Durbekning «Yusuf va Zulayxo» asarlari yohud Gadoiy va Atoiylarning ishq-muhabbat, hayot na’shu namosini, inson shaxsi va uning yuksak orzu-armonlari, intilishlarini baland pardalarda ulug‘lagan otashnafas she’r-g‘azallari, qasidalari-bular mumtoz o‘zbek adabiyoti rivojining muhim yutug‘idir. Mazkur asarlarda o‘zbek tilining jarangdorligi, uning badiiy imkoniyatlarining benihoyaligi, qolaversa, uning halqchilligi, yuksak estetik qudrati va ta’sirchanligi to‘la kuch bilan ifodalanganligiga shohid bo‘lasan, kishi.

O‘zbek adabiyotning yanada yuksak darajaga ko‘tarilib, keng e’tirof topishida ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) ijodi alohida o‘rin tutadi. Negaki she’riyat mulkining sultoni Navoiy o‘ziga qadar bo‘lgan turkigo‘y shoirlar ijodi erishgan yutuqlarni o‘zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki ayni zamonda o‘zining serqirra ijodiy faoliyati bilan bu adabiyotning yuksak kamol topishi va dovrug‘ini sarbaland etishga mislsiz ulush qo‘shdi.

Alisher Navoiyning barakali ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak, hali shu vaqtga qadar o‘zbek adabiyotida sermahsullik jihatidan u bilan tenglashadigan adib, ijodkor bo‘lgan emas. Katta epik asar - «Xamsa»dan tashqari ham Navoiyning «Hazoinul-maoniy» bo‘yicha hammasi bo‘lib o‘zbek tilida 2600 g‘azal, 133 ruboiy, 210 qit’a, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muhammas, 10 chiston (she’riy topishmoq), 4 mustazod, 4 tarje’band, 5 musaddas, 1 qasida, 1 musammon, 1 tarkiband, 1 masnaviy, 1 soqiynoma turkum she’ri, forsiy devoni bo‘yicha 554 g‘azali, 343 muammosi, 73 ruboiysi, 72 qit’asi, 16 she’riy tarixi, 9 lug‘zi bizgacha etib kelgan. Navoiyga qadar hech kim o‘zbek tilida buncha ko‘p she’r yozmagan, g‘azal, ruboiy, qit’a kabi she’riy turlarni buncha rivojlantirmagan edi[1]. Uning 51 ming 230 misradan iborat besh go‘zal dostonni o‘z tarkibiga olgan buyuk «Xamsa»si haqli suratda o‘zbek adabiyotining gul toji hisoblanadi.

Navoiy «Xamsa»siga kirgan «Hayrotul-abror», «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabbai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlarining har biri o‘zining bebaho ma’naviy qudrati, badiiy yuksakligi, til boyligining mukammalligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, o‘zbek tilida ilk bor «Xamsa» bitishdek g‘oyatda mashaqqatli vazifani sharaf bilan ado etgan Navoiy dahosi har qancha tahsinga sazovordir.

---

[1] Хайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари, Т., «Ўқитувчи», 1993, 22-бет.

Ulug‘ mutafakkir asarlarini mutoalaa qilar ekanmiz, ularda aks etgan, ilgari surilgan chin insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hayotga oshuftalik, keng ma’nodagi ishq-muhabbat g‘oyalari vujudimizni qamrab oladi, o‘ziga maftun etadi. Bu ham Navoiy ijodining umrboqiyligidan, umumbashariy qadriyatlar ruhi bilan chuqur sug‘orilganligidan yaqqol dalolatdir.

Shu bilan birlikda bu davrda fors-tojik adabiyoti ham an’anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Bu adabiyot dovrug‘ini baland ko‘targan, yuksak badiiy ijod namunalarini yaratgan kamol Xo‘jandiy, Xofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Binoiy, Hiloliy va Vosifiy singari daho so‘z san’atkorlar nomini alohida tilga olib o‘tish joizdir. Ularning yuksak badiiy tafakkur ila yaratilgan umrboqiy asarlari mana necha asrlardirki, tarix va davrlar sinovidan o‘tib, qanchalab avlodlar ongi, shurini yolqinlantirib kelmoqda.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko‘tarilib borishlari davomida o‘chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo‘ldi. Eng muhimi, bu davr Amir Temurdek buyuk siymoni tarix maydoniga chiqardiki, bu zoti sharif va uning avlodlarining mislsiz sa’y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyatlari tufayli Movarounnahr va Xuroson o‘lkalari ulkan o‘zgarishlarga yuz tutdi. Mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik bosqini va zulm-asoratidan butunlay xalos bo‘lgan ona yurtimiz qudratli saltanatga aylanibgina qolmay, ayni chog‘da ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug‘ taratdi. Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatning yuksak namunalari, duru javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog‘ida e’zozlanib kelmoqda.

## ADABIYoTLAR.


1. I.A.Karimov. O‘tmishsiz kelajak, hukmronliksiz taraqqiyot bo‘lmaydi. Asarlar 4-jild. T.: “O‘zbekiston” 1997, 181-192-betlar.
2. Azamat Ziyo O‘zbek davlatchiligining tarixi T.:Sharq.,2000
3. A.Ibrohimov.Bizkim,O‘zbeklar...T.:Sharq.,1999.
4. B.Axmedov. Amir Temur(tarixiy roman) ,T.: “Meros”, 1995.
5. A.Axmedov. Ulug‘bek(esse).T. “Kamalak” 1994.
6. A. Muxamadjonov. Amir Temur vaTemuriylar davri. T.: “Fan”1996.
7. I. Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: “Fan”, 1993.
8. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1996.
9. N. Shomiy. Zafarnoma.T.: “O‘zbekiston” ,1996.
10. Sh.Yazdiy.Zafarnoma. T.: “Sharq”, 1997.
11. A. Qayumov. Alisher Navoiy (esse)T.: “Fan”, 1994.

# 8-Mavzu: Turkistonning xonliklarga boʻlinib ketishi uning sabablari va oqibatlari

## REJA:

1. Turkistonning uch xonlikka boʻlinib ketishi.
2. XIX asr birinchi yarmida oʻzbek xonliklarining jugʻrofiy-siyosiy oʻrni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. Xonliklarda oʻzaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari.

## Adabiyotlar:


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. -T.: Sharq, 1998. 14-21 betlar.
2. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 186-217-betlar.
3. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, 234-302 betlar.
4. Usmonov Q., SodiqovM, Oblamurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. -T.: Meros, 2002, 194-224 betlar.
5. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003, 299-334-betlar.


### 1.Turkistonning uch xonlikka boʻlinishi.

Vatanimiz tarixi oʻzbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda oʻtmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar boʻlganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat boʻlganligi jahonga ma’lum. U oʻz vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni qoldirgan edi. «... Farzandlarim va avlodimdan boʻlganlarning har biri,- deb yozgan edi u oʻzining tuzuklarida,- unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan oʻz saltanat ishlarini boshqarishda qoʻllanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga etadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon boʻlgʻay»[1]. Ammo uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan oʻzaro va ichki kurash, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan koʻchmanchi oʻzbeklar davlati hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Hisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek Marv, Mashhad va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Fargʻona va Sirdaryo erlari Muhammad Shayboniyxonga qaram boʻlib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Shayboniyxon janubda Eron shohi Ismoilshoh bilan toʻqnashdi. 1510 yilda Marv yaqinida boʻlgan jangda Shayboniyxon qoʻshinlari engildi, xonning oʻzi ham halok boʻldi. Taxtga Koʻchkunchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq oʻzbek qabilalari zadagonlari, xarbiy qoʻmondonlari jipslashib Ismoilshohga qarshi kurashish oʻrniga Shayboniyxon birlashtirgan viloyatlar va erlarni taqsimlashga kirishdilar, ular oʻrtasida oʻzaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm oʻlkalarini, Shimoliy Afgʻonistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand boʻlgan Movarounnahrda esa shayboniylar xukmronligi saqlanib qoldi.

Xorazmda Ismoilshoh xukmronligiga, uning shialik diniy mazsxabiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Hisamiddin etakchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan boʻlgan Berka sultonning oʻgʻli Elbarsxonga murojaat qilib xon boʻlishini taklif qildilar. Elbarsxon 1511 yilda qoʻshin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva,

[1] Темур тузуклари. Т.: Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991, 53-бет

Xazoraspni Ismoilshoh qo‘shinlaridan tozaladi, Xorazmda Elbarsxon hokimiyati o‘rnatildi. Shunday qilib, 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo‘ldi. Xivada shayboniylar sulolasi xukmronligi 1770 yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urgarch edi. Arabxon(1602-1621)davrida poytaxt Xivaga ko‘chirildi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang‘ishloq, Dahiston (Mashhad) va O‘zboy atrofidagi ko‘chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo‘lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o‘zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o‘rtasida, shuningdek shohzodalar o‘rtasida tinimsiz urushlar bo‘lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o‘rtasida Murg‘ob daryosi bo‘ylari uchun, Marv uchun qirg‘inborot urushlari bo‘lib turar, bu hududlar qo‘ldan-qo‘lga o‘tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, ural kazaklari tez-tez xujum qilib falokatlar keltirardi.

XVIII asr o‘rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o‘g‘li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o‘z boshqaruvini o‘rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko‘chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo‘lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g‘alayonlar bo‘lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o‘zbek qabilalaridan Qo‘ng‘irot urug‘ining boshlig‘i Muhammad Amin inoq 1770 yilda hokimiyatni qo‘lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola - Qo‘ng‘irot sulolasiga asos soldi va bu sulola 1920 yilgacha hukm surdi. Muhammad Ali Inoq turkmanlar qo‘zg‘olonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo‘ysundirdi.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan shayboniylar davrida ham tinchlik bo‘lmadi, qirg‘inborot urushlar, o‘zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo‘lib kelgan Ubaydullo sulton 1533 yilda Shayboniylar davlatining Oliy hukmdori etib ko‘tarildi.Ubaydulla sulton Samarkanddagi Kuchkinchixon avlodlari karshiligi sababli oliy xokimiyatni Buxoroda turib boshkarardi.Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy-ma’muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon II davrida(1557-1561 yillarda amakisi Pir Muxammad,1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy xukmdor deb e’lon kilingan bo‘lsada amalda xukmdor Abdullaxon II edi.), 1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo‘lib koladi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo‘lib kirdi.

Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1573 yilda Farg‘onani, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578 yilda Samarqandni, 1582 yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583 yilda Balxni, 1584 yilda Badaxshonni, 1588 yilda Hirotni, 1595 yilda Xorazmni zabt etib, mintaqani birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Biroq ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. G‘animlar Abdullaxonga karshi uning o‘g‘li Abdulmuminni qayraydi, Abdullaxon o‘rniga taxtga ko‘tarilgan Abdulmo‘min 6 oycha hukmdor bo‘ldi, u otasining amirlaridan biri Abdulvose’ tomonidan otib o‘ldirildi. Taxtga chiqqan so‘nggi Shayboniy Pirmuhammad (1598-1601) ham ichki urushlarning birida halok bo‘ldi. Shayboniylar sulolasi barham topdi.

1601 yildan e’tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi qo‘liga o‘tdi. 150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo‘lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o‘zboshimchaligi, markaziy hokimiyatdagi amaldorlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik, ur-yiqit mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga ko‘tarilgan o‘nta xondan ikkitasining taxtdan ag‘darilgani, to‘rttasining taxt ustida o‘ldirilgani ham yaqqol ko‘rsatadi. Inqiroz o‘zining yuqori pallasiga chiqqan XVII asrning 40-yillarida Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligiga yurish qilib uni o‘ziga bo‘ysundiradi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo‘lgan mang‘it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda ichkilikboz va maishatbozlikka berilib ketgan Abdulfayzxonni, so‘ngra rasman xon deb (soxta xon) e’lon qilingan uning o‘g‘illari Abdulmo‘min va Ubaydullo sultonlarni o‘ldirib, hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. Muhammad Rahim 1753 yilda o‘zini Buxoro amiri deb e’lon

qiladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi.

Muhammad Rahim xukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi. O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina bekliklarga-Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zg'olonini bostirib, ularning xarbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga xujum qilib, istexkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi.

Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi.

Keneges, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, xokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar xarajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi.

Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'imlar miqdori kamaytirildi.

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsada, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari xujumga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinar, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva mollar haydab ketilar edi.

Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli, u XVIII asr boshlarida ikkiga bo'linib ketdi. Ashtarxoniylar xukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyat Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi.

Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida yashovchi din peshvolarining mavqei XVIII asr boshlaridayoq Farg'onada ancha kuchayib hokimiyatni qo'lga olishga intildilar. Biroq ularning hokimiyati boshqa qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon ko'tarib Farg'ona viloyatidagi hokim Xo'ja Ashirqulni o'ldiradilar. 1710 yilda Qo'qon atrofida yashab turgan o'zbek qabilalaridan biri-minglar o'z etakchisi Shohruhbiyni hokimiyat tepasiga ko'taradilar. Shu tariqa, Qo'qon xonligi tashkil topdi, o'zaro ichki kurashlar botqog'iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o'ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko'rsatolmadi. Qo'qon xonligida ming qabilasi sulolalari 1876 yilgacha hukmronlik qildi. Qo'qon shahri chetida joylashgan Tepaqo'rg'on Qo'qon xoni Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo'rg'onda mustahkam qal'a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi.

Qo'qon xonlari Farg'ona vodiysini, Xo'jand, O'ratepani birlashtirgach, Qo'qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o'rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonlari Toshkentni bo'ysundirishga kirishdilar. 1784 yilda Shayxontohur

dahasi sobiq hokimining o‘g‘li Yunusxo‘ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama shaharlarini Toshkentga bo‘ysundirgan edi. Qo‘qon xoni Olimxon qo‘shin tortib 1807-1808 yillarda Toshkentni va unga qarashli hududlarni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo‘linib ketdi. Uchta davlat - Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga keldi.

Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniyat hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsa-da, xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro kurash avj olgan yillarda tanazullik hollari yuz berganligidan guvohlik beradi.

Shayboniylar, xususan Abdulaxon II davrida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murg‘ob daryolari bo‘ylarida ko‘plab kanallar, anhorlar, ariqlar qazilib, atrofdagi erlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bog‘lar barpo etilgan. Birgina Qashqadaryo bo‘ylaridagi erlarga suv chiqaruvchi o‘ndan ortiq kanallar qazilganligi va ishlab turganligi ma’lum. Abdullaxon II davrida qurilgan Zarafshon daryosidagi Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko‘prik suv ayirg‘ichlari, Sangzar daryosidagi Tuyatortar kanali, Amudaryo-Chorjo‘y kanali, Toshkent viloyatidagi Zax ariq, Nurota tog‘lari suvlarini to‘plovchi Oqtob va Band suv omborlari yirik inshootlardan edi. Bu tadbirlar g‘allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik kabi sohlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xiva xonligida ham sun’iy sug‘orish ishlariga katta e’tibor berilgan. XVI-XVII asrlarda barpo etilgan, uzunligi 143 km bo‘lgan Shohobod, uzunligi 96 km bo‘lgan Urmush, G‘oznobod va boshqa o‘nlab kanallar dehqonchilikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xonliklarda paxta, ipak va jun gazlamalari etishtirish, tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, zargarlik, ko‘nchilik, duradgorlik asosiy hunarmandchilik tarmoqlari hisoblanardi. Dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston va boshqa qo‘shni mamlakatlar bozorlarida ham sotilar edi.

Xiva xonligi tarixiga doir ko‘pgina asarlar ham bizgacha etib kelgan. Ular orasida Abulg‘ozi Bohodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Shermuhammad al-Munisning «Firdavs ul-iqbol yoki Iqbolnoma», Ogahiyning «Riyoz ad-davla», Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi», «Iqboli Feruziy» va boshqalar shular jumlasidandir. Arab va fors tillarida yozilgan bir qator asarlar ham o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda «Tarixi Umarxon», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi Shohruxiy», «Tarixi jahonnamoy», «Tarixi jadidayi Toshkand» kabi asarlar ham muhim manba hisoblanadi.

Xonliklarda yuzlab olimlar, shoirlar ijod qilganlar. Tibbiy ilmni rivojlantirishga olim Sultan Ali katta hissa qo‘shgan. U inson tanasi kasalliklari va ularni davolash to‘g‘risida «Dastur al iloj» va «Muqaddimayi dastur al iloj» asarlarini yozgan. XVI asrda Buxoro xonlari huzurida tabiblik qilgan Muhammad Yusuf va Shoh Ali ko‘z kasalliklari va ularni davolashga doir «Ko‘z tabiblari uchun qo‘llanma», «Ko‘z kasalligiga oid asarlar sarasi» asarlarini yozganlar.

Xonliklarda shoiru-fozillar adabiyot sohasida ijod qilganlar. Buxoroda ijod etgan Mirza Sodiq Munisiy 15 ming g‘azal va masnaviylardan iborat «Devon» kitobini yaratadi. Fazliy, Mushrif, Mahmur, Gulxaniy va boshqa ko‘plab qalam sohiblari Qo‘qonda ijod etdilar. Qo‘qonda adabiy muhitning rivojiga Umarxon va uning xotini Nodira katta hissa qo‘shdilar. Ularning taklifi bilan saroy shoirlari Fazliy va Mushrif Qo‘qon shoirlarining «Majmuat ush-shuaro» nomli taskirasini yaratadilar, unga ko‘plab ijodkorlarning she’rlari kiritilgan edi.

Musiqa va qo‘shiqchilik san’ati ham ancha rivoj topib bordi. Puflab yoki urib chalinadigan, torli musiqa asboblari, milliy qo‘shiqchilik, milliy raqs aholi o‘rtasida keng tarqalib bordi. Qo‘shiqchilikda terma, lapar, yalla, maqom janrlari keng qo‘llanilardi. Hofizlar, baxshi dostonchilar xalq tomonidan e’zozlanar edi, to‘y va sayillarda «Go‘ro‘g‘li», «Kuntug‘mish», «Shohsanam va G‘arib», «Tohir va Zuhra» kabi o‘zida vatanparvalik, mardlik, sevgi, mehr, insof va diyonat g‘oyalarini mujassamlashgan dostonlar zo‘r maroq bilan kuylanar

va tinglanar edi. Shuningdek, xalq orasida qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, qo‘g‘irchoq o‘yini, dorbozlik san’ati ham keng tarqalgan edi.

### 2. XIX asr birinchi yarmida o‘zbek xonliklarining jug‘rofiy-siyosiy o‘rni, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayoti.

**Buxoro amirligi.** Buxoro amirligi o‘zbek xonliklari orasida o‘zining hududiy o‘rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqeiga ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so‘l qirg‘og‘idan boshlanib, Sirdaryogacha cho‘zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog‘laridan g‘arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo‘lgan hududni ishg‘ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafirnihon, Panch daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg‘ob daryosi vohalaridagi erlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e’tirof etilgan Buxoroi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko‘lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo‘y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o‘rtasida, Jizzax, O‘ratepa va Xo‘jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lib, bu shaharlar qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turardi.

XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millioncha aholi yashardi. Aholi amirlikning sersuv vohalarida yashab, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho‘llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxandaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 mingcha aholi yashardi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi.

Aholi etnik jihatdan ko‘pgina elatlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pgina qismi, qariyb 57 foizi o‘zbeklar edi. O‘zbeklar bir qancha qabilalardan tashkil topgan bo‘lib, ular orasida mang‘it, saroy, qo‘ng‘irot, jabg‘u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko‘pchilikni tashkil etardi. Ular, asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxandaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda yashardi.

Buxoro amirligi monarxiya tipidagi davlat bo‘lib, uning amiri cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Amir o‘z fuqarolarini o‘ldirishi yoki hayot qoldirishi, butun aholi mulkiga ega bo‘lishga ham haqli edi, ko‘ngli tusaganini qilardi.

XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining o‘zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Bu tabaqa davlat xazinasidan maosh olar, amirga batamom qaram bo‘lib, ularni amirning o‘zi tayinlar yoki egallab turgan lavozimidan olib tashlar edi. Amaldorlar amir farmoyishini bajaribgina qolmay, uning istak-xohishi va ko‘nglini topa bilishlari, unga doimo xushomad qilishlari kerak edi. Shu bois saroyda xushomadgo‘ylik, amir shaxsini ulug‘lash rasm bo‘lib qoladi. Amir va uning oilasigagina emas, quyi mansabdagilar yuqori amaldorlarga ham xushomadgo‘ylik qilardilar. O‘z mavqei, turmushi, oilasining omonligi, mulki uchun qo‘rqish, ertangi kunga ishonmaslik kabi og‘ir vaziyat vujudga keladi. Qisqasi, mansabdorning taqdiri to‘lig‘icha yuqori amaldor qo‘lida edi. Mansabni sotish, poraxo‘rlik keng tarqaldi.

Amirlikda eng katta davlat lavozimi - **qushbegi,** dargoh vaziri, ya’ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etar edi. Bir so‘z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbegining qo‘lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qushbegi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda turar edi **.**

**Devonbegi** - xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarning undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan. Davonbegi arki oliyning bir chetida yashagan.

**Ko‘kaldosh** -(xon bilan bir onadan sut emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do‘stona yoki dushmanlik munosabatida bo‘luvchilar haqidagi ma’lumotlarni to‘plab hukmdorga etkazib turgan.

**Mushrif** - lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in’om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro‘yxatga olish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Soliq tushumlarini ham maxsus daftarga yozib borgan.

Yana bir lavozim **mirshab** bo‘lib, tungi qorovullar boshlig‘i vazifasini bajargan.

**Dodxoh** - fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi mansabdor bo‘lgan, bularni kerak bo‘lsa xon yoki qushbegiga etkazib turgan.

**Inoq** - bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifasi amir farmoyishlarini bek va boshqa tabaqadagi mahalliy mansabdorlarga etkazishdan iborat bo‘lgan.

**Miroxur** - amirning ovchi qushlarini tasarruf qiluvchilar ustida turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo‘lgan.

**Dasturxonchi** - amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas’ul amaldor.

**Kitobdor** - amir kutubxonasi boshlig‘i.

**To‘qsobo** - amir tug‘i sohibi bo‘lgan harbiy mansabdor.

**Parvonachi** - biror shaxsning biror lavozimga tayinlanganligi haqidagi yorliqni o‘sha shaxsga etkazuvchi amaldor.

**Sadrlar** - vaqf mulklarini boshqaruvchi mansabdorlar. Vaqf muassasasining boshliqlari bo‘lgan mutavallilar sadrlarga bo‘ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig‘i shartlarida qayd etib qo‘yilgan. Sadrlar vaqf xo‘jaligi daromadining ma’lum qismini olardilar.

**Shayxulislom** - musulmon jamoasi boshlig‘i. Qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta’minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo‘lib ham o‘tgan.

**Katta qozi (Qozi kalon)** - davlatning oliy qozisi (sudyasi). Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi kalon «Shariat panoh» deb atalardi. Qozi kalon huzurida a’lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni har tomonlama ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lgan.

**Muftiy** - qozi kalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo‘yicha, shariat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqarardi.

Amirlikda amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham hukmron mavqega ega edi. Ular o‘zlarini Muhammad payg‘ambarning avlodlarimiz deb hisoblovchi sayyidlar hamda choryor halifalar - Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridanmiz deyuvchi xo‘jalardan iborat edi. Ular katta er-suvga, savdo do‘konlariga, hunarmandlik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda jo‘ybar shayxlari alohida mavqega ega bo‘lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo‘lib yashardi.

Sudlov ishlarida shariat qonun - qoidalariga rioya etilishini ta’minlashda shayxulislom, a’lam va qozilar amirning eng yaqin yordamchilari edi. Amirlikda eng katta mansabdorlardan biri Qozi kalon hisoblanardi. Uning mahkamasida har bir viloyatdan bittadan qozi ish olib borardi. Ularni amirning o‘zi tayinlardi. Qozi din masalalari, oila, meros, jinoiy ishlarga oid masalalar bo‘yicha hukmlar qabul qilardi.

XIX asr 30-yillarida amir qo‘shinida 19 mingga yaqin yollangan askarlar bo‘lib, ular turli shahar va istehkomlarda harbiy xizmatni o‘taganlar. Qo‘shin askarlari, asosan, o‘q-yoy, nayza, qilich, xanjar, oybolta kabilar bilan qurollangan. Manbalar amir qo‘shinida piltali miltiqlar va kichik to‘plar ham bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Amir qo‘shinining jangovorlik darajasi past edi. Askarlar harbiy mashqlarga nisbatan ko‘proq mehnat bilan band bo‘lardi. Sipohlikka 15 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar olinardi, qo‘shin safida keksayib qolganlar anchagina bo‘lardi. Amirlikning yillik daromad 2 mln. 300 ming so‘m bo‘lgani holda, ulardan 1 mln. 300 ming so‘mi qo‘shinni saqlashga sarflanardi. Oziq-ovqat etishmasligidan sipohlar qochardi, kiyimi yupun edi. XIX asr o‘rtalarida askarlar soni, piltali miltiq va to‘plar ham anchagina ko‘paygan. Qo‘shinda yuz boshi, ming boshi singari harbiy lavozimlar bo‘lib, umumiy qo‘mondonlikni lashkarboshi boshqargan. Amirlikning

qo‘shini muntazam bo‘lmay, zaruriyat bo‘lganda to‘planardi, ularni to‘plash qiyin kechardi. Bu amirlikning zaiflik omillaridan biri edi.

**Xiva xonligi.** Manbalarda ko‘rsatilishicha, XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat milni tashkil etgan. Xonlik janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo‘ygan edi. Quyi Amudaryo bo‘yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etardi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Qo‘na-Urganch, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Kurdar (Xozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi. O‘rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahri xonlikning poytaxti hisoblanardi. Shahar ikki qismdan Ichan qal’a (shaharning ichki qismi) va Dishon qal’a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal’ada xon qarorgohi va harami, 17ta masjid, 22ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan bo‘lib ular asosan, X1X asrda barpo etiladi. 1842 yilda Dishon qal’a qurilib, devor bilan o‘rab olinadi. Dishon qal’ada hunarmandlar, savdogardar, mardikorlar, qisman dehqonlar ham istiqomat qilganlar.

Xiva xonligida taxminan 800 mingga yaqin kishi yashardi. Aholining ko‘pchilik qismi o‘zbeklar bo‘lib, ulardan eng kuchli va ko‘p sonlilari qo‘ng‘irot, nayman, qiyot, uyg‘ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O‘zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanal bo‘ylarida joylashgan edi.

Aholining anchagina qismini (taxminan 1/4 qismi) turkmanlar tashkil etardi. Turkmanlar qadimgi o‘g‘izlarning avlodlari bo‘lib, forscha gaplashuvchi mahalliy xalqlar, o‘zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi xavzasi va Orol degizining janubiy qirg‘oqlari Xiva xonligi tasarrufida edi. Qoraqalpoqlar bu hududdagi sho‘rxok erlarni qancha mashaqqatlar bilan o‘zlashtirib tirikchilik qilardi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg‘uloti edi.

Xonlikning shimoliy qismida qozoqlar yashardi. Shuningdek, xonlikda qisman forslar, arablar va boshqalar ham yashagan.

Muhammad Rahim I (1806-1825 yillar) davrida xonlikdagi o‘zaro urushlar biroz tinchidi, xonlikni birlashtirish nihoyasiga etdi. Qoraqalpoqlar hamda turkmanlarning chavdor qabilalari ham bo‘ysundirildi. Mamlakatda o‘tkazilgan soliq islohoti, bojxona joriy etilishi, oltin pul zarb etilishi xo‘jalik ishlariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. O‘z vaqtida yig‘ib olingan soliqlar xonlik daromadini oshirdi.

O‘rta Osiyodagi qo‘shni davlatlar singari Xiva xonligi ham monarxiya tipidagi davlat edi. Davlat tuzimi Buxoro amirligiga o‘xshardi. Oliy xokimiyat xon qo‘lida bo‘lib, uning huquqi chegaralanmagan - hokimi mutlaq edi. Xiva xonligida qulchilik rasmiy jihatdan hamon mavjud edi. Dishon qal’ada qul bozori bo‘lib, sotilguncha qullarni ushlab turuvchi maxsus bino mavjud edi. Qul savdosi ayrim toifadagi odamlar uchun daromadli edi, qul sotish bilan ko‘proq turkmanlar shug‘ullanardi. Ular Eron, Afg‘oniston, Badaxshonga xujum qilib, qishloq aholisini qul qilar, bozorda sotardi.

Xonlikda eng nufuzli lavozim bosh vazir yoki qushbegi bo‘lib, u soliqlarni to‘plash va xonning topshiriqlarini bajarish bilan shug‘ullangan.

Saroyda Otaliq, Rais, Qozi kalon, Shayxulislom, Mirobboshi, Mirshabboshi, To‘pchiboshi, Yasovulboshi kabi amaldorlar xon xizmatida bo‘lardi. Devonbegi xon devonini boshqarardi. Xazinachi xonlikning kirim va chiqim hamda sarf-xarajatlarini yuritar, bu haqda xon yoki bosh vazirga hisob berar edi.

Ma’muriy hududiy jihatdan Xiva xonligi Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko‘na-Urganch, Qo‘shko‘prik, Pitnak, G‘azovot, Qiyot, Shoxabboz, Shavot, Toshhovuz, Ambor-manok, Urganch, Xo‘jayli, To‘manoy, Qo‘ng‘irot kabi beklik yoki viloyatlarga bo‘lingan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida, ularga xizmat qiluvchi ko‘pdan-ko‘p amaldorlar bo‘lgan.

Xiva shahri shaxsan xonning va bosh vazirning izmida bo‘lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko‘rish va jazo tayinlash shahar qozisi, poytaxtni tasodifiy xujumlardan himoyalash To‘pchiboshi va Ichan-qal’a, Dishon-qal’a qutlovi (komentanti) zimmasida bo‘lgan.

Xon qo‘shinlari Buxoro qo‘shinlari kabi qilich, o‘q-yoy, nayza bilan qurollangan. Ozchilik askarlarda pilta miltiqlar ham bo‘lardi, oz miqdorda to‘plar ham bor edi.

**Qo‘qon xonligi.** XIX asr birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hududiy jihatdan O‘rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo‘qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchchala qozoq juzlarini batamom o‘ziga bo‘ysundirib olgan Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘li hududlarni o‘z ichiga olar, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo‘lar, ular qo‘ldan-qo‘lga o‘tardi.

Qo‘qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo‘lib, taxminan 3 millioncha kishi yashardi. Xonlikning poytaxti Qo‘qonda 80 000, Toshkent shahrida 60000 aholi yashagan.

Qo‘qon xonligi aholisining ko‘pchilik qismi o‘zbeklar edi. Shuningdek, xonlik aholisi tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham yashardi.

Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi Buxoro va Xivanikiga o‘xshardi. Xon huquqi xech nima bilan chegaralanmagan hokimi mutlaq edi. Xondan keyingi ikkinchi shaxs vazir hisoblanib, muhim davlat masalalarini xon bilan kelishgan holda hal etardi. Markaziy davlat boshqaruvida

Qushbegi, Otaliq, Devonbegi, Mingboshi, Shayxulislom, Qozi kalon, Parvonachi, Shig‘ovul, Sarkor, Inoq, Dasturxonchi, Amin, Yassovulboshi kabi amaldorlar xizmat qilardi. Saroy qoshida maxsus kengash tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga eng oliy mansabdor shaxslar kirgan. Xon kengashning raisi va masalani hal qiluvchi shaxs edi.

**3. Xonliklarda o‘zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari.**

Chor Rossiyasi butun Sibirni bosib olib, qozoq va qirg‘izlar yashovchi hududlar - kichik juz, o‘rta juz va katta juzni o‘ziga bo‘ysundirib, endi O‘rta Osiyoga siljib kelmoqda edi. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi bevosita chegaradosh bo‘lib qolgan edi.

Rus hukumatining Qo‘qon xonligiga tazyiqi xonlikning qozoq va qirg‘izlarga nisbatan ta’sir doirasini qirqish siyosati va amaliyotida yaqqol ko‘rinmoqda edi. Bu yovuz niyatni barcha o‘zbek xonlari tushunardi, ammo ojizligi tufayli tajovuzni bartaraf etish bo‘yicha taqozo etgan darajada tadbir topolmadilar.

Vaziyat uchchala xonlikning birlashib dushmanni daf etish yo‘lidan borishini talab qilardi. Amalda esa aksi bo‘ldi, ular birlashish o‘rniga o‘zaro kurashni avj oldirdilar. Xususan, Qo‘qon xonligida notinchlik, xokimiyat uchun ichki kurash avj olib ketdi.

Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1841) taxtga o‘tirgandan boshlab, 1834 yilgacha Qorategin, Qulob, Darvoz viloyatiga to‘xtovsiz yurishlar qilib, ularni Qo‘qon xonligiga bo‘ysundurdi. 1826-1831 yillar davomida esa bir necha marta Qashqarga bostirib bordi, xitoyliklar bilan urush qildi, ming-minglab kishilarning qirilib ketishga sababchi bo‘ldi.

Xondan norozi bo‘lganlar 1839 yilda o‘z elchilarini Buxoro amiri Nasrullo xuzuriga yuborib, yordam so‘raydi. Bu vaqtda Buxoro amiri bilan Qo‘qon xoni o‘rtasida Jizzax, O‘rta-tepa va Xo‘jand uchun urush borayotgan edi. Amir Nasrullo Qo‘qon qo‘shinini tor-mor etib, Jizzax, O‘rta-tepa va Xo‘jandni o‘z tasarrufiga kiritdi. Endi Qo‘qon sari otlandi. Ayni paytda, 1841 yilda Muhammad Alixonning zulmiga qarshi Qo‘qon shahar aholisi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Xon O‘rdadan qochib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar talabiga binoan bir necha aybdor shaxslar qatl etildi.

Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho‘zilmadi. Amirning Qo‘qondagi noibi Ibrohim Dodxohning Qo‘qon xonligi aholisini ilgaridan undirib kelingan soliqlarga qo‘shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham majbur qilishi natijasida butun Qo‘qon xonligi xududida 1842 yili katta qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Uning oqibatida amirning Qo‘qondagi noibi va beklari hokimiyati ag‘darildi.

Buxoro amirligi hokimiyatiga qarshi kurashda Qo‘qon aholisining qo‘zg‘olonini tashkil etgan maxalliy kuchlar Farg‘ona vodiysida ko‘chib yurgan qipchoqlar madadiga tayangan edilar. Qo‘qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo‘tabiyning ukasi Sherali o‘tkazildi. Qo‘qon xonligi mustaqilligini tiklashda ming qabilasiga katta madad bergan qipchoqlar xonlik siyosiy hayotida katta mavqega ega bo‘lib oldilar. Qipchoqlar yo‘lboshchisi Musulmonqul qo‘shin boshlig‘i, bosh vazir, bosh maslahatchi etib tayinlandi. Amalda davlat boshqaruvi ishlari uning qo‘lida to‘plangan edi. Eng mas’uliyatli davlat ishlari lavozimlariga qipchoq zadoganlari tayinlandi.

Musulmonqul hukmronligiga xotima berilgan, qo‘zg‘olonlar bostirilgan bo‘sada, ichki nizolar bu bilan barham topmadi.

Xudoyorxon aholidan soliq yig‘ishni kuchaytiradi, aholiga jabr sitam oshib bordi. Xalqning noroziligidan foydalanib, xonning ukasi Mallabek qo‘shin to‘plab, 1858 yilda xon tarafdorlarini tor-mor keltirdi va Qo‘qonni egalladi. Xudoyorxon Buxoroga qochib ketdi. Mallaxonga ham fitna tayyorlandi va 1862 yilda Mallaxon o‘ldirildi. Shohmurod xon deb e’lon qilindi. Mallaxonning tarafdorlari qatl etildi.

Amir Nasrullo amirlikdagi parokandalikni to‘xtatish uchun shafqatsiz urushlar qildi, bo‘ysunmagan shahar va qishloq aholisini qilichdan o‘tkazardi. Bunga o‘zlarini mustaqil deb hisoblovchi Shahrisabz bekligiga qarshi olib borilgan qonli urushlar misol bo‘la oladi. Amir Nasrullo Shahrisabzga qarshi 32 marta hujum qilib, oxiri 1856 yilda uni zabt etdi.

O‘zbek xonliklarining hukmdorlari Rus davlati tajovuzlariga e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik qildi. O‘zaro urushlar girdobiga botib, katta kuchlarni behuda qurbon qildi, mamlakat boyligini besamar ishlarga sovurdi. Vaqtini aysh-ishrat, kayfu safoda o‘tkazdi.

***Taniqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o‘zining «O‘tgan kunlar» romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi hijron so‘zlarini bayon etadi. «Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo‘lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o‘rniga o‘tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o‘ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati, shaxsiyati yo‘lida, bir-birini eb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuxratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim etmay qoldi... Biz shu hislatda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusimizni o‘ris qo‘liga qoldirgan bo‘larmiz».***

Haqiqatdan ham shunday bo‘ldi. Turkiston jahon taraqqiyoti jarayonidan tobora chetda qolabordi, ilg‘or davlatlardan orqada qoldi.

O‘zbek xonliklari hayotidagi qoloqlikning ildizi, sabablari nimalardan iborat? Bizningcha, bunday qoloqlikka bir qator omillar sabab bo‘ldi.

Xonliklarning asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan davlat idora usuli, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g‘ov bo‘lib qolgan edi.

Aholi xon va beklarning, lavozimdagi amaldorlarning zo‘ravonligidan, o‘zboshimchaligidan, suiiste’mollaridan, g‘ayriqonuniy soliq va to‘lovlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo‘lib, aholi iste’mol uchun eng zarur bo‘lgan tor doiradagi oddiy buyumlar va mahsulotlar bilan qanoatlanardi. Ishlab chiqarishning faqat iste’molga yo‘naltirilganligi iqtisodiyotning o‘sishi uchun turtki berolmasdi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Asosiy boylik bo‘lgan erga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o‘zgarmasdan kelardi. Xonliklarda hukmdor erning birdan - bir egasi bo‘lib, er ishlovchilarga - dehqonlarga xatlab, ijara tarzida biriktirilgan edi. Dehqon er egasi emas, erdan olingan hosilning egasi edi. Shu boisdan dehqon erni asrab avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi, manfaatdor emasdi. Dehqon er egasi bo‘lmagani uchun boshqa joylarga ketaverardi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Erga ishlov berish o‘sha-o‘sha bir juft xo‘kiz, so‘qa-omoch darajasida qolib ketgan edi. Irrigatsiya inshootlariga ahamiyat pasayib, sug‘oriladigan er maydonlari qisqarib borardi.

Xonliklarda sanoat ishlari rivojlanmadi. Oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko‘mir, neft kabi tabiiy boyliklar to‘la bo‘lgan konlar bo‘lsa-da, ularni qazib olish, kon-tog‘ ishlarini yo‘lga qo‘yishga befarqlik qilindi. O‘lkada etarli darajada yirik daryolar bo‘lsa-da, ularda baliqchilikni rivojlantirish, kemasozlikni yo‘lga qo‘yish hech kimning xayoliga kelmasdi.

Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste’mol va qo‘shin xarajatlarni zo‘rg‘a qoplardi, pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning xazina to‘plash manbai bo‘lib qolgan edi, kapitalga aylanmasdi.

Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash tarzi davom etardi. O‘rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga, yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

O‘zbek xonliklaridagi ijtimoyi-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo‘shni mamlakatlarni o‘z tasarrufiga kiritib olish siyosatini jadallashtirayotgan chor Rossiyasiga qo‘l keldi. Xonliklardagi porakandalik, o‘zaro nizo va urushlar, oxir oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylanishiga olib keldi.

### *Sinov savollari*

1. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni nisbatan oson egallashiga nimalar sabab bo‘ldi?
2. Shayboniylar qachon va qanday shaharlarni zabt etdi?
3. Nima sababdan shayboniylar Xurosonni qo‘lda ushlab turolmadilar?
4. XVI asr boshida Xorazm o‘lkasida qanday voqealar sodir bo‘ldi, hokimiyatni kimlar egalladi?
5. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
6. Ashtarxoniylar kim, ular Buxoro xonligida hokimiyatni qachon qo‘lgan kiritdilar?
7. Nima uchun Turkiston uch xonlikka bo‘linib ketdi?
8. Qichon va nima uchun Buxoro xonligi amirlik deb ataladigan bo‘ldi?
9. Qo‘qon xonligining tashkil topishini, hokimiyatni qanday sulola boshqarganini bilasizmi?
10. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari tarixiga doir qanday asarlar yozilgan?
11. XV-XIX asrlarda barpo etilgan tarixiy me’moriy yodgorliklarni bilasizmi?
12. Nima sababdan xonliklarda o‘zaro va ichki kurashlar uzoq yillar davom etdi?
13. Xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi qoloqlikning sabablarini bilasizmi?
14. Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro kurash  qanday oqibatlarga olib keldi?

## 9-mavzu: Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi, uning istibdodiga qarshi milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik.

### REJA:

1. Turkistonni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi.
2. Mustamlakachilik idora usulining joriy etilishi.
3. Mustamlakachilarning iqtisodiy, madaniy sohadagi siyosati va amaliyoti.
4. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati.
5. Jadidchilik harakati.

Adabiyotlar:


1. Karimov I.A “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida… -T.: O’zbekiston, 1997, 49-69 betlar.
2. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 218-248-betlar.
3. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq, 1998. 79-340 betlar.
4. O’zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000, 62-138 betlar.
5. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003, 218-243-betlar.


**1.**

**2. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachyilik idora usulining jori etyilishi**

Turki xalqlar ashovchi bepoon hududlarni bosib olish Rossia podshohlarining azali orzusi edi. Bu boradagi amali harakat Ivan Grozni zamonidan boshlangan edi. U Qozon (1552), Ashtarxon (1556), Sibir (1581-1590) xonliklarini bosib oladi va endi Turkiston to’g’risida ma’lumotlar to’plashga kirishadi. Shu maqsadda 1558-1559 - yillarda Antoni Jenkinson boshliq elchyilarni Buxoroga uborib josuslik ma’lumotlari to’plagani ma’lum. Rusia hukumati XVII asr davomida 9 marta elchi uborib, Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodi va harbi ahvolini o’rganadi.

**«Sharqni egalla» siosati.** Rossia podshohi Potr I zamonida «Sharqni egalla» siosati urityildi. Bu siosatning tarkibi qismlaridan biri Turkistonni egallash edi. Turkistonni bosib olish rejasi tuzyildi. Xiva, Buxoro, Qo’qon xonliklarining g’arbi, shimoli, sharqi chegaralarida harbi istehkomlar qurish, xonliklarni Rossia tobeligiga olish maqsadida katta harbi ekspeditsialar uushtiryildi. 1715 - yilda sharqi chegaralarda Buxgolts rahbarligida, 1716-1717 - yillarda Xiva xonligida Bekovich-Cherkasski rahbarligida harbi ekspeditsialar tajovuzkorona harakat qyildyilar. 1721-1724 - yillarda Florio Beneveni boshliq elchyilar Buxoroda josuslik faoliatini uritdi. XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg’izlarning Kichik Juz, O’rta Juz, Katta Juz hududlarini o’ziga bo’sundirib, ularning hududida o’zbek xonliklariga bostirib borishda fodalanish maqsadida 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbi qal’a va istehkomlar qurdiradi, ularga qo’shinlarini jolashtiradi.

**Anglia-Rossia raqobati.** XIX asrda irik mustamlakachi davlatlar tomonidan Afrika, Osio, Amerika va Okeania mamlakatlarini bo’lib olish uchun kurash anada kuchaadi.

XIX asr o’rtalarida ikki irik mustamlakachi imperia - Buuk Britania va Rossia davlatlari manfaatlari Turkistonda to’qnashdi. Ikkala davlat bir-biridan ashirin ravishda O’rta Osioga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar byilan tyil topish o’llarini qidirardi, shu maqsadda harbi missialar uborar edi. Anglia Hindiston tomondan, Rossia qozoq cho’llari va Sibir tomondan harakat qyilardi, o’zbek xonliklarini o’z ta’sir doirasiga olish, o’z manfaatlari o’lida

xonliklarning boliklari, tabii resurslaridan fodalanish, o’z mustamlakasiga alantirishga intyilardi. Shu boisdan ingliz-rus raqobati kundan-kunga kuchayib bordi.

Hindiston va Afg’oniston orqali o’zbek xonliklari byilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib boraotgan Buuk Britania Rossianing Turkistonga kirib kelaotganidan xavfsiramoqda edi. Rossianing Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo’lgan Anglia hukumati Rossia rejalarini barbod qyilish choralarini ko’rdi. Ost-India kompaniasi tomonidan josuslik ma’lumotlari to’plash maqsadida uboryilgan E.K.Meendorf 1824 - yildaoq Buxoroda bo’lgan, ammo maqsadiga erishaolma shu erda halok bo’lgan edi. 1831 -1833 - yillarda mazkur kompania letenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg’onistonga, undan Buxoroga go’o saoh sifatida keladi. U ig’yilgan dalyillar va shaxsi kuzatuvlar asosida uch jyildlik «Buxoroga saohat» nomli kitob ozib, unda, jumladan: «O’zbeklar... mening kim ekanimni byilmaganlaridan barcha narsalar xususida, hukmdorlari siosatidan tortib bozordagi ahvol haqida ham tortinma so’zlashdyilar», -deb ozadi.

Anglia hukumati Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklarini Rossiaga qarshi ittifoqqa uushtirishga harakat qyildi. 1841-1842 - yillarda Anglia hukumati maor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missia byilan ubordi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo’lib, Rossia tajovuzidan saqlanish uchun uchchala Xonlik bir-birlariga ordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qyilib, rus qo’shinlariga qarshi kurashish uchun qo’shin byilan ordam berishga va’da qyiladyilar. Biroq ularning rasmi hujjatlari bo’lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatadi. Bularni qutqarish uchun Anglia tomonidan Turkia homyiligida maor Volf Buxoroga uboryiladi, ammo uning 1843-1845 - yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagyilar qatl etyiladi, Volfning o’zi zo’rg’a qochib qutyiladi. Shuningdek, 1843 - yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Anglia manfaatlari o’lida ishlagani ma’lum.

Ingyilizlarning O’rta Osioda jiddiroq siosat uritishiga Afg’oniston xalaqit berardi. Shu boisdan inglizlar maxsus «afg’on siosati»ni ishlab chiqib, Afg’oniston amirini bo’sundirish, Hirot va Qandahorni inglizlar mulkiga alantirish, ularda harbi kuchlarni jolashtirishni rejalashtiradi. Shu maqsadda Anglia 1838-1842 va 1878-1880 - yillarda Afg’onistonga ikki marta bosqinchyilik urushlari uushtirdi. Biroq Afg’onistonni bo’sundira olmadi.

Ost-Hindiston kompaniasi O’rta Osio bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossia tovarlarini siqib chiqarishini ta’minlashga zo’r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng fodalandi.

Buuk Britanianing O’rta Osioga kirish va uni egallashga intyilishi chor Rossiasini tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo’lganidan fodalanib, harbi harakatlarni boshlab ubordi.

Xonliklarning shimoli-g’arbi hududida Orenburg general-gubernatori V.A.Perovski katta qo’shin byilan hujumga shalanib turardi. U 1834 - yilda Kaspi dengizi qirg’og’idagi Mang’ishloqda harbi istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovskaa deb nom berdi. 1845 - yilda Orenburg va oiq, 1847 - yilda Sirdaroning Orol dengiziga qo’yilish joida Raim (Oral) harbi istehkomlari quryildi. Perovski qo’shinlari 1853 - yilda Qo’qon xonligining strategik ahamiatga molik bo’lgan Oqmasjid qal’asini bosib oladi va u erda mustahkam o’rnashadi.

Xonliklarning shimoli-sharqi tomonida esa G’arbi Sibir general-gubernatori G.Gosford hujumga taorlanish uchun 1847 - yilda Ettisuvdagi Ulutov aqinida ikkita harbi istehkom, 1848 - yilda Qorabuloq qal’asini, 1854 - yilda Olmati ovuli onida Verni istehkomini qurib, harbi kuchlarni jolashtiradi. 1860 - yilda Qo’qon xonligi hududiga qarashli harbi istehkomlarga hujum qyilib, To’qmoq, Pishpak va boshqa qal’alarni birin-ketin bosib ola boshladi.

Perovski va Gosfordlarning harbi harakatlari amalda Rossianing O’rta Osioga e’lon qyilinmagan bosqinchyilik urishining boshlanishi edi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksand II tomonidan 1859 va 1861 - yillarda o’tkazyilgan saro kengashida muhokama qyilinadi va birinchi navbatda Qo’qon xonligini bir oqlik qyilish, unga qarshi harbi harakatlarni boshlashga qaror qyilinadi. O’rta Osio xususidagi

raqobatda Rossia ustunlik qyildi. Anglia Rossianing harbi kuch byilan O’rta Osioni egallashga qaratyilgan harakatlarini to’xtatib qololmadi.

**Rossia bosqini.** 1864 - yil ma oida **Qo’qon xonligi hududi**ga Sharq tomondan polkovnik Chernaev qo’mondonligidagi Rossia qo’shinlari, G’arbdan polkovnik Verevkin qo’shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo’qon xonligining muhim va taanch shaharlari- Avlioota, So’zak, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinchlar 1864 - yil 14 iulda Chimkentga urish boshladyilar. Bu orada Qo’qon xoni Saidxon va lashkarboshi Mulla Alimqul bor kuchlarini to’plab, Chimkent atrofida jangga taorlandyilar. Turkiston shahri aqinidagi Iqon qishlog’ida uch kun davomida qattiq jang bo’ldi. Manbalarda ozyilishicha, jangda shunda qirg’in bo’ldiki, o’liklardan tepalar hosyil bo’ldi. Jangda Mulla Alimqul qo’shinlari g’olib chiqdi, Chernaev qo’shinlari jangda engyilib orqaga chekinishga majbur bo’ldi.

Mulla Aliquli o’z qo’shinlarini bosqinchyilar egallagan shaharlarni ozod qyilish uchun jangga taorlaotgan bir patda Buxoro amiri Muzaffarning Qo’qon xonligi xududlariga bostirib kirganligi to’g’risida xabar olindi. Mulla Alimqul o’z qo’shinlari byilan Qo’qon himoasiga otlanishiga majbur bo’ldi. Vaziat Chernaevga qo’l keldi, uning qo’shinlari Orenburg otradlari byilan Saramda qo’shyilib, 1864 - yil 14 sentabrda Chimkentga angidan urish uushtirdi va shaharni bosib oldi.

Chernaev 1864 - yil 2 oktabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo’qon xonligining eng irik, muhim strategik ahamiatga molik shahari bo’lib, uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7- metr bo’lgan devor byilan o’rab olingan edi. Devor tepasining kengligi 2 m. bo’lib, mudofaa minoralari, o’q otadigan shinaklari bo’lgan, devor atrofi suv to’ldiryilgan zovur byilan o’rab olingan edi.

Toshkent mudofaachyilarining mardona harakati tufali Chernaev qattiq mag’lubiatga uchradi, 72 zobit va askarni o’qotdi. Chimkentga qatishga majbur bo’ldi.

Chernaev 1864-1865 - yil qishini taorgarlik byilan o’tkazdi, uning qo’shinlari Sibir va Orenburgdan etib kelgan qurol-arog’, angi batalonlar, saporlar rotalari byilan to’ldiryildi. Mahalli aholi orasida o’z Vataniga xionat qyiluvchi, dushmandan panoh izlovchyilar ham topyildi. Abdurahmonbek, Saidazimbo, Soatbo kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernaevga ko’maklashdyilar. 1865 - yil bahoridan Chernaevning angi hujumi boshlandi. 28 aprel kuni Chirchiq darosi qirg’og’idagi Niozbek qal’asini egallab, Toshkentni suv byilan ta’minlab turuvchi Kakovuz anhoriga Chirchiq darosidan suv chiqarib beruvchi to’g’onni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldiradi. Amirlashkar Alimqul katta qo’shin byilan Qo’qondan Toshkentga etib keladi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo’ldi. 9 ma kuni Salar arig’i bo’ida katta jang bo’ldi. Alimqul og’ir arador bo’ladi va halok bo’ladi. Nihoat shahar himoachyilarining qarshyiligi sindiryildi, 15 iun kuni Chernaev Toshkentni zabt etdi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston vyiloati tuzyildi, uning harbi gubernatori etib M.Chernaev tainlanadi.

Chernaev 1866 - yil anvarida Jizzaxga hujum qyiladi va mag’lubiatga uchradi. O’zboshimchaligi uchun Chernaev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, o’rniga general D.Romanovski tainlanadi.

Romanovski Sibir va Orenburgdan ordam olib **Buxoro amirligiga qarshi urish boshladi**. Rossiya imperiyasi qo’shinlari tomonidan Qo’qon xonligi hududlari bosib olinaotgan patda Buxoro amiri tomoshabin bo’lib turgan bo’lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan patda Qo’qon xoni Xudoorxon sukut saqlab turdi. Modomiki u amir Muzaffar homyiligida Qo’qon taxtini uchinchi marta egallagan edi. 1866 - yil ma oida Erjarda bo’lgan jangda amir Muzaffar qo’shinlari engyildi, amir Jizzaxga qochdi. Romanovski urishni Xo’jand tomonga o’naltirdi, 1866 - yil 19-22 ma kunlari bo’lgan qattiq janglar natijasida Xo’jandni egalladi. 1866 - yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovski Toshkentga keldi va Romanovski byilan birgalikda Buxoro amirini tobe qyilish harakatini boshlashdi. Katta qo’shin tortib 1866 - yil oktabrda O’ratepa vyiloati, Zomin qal’asini bosib oldi. Jizzax uchun qattiq jang bo’ldi. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor byilan o’rab olingan bo’lib, qal’aga o’xshardi. Shaharda 10 ming himoachi askar, 53 to’p bor edi. Himoachyilar

shaharga kirib-chiqadigan darvozalarni tuproq byilan ko'mib tashlab, o haot, o o'lim deb jang qyildyilar. 11-18 oktabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchyilar Jizzaxni egalladi. Himoachyilardan 6000 kishi halok bo'ldi, 2000 kishi asirga olindi. Istyilochyilar atigi 100 ga aqin kishi o'qotdi. Bosqinchyilar huvullab qolgan shaharni talon-taroj qyildyilar. Xo'jand, O'ratepa, Jizzaxda qonli janglar bo'laotgan bir patda Qo'qon xoni, Buxoro amiri qaerda edi, ular nima karomat ko'rsatdi? degan tabii savol tug'yiladi. Ular o'z joida, hali ham o'zlarini davlat boshlig'i, hukmdor deb hisoblar edyilar, ammo biron-bir tadbir ko'rishga ojiz, vaziatni to'g'ri tahlyil etishga aql-farosatlari ham etmas edi, shekyilli. Ular bosqinchyilarni emas, biri-ikkinchisini mag'lub qyilish, ko'zini o'ishga harakat qyilardi. Bo'linganni bo'ri er, deb shuni atsalar kerak-da.

Rossia imperatori Aleksandr II ning 1867 - yil 11 iuldagi farmoniga binoan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Turkiston harbi okrugi tuzyildi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'utant K.P. fon Kaufman tainlandi. Unga biror davlatga urush e'lon qyilish, sulh tuzish, harbi-ma'muri, moliavi-iqtisodi, fuqarolik ishlarini mustaqyil hal qyilish huquqlari beryilgan, shu boisdan u «arim podsho» deb atalardi. Bu tadbir chor Rossiasining O'rta Osioni bosib olish o'lidagi harakatida angi bosqich bo'ldi.

Fon Kaufman Samarqandga tomon urish boshladi. 1868 - yil 1 ma kuni shahar aqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari byilan jang qyilib, ularni osongina mag'lubiatga uchratdi, bir patlar dovrug'i olamni tutgan Samarqand 2 ma kunioq dearlik jangsiz dushmanga taslim bo'ldi. Bu voqeadan duno hukmdorlari, jumladan, Rossia podshohi ham haratlangan. Buxoro amiri Muzaffar Samarqandning bosib olingani to'g'risidagi xabarni etkazgan odamni osib o'ldirishga farmon berib, o'zi alamidan ig'lagan.

Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon urdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon urdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868 - yil 2 iunda to'qnashdi, qattiq jang bo'ldi, amir qo'shinlari tor-mor etyildi. Bu orada istyilochyilarga qarshi **Samarqandda qo'zg'olon ko'taryildi.** Shaxrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27 ma kuni Samarqandga qo'shin byilan etib kelib, qo'zg'olonchyilar byilan birgalikda fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldiryilgan polkovnik Nazarov va maor Shtempel boshliq harbi qismlar byilan qattiq jang qyildyilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldiryildi va arador qyilindi. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan fon Kaufman zudlik byilan Samarqandga qatib keladi va 8 iun kuni shaharni to'plardan oppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni ondirishga buruq beradi. Aholi qirg'in qyilindi, masjidlar va tarixi odgorliklar ondiryildi, qadimi noob moddi va ma'navi obidalar Peterburgga olib ketyildi.

30- yillarda O‘zbekistonda 205 nomda gazeta va 56 nomda jurnallar (shulardan 132 ta gazeta va jurnal o‘zbek tilida)chiqib turdi. Nashr etilgan kitoblarning umumiy nusxasi 38 mln. 909 ming donadan ortdi. Bu yillarda respublikada 707 ta ommaviy kutubxona, 3078 ta klub muassasalari, 469 ta kinoustanovkalar, 32 ta teatr va 13 ta muzeylar faoliyat ko‘rsatardi. Biroq, respublikamiz madaniy hayotida yuz berib borgan bu xildagi ijobiy o‘zgarishlar, muhim siljishlar bilan bir qatorda juda ko‘plab noxush holatlar, chuqur asoratli hodisalar ham voqe bo‘lganligi sir emas.

## 2. Urushdan keyingi davrda O‘zbekistonning ma’naviy-madaniy hayoti. Unga hukmron kommunistik mafkura tazyiqining kuchayishi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin kechgan va to yurtimiz milliy istiqloliga qadar davom etgan so‘nggi o‘n yilliklar davridagi ma’naviy-madaniy hayotimiz qiyofasini ko‘zdan kechirarkanmiz, bunda juda ko‘plab murakkab holatlarga duch kelamiz. Dastavval, bu davr nechog‘liq ziddiyatli, bo‘hron va tanazzullik hollar bilan kechmasin, u respublikaning ma’naviy-madaniy hayotida ancha sezilarli iz qoldirdi. Eng muhimi, hukmron mafkuraning har qanday zo‘rligi, tazyiqiga qaramay xalqimiz o‘zligi, imon-e’tiqodi e’timadini, yorqin istiqlolga bo‘lgan chuqur ishonchini saqlab qololdi. Bugina emas, u shu istiqlolga erishish uchun o‘zida etarli qudrat, iroda topa bildi. Shu bilan birlikda ma’naviy-madaniy hayotning barcha sohalarida, chunonchi,xalq ta’limi, tibbiyot, ilm-fan, adabiyot, sa’nat singari jabxalarda muayan o‘zgarishlar, ijobiy siljishlar qo‘lga kiritib borildi. Ayni zamonda bu soxaga oid jiddiy muammolar ham ko‘paygandan ko‘payib, hayot kun tartibiga qo‘yila bordi. Respublika ma’naviy hayotining muhim soholaridan biri hamma vaqt ham halq ta’limi tizimi bo‘lib kelgan.

1958 yil dekabrida SSSR Oliy Soveti «SSSR dagi maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash va xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida» qonun qabul qildi. Unda o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish, yoshlarni aqliy axloqiy va ma’naviy etuk shaxslar etib shakllantirish, ularga umumiy politexnik ta’lim berish vazifalari ilgari surildi. Bu qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining rivojlanishi uchun ham asos qilib olindi. 10 yillik maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi. Maktablar uchun yangi zamonaviy o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklar yaratildi. Maktablarda ustaxonalar qurildi, tajriba lobaratoriyalari barpo etildi. O‘quvchilarga politexnik ta’lim berish uchun mashinasozlik, qurilish, sanoat va qishloq ho‘jligi bo‘yicha amaliy mashg‘ulot darslari o‘tish yo‘lga qo‘yildi.

1962 yilga kelib umumiy majburiy 8 yillik ta’limga o‘tish amalga oshirildi. Barcha 7 yillik maktablar 8 yillik maktablarga aylantirildi.

Respublika hukumati xalq ta’limi sohasini takomillashtirib borishga doimiy e’tibor qaratib bordi. Buning konkret ifodali o‘laroq 1966 yilda chiqarilgan «Respublika umumta’lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida» va 1969 yildagi «Respublika umumiy

o‘rta ta’limga o‘tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida»gi qarorlarni keltirib o‘tish joizdir. Bu qarorlarda yosh avlod ta’limi va tarbiyasiga katta e’tibor berish umumiy o‘rta ta’limga o‘tish bilan bir qatorda xalq ta’limi muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash, kapital qurilishi ishlarini kuchaytirish masalalariga ham alohida urg‘u berildi. 70-yillar o‘rtalariga kelib respublikada umumiy o‘rta ta’limga o‘tish yakunlandi.1965-1985 yillar davomida barcha turdagi umumta’lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko‘paydi, o‘quvchilar soni esa 3055,8 ming nafar boladan 6519,6 ming nafar bolaga ortdi. 1965-1985 yillarda respublika maktablarida o‘rta ma’lumot olganlar soni 5,7 mln. kishidan oshib ketdi. Biroq xalq ta’limi tizimi manzarasini ko‘rsatuvchi bu raqamlar bu sohada ko‘zga tashlanib borgan jiddiy kamchiliklar va nuqsonlarni ko‘rish va ularni tahlil etishimizga xech bir monelik qila olmaydi. Negaki, totalitar tuzum zug‘umi va bedodligi, qolaversa ijtimoiy xayot sohalarida va kechgan turg‘unlik jarayonlari bu sohaga ham o‘z asoratini o‘tkazmay qolmagan. Ta’lim tizimi mazmuni va mundarijasining kompartiya dasturlari va rejalari asosida belgilanishi va xuqmron mafkura tamoyillari va talabalariga bo‘ymingirilishi, o‘quv dasturlari qo‘llanmalari va darsliklarning har bir milliy respublika xalqning o‘ziga xoslik, milliylik xususiyatlaridan ayricha umumsovet andozalari asosida tuzilishi - bular novqiron avlodning to‘laqonli shaxs sifatida kamol topishiga o‘z yurti, xalqi ona zamini uchun munosib farzand bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmay qolmagan. Muhtaram Yurtboshimiz sobiq sovet tuzumi davridagi ta’lim tizimining nomaqbul, qusurli jihatlari xususida fikr yuritib, bunda shularni aloxida uqtirgandi: o‘quv jarayonida o‘quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘l qo‘yilmaslik xar qaysi o‘quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, uning sobiq sovet tuzimiga va sohta g‘oyalarga sadoqatini xisobga olib baholash va hayotga yo‘llash tamoyili asosiy o‘rin egallardi. Ko‘p joylarda sifat o‘rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Bu tizim Vatanga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli, ijodiy ravishda yoki izlanuvchan tarzda hal qiladigan kadrlarni emas, balki sayoz saviyali, mute xodimlarni ko‘plab etishtirgani sir emas.[1]

Shu bois ham umumta’lim maktablarini tamomlab chiqqan yoshlar hayotga etarli tayyor bo‘lmaganligidan ular na biror ishning boshini ushlay olar va na biron bir kasb-xunar bilan shug‘ullana olardilar. Shuningdek maktab binolarining etishmasligi, moddiy – texnik bazaning zaifligi ham xalq ta’limi tizimining umumiy ta’lim va tarbiya sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Respublikaning Oliy va O‘rta maxsus ta’lim tizimi ham urushdan keyingi davrlarda ancha murakab jarayonlarni boshdan kechirdi.

Xukmron tuzum o‘z mafaatlaridan kelib chiqib O‘zbekistonda bu tizimni rivojlantirish uning muammolarini hal etish, uni davr talabalari darajasida tashkil etishga qarata yo‘l tutdi. Hayot taqazosi, zamon zayli bilan Respubikada Oliy ta’lim dargohlari ko‘payib, ularda turli yo‘nalishlarda yuqori ma’lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlari olib borildi. Jumladan, 50 yillarda 3 ta Oliy o‘quv yurti –Andijon tibbiyot, Toshkent elektrotexnika aloqa, fizkultura institutlari; 60 yillarda yana 8 ta oliy o‘quv yurtlari - Andijon paxtachilik, Farg‘ona politexnika, Samarqand arxitektura - qurilish institutlari, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institulari, Andijon tillari pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyot pedagogika Instituti tashkil etildi. 70 yillarda yana 5 ta Oliy o‘quv yurti Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil- yo‘llar instituti, Toshkent pediatriya instituti ochildi. Shuningdek yangi fakultetlar viloyatlarda esa yirik oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi. Yangi zamonaviy mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlana boshladi.

***Buning ustiga o‘quv yurtlariga kirgan talabalar, aytaylik, chinakam milliy ruxda chuqur bilim va tarbiya olish imkoniyatidan maxrum etilgandi. Negaki, bu ta’lim tizimi o‘z mohiyat etibori bilan hukmron tuzum siyosati va mafkurasi qurboniga aylangan edi. U***

[1] Қарат: баркамол авлод орзуси. Т: Шарқ, 1999 40-бет

***davrda yaratilgan barcha o'qtuv dasturlari, ta'lim andozalari, qo'lanmalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari mana sha ruxda tayyorlanardi.***

Markazda bir guruyuh «bilog'on» mutaxassislar tomonidan tayyorlanagan, milliy huddudlar, u erda yashovchi odamlarning o'ziga xos hususiyatlari, milliy o'zliklari, mentaliteti, hayotiy tajribalari, an'analarini mutlaqo inkor etgan o'quv dasturlari, jihozlari ta'lim xujjatlari butun bepoyon SSSRdagi maktabalar, o'quv yurtlariga to'g'ridan-to'g'ri majbur etilardi.

Shuningdek o'quv yurtlarining o'quv rejalari va dasturlari turli sabablar orqasida 60-70 yillarda uch marta o'zgardi. Har safar o'qitiladigan fanlar yangilar xisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib, o'rganishlari uchun vaqti tobora kamayib bordi. Talabalarning uzoq muddatli qishloq xo'jalik ishlariga surnakli jalb etishlishi ham o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

O'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik, poraxo'rlik, tamagirlik singari xavfli illatlarning urchib ildiz otishi hollari ham bu tizim obro'siga jiddiy putur etkazdi. Ayniqsa bundan kadrlar tayyorlash sifati sezilarli zarar ko'rdi

Xullas, mamalakatda bu davrda kechayotgan nosog'lom muhit, ijtimoiy hayotining turli sohalarida yuz berayotgan nohush hollar, turg'unlik jarayonlari o'quv yurtlari tarmog'ini ham o'z domiga tortib borayotganligidan, bu soha tobora jiddiy ahvolga duch kelayotgan edi. Bu mazkur tizimning chuqur islohga hayotiy ehtiyoji ortib borayotganligini sezish qiyin emasdi.

O'zbekistonning bu yillardagi ilm-fan yutuqlari va muammolariga to'xtaladigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, hukmron tuzum siyosati va mafkurasi taziyqi va qiyin-qistoviga qaramay, o'zbek fani, ilmiy tafakkuri o'ziga yo'l topib, rivojlanish, taraqqiy etishda davom etdi. Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan ilmu urfonga oshuftalik, intiluvchanlik tuyg'usi ming-minlab yorqin iste'dodlarning bu sohaga yuz burib, fan so'qmoqlaridan ilgarilab borib, uning turli yo'nalishlarida samarali faoliyat yuritishi, o'z salohiyatini namayon etishda yaqqol ko'rindi.

50-60 yillarga kelib ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi orqasida fanning bir qator istiqboll i yo'nalishlari, chunonchi kibernetika, informatika, elektronika, yadro fizikasi, polimerlar fizikasi, genetika, mikrobiologiya, seysmologiya, kosmogoniya singari soxalar yangidan shakillanib, taraqqiy topa boshladi. Respublika ilm-fanining bosh markazi- Fanlar Akademiyasi va uning tarkibidagi o'nlab ilmiy-tadqiqot institutlari, muassasalari turli yo'nalishlarda muhim muammolar va ularning echimi ustida ilmiy izlanishlar olib bordilar.

**50-yillar oxiriga kelib (1958) O'rta Osiyo mintaqasida birinchi bo'lib Toshkentda atom reaktori ishga tushirildi. O'zbek selektsioner olimlari paxtaning vilt kasalligiga chidamli, tezpishar ko'plab yangi navlarini yaratdilar. Fizika-texnika instituti olimlarining Quyosh nurlaridan foydalanish bobida yaratgan noyob kashfiyotlari jahon ilmiy ahli e'tirofiga sazovar bo'ldi. O'zbekiston hududida ko'plab neft, gaz, oltin, volfram, simob, qo'rg'oshin kabi qimmatli ma'donlarning topilib, foydalanishga topshirilishi-bu geologiya-minerologiya fanining katta, bebaho yutug'idir. Shu o'rinda fanda o'z maktabini yaratgan, ilm-fan ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan T.N. Qoriniyoziy, H. Abdullaev, O. Sodiqov, H. Usmonov, T.A. Sarimsoqov, S. H. Sirojiddinov, I. Hamraev, O. Akromxo'jaev, T. Zohidov, V. Qobulov, Yo.H. To'raqulov, Q. Islombekov, J. Saidov, M. O'razboev, M. V. Muhammadjonov, S. Mirahamedov, I. Mo'minov, Ya. G'ulomov, S.Kamolov, H. Sulaemonova, Z. Umidova, R.N. Nabiev, M. Sharifxo'jaev, E. Yusupov singari etuk allomalarimizning tabarruk nomlarini tilag olib o'tish joyiz bo'ladi.**

Biroq kezi kelganda aytish lozimki, sobiq tuzum mutasaddilari milliy hududlarda ilmu fanning ravnaq topishiga, uning zaxmatkash fidoyilari mehnatining qadrlanishi, e'tirof topishiga muttasil to'sqinlik ko'rsatib keldilar. Buning natijasida olimlarimizning ko'p yillik mashaqqatli ijodiy izlanishlari mahsuli bo'lgan qancha-qanchalar noyob kashfiyotlar, ixtirolar hayot yuzini ko'rmay, amaliyotga tadbiq etilmay qolaverdi. Buning ustiga ilm-fanda katta kashfiyotlar qilgan, o'z maktabini yaratgan respublikaning mashhur allomalari ham sovet fanining bosh markazi – SSSR Fanlari Akademiyasi nazar-etiboridan chetda qolaverdi. Sovetlar hukmronligining butun 70

yillik davri davomida sobiq SSSR FA tarkibiga O. Sodiqov, H. Abdullaev, S.Yunusov, E.Yusupov singari barmoq bilan sanalarli o‘zbek olimlariningina a’zo bo‘lib saylanganligi fakti ham bunga jonli misol bo‘la oladi.

O‘zbek adabiyoti va san’ati ham urushdan keyngi yillarda nihoyatda murakkab, ziddiyatli jarayonlar silsilasida rivojlanib, davr qiyinchiliklari va muammolariga duch kelib bordi. Negaki, voqelik, real hayot manzarasining badiiy in’ikosi bo‘lgan adabiyot va san’at hukmron mafkuraning doimiy diqqat markazida turganligidan, ijodkorlar faoliyati, ularning har bir sa’y-harakati hamma vaqt tuzum mutasaddilarining qa’tiy nazorati ostida kechgan. Bu esa ular ijodiga, iste’dodi va talantining to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmagin, albatta.

Biroq shunday g‘ov va ta’qiblarga, keskin cheklashlarga qaramay o‘zbek adiblari va san’atkorlari har qanday dardu alamlarini ichlariga yutib, o‘z ona yurti, xalqiga xolis xizmat etishga, uning vijdoni bo‘lib yuksak badiiy asarlar, sa’nat polotnolarini yaratishga o‘zlarida kuch, iroda va jasorat topa bildilar. Taniqli adib Oybekning “Nur qidirib”, “Oltin vodiydan shabadalar”, A. Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari”, “Sinchalak”, Sh. Rashidovning “G‘oliblar”, “Bo‘rondan kuchli”, M. Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek”, “Toshkentnoma”, R. Fayziyning “Hazrati inson”, S. Ahmadning “Ufq”, P. Tursunning “O‘qituvchi”, P. Qodirovning “Uch ildiz”, O. Yoqubovning “Diyonat”, Shuhratning “Oltin zanglamas”, “Shinelli yillar” singari asarlari buning ayni isboti ifodasidir.

Adabiyot maydoniga keyinroq 60-yillardan boshlab kirib kelgan A. Oripov, E.Vohidov, O‘.Hoshimov, J. Kamol, O. Matchon, N. Narzullaev, O‘. Umarbekov, B. Boyqobilov, S. Zunnunova, E. Oxunova, G. Jo‘raeva, O. Xojeva,H. Hudoeberdieva singari yorqin ist’dod sohiblari ham katta avlod namoyondalari an’analariga sodiq qolib, o‘z xalqining dardu tashvishlar, orzu-armonlarini haqqoniy aks ettirgan etuk baddiy asarlar ijod qildilar. Jumladan, E. Vohidov, A. Oripov singari ijodkorlarning o‘z qa’tiy e’tiqodida, fuqarolik pozitsiyasida turib bitgan go‘zal she’riyatining umrboqiyligi, yashovchanligining muhim boisi ham uning xalq ruhiyati, kechinmalari bilan chuqur uyg‘unlashib ketganligidadir E. Vohidovning birgina “O‘zbegim” she’ri muallifga qanchalik bezovtalik, besaranjonlik keltirmasin, ammo u 60-yillarda millionlab o‘zbek kitobxonlari orasida shuhrat qozonib, katta shov-shuvga savob bo‘lganligining o‘zi katta tarixiy voqea bo‘lgan.

Xullas, o‘zbek adabiyoti o‘zining buyuk istiqlol sari asta-sekin ilgarilab borishi davomida tez o‘zgaruvchan tarixiy jarayonlarning kutilmagan ne-ne siru sinoatlari, sinovlariga, hukmron tuzumning larzalariyu zarbalariga duch kelganligi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan o‘zbek ijodkorlari faoliyatiga baho beradigan bo‘lsak, so‘z sa’natkorlari vaziyat taqozosi bilan hukmron tuzum siyosati va mafkurasi talablari va yo‘l-yo‘riqlarini bajarishga majbur etildilar.

Turli janrlarga mansub o‘zbek san’ati, to‘g‘risida gap borganda, bu davrda teatr, kino, tasviriy san’at sohalarida bir muncha o‘sish, o‘zgarish jarayonlari ko‘zga tashlanib turadi. Garchand ko‘pchilik san’at asarlarining mazmun-mundarijasida kommunistik mafkura ta’siri va tazyiqi sezilib tursa-da, biroq shu bilan birlikda ularda xalqchillik ruhi, zamondoshlarimizning maqsad, intilishlari, orzu-umidlari, tashvishlariga hamdardlik, hamohanglik hissi ham aks etib turadi. O‘zbek teatr san’atining otaxoni – Xamza teatri (hozirgi O‘zbekiston akademik milliy teatri)da sahna yuzini ko‘rgan V.Shekspirning “Otello”, “Hamlet”, “Yuliy Tsezar”, R.Tagrning “Gang daryosining qizi”, N.Hikmatning “Sevgi afsonasi”, Uyg‘unning “Navbahor”, Uyg‘un va I.Sultonning “Alisher Navoiy”, M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” spektakllari yana shunisi bilan tamoshabin diqqatini o‘ziga tortadiki, ularda mangu barhayot umuminsoniy qadriyatlar, keng ma’nodagi sevgi, muxabbat, sadoqat tuyg‘ulari keng tarannum etiladi.

Respublika teatr jamoalari repertuaridan keng o‘rin olgan va 60-70 yillarda teatr sahnalariga olib chiqilgan I.Sultonning «Noma’lum kishi» S.Azimovning «Qonli sarob», M.Oybekning

«Qutluq qon», Uyg‘unning «Qotil», «Iymon», AQahxorning «Ayajonlarim», H.G‘ulomning «Toshbolta oshiq», «Farg‘ona qizi», S.Ahmadning «Kelinlar qo‘zg‘oloni», O‘.Umarbekning «Shoshma, quyosh» singari xalqchil sahna asarlarida ko‘tarilgan muhim ijtimoiy va ma’naviy masalalar keng tomoshobinlar e’tiborini qozonish, ularga estetik zavq-shavq bag‘ishlash barobarida ularni chuqur o‘y-fikrga cho‘mdirgani, qalbi-dilini to‘lqinlantirgani shubhasiz. O‘zbek teatr san’ati dovrug‘ini ko‘tarish, uni elga manzur qilishda katta ijodiy mehnati singan, unga butun umrini bag‘shlagan M.Uyg‘ur, E.Bobojonov, A.Hidoyatov, S.Eshonto‘raeva, O.Xo‘jaev, Sh.Burxonov, R.Hamraev, N.Rahimov, A.Bakirov, Z.Muhammadjanov, H.Nosirova, S.Qobulova, L.Sarimsoqova, G.Izmaylova, B.Qorieva, Ya.Abdullaeva, S.Xo‘jaev, H.Umarov singari atoqli san’at darg‘alari nomi hamisha xalqimiz ardog‘ida bo‘lib kelgan. Xalq orasidan etishib chiqqan bu fidoiy san’atkorlar har qanday qaltis vaziyatlarda ham katta qalb va jo‘shqin extiros bilan o‘z xalqiga xizmat qilib, uning chinakam mehrini qozonganlar.

O‘zbek musiqa madaniyati nufuzi ham bu yillarda ancha yuksalib bordi. Mashrafiy nomidagi O‘zbek Davlat KONSERVATORIYaSI va O‘zbek Filarmoniyasining musiqiy jamoalarining ijrochilik mahorati o‘sib, tobora ko‘proq musiqa shinavandlarining ishonchiga erishib bordi. Ayni vaqtda «Lazgi», «Shodlik», «Go‘zal», xoreografik «Bahor» xalq raqs va «Yalla» vokal cholg‘u ansambllari jamoalarining o‘zbek san’atini rivojlantirish va boyitishda qtlga kiritgan yutuqlari ham tahsinga loyiqdir.

Shuningdek bu davr o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati, uning muhim tarkibi-maqom (mumtoz kuy-qtshiqlar) san’ati bobida ham sezilarli izlanishlar bilan bog‘liq kechdi. G‘arbning engil-elpi musiqasi va uning turli-tuman janrlarining faol ta’siriga hamda yoshlarimiz ancha qismining ongi, diliga singishiga qaramay, xalqimizning ko‘p asrlar bilan bo‘ylashadigan, uning azaliy kechikmalari, asl ma’naviy ruhiyatini ifodalab kelgan mumtoz san’ati yashashda davom etdi. Bugina emas, u ajoyib bastakorlarimiz, betimsol xofizlarimiz tomonidan yanada sayqal topib, boyitib borildi. Bunda buyuk bastakorlar bastakor, akad. Yu.Rajabiy, I.Ikromov, T.Jalolov, K.Otoniyozov va boshqa san’atkorlarning xizmati kattadir. O‘zbek klassik san’atini ulug‘lagan, unga yangidan jon bag‘ishlagan sehrli ovoz sohiblari: J.Sultonov, M.Uzoqov, M.Ahmedov, T.Qodirov, E.Haydarov, aka-uka Shojalilovlar, B.Dovidova, N.Yusupova, H.Ohunova, X.Mavlonova, X.Ibrohimova singari xalq hofizlari va hofizalarining tabarruk nomlari xalqimiz dilida bir umrga muhrlanib qoldi. Bu yillarda O‘zbekistonda kino san’ati, tasviriy san’at rivoji bobida ham muayyan o‘sish, o‘zgarish jarayonlari ko‘zatildi. L.Fayzievning «Ulug‘bek yulduzi», Sh.Abbosovning «Mahallada duv-duv gap», «Sen etim emassan», M.Qayumovning «Bahordan bahorgacha», E.Eshmuhammedovning «Nafosat», «umid qushi» filmlari yoritilgan voqealarining keng qamrovliligi, o‘tkir ijtimoiy xarakterga egaligi bilan alohida ajralib turdi.

Biroq bu davrdagi san’at asarlarining ko‘pligiga xolis, haqqoniy baho beradigan bo‘lsak, ularda sobiq sovet tuzimini ulug‘lash, sotsialistik jamiyat afzalliklarini, uning «Yangi zamon kishilari» uchun ochib bergan «Mislsiz» imkoniyatlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtash ohanglari «ufirib» turadi. Bu hol amaliy, tasviriy san’at yohud monumental san’at asarlariga ham, teatr va kino san’ati mahsulotlariga ham birdek xosdir. Chunonchi, sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonda yaratilgan7 mahobatli haykallarning eng kamida 99 foizi «Ino‘ilob yo‘lboshchisi» Leninga baYoishlanganligi anio‘dir. Shunningdek Lenin va kompartiya mavzularini keng rejada yoritish, uluYolash respublikada ishlangan va ekranlarga chio‘arilgan behisob kinofilmlarning bosh mazmuni,mohiyatini tashkil etgani faktdir. Bunday filmlar sirasiga «Ino‘ilob tongi», «Ino‘ilob chavandozlari», «Yo‘lchi yulduz», «Lenin yo‘llanmasi bilan», «Olovli yillar» singari kino mahsulotlarini nisbat berish mumkin. Ularning bosh o‘ahramonlari, «harakatlantiruvchi» kuchlari hamishagidek Lenin va uning yao‘in safdoshlari, Rus kommunistlari bordiyu bu asarlarga asosiy o‘ahramon etib mahalliy ino‘ilobchi yohud ilbbor mehnat kishisi tanlab olingan tao‘dirda ham voo‘ealarning o‘sishi, rivoji davomida uning faoliyati «UluYo oYoalar»

vakillarining Yooyaviy-tarbiyaviy ta’sirida ularga o‘orashib, singishib, sezilarsiz holga kelib o‘olganligiga shubha yo‘o‘dir. Sovetlar mamlakatida shakllantirilib, keng ildiz otgan o‘udratli mafkuraviy vositalar-radio, televidenie, matbuot va bosho‘a ommaviy axborot kanallari to‘liYoicha yuukmron tuzum minbariga aylantirilib, ular vositasida xalo‘ ommasining ongi, tafakkuri va dunyoo‘arashini «zabt etish» uchun tom ma’noda informatsion kurash olib borilgan.

Tuzum mafkurachilari va maddohlarining o‘zbek zamonida o‘ilgan o‘abohati, o‘oldirgan asorati yana shunda namoyon bo‘ladiki, ular xalo‘imizning ming yilliklar o‘a’riga borib tushuvchi bebaho ma’naviy o‘adriyatlari, asori atiqalari, umrboqiy udumlari va an’analarini yo‘q qilishga, uning imoni, e’tiqodi, islomiy ahkomlarini suslashtirish, pirovardida esa barham toptirishga zo‘r berib harakat etdilar. Bu bilan ular yurtimiz fuqarolarini hukmron tuzumning har qanday topshirig‘ini quloq qoqmay bajaradigan passiv, loqayd, manqurt kishilarga aylantirishga umid bog‘lagan edilar. Ayniqsa bunday nomunosib, notabiiy hatti-harakatlar totalitar tuzum o‘zining so‘ngi nafasini kechirayotgan 80 yillarning ikkinchi yarmida avj oldirilganligi g‘oyatda taassuflanarlidir. Ma’naviyatimiz dushmanlari hatto xalqimiz asrlar davomida e’zozlab, qadrlab kelgan milliy bayramimiz – «Navro‘z» ni ham tortib olish payida bo‘ldilar. Shu maqsadda uni taqiqlash darajasiga borib etdilar. Shunga qaramay iymon-e’tiqodi but, buyuk ajdodlari barhayot udumlariga sodiq o‘zbek xalqi o‘z Navro‘zini xoh oshkora, xoh pinxona bo‘lsin, baholi qudrat nishonlash, u bilan bog‘liq xayrli marosimlarni o‘tkazishda davom etdi va bu orqali yorug‘, dorilamon zamonlar kelishiga chuqur ishonch va umidvorlik tuyg‘usi bilan intiqib yashadi. Nihoyat, Mustaqillik davri kelib boshqa bebaho milliy qadriyatlarimiz qatorida Navro‘zimiz ham o‘z munosib maqomiga ega bo‘ldi va xalqimizning eng sevimli bayrami sifatida har yili yuksak saviyada o‘tkaziladigan bo‘ldi. Xullas, o‘zbek xalqi totalitar kommunistik tuzumning barcha makkorona nayranglari, zug‘umiga dosh berib, o‘z boshiga tushgan og‘ir sinov-sinoatlarni mardonavor engib, oxir-oqibatda g‘olib chiqdi. Uning tabiatan bardoshligi, e’tiqodiga sobitligi, ma’naviy, islomiy qadriyatlarga sodiqligi, tarixiy xotirasining butunligi, qolaversa, buyuk bobokolonlarimiz ma’naviy sarchashmalaridan to‘yinganligi – bular hukmron tuzum zulmkorlarining har qanday zulm-zo‘ravonligi sharoitida ham xalqimizning o‘zligini, milliy-ruhiy qiyofasini saqlab qolishida hamda istiqlol so‘qmoqlaridan ilgarilab borishida muhim, hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Sinov savollari.

1. Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan madaniy siïsati o‘anday mao‘sadlarni ko‘zda tutgan edi?
2. Respublikada Xalo‘ ta’limining rivojlanish jarayoni o‘anday kechdi va uning jiddiy muammolari hao‘ida nimalar deya olasiz?
3. Respublikada Oliy va o‘rta maxsus ta’limning shakllanishi, uning yutuo‘ va nuo‘sonlari, muammolari to‘Yorisida fikrlaringiz?
4. O‘zbekistonning ilm-fani tarao‘o‘iïti va uning tanio‘li namoyandalari faoliyati hao‘ida so‘zlab bering.
5. O‘zbek adabiyoti va san’atining rivojlanishi o‘anday murakkab, ziddiyatli jarayonda kechdi va buning asosiy sabablari nimada?
6. O‘zbekistonda «Hujum» harakati mavsumini o‘tkazishdan ko‘zlangan mao‘sad nima edi?
7. XX asr 20 yillarida o‘tkazilgan «Hujum» harakati o‘zbek xotin-o‘izlari hayotiga o‘anday yangi o‘zgarishlar olib kirdi?
8. O‘zbekistonda din va dindorlarga o‘arshi hujumkor kurash nima mao‘sadlarda avj oldirildi?
9. Stalin o‘ataYoonligi respublikaning ma’naviy-madaniy haïtini o‘anday mudhish oo‘ibatlarga duchar etdi?
10. Nima sababdan o‘zbek milliy ziyolilari o‘ataYoon o‘ilindi?

11. 30-yillar o‘aataYoonlik o‘urbonlari – atoo‘li o‘zbek adiblari va san’atkorlari nomlarini tilga oling.
12. Urushdan keyin respublikada avj oldirilgan stalincha o‘atataYoonlikning yangi to‘lo‘ini hao‘ida so‘zlab bering.
13. Urushdan keyingi davrlarda O‘zbekistonda Xalo‘ ta’lim, ilm-fanning ahvoli, muammolari to‘Yorisida tushuncha bering.
14. Urushdan keyingi yillarda o‘zbek adabiyoti va san’atining murakkab, ziddiyatli kechgan jarayoni, uning yutuo‘ va jiddiy nuo‘sonlari, muammolari hao‘ida so‘zlab bering.
15. Respublika ma’naviy-madaniy hayoti sohalariga ztravonlik ta’siri va taziyo‘i o‘ay tarzda kuchayib bordi?
16. «O‘ayta o‘urish» siyosati o‘zbek xalo‘ining ma’naviy hayotiga, uning milliy o‘adriyatlariga o‘anday asoratli ta’sir o‘tkazdi?
17. O‘zbek xalqining milliy istio‘lol Yooyasiga sodio‘ligi va chuo‘ur ishonchining asl ma’naviy ildizlari nimada?

## 13-mavzu: Mustabid sovet tuzumining O‘zbekistondagi qatag‘onchilik siyosati va uning oqibatlari

### REJA:

1. Sobiq Ittifoqda ma’muriy-buyruqbozlik, totalitar tizimning qaror topishi. Respublika huquqlari, manfaatlarining cheklanishi.
2. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari.
3. Urushdan keyingi yillarda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi zo‘ravonligining kuchayishi.
4. Milliy ziyolilarni qatag‘on qilishning yangi to‘lqini.

### Adabiyotlar:


1. Karimov I.A. «Har qanday muxolifat bilan bahslashmoqqa tayyorman». T. 1. –T.: O’zbekiston, 1996, 227-237 betlar.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida… -T.: O’zbekiston, 1997, 49-69 betlar.
3. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 335-350-betlar.
4. O’zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000, 385-410 betlar.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. O’zbekiston tarixi. (1917-1991 yillar). -T.: Sharq, 2002, 121-132 betlar
6. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003, 464-451-betlar


#### 1.**Sovetlar mamlakatida totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining shaklllantirilishi.**

XX asrning 20-yillari davomida sovetlar mamlakatining boshqaruv idora qilish tizimi ham keskin o‘zgarishlarga yuzi tutib bordi. Ayniqsa, “sotsialistik inqilob” yo‘lboshchisi V.Lenin vafotidan keyin (1924) partiya va davlat hokimiyati muruvatlarini o‘z qo‘liga to‘play borgan I.Stalin tez orada o‘z hokimiyatparastlik va amalparastlik nafsoniyatlariga erk berib, butun mamlakatni boshqarishda yakka xukmdor bo‘lishga zo‘r berib intildi. Bunda u o‘ziga bildirilgan katta ishonch hamda berilgan vakolatlarni suiiste’mol qilib, o‘z atrofiga bir gurux xushomadgo‘y, laganbardor, labbaychi raxbar kadarlarni to‘plab, ularni o‘z izmiga bo‘ysindirib, o‘z bilganicha xohlaganicha, o‘zboshimchalik bilan siyosat yuritish yo‘lini tutdi. V.M.Molotov, K.Ch.Voroshilov, L.M.Kaganovits, A.A.Jdanov keyinroq esa G.M.Molenkov, N.I.Ejov, L.P.Beriya singari malakdosh-u, hamfikr safdoshlar bu borada unga elkadosh bo‘lib, sadoqad va sodiqlik namunalarini ko‘rsatdilar. Bundan mamnunlikni his etgan Stalin esa ilmiy va nazariy bilimlari bo‘sh sayoz, g‘oyaviy saviyasi past asosan ma’muriy metodlar bilan ish ko‘rish, irodasini boshqalarga majbur qilishga ustamon bo‘lgan bu sinashta arboblar bilan bir yoqadan bosh chiqarib, partiyaning etuk, bilimdon inqilobiy kurashlarda toblangan raxbar kalrlarni birin-ketin o‘z yo‘lidan supra bordi. Masalan, mamlakat va partiya hayotining juda ko‘plab bolzarb masalalarida xusussan industriallashtirish, qishloqda dexqon xo‘jaliklarini jamoalashtirish, yohud aholining turli ijtimoiy, tabaqalariga munosib, xarbiy qurilish sohalarida o‘x xolis. xaqqoniy qarashlari nuqtai nazarini bayon qilgan Protskiy, Kamenov, Buxarin, Tomskiy, Rikov, Krestinskiy, Raskolnikov singari o‘nlab etuk arboblar partiyaning bosh yo‘liga qarshi chiqishda ayblanib, har-hil asossiz tuxmat-bo‘xtonlar bilan qoarlanib, vazifalardan chetlashtirildi. Keyinchalik esa Stalin qatag‘onchiligi avjiga mingan 30-yillarga kelib, ular deyarli jismonan

yo‘q qilib yuborildi. Ayni chog‘da ularning milliy respublikalardagi “dumlari” topilib, ular ham turli partiyaviy va jinoiy jazo choralariga duchor etildi. Agar mazkur masalaga chuqurroq mantiqan yondashadigan bo‘lsak, u holda sovetlar mamlakatida 20-yillarda shakllanib, muayyan shaklu tamoyil va qiyofa kashf etib borgan totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi faqat birgina Stalin va uning yaqinlarining xohish-irodasi, mayl-istagi bilangina qaror topgan deyish etarli asosga ega bo‘lmagan bo‘lardi. bu tizimga xos va mos bo‘lgan sinfiylik, partiyaviylik, mafkuraviylik tamoyillari hamda shu pozitsiyadan turib voqea, xodisalarga yondashish, jamiyat kuchlariga zulm-zo‘ravonlik o‘tkazish, o‘z irodasi, g‘oyalarini majburlash bunga ko‘nmaganlarni esa qiyin-qistovlarga olish, irodasini so‘ndirish, xatto ularni ma’nan va jismonnan yo‘q qilishgacha borish xollari va ko‘rinishlari aslida sovetlarning dastlab zo‘rlik bilan hokimiyat tepasiga kelishidan shuningdek, Turkison o‘lkasida ham uning jangu jadal bilan o‘rnatilishidan boshlanganligi ayni xaqiqatdir.

Demak, SSRda totalitar va avtolitar xarakterdagi ma’muriy-boshqaruv tizimi sovet xokimiyatining butun borishi, jamiyat hayotining barcha jabxalarida uning pozitsiyasi va mavqeyining kuchayishi davomida shakllantirib borilgan, uning sarchashmalarida eng avvalo kompartiya dohiysi Leninning o‘zi turgan. Uning sinfiylik partiyaviylik negiziga qurilgan odamlarni aldash, chalg‘itish, tafakkuri, dunyoqarashini tubdan o‘zgartirish maqsadlariga yo‘nalgan usti yaltiroq, jimjimador puch komunistik g‘oya, ideallari bu tizimni oziqlantirgan, to‘yintirgan va asosiy manba bo‘lgan. Stalin esa Lenindan so‘ng partiya va davlat boshqaruvi tizimidagi katta xokimiyatga ega bo‘lib olgach, siyosati va an’analarini davom ettirib, buni o‘z mayl-maqsadlariga xoxish-irodasiga yanada moslashtirib bordi. Yagona sotsializm qurayotgan mamlakatning alohida o‘ziga xos mavqei, uning kapitalistik dunyo qurshovida ekanligi , shu bois bu tuzumga nisbatan turli ichki va tashqi kuchlar xuruji xavf-xatari bo‘lishi ehtimolining saqlanib qolyotganligi va shu singari holatlar uning rahbariyati, yo‘lboshchilari uchun tabiiy suratda shu qadar katta, chegara bilmas xuquq va vakolatlarni bergan ediki, bulardan Stalin o‘z nafsoniyati va yakka xukmdorligini to‘la qaror toptirish boarsida g‘oyatda ustamonlik bilan foydalangan. Ayniqsa bunday qulay vaziyat va imkoniyatlar uning partiya va mamlakat nomidan bir yoqlama tarzda o‘zboshimchalik bilan o‘tkazib borgan siyosatiga, Markazqo‘mning “bosh siyosatiga”, u yoki va darajada e’tiroz bildirgan ichki muhofatchi kuchlarni o‘ziga yoqmagan partiya va davlat arboblarini qoralash va daf etishda qo‘l kelgan. Ayni paytda tarix saxniga ko‘tarilgan bu shaxs nomini ayricha ulug‘lash, ko‘klarga ko‘tarish, mamlakat erishb borgan barcha yutuq, zafarlarni unga nisbat berish, uni har qanday xatto nuqsonlardan holi buyuk dohiy, sifatida ta’rif tavsiflash an’anaviy tusga kirib, komfirkaning barcha mafkuraviy kuril, vositalari, tuzui moddoxlarining betinim da’vati to‘lig‘icha oqibati xunuk va xalokatli shu mumtoz maqsadalar sari yo‘naltirilgan.

20-yillar ohiri, 30-yillar boshlariga kelib, partiya Marazqo‘mi va uning bosh yo‘liga, ichki va tashqi siyosatiga qarshi yo‘nalgan xar-xil muxolifatchilik chiqishlari barham toptirilib, partiya saflari “yot unsurlardan” to‘la “tozalangach”, Stalin bosh bo‘lgan tanho hokimiyat rejimi qz bilganicha, xohish-istagicha faoliyat yurita boshladi. Endilikda to‘la shakllanib avjiga mingan totalitar mustabid tizimning po‘lat panjasi etaydigan ijtimoiy hayotning biror bir sohasi qolmagandi.

## 2. Urushgacha bo‘lgan davrda sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onchilik siyosati, uning oqibatlari

Sobiq sovetlar mamlakatida, Sialin yakkaxokimligi totalitar ma’muriy boshqaruv tizimining uzil-kesil shakllanib faol xarakatga kelishi uning millionlab oddiy fuqorolaridan tortib, to bu tizimning turli bo‘g‘inlarida faoliyat yurgizgan ko‘p sonli sofdil, vijdonli, diyonatli, yurtparvar, vatanparvar rahbar, kadrlar, ziyolilar uchun, ularning hayoti qismati uchun mislsiz fojia bo‘ldi. Endilikda hukmron siyosat va mafkura xizmatiga shay turgan son-sanoqsiz tuzum gamashtalari, kallakesarlari butun mamlakatni larzaga solib, o‘ziga nishon qidirib, odamlarni qon-qaqshatib, o‘zlarining jirkanch, qaboxali ishlarini bemalol amalga oshira olardilar. Negaki, bunday qonli fojiali voqealarning sodir etilishi rasmiy siyosat tusini olgan edi. Ayniqsa bunday

milliy sovet respublikalari, shu jumladan O‘zbekiston zaxmatkash, jabrdiyda xalqi ko‘proq aziyat chekdi. Gap shundaki, o‘z yuksak hokimiyati kuch-qudratini to‘la ishga solishga qodir bo‘lib olgan hukmron Markaz bu respublikalarda kechayotgan hayot maromi, turli-tuman ijtimoiy jarayonlarni o‘z nazoratida tutib, ularning borishiga o‘z amri, ta’sirini bemalol o‘tkaza olardi. Mustabid tuzum Markazda va joylarda o‘z mutloq hokimiyatini shakllantirib borar ekan, bunda u o‘ziga sodiq muayyan ijtimoiy va siyosiy kuchlarga tayanishi ham kerak bo‘lardi. Shu maqsadda markaz hukumati “Sotsialistik qurilish” jarayonining butun davomida O‘zbekistonga o‘zining ko‘p sonli sadoqatli xodimlarini mas’ul vazifalarda ishlash uchun yuborib turganligi tasodifiy emasdir. Shuningdek Markaz O‘zbeksitonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga “ko‘z-quloq” bo‘lish ularning faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm yo‘liga sadoqat bildirganlarni tanlash, lozim bo‘lganda ularni yuqori lavozimlarga ko‘tarishni ham o‘z e’tiborida tutgan. Shu bois Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli nomoyondalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo‘lganda o‘z xalqining manfaati qiziqishlarini ko‘zlab ish yuritgan tajribali bilimdon milliy kadrlar soni ham ko‘payib borgan. Ammo Stalinning yakka xokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimas sabab va bahonalar bilan qiyin-qistovga olish, vazifalardan chetlatish yohud har hil darajadagi jazo choralariga mahkum qilish odatiy tusga kirib borgan.

“Qosimovchilik” guruxi ham 1929-30 yillarda sovet xukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag‘on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma ish bo‘lgan.

O‘zbekiston Oliy sudi lavozimida ishlagan Sa’dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari Olimov, Musaboev, Sharipov, Spirodonov, va boshqalar 1929 yilning ikkkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqadorlikda ayblanadilar. Guruxning ko‘pchilik a’zolari asossiz ayblar bilan qoralanib xukm etiladi, qolganlari esa ko‘p yillik qamoq jazolariga tortiladi.

Biroq Stalinning shaxsiy rejimi zulmkorlari uchun bu berilgan qurbonlar, shubxasiz kamlik qilardi.

Mustabid tuzum farmonbardonlari uchun O‘zbekiston singari milliy respulika rahbarlari, xodimlarini to‘la itoatda tutishning birdan bir sharti — bu ularning mustaqillik faoliyatiga izn bermaslik, vaqti-vaqti bilan milliy kadrlarni siltab turish, ularning yo‘q xatolari ayblarini topib, shavqatsiz jazolash edi. Milliy kadrlar faoliyatida bunday noinsoniy, g‘ayriqonuniy va g‘ayritabiiy tarzda yondashuv oqibatida respublikada o‘n yillar davomida o‘z tinimsiz jo‘shqin faoliyati, ongli hayotini sovetlar ishiga, sotsializmning soxta g‘oyalari g‘alabasiga bag‘ishlangan qachalab etuk partiya va davlat rahbarlari qatag‘onlik komiga duchor bo‘ldilar. Bunga A.Ikromov, F.Xo‘jaev, A.Rahimboev, N.Xo‘jaev, N.Turaqulov, T.Risqulov, S.Segizboev S.Tursinxo‘jaev, I.Oriqov, A.Karimov singari yurt rahnamolarining ayanchli achchiq qismati yorqin misol bo‘la oladi.

1937-39 yillarda O‘zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar “fosh etildi” va “tugatildi”. Bular: respublika rahbarlari A.Ikromov, F.Xo‘jaev boshchiligidagi “Burjua – millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti Markazi”, Abdurauf Qoriev rahbar bo‘lgan “musulmon ruxoniylarining millatchi isyonkor tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o‘ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli aksilinqilobiy tashkilot, I.Oriqov boshliq “Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”, “Ingliz josuslik rezidenturasi”, “Yapon josuslik - qo‘poruvchilik rezidenturasi” va boshqalar edi.

Eng so‘ngi ma’lumotlar, xujjatlarni har tomonlama o‘rganish, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika xududida respublika xududida umuman bo‘lmaganligini tasdiq etmoqda. Demak, bular aslida Markaz buyurtmasi asosida tayin to‘qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq soxta jinsiy ishlar bo‘lgan. Vaholanki, buning orqasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shavqatsiz jajolangan, aziz umrlari xazon bo‘lgan.

Faqat 1937-39 yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari esa turli muddatli qamoq va surgunlarga xukm etilgan. Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligi va battolligini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi.

Yaqin milliy tariximizning bu qorong‘u saxifasi xalqimiz dilida mangu o‘chmas armon bo‘lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to‘la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqorolari chinakam ro‘shnolik topishga erishdi.

Stalincha qatag‘onchilik butun mamlakat va milliy xududlar, ittifoqdosh respublikalarbo‘ylab keng miqqiyosda kasb etib, o‘z komiga duch kelgan hamma narsani, avvalo, jamiyatning ilg‘or sog‘lom kuchlarini topib bordiki, bundan eng ko‘p milliy ziyoli kadrlar aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, bu xunxo‘r rejim mutasaddilari o‘zlari nodon, joxilkimsalar bo‘lganligadan ilmu-urfon, ma’rifat va ziyo ahlini qadrlash, e’zozlash emas, balki ularni xo‘rlash taxqirlash, kerak bo‘lsa yo‘q qilishni o‘zlariga kasb qilib olgandilar. Shu sababli vaqti-vaqti bilan ziyoli kadrlarni “elak-elak” qilish, qatmi om chig‘irig‘idan o‘tkazish ular uchun odatiy xolga aylangan edi. Eng alamli jixati shuki o‘z elini jonu dildan sevgan, uni kuylagan, boy tarixi, betakror ma’naviyatiga murojat etib undan asarlar bitgan, buyuk ajdodlar nomini tilga olib, ulug‘lagan vatanparvar ijodkorlar, ilm-ma’rifat ahli birinchilar qatorida qatli omga duchor qilindi. Masalan butun hayotini, barakali ijodini millat baxt-saodati, yurt istig‘boli uchun bag‘ishlagan Munavvar qori mana shu davrda avj olgan sovetlar ig‘vosi va bo‘xtoni qurboni bo‘ldi. Uning rahnaioligada millat istiqloli, kelajagi yo‘lida faoliyat yuritib, xalqqa ziyo taratib kelgan “milliy istiqlol” tashkilotining 87 a’zosi ustidan sud uyushtirldi. Ularning 49 nafari xalq dushmani, burjua millatchisi degan bo‘lmag‘ur ayblar bilan qoralanib, og‘ir jazolarga xukm qilingan yohud otib tashlangan.

Bu o‘rinda o‘zbek adabiyoti va ilmu-ma’rifatining tayanch ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mexrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Maxmud Botu, Usmon Nosir, Elbek, G‘ozi Yunus, Said Ahroriy, Said Fizo Altizoda kabi ajoyib iste’dodlarini quruq tuxmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinb, yorqin faoliyati so‘ndirilganligini nima deb izohlash va baholash mumkin, ahir.

Yana shu narsa chuqur taassuflanarliki, O‘zbekiston xukumatining tashabbusi bilan 20-yillarda xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, ilm-fan arboblari bo‘lib etishgan, yurt ertasini belgilovchi qanchalab yuksak salohiyatli insonlar ham qatli om qurbonlari bo‘ldilar. Agar ular Germaniya yoki Turkiyada ta’lim olgan bo‘lsalar, bundaylarga o‘sha mamlakat josuslari degan soxta ayblar tirkaldi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan nomiga kitob topilguday bo‘lsa, Shuning o‘zi etarli dalil hisoblangan. Ahir bu siymolar chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qigan bo‘lsalar shunday kitoblarga ega b[1]lishlari mumkin edik-u? Masalaning bunday oddiy, mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini aslo qiziqtirmagan. Bunga ular bosh qotirib o‘tirmaganlar ham. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Sattor Jabbor, otajon Xoshimov, Saida Shermuhammad qizi va boshqalar o‘sha davrdagi millat faxri bo‘lganlar. Biroq g‘addor tuzumning zulmkorligi va battolligi ularni ham chetlab o‘tmay qolmadi. Germaniya va Turkiyada o‘qib, u erda olgan bilim tajribalarini o‘z yurti ravnaqi uchun baxshida qilishga bel bog‘lagan O.Xoshim, S.Jobir, S.Muhammedov, M.Sultonmurodova singari ko‘plab bilimdon ishbilarmon yoki yosh mutaxassis kadrlarga “xalq dushmani”, “chet el josusi” qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib qatli om etildilar.

Xukmron totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning xaddan ziyod kuchayib borishi nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismatini zavol toptirib qolmasdan, shu bilan birga millionlab oddiy yurt fuqorolarini ham o‘z ajdoxo komiga tortmay qolmagan. Bu davrda davlat maxsus organlari tomonidan keng amaliyotda qo‘llanilanilgan “uchlik” (uch kishining guvohligi asosida xukm chiqarish) qanchalab son-sanoqsiz begunoh odamlarning boshiga etmadi, ularni ne-ne shavqatsiz azob-uqubatlarga duchor etmadi. Ichki ishlar vazirligi davlat xavfsizlik organlarining necha o‘n yillar davomida po‘lat sandiqlarida saqlanib, odamlar nazaridan pinxon tutib kelingan maxsus papkalarning sarg‘ayib ketgan saxifalarini varaqlar ekanmiz, ularda turli-tuman kasb-xunar, ijtimoiy toifa, millat va elat, e’tiqod va maslakka mansub, faqat o‘z soxasi bilangina shug‘ullanib, mexnat qilib kelgan birovga zarari etmagan minglab, yuz minglab oddiy vatandoshlarimizning taqdir-qismati taxqirlanib, oyoq osti qilganligi, ularning elementar insoniy xaqqi-huquqlari poymol etilganligi ma’lum bo‘ladi. Xo‘sh,

bu jabrdiyda sho‘r peshona yurtdoshlarimizni bunday kuyga tushishiga bunday kuyga, taqdir yukmiga tushishiga, “gunohi azimga” botishiga aslida nimalar sabab bo‘lgan? Hech bir asos bo‘ladigan ashyoviy dalilningg o‘zi yo‘q edi. Buning birdan bir asosiy sababi, bu insonlarning o‘ziga yarasha aql-idrokka ega ekanligi, u yoki bu masala mustaqil fikr, muloxaza yurita olishi, o‘sha davr hayotida kechayotgan noxaqlik, adolatsizlik xollarini anglab etishi, ularga nisbatan o‘z qarashlari, nuqtai-nazarlarini bildirishga o‘zlarida ma’lum darajada iroda va jur’at topa bilishlari bo‘lgan. Tuzum zulmkorlari o‘z g‘ayriqonuniy xarakatlarini avj oldirar ekanlar, bunga har bir insonning yurish-turishi, kundalik mashg‘uloti muomalasidan tortib, to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo‘lgan hamma jarayonlarni o‘z nazoratiga olishga intilganlar. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasi, xohishini jilovlash, uni muayyan chegarada ushlab turish va shu yo‘l bilan badkirdor tuzum sha’niga dog‘ tushirmaslik, uning soxta obro‘ nufuzini asrab, avaylash bo‘lgan.

Qizig‘i shundaki, SSRning “G‘olib sotsializm” konstitutsiyasi va unga muvofiq tarzda O‘zbekistonnning Asosiy qonuni qabul qilinib, ularda inson huquqlari, sovet demokratiyasi afzalliklari to‘g‘risida lof urilib, olamga jar solingan bir paytda respublika fuqorolarining mutloq ko‘pchiligining oddiy insoniy xuquqlari, qadr-qiymati, or-nomusi, vijdonini oyoq osti qilishgan, ularning hayoti nochor, taxlikali kechgan.

Bu insonlar komunistik siyosat va mafkura yolg‘onlariga ishonib, “porloq kelajak”ka umid bog‘lab jonlarini jabborga berib, ter to‘kib mexnat qilsalar, o‘zlarining soxta sotsializm ishiga, ideallariga bag‘ishlasalarda, biroq uning evaziga beadad zulm-stam ko‘rsalar! Ha, bu aldamchi, tag zamini omonat va uning son-sanoqsiz temir panjasi o‘tkir shovvozlari yurtimiz fuqorolarining fidokorona mexnati va zaxmatini qadrlash, munosib baholash o‘rniga ularning sha’nini badnom qilib, xohlagan noma’qulchiliklarini amalga oshira oladilar, zero qatag‘onchilik davrida bundan boshqachcharoq narsani ham kutish mumkin emas edi. Xukmron tuzum zulmkorligi to‘g‘risida gap borar ekan, ayniqsa bunda kishilar dunyoqarashi e’tiqodini o‘z izmiga bo‘sundirish, uni komunistik ahloq, ilmiy materialistik va atsistik tamoyillar ruxida shakllantirish uchun jon jahdi bilan xujumkor kurash olib borgan rasmiy sovet mafkurasining respublikamiz ma’naviy hayotiga etkazgan zarari behisob bo‘ldi. Bu borada qanchalar bedodliklar, qonunbuzarliklar amalga oshirilmay qolmadi. 1920 yilning ikkinchi yarmida ochiq-oshkor tarzda boshlanib ketgan din va diniy muassasalar, ularning xodimlarigan qarshi kurash mislsiz bo‘ldi. Butun mamlakat bo‘ylab keng quloch yozgan “Xudosizlar” jamiyatlari xalqimizning iymon-e’tiqodiga, islom qadriyatlariga ham jiddiy zarar etkazdi, uning tagasoslarini qaqshatdi.

Shu yo‘l bilan xalq ma’naviy-ruxiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qo‘shib kelgan butun boshliq ruxoniylar tabaqasi yo‘q qilib yuborildi. Ularning manman degan ulomoyu kiromalari, din peshvolari qattiq ta’qibu quvg‘in ostiga olindi. Ko‘plari begona yurtlarga ketib jon saqlash, umrguzaronlik qilishga majbur bo‘ldilar. Bunday jidab bo‘lmas qaboxatlar oqibatida xalqimizning ne-ne barhayot udumlari, marosimlari an’analari zavol topdi unutilishga yuz tutdi. Faqat milliy istiqlol davriga kelibgina ular yana yangidan ro‘yobga, chiqib bugunda kechayotgan hayotimiz voqeligidan munosib o‘rin topib, xalqimizni maxnat va ruxan boyitib bormoqda.

Yana 30-yillar voqealariga qaytar ekanmiz, bunda shu narsa kishini benihoya ajablantiridiki, u davrda insonni qoralash, uning peshonasiga “xalq dushmani” tamg‘asini bosish tuzum zolimlari uchun huddi “xamirdan qil sug‘irganday” gap bo‘lgan. Xatto shunday hollarga ham duch kelingandiki, respublikadagi ko‘p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o‘tkazilgan tintuv paytida moboda arab yozuvida bosilganbiror kitob topulguday bo‘lsa, uning nomi, mazmuni so‘rab, surishtirilmasdano‘sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la’nat tamg‘asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga xukm etilavergan. O‘zbekistonning 30-yillar voqeligidan bunga istaganicha hayotiy misollar keltirish mumkin.

Shuday qiblib, Stalin ijtimoiy keltirib chiqargan qatag‘onchilik respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadad yo‘qotishlar, mahrumliklar bilan to‘lib toshgan davr bo‘ldi. U millionlab odamlarning taqdir, qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsizx xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay xalqimiz o‘z bukimas irodasini, matonatini

namoyon etib, yorug‘ charog‘on kunlar kelishiga intiqib, kurashib yashadi. U totalitar tizim qatli omining har qanday shiddatiga dosh berib, o‘z asriy qadriyatlari, udumlari, rasm-rusmlari, iymon-e’tiqodiga sodiq qoa bildi va hamisha milliy istiqlol sari dadil xarakatlanishda davom etdi.

### 3. XX asrning ikkinchi yarmida respublika ziyolilari va milliy kadrlarning quvg‘in qilinishi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qililsh sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1992 yil 26 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992 yil 26 noyabrda matbuotda ikkinchi marta e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy daholigi va tafakkurining mahsuli bo‘ldi. Prezident I.A.Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi.

Oliy kengashning 1992 yil dekabrda bo‘lgan XI cessiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi. «Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, - degan edi Prezident I.A.Karimov sessiyada so‘zlagan nutqida, yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e’tirof etgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Frantsiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan foydalanildi».

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992 yil 8 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

**Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun-8 dekabr umumxalq bayrami - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilinsin.**

**8 dekabr dam olish kuni hisoblansin.**

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya-si qabul qilingan kunini umumxalq bayrami deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qonundan.**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mutaqilligi asoslari to‘g‘risida» gi qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning xohish irodasi va dono fikr mulohazalari asosida va jahonda to‘plangan eng ilg‘or Konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz hususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgari Konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi

nusxalaridan ko‘chirib olinar edi. Shu boisdan ham yangi asosiy qonunimiz mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-ni o‘rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berish zarur. O‘zbekiston Konstitutsiya-sining muhim tamoyili davlat suverinitetidir. 1-6 moddalarda O‘zbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o‘zbek tili davlat tilidir, deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyada davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi, deb belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizning tamoyillaridan yana biri xalq hokimiyatchiligidir. 7-14 moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, O‘zbekiston xalqini millatidan qat’iy nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab amalga oshiradi, deb ko‘rsatilgan.

Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil-davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo‘linishidir. O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi qonunlashtirildi. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo‘lib, faqat qonunga bo‘ysunadi. 88-98-moddalarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshdig‘i ekanligi, uning vakolatlari va vazifalari Vazirlar Mahkamasining faoliyati qonunlashtirilgan.

Asosiy Kolnstitutsiyaviy tamoyillardan biri demokratiyaga sodiqlikdir. Kontitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umum e’tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan. O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi , or-nomusi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil– Konstitu-tsiya va qonunlarning ustivorligidir. Konstitu-tsiyaning 15-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi-da O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar», deb belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat’iy nazar barcha fuqarolari O‘zbekiston xalqini tashkil etadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining muhim tamoyili-bu odil sudlov, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligidir. Sudya faqat qonunga bo‘ysunadi. Konstitutsiyaning 106-116 moddalarida O‘zbekistonda sud tizimi va ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyala sudya deputatlikka saylano olmasligi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a’zosi bo‘la olmasligi qonuniylashtirilgan. Sud majlisi ochiq va oshkora olib boriladi, sud ishlari davlat tilida yuritiladi va zarur holda boshqa tilda yuritilishi ham mumkin.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining muhim bir tarmog‘i bo‘lib, Konstitutsiyada sudning hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxs va fuqarolar uchun majburiy ekanligi qonunlashtirilib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi, O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

**Hur O‘zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish-jumhuriyatimiz-ning yangidan tug‘ilishidir, haqiqiy mustaqil-ligimizga mustaqil poydevor qurishdir.**

**Qabul qilingan Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo‘lishi muqarrar.**

Islom Karimov. Asarlar, tom 1, 128-bet.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo‘lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab

chiqildi, umumxalq muhokamasidan o‘tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi davlatimiz suverinitetini ro‘yobga chiqardi. O‘zbekiston dunyodagi barcha nufuzli davlatlar tan oldi, ular bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatildi.

**Milliy valyuta-so‘mning muomalaga kiritilishi.** Mustaqil, erkin davlatning asosiy belgisi-milliy valyutadir. O‘z valyutasiga ega bo‘lmagan davlat o‘z manfaatlarini ko‘zlab mustaqil ravishta moliya-kredit, bank siyosatini yurita olmaydi, o‘z taqdirini, tashkilotlar, xo‘jaliklar va fuqarolar taqdirini belgilay olmaydi. Ichki bozorni naqd pul bilan ta’minlash, pul chiqarish miqdori, uning xarid kuchi, kelajak istiqboli uchun sarmoya ajratish, kimga qarz berish va kimdan qarz olish, qarzni to‘lash va undirib olish, foiz stavkalarini belgilash kabi masalalarni mustaqil hal qila olmaydi. Shu boisdan milliy valyutaga o‘tish O‘zbekiston uchun oliy maqsad edi.

O‘zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1993 yil 1 noyabrda O‘zbekistonda so‘m-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo‘lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati so‘m-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi.

O‘zbekiston Prezidentining 1994 yil 16 iyunda e’lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muo-malaga kiritish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq 1994 yil 1 iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi-ning milliy valyutasi–SO‘M muomalaga kiritildi.

Milliy valyuta so‘m-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, so‘m bo‘lgan bank qog‘oz pullari (banknotlar) holida muomalaga chiqarildi. Keyinroq 200, 500, 1000 sumlik qog‘oz pulari ham muomalaga kiritildi. Shuningdek qiymati har xil miqdordagi tangalar ham naqd pul holida muomalaga chiqarildi. Aholi qo‘lidagi sum kuponlar jamg‘arma banklari orqali minga bir qiymatida almashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari-ning belgilab olinishi mamlakatimiz mustaqil-ligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida, xorijiy mamlakatlar poytaxtlarida O‘zbekiston Bayrog‘i hilpirab turibdi. O‘zbekiston Davlat madhiyasi jahon uzra yangrab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi Oliy hokimiyat organi tomonidan Davlat mukofatlari belgilandi. 1993 yil 7 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan dastlabki orden – birinchi va ikkinchi darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta’sis etildi.

1994 yil 5 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «O‘zbekiston Qahramoni unvoni» va «Oltin yulduz» medali, «Mustaqillik ordeni», «Do‘stlik ordeni», «Jasorat» medali, «Shuhrat» medalini ta’sis etdi.

1995 yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Mehnat shuhrati» ordeni hamda birinchi va ikkinchi darajali «Shon-sharaf» ordenini ta’sis etdi.

1996 yil 26 aprelda «Amir Temur» ordeni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, 1998 yil 28 avgustda «El-yurt hurmati» ordeni ta’sis etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi fuqarolarning mehnat yutuqlarini, davlat va jamoat idoralaridagi samarali mehnatlarini, ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 30 dan ortiq faxriy unvonlarini ta’sis etdi. 1997 yil 30 avgustda ko‘krakka taqib yuriladigan O‘zbekiston Respublikasining nishon ta’sis etildi.

**4. Islom Karimov-O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining ijodkori.**

Mustaqillikning dastalbki kunlaridayoq O‘zbekiston qanday taraqqiyot yo‘lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo‘ladi, degan savollarga ko‘dalang turardi.

Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq eski tuzum o‘z o‘rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasini odamlar ongini tez va engil o‘z iskanjasidan chiqarmasligini ta’kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma’lum vaqt, jamiyatni isloh qilish va yangilash

jarayonini boshqaradigan va ta’minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash-tarbiyalash kerak edi. «Farovon turmushga erishishning ham albatta o‘z tosh-tarozi bor, deb ta’kidlaydi Islom Karimov. Boshqacha aytganda, odamzod bir narsaga erishmoq uchun ma’lum vaqt huzur-xalovatdan voz kechishiga to‘g‘ri keladi»[1].

Islom Karimov o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining navbatdan tashqari to‘qqishchinchi sessiyasida 1992 4 yanvarda so‘zlagan dasturiy nutqida hamda 1992 yil avgust oyida nashr etilgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O‘z yo‘limiz qanady shart-sharoit va zaminlarga tayanadi?

O‘zbekiston yo‘li, birinchidan, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo‘lini ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olishni emas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to‘plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tadbiq qilsa bo‘ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish, degan ma’noni bildiradi.

Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiyo larzalarsiz, evolyutsion yo‘l bilan madaniyatli taraqqiyotga o‘tish-tanlab olingan yo‘lning asosiy mazmuni va mohiyatidir.

Uchinchidan, O‘zbekiston yo‘li o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma’naviy qadriyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarga mos ravishda belgilandi.

To‘rtinchidan, o‘z o‘limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni, musulmon davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi.

Beshinchidan, yangi yo‘lni tanlashda O‘zbekistonning geostrategik mavqei, mustaqillikka erishilgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiyo resurslari asos qilib olindi.

Oltinchidan, respublikadagi o‘ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o‘sib borishi ham inobadga olindi.

Ettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e’tiborga olindi. Negaki, sovetlar zamonasida kishilarda shakllangan yaxshi ishlasa ham yomon ishlasa ham davlat boqadi, degan psixologiyasini tezlik bilan o‘zgartirib bo‘lmas edi, buni hisobga olish zarur edi, albatta.

Milliy istiqlolning dastlabki kunidanoq chinakam Mustaqil O‘zbekistonni tarpo etish, har qanday «izm» lardan xoli xalqchil adolatli jamiyat qurish bosh maqsad qilib qo‘yildi. Davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari ana sha bosh maqsaddan kelib chiqqan holda belgilandi.

Yurtboshimiz o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o‘zi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdan yangilash vazifalarini belgilab berdi.

**Siyosiy sohada bu quyidagilarni bildiradi:**

- xalq manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya tamoyillarini qaror toptirishni, xalq ham bevosita, ham o‘z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to‘liq imkoniyatga ega bo‘lishini;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishni, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralaring tuzilmasini tubdan yangilashni, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlarini aniq belgilab qo‘yish va adolatli qonunchilikni vujudga keltirishni;
- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligi va qonunning ustunligi, jamiyat manfaatlari va aholi havfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishni;
- O‘zbekistonda tug‘ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e’tiqodidan qat’iy nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo‘lishiga munosibdir, degan insonparvarlik qoidasini ro‘yobga chiqarishni;

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.Ўзбекистон, 1999, 7-бет. Асарлар, Т.?, 373-бет

- ozchillikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlari va an'analari saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlashni;
- bir mafkuraning, bir dunyo qarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olinishi;
- chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirishni bildiradi.

**Iqtisodiy sohada:**

- milly boylikning ko'payishi, odamlarning turmush va ish sharoitlarini munosib ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib oruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;
- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shaklantirishni, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishni;
- mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilininshini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;
- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakka hokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvdan voz kechishni;
- mehnat qilish, dam olish, ta'tilga chiqish, ishsiz bo'lib qolgan taqdirda ijtimoiy muhofazaga bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqni ro'yobga chiqarishni;
- tabiiyo resurslardan ayovsiz foydalanishga , atrof-muhitga, ekologik vaziyatga ziyon etkazishga yo'l qo'ymaslikni bildiradi.

**Ijtimoiy va ma'naviy sohada:**

- umuminsoniy qadriyatlarga, insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyini tanlash huquqini inson huquqlariga doir xalqaro me'yorlarni qaror toptirishni;
- ma'naviyat va ahloqiylikni qayta tiklash, fuqarolarning vatanparvarlik xis-tuyg'ularini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlashni;
- o'zbek tilini rivojlantirishni, bu tilning davlat maqomini to'liq ro'yobga chiqarishni;
- hurfikrlilikni, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirishni;
- ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari-keksalar, nogironlar, etim-esirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;
- hamma uchun maqbul sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishni;
- yangi demokratik ta'lim kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgorlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berishni;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyalarini namoyon etish shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi.

Mana shunday siyosiy, davlat va konstitutsiyaviy tuzumga erishishning kaliti fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirishdir.

**Huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir… Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo'q.**

I.A.Karimov. O'zR Oliy Kengashi sessiyasida 1992 yil 4 yanvarda so'zlagan nutqidan.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmuni bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993 yilda nashr etilgan «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. Iqtisodiyotning mafkuradan to'la holi qilish, iqtisodning siyosatdan ustunligi.

2. Bozor munosabatlariga o‘tish davlatning boshqaruvi asosida amalga oshiriladi. Davlat bosh islohotchidir. Bozor munosabatlariga o‘tish chuqurlasha borgan sari davlatning bu sohadagi ta’siri kamaya boradi.
3. Islohotlarning butun jarayonlari mustahkam huquqiy asoslarga quriladi. Qonunlar barcha xo‘jalik sub’ektlari tomonidan og‘ishmay bajarilishi zarur.
4. Bozor munosabatlariga o‘tish aholining muhtoj va kam ta’minlangan qismini moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni qabul qilish va kishilarni islohotlarga ruhan tayyorlashdan iborat kuchli ijtimoiy siyosat bilan qo‘shib olib boriladi.
5. Bozor islohotlari bosqichma-bosqich va izchil ravishda, ya’ni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshiriladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning «o‘zbek modeli» bundan oldin yaratilgan va mavjud bo‘lgan modellarning birortasi takrorlanmagan holda, o‘z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo‘l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «O‘zbek modeli» deb qabul qilindi.

Tanlangan yo‘l engil-elpi yomush emas edi, u xalqimizdan matonatli, mashaqqatli va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishni talab qilardi. Yangi jamiyat qurishi ishlarini bir yo‘la, siltov yo‘li bilan bajarib bo‘lmasligi davlat rahbarlaridan boshlab oddiy fuqarolargacha hammaga tushunarli edi. Shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymasdan, tadrijiy yo‘l bilan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘tkazish lozim edi.

O‘zbekistonga xos taraqqiyot yo‘lining nazariy, ilmiy, amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi bizning eng katta yutug‘imizdir. Tanlangan yo‘lning to‘g‘riligini xalqimiz, dunyodagi nufuzli davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodichi olimlar e’tirof etdilar.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ana shunday keng qamrovli islohotlarning ijodkori bo‘ldi, ularni hayotga tadbiq etishga boshqosh bo‘ldi. mtsstaqillik nuriga to‘lgan O‘zbekistonning o‘tgan 10 yili davomida siyosiy , iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanish yo‘lidan borib, o‘zimiz tasavvur etishimiz ham qiyin bo‘lgan ulkan zafarlarga erishildi.

**Sinov savollari**

1. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqa boshladilar?
2. Qanday kuchlar, nima maqsadda Moskvada fitna uyushtirdilar?
3. O‘zbekiston Prezidenti 1991 yil 20 avgustdagi Bayonotida nimalar deyilgan edi?
4. 1991 yil 25 avgustdagi O‘zbekiston Prezidentining qanday farmoni e’lon qilindi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 31 avgustda bo‘lgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
6. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagiOliy Kengash Bayonati haqida so‘zlab bering.
7. Oliy Kengashning O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risidagi qarorining mazmunini bilasizmi?
8. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonuni kutubxonadan toping va daftaringizga yozib oling.
9. Mustaqillik to‘g‘risidagi referendum va uning natijalarini bilasizmi?
10. O‘zbekiston Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritshning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
11. Davlat ramzlari deganda nimalarni tushunasiz?
12. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko‘tariladi?
13. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini tasvirlang, undan qanday paytlarda foydalaniladi?
14. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini yoddan bilasizmi?

15. O‘zbekiston Respublikasinig Konstitutsiyasini ishlab chiqish, qabul qilish jarayonini tushuntirib bering.
16. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
17. Milliy valyuta nima. Uni muomalaga kiritish zaruratichi?
18. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyutani muomalaga kiritish jarayoni qanday bo‘ldi?
19. O‘zbekiston Respublikasida qanday Davlat mukofotlari mavjud?
20. Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo‘ldi, deganda nimani tushunasiz?

## Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyoti

**REJA:**

1. Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlarining shakllanishi.
2. Mustaqillik yillarida respublikaning ma’naviy-ma’rifiy va madaniy taraqqiyoti.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi, uning tarixiy ildizlari va asosiy tamoyillari

**Adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush - pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.: O’zbekiston, 2000, 337-343 betlar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. «Ma’naviyat» 2008.
3. Usmonov Q. va boshqalar.O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 418-452-betlar.
4. S.G’ulomov, Q.Usmonov. Mustaqillik O’zbekistonga nima berdi. -T.: O’AJBNT, 2000, 31-87 betlar.
5. O’zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O’zbekiston tarixi -T.: Sharq. 2000, 298-353 betlar.
6. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003.
7. Usmonov Q., Burxonova S., O’zbekiston: 15 bunyodkorlik yillari. -T.: Iqtisod-moliya, 2006.


### 1. Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlarining shakllanishi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy hayotimizda ro‘y bergan yangilanish, tub o‘zgarishni yoritishga kirishar ekanmiz, avvalo, eski mustabid tuzumdan bizga qanday iqtisodiyot meros bo‘lib qolganligini eslaylik.

O‘zbekiston qaramlik davrida o‘z tabiiy boyliklariga, er-suv, o‘rmon va boshqa resurslariga o‘zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati, xalqi o‘z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qaerda realizatsiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o‘zining milliy valyutasiga, valyuta jamg‘armasiga ega emasdi.

Sobiq Ittifoqdan mo‘rt, zaif xom ashyo etishtirishga yo‘naltirilgan, ya’ni arzon xom ashyo va strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros bo‘lib qolgan edi. Respublika iqtisodiyotida boy mineral xom ashyo resurslaridan ayovsiz, nazoratsiz foydalanish hukmronlik qilardi. Umri tugagan sovet tuzumidan iqtisodiy boshqaruvning ma’muriy-bo‘yruqbozlik usuli, «qayta qurish» davrida batamom barbod bo‘lgan iqtisodiyot, izdan chiqqan moliyaviy narx-navo tizimi, baqiriq-chaqiriq, o‘g‘rilik, buzuqlik avj olgan ijtimoiy iqtisodiy muhit meros bo‘lib qolgan edi. Respublika korxonalari sobiq Ittifoq bo‘yicha boshqa korxonalar bilan bog‘langan bo‘lib, endi ular o‘rtasidagi aloqalar uzilib, xo‘jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Mavjud korxonalar chetdan keltiladigan texnologik asbob-uskunalar va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. O‘zbekiston yoqilgi va oziq-ovqat masalasida markazga qaram edi. Ekin ekiladigan erlarning paxta maydonlariga aylantirilishi, paxta yakka hokimligining o‘rnatilishi natijasida O‘zbekiston un, go‘sht, sut mahsulotlari va boshqa eng muhim oziq-ovqat mollari, xalq iste’moli tovarlari, tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga maqhum etilgan edi. Paxta, oltin, rangli metallar, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa materiallar tashib ketilar, ularni sotishdan keladigan daromad O‘zbekiston xazinasiga tushmas edi. O‘ziga qarashli bo‘lgan mablag‘ni markazdan dotatsiya sifatida so‘rab, yolvorib olishga majbur edi.

**Aholi turmush darajasi jihatidan nochorlik, sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o‘rinlardan biri meros bo‘lib qolgan edi. Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan farqli o‘laroq, O‘zbekiston aholisining deyarlik uchdan ikki qismi qo‘l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzumdan o‘tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo‘lib qolgan edi. Mamlakatimiz aholisi erning nihoyat darajada sho‘rlanishi, havo bo‘shlig‘i va suv zahiralarining ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, birgina Orolning qurib qolgan tubidan yiliga bo‘ron tufayli 15-75 mln. tonna chang-to‘zon ko‘tarilib uzunligi 400 km va eni 40 km maydonni ifloslantiradi, aholini turli-tuman kasalliklarga mubtalo qiladi.**

Mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zulum, mutelikdan ozod etdi, o‘z eri, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvanot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralarga to‘la egalik qilish huquqini berdi. O‘z hududimizdagi barcha mulk, korxonalar O‘zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o‘z iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilash erkinligi qo‘lga kiritildi.

Iqtisodiy mustaqillik mamlakatimizga mustaqil moliya-kredit, bank siyosatini yuritish, o‘z davlat byudjetini yaratish va unga to‘la egalik qilish milliy valyuta, oltin zahirasi va valyuta jamg‘armasini tashkil etish va ulardan xalqimiz farovonligi, yurtimiz obodonligi yo‘lida mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Iqtisodiy mustaqillik tufayli ishlab chiqarish munosabatlarini ma’muriy-bo‘yruqbozlik, markaziy rejalashtiruvchi mexanizmdan erkin, bozor iqtisodiyoti sharoitiga o‘tkazish, jahon xo‘jaligi aloqalari tizimiga kirish mumkin bo‘ldi.

Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston umumbashariy, jahon tsivilizatsiyasining katta yo‘liga tushib oldi. O‘zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishni, milliy an’analariga asoslangan o‘z yo‘lini tanlab oldi. Chunki turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti, u hoh Amerika yoki Germaniya bo‘lsin, hoh Yaponiya bo‘lsin yoki Janubiy Koreyada bo‘lsin baribir umumiy qonunlar bo‘yicha rivojlanib borgan holda har biri o‘ziga xos xususiyatlariga ham ega bo‘lgan. Bu xususiyatlar xo‘jalikning tuzilishi va shart-sharoitlari, tabiati va iqlimi, milliy rasm-rusmlari, an’analari va milliy xarakteri orqali belilanadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li ishlab chiqildi. Bu yo‘lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston-bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» nomli asarida, ma’ruza va nutqlarida, mamlakat parlamentida qabul qilingan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo‘lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shaklllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning qo‘yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar ta’minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;
- ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish;
- xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilishini ta’minlash;
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;
- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shaklllantirish. Bunday strategik maqsadlarga bosqichma-bosqich erishilib borildi.

**Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining dastlabki bosqichida muhim vazifalar hal qilindi. Iqtisodiy islohotlarning ustivor yo‘nalishlari belgilab olindi, ma’muriy bo‘yruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlari engib o‘tildi, islohotlar jarayonini boshqarishning**

**yaxlit tizimi yaratildi, tanglikdan chiqildi, bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllandi.**

Iqtisodiy sohaga tegishli bo‘lgan 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni mazmun-mohiyati jihatidan bir qator yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin.

1. Mulkchilik munosabatlari va ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo‘nalish doirasida mulkchilik to‘g‘risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida, ijara to‘g‘risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo‘jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya’ni korxonalar to‘g‘risida, kooperatsiya to‘g‘risida, dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati to‘g‘risida, pul tizimi to‘g‘risida, tadbirkorlik to‘g‘risida, sug‘urta to‘g‘risida, birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida, qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxona bilan davlat o‘rtasidagi, korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yuvchi, soliq tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarning bankrot bo‘lishi haqida qonunlar qabul qilindi, xo‘jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo‘jalik sudi tuzildi.

3. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining etakchi xalqaro tashkilotlarga a’zoligi to‘g‘risida, valyutani tartibga solish to‘g‘risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O‘zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

4. Bu hujjatlar o‘z umrini yashab bo‘lgan eski iqtisodiy munosabatlarni va boshqarish tizimini huquqiy yo‘l bilan yangi iqtisodiy munosabatlar va boshqarish tizimi bilan olmashtirishni huquqiy jihatdan ta’minladi.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunga muvofiq davlat mol-mulkini xususiylashtirish masalalari bo‘yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini tayyorlovchi xo‘jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.**

**Kichik xususiylashtirish 1994 yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib qoldi. Bunda xar 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2000 yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.**

Davlatga qarashli mulkni, korxonalarni xususiylashtirishga davlatning o‘zi tashabbuskor bo‘ldi va boshchilik qildi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangandan keyin to 1994 yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxona va obekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aktsiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi.[1] 1994 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo‘ldi.

1994 yil 21 yanvarda e’lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 1994 yil 16 martda elon qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo‘ldi. O‘rta va yirik korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi, bu jarayonga

aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo‘yicha kim oshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi. 1-rasmga qarang.

[1]Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etishdan iborat strategik vazifaga bo‘ysundirildi. Bunda ustivorlik xususiy mulkka, kichik va o‘rta biznesga berildi.

Respublikada kichik va o‘rta biznesni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish fondi tuzildi, dunyodagi nufuzli banklarning sarmoyalari jalb etilmoqda. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston nemis texnikaviy ko‘maklashuv jamiyati kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash markazini, Evropa hamjamiyati komissiyasi amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko‘maklashdilar. 1995-1998 yillarda kichik va o‘rta korxonalar soni 2 baravar ko‘paydi. Faqat 1999 yili kichik va o‘rta biznes korxonalariga Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish bankining 200 mln. AQSh dollaridan ortiq kredit mablag‘lari jalb etildi va o‘zlashtirildi. Kichik va o‘rta biznes sub’ektlarining YaIM dagi salmog‘i 1999 yilda 12,6 foizni tashkil etdi[18]. 2000 yilning birinchi yarmida 18 mingdan ziyod kichik va o‘rta biznes sub’ektlari ro‘yxatga olindi. 2000 yil o‘rtalarida ularning soni 175 mingdan ortdi[19].

Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Negaki respublika aholisining 62 foizi qishloqda yashaydi, qishloq xo‘jaligida YaIM ning 30 foizi, mamlakat valyuta tushumlarining 55 foizi shakllanadi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida nodavlat sektorining ulushi 99 foizni tashkil qilmoqda.

Islohotlar yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo‘shimcha ravishda 550 ming gektar sug‘oriladigan er ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan er maydoni 700 ming gektarga etdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu er hosilidan foydalanmoqda.

Qishloqda xo‘jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e’tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo‘jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo‘jalik yuritishda o‘zlarini to‘la-to‘kis oqlamaganliklari tufayli, mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999 yilda 898 ta, 2000 yilda 856 ta qishloq xo‘jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2000 yilning oxirlarida ruspublika bo‘yicha 1754 taga etdi. Agrar munosabatlar tizimida oila pudrati keng o‘rin egallamoqda. 2000 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, respublikadagi qishloq xo‘jaligi korxonalari tarkibida 598,5 mingta oilaviy pudrat faoliyat ko‘rsatdi.[1]

**Qishloq xo‘jaligida fermer va dehqon xo‘jaliklari salmoqli o‘rin egallamoqda. 2002 yilda fermer xo‘jaliklari soni 55,4 mingdan ziyodni tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklariga 1 mln. gektardan ortiq er biriktirilgan. Bu turdagi xo‘jaliklar don, kartoshka, sabzavot-poliz mahsulotlari, go‘sht, sut, tuxum etishtirishda tobora salmoqli o‘rinni egallamoqda.**

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar dehqon xo‘jaliklari sifatida qayta shakllanmoqda. Dehqon xo‘jaligi-bu oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, tomorqa er uchastkasi oila boshlig‘iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida etishtiriladi va sotiladi. 2000 yil 1 yanvarga qadar 1541 ming dehqon xo‘jaligi ro‘yxatdan o‘tkazildi, bu barcha shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarning 43,3 foizini tashkil etadi. 1998-1999 yillarda respublikada etishtirilgan go‘shtning 90 foizi, sutning 92 foizi, kartoshkaning 76 foizi, sabzavotning 70 foizi, mevaning 61 foizi, poliz mahsulotlarining 53 foizi, uzumning 50 foizi dehqon xo‘jaliklari tomonidan tayyorlandi.

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: Ўзбекистон, 1995, 56-бет.
[18] Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислоҳотларни чуқурлаштириш-энг муҳим вазифамиз. «Халқ сўзи» газетаси, 2000 йил 15 феврал.
[19] Халқ сўзи газетаси, 2000 йил 22 июл.
[1] Халқ сўзи газетаси, 2000 йил 22 июль.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o‘tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg‘armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafqalar va stependiyalar muntazam suratda oshirib borildi.

***Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog‘liq. 1992 yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasining «Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vaziri tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o‘tkazish Bosh Boshqarmasi monopoliya mavqeidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo‘yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi.***

Iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlarida biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iborat bo‘ldi.

*«Bozor munosabatlarini shakllantirishni, - deb ta’kidlaydi Islom Karimov, - tegishli muhitsiz-tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida, xo‘jalik yurituvchi sub’ktlar o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlash kerak bo‘lgan bozor infrastrukturasiz tasavvur etib bo‘lmaydi».*

Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida, 97-bet.

Shu boisdan respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo‘g‘inlari - turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalombor, ishlab chiqishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta’minoti, yo‘l va ombor xo‘jaligi tuzilmalari yaratildi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xom ashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko‘plab savdo uylari, auktsionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan axborotlar, xabarlar va ma’lumotlarni to‘plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keldi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma - yangi bank tizimi, o‘z-o‘zini kreditlash idoralari, sug‘urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg‘armalari yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 35 ta bank, shu jumladan 13 ta xususiy bank faoliyat ko‘rsatmoqda, ularning 17 tasi dunyodagi eng nufuzli banklar bilan korrespondentlik aloqalari o‘rnatgan. Respublika iqtisodiyotiga chet el sarmoyalarini jalb etishda tijorat-hissadorlik «Asakabank», «Paxtabank», «O‘zsanoatqurishbank», «Ipak yo‘li», «ABN AMRO» banklari, shuningdek «Hamkorbank», «Parvinabank» kabi xususiy banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati ortib bormoqda. 2000 yilning yanvar-iyul oylarida bu kreditlar hajmi 750 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Tijorat banklarining o‘z kapitali 300 mlrd. so‘mga etdi.

Respublikada davlat ishtirokida tuzilgan bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «Kafolat», «Agrosug‘urta», «O‘zbekinvest» kabi uchta yirik sug‘urta kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ko‘plab xususiy sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo‘shma sug‘urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2000 yil boshlarida sug‘urta kompaniyalarining soni 100 taga etdi, ular bugungi kunda moliya bozorida xizmat ko‘rsatmoqda.

**Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o‘zgarayotgan paytda malakasiz kishilargina emas, ma’lum ixtisosga ega bo‘lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik tadbirlari ko‘rildi. Respublika bo‘yicha 225 dan ortiq mehnat birjasini o‘z ichiga oluvchi katta tormoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro‘yxatga olish, ularning kasbini o‘zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lash yo‘lga qo‘yildi. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga e’tibor berildi. 1993 yilda Respublikada 185,1 ming yangi ish o‘rinlari tashkil etilgan bo‘lsa, 1998 yilda bu ko‘rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko‘p ish o‘rinlari yaratildi. 2000 yilda faqat o‘rta va kichik biznes rivoji hisobiga 192,5 ming yangi ish o‘rinlari yaratildi.**

Iqtisodiy islohotlar borasida qo‘yilgan yana bir muhim qadam-1994 yil 1 iyuldan milliy valyutamiz so‘ning muomalaga kiritilishi bo‘ldi. Bu tadbir katta siyosiy ahamiyatga e’tiborga molikdir, chunki o‘z milliy valyutasiga ega bo‘lmagan davlat chinakam mustaqil bo‘la olmaydi. Respublika hukumati milliy valyuta qadrini mustahkamlash, uning erkin aylanishini taxminlash choralarini amalga oshirmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyoti asoslari shakllandi. Ko‘p ukladli iqtisodiyotni, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishdan iborat strategik vazifa amalda ro‘yobga chiqdi. Respublikamizdagi korxona va xo‘jaliklarning 60 foizi xususiy mulk egalari, fermer, shirkat va dehqon xo‘jaliklariga, 28 foizi aktsiyadorlik jamiyatlari, qo‘shma korxonalar, kooperativlar, jamoa mulki, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, jamoat tashkilotlariga tegishli. Davlat tasarrufidagi korxonlar ulushi atiga 12 foizni tashkil etadi, xolos.

**2. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati.**

Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tobora pasayib bordi, xo‘jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Buning sababi O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lib, korxonalari mustaqil xo‘jalik yurita olmasdi, boshqa hududlarda joylashgan zavod, fabrikalardan keltiriladigan asbob-uskuna va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. Sobiq Ittifoq parchalangach, aloqalar uzildi. Natijada ko‘pgina korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin kamaydi, ayrimlari to‘xtab qoldi. Shu boisdan O‘zbekistonda iqtisodiy tanglikdan chiqish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlari ko‘rildi.

O‘zbekistonda makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi, deb belgilandi.

*«Barqarorlashtirish siyosati - eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslikdir».*

Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlash-tirish yo‘lida. T.: O‘zbekiston, 1995, 197-bet.

**Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun O‘zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar qilish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar qurish va buning uchun zarur sarmoyalar ajratish yo‘llaridan bordi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar uchun zarur mablag‘lar davlat byudjeti va aholi jamg‘armalari hisobiga ajratildi. 1997 yilda ta’minotning barcha manbalari hisobiga 270 mlrd. so‘m kapital mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 1999 yilda faqat yangi ishlab chiqarish tarmoqlari rivoji uchun 282 mlrd. 300 mln. so‘m yoki yalpi sarmoyalarning 56 foizdan ko‘prog‘i yo‘naltirildi. Iqtisodiyotga aholi sarmoyalarini jalb qilish o‘sib bordi. 1995-1998 yillarda ishlab chiqarish sohasiga sarflangan umumiy sarmoyalar hajmida aholi sarmoyalarining ulushi 10 foizdan 30 foizga o‘sdi.**

**Xalq xo‘jaligi tarkibini qayta qurish maqsadida chet el sarmoyasini jalb qilish choralari ko‘rildi. «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida», «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to‘g‘risida»qonunlar qabul qilindi. Chet el sarmoyasini O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida amalga oshirilmoqda.**

**Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994 yilda barpo etilgan O‘zbekiston-Isroil «O‘zIz mash» qo‘shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘idir, deb e’tirof etildi.**

**1992 yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O‘zbekistonda avtomabil ishlab chiqaruvchi korxona barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996 yillarda Asaka shahrida «O‘zDEU avto» zavodi barpo etildi va Damas, Tiko, Neksiya rusumli avtomabillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. 1996 yilda 25,3 ming, 1997 yilda 64,9 ming, 1998 yilda 54,4 ming, 1999 yilda 58,4 ming, 2000 yilda 31,3 ming dona engil avtomobil ishlab chiqarildi. «O‘zDEU» zavodida 1999 yil oktyabr oyidan boshlab «Neksiya-2», «Matiz» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga kirishildi. 2001 yil avgustda «Matiz» rusumli foydalanishga eng qulay avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi. Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Sam Koch avto» zavodi qurildi. 2000 yilda «Sam Koch avto» zavodi 483 dona avtobuslar ishlab chiqardi. Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o‘nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Hozirgi paytda «O‘zDEU» zavodi uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O‘zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.**

**Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari-Toshkent traktor zavodi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni engib o‘tdi. Birgina Toshkent traktor zavodi 2000 yilda 954 ta, 2001 yilda 1002 ta traktor ishlab chiqardi.**

1995 yil oktyabr oyida O‘zbekiston bilan AO‘Sh ning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o‘rtasida Sho‘rton gaz-kimyo majmuasini qurish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. O‘urilish ishlari 1997-2001 yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1mlrd. AO‘Sh dollari hajmida sarmoya o‘zlashtirildi. 2001 yil dekabrda Sho‘rton gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Engil va to‘qimachilik sanoati tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «O‘abul-O‘zbekKO», «Kosonsoy-Tekmen», «Papfen», «Asnam tekstil», «Karakulteks», «Chinoz to‘qimachi», «Kabul-Farg‘ona», «Oq saroy to‘qimachi» qo‘shma korxonlari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq ist’emoli mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991 yili respublikamizda paxta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2001 yilda bu ko‘rsatkich 24 foizga etdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

O‘ishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e’tibor berildi. Xo‘jaliklar qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo‘ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari tayyorlashni tiklash yo‘li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog‘i 1991 yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda 42 foizga o‘sdi.

Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo‘li izchillik amalga oshirilmoqda. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2 mln. tonna

g‘alla olingan bo‘lsa, 2000 yilda 4 mln. tonna g‘alla etishtirildi. 1990 yilda 554 ming tonna bug‘doy etishtirilgan bo‘lsa, 2000 yilda 3,6 mln. tonnaga yaqin buqdoy olindi. O‘zbekiston don mustaqilligiga erishdi.

Andijon paxtakorlari tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtadan sifatli va yuqori hosil etishtirish imkonini yaratdi.

Iqtisodiyot tarkibidagi tub o‘zgarishlar, yangi korxonlalarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1994-2000 yillarda iqtisodga jalb etilgan sarmoyalar 24,4 mlrd. AO‘Sh dollarini tashkil etdi. Mustaqillik yillarida 1713 korxona va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 8,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. 1990 yilda Respublika bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, 1992 yilda 94,7 foizga, 1993 yilda 98,1 foizga tushgan edi. 1995 yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1996 yildan boshlab barqaror o‘sish ta’minlanmoqda. 1997 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1996 yilga nisbatan 106,5 foizga, 1998 yilda 1997 yilga nisbatan 105,8 foizga, 1999 yilda 1998 yilga nisbatan 106,1 foizga, 2000 yilda 1999 yilga nisbatan 106,4 foizga, 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 108,1 foizga o‘sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko‘paydi, iste’mol buyumlari importi kamaydi. Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamiz importida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 73,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1998 yilda bu ko‘rsatkich 15,6 foizga tushdi. Rangli metallar, kalava ip, avtomobillar, kimyoviy shtapel tola, paxta, oltin eksporti o‘sib bormoqda. 1998 yilda tashqi savdo oboroti qariyb 9 mlrd. AO‘Sh dollarini tashkil etdi. O‘zbekistonda yuritilgan mustaqil samarali iqtisodiy siyosat yalpi ichki mahsulotning o‘sishini ta’minladi. Yalpi ichki mahsulotishlab chiqarish 1991-1995 yillarda pasayib bordi, 1996 yildan boshlab o‘sish boshlandi. Oldingi yilga nisbatan 1996 yilda YaIM 101,7 foizga, 1997 yilda 105,2 foizga, 1998 yilda 104,4 foizga, 1999 yilda 104,4 foizga, 2000 yilda 104 foizga, 2001 yilda 104,5 foizga o‘sdi.

2001 yilda birinchi bor Yalpi ichki mahsulotning 1991 yilga nisbatan 103 foiz o‘sishiga erishildi. MDH davlatlari orasida birinchi bo‘lib O‘zbekiston iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko‘rsatkichlar izchil o‘sib borayotgan mamlakatdir.

Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o‘zgarib, aholi turmush saviyasi o‘sib bormoqda. Yirik inshoatlar, korxonalarning bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, izchil o‘sish sur’atlari odamlarning moddiy va ijtiomiy hayotini, farovoniligini yildan yilga yaxshilanishiga zamin bo‘lmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta’minlash darajasi salmoqli darajada o‘sdi. Birgina 1999 yilda 4,5 ming km gaz tarmog‘i-shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida, 2 ming km.dan ziyod ichimlik suv tarmog‘i - shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida ishga tushirildi[1].

Jahondagi etakchi firmalarning havo kemalari bilan ta’minlangan O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqlarini o‘rnatgan, u mustaqillik yillarida 20 milliondan ko‘p yo‘lovchiga xizmat qildi.

Respublikada Markaziy Osiyodagi eng yirik birja markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. U zamonaviy kompyuter texnikasi va tele-aloqa tizimi bilan jihozlangan.

**«Mustaqillikning dastlabki yillardagi iqtisodiy islohotlarning asosiy natijalarini baholagan holda shuni to‘la asos bilan aytish mumkinki, biz belgilangan yangilanish va taraqqiyot dasturidagi ko‘pgina ishlarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik.**

**Iqtisodiyotimiz vujudga keltirilgan mustahkam huquqiy normalar negizida instituttsional o‘zgarishlarga tayanib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich kirib, barqaror va sobitqadam bo‘lib bormoqda».** Islom Karimov

Aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat

---

[1] Халқ сўзи, 2000 йил 15 феврал

sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Bozor munosabatlariga oʻtishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻrib borildi. Shu maqsadda miqdori muntazam oʻzgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya toʻlovlari tarzidagi pul toʻlovlari keng qoʻllanildi. Korxonalarning oʻz xodimlariga ijtimoiy yordam koʻrsatish sohasidagi harajatlaridan bir qismi davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan qoplanib turdi. Keng isteʼmol mollari va xizmatlarning koʻpgina turlari narxlaridagi tafovutlarning oʻrni davlat byudjeti hisobidan qoplandi. Ayrim toifadagi fuqarolarga uy-joy bepul xususiy mulk qilib berildi, kommunal xizmatlar haqini toʻlashda engilliklar berildi. Islohotlarning birinchi bosqichi davomida ijtimoiy himoyalash harajatlari respublika byudjetining salkam uchdan bir qismini tashkil etdi.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida uch yoʻnalish yoqqol namoyon boʻldi. Birinchisi, narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va oʻrtacha darajasi muntazam oshirib borildi. Bu sohada 1993 yil yanvarda joriy etilgan yangi yagona tarif setkasi katta ahamiyatga ega boʻldi. Yagona tarif setkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita oʻzaro bogʻlash imkonini berdi. Eng kam ish haqini oshirish yoʻli bilan aholining oʻrtacha ish haqi, pul daromadlari ham oʻz-oʻzidan koʻtarila bordi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 23 iyunda eʼlon qilingan «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish toʻgʻrisida»gi Farmoniga binoan 2000 yil 1 avgustidan boshlab eng kam ish haqi amaldagi 1750 soʻmdan 2450 soʻmga yoki 1,5 barovar, 2001 esa 2450 soʻmdan 3430 soʻmga yoki 1,4 barovar koʻpraytirildi. Bu aholini barcha tabaqalari pul daromadlarining koʻpayishini taʼminladi.

Ikkinchisi, respublikaning ichki isteʼmol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari isteʼmolini muayyan darajada saqlab turish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar aholini ijtimoiy himoyalab turdi. 1992-1994 yillarda non va un mahsulotlari, goʻsht va goʻsht mahsulotlari, sut, qand-shakar, oʻsimlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun davlat dotatsiyalarning saqlanib turilganligi aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam boʻldi.

Uchinchidan, aholining kam taʼminlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari koʻrildi. Bular jumlasiga nafaqaxoʻrlar, nogironlar, koʻp bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, oʻquvchi yoshlar kirar edi. Aholini ijtimoiy himoyalash harajatlari byudjet imkoniyatiga bogʻlik ravishda oʻtkazildi.

1994 yilda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Nengaki, ilgari faqat respublika byudjeti yoʻli bilangina 30 ta turli soha va yoʻnalishlar boʻylab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi, bu mablagʻlarning sochilib ketishiga olib keldi. Koʻrilgan chora-tadbirlar yalpi ijtimoiy himoyalashga yoʻnaltirilgan boʻlib, yordamga muhtoj boʻlgan fuqarolarni qoʻllab-quvvatlashda toʻla samara bermayotgan edi.

1994 yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga oʻtildi. Mahalla orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam beriladigan boʻldi. 1995 yilda 500 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga mahalla koʻmitalari orqali 6 mlrd. soʻm nafaqa berildi. Bunday tizimning yaratilishi islohotlar birinchi bochqichining ijtimoiy himoyalash sohasidagi muhim yakuni boʻldi. Hozirgi paytda ham yordamga muhtoj aholini ijtimoiy himoyalash shunday usulda amalga oshirilmoqda. Hayot bu tizimning hayotiyligini, toʻgʻriligini tasdiqladi.

Hozirgi kunda mamlakatning 2 mln. 640 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oladi. Bunday toʻlovlar miqdori 2000 yilda 187,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Faqat 2000 yilning oʻzida aholining kam taʼminlangan qismiga fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari - mahalla yigʻinlari orqali 54,2 mlrd. soʻm miqdorida nafaqa, koʻmak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

Oliy oʻquv yurtlarining 142 ming talabasi har yili 6 mlrd. 600 ming soʻm stipendiya oladi. Keyingi 3 yilning oʻzidagina stipendiyalar miqdori 3,8 baravar ortdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turar joylar, 19,5 ming o‘rinli kasalxonalar, 95,7 ming marta tashrifli poliklinikalar, 805,9 ming o‘rinli maktablar, 15,3 ming o‘rinli akademik litseylar, 126,5 ming o‘rinli kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash va gazlashtirish bo‘yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. 1991-2000 yillarda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi. Aholining uy-joylarini gazlashtirish darajasi 46,2 foizgacha, ichimlik suvi bilan markazlashgan holda ta’minlash esa 64,2 foizdan 77,6 foizgacha ko‘tarildi.

Yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada aholiga tibbiy va ijtiomiy xizmat ko‘rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. Mustaqillik yillarida ambulatoriya-poliklinika muassasalarining soni 3 mingdan 4,8 minggacha yoki 1,6 baravar ortdi.

Aholiga 81,5 mingdan ortiq shifokorlar turli ixtisosliklar bo‘yicha malakali tibbiy yordam ko‘rsatmoqda.

1994 yilda aholining dori-darmonga bo‘lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo‘g‘i 4,5 foizga qondirilar edi. Hozirgi vaqtda katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko‘rsatkich 25 foizgacha o‘sdi.

Etim bolalar va farzandsiz oilalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik «Kinderdorf»-«Bolalar mahallalari» Avstriya loyihasining O‘zbekiston hududida amalga oshirilishida ham namayon bo‘lmoqda. Bu erda ota-onasiz etim bolalar va farzandsiz oilalarning ko‘pchiligi uy-joyli va bus-butun oila bo‘lib yashash baxtiga muyassar bo‘lmoqda.

Ishonchli ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy himoyalash g‘oyasi, choralari bozor islohotlarining hamma bosqichlarida ham amalga oshirilib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o‘zgartirildi, xo‘jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o‘tib oldi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllandi. Eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, hayotga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarmoqda. Turmush darajasi, oilasining farovonligi o‘ziga bog‘lik ekanligini tushunib etayotgan odamlar tobora ko‘payib bormoqda.

Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruzasida iqtisodiy islohotlar o‘tgan bosqichlarida erishilgan yutuqlarga yakun yasab, yangi bosqichda iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalarni asoslab berdi.

Iqtisodiyot sohasidagi vazifalar, birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni ta’minlashdan iborat. Bu boradagi muhim vazifa davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik funktsiyalarini qisqartirish, korxonalar xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy biznes va bozor mexanizmlariga erkinlik berishdir.

Ikkinchidan, xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, bu jarayonga yirik korxonalarni jalb etish, mulkdorlar tabaqasining ko‘pchilikni tashkil etishiga erishish.

Uchinchidan, mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini keng jalb etish uchun qulay shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni kuchaytirish.

To‘rtinchidan, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularni tuzish shartlarini soddalashtirish, ularning xom ashyo, asbob-uskuna, kredit olish tartiblarini erkinlashtirish.

Beshinchidan, mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlash, raqobatbop va eksportbop mahsulotlar salmog‘ini ko‘paytirish.

Oltinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish.

*3. Ma’naviy-ma’rifiy va madaniy yuksalish.*

**Jamiyat ma’naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotinig muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o‘z ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy**

**va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, insonni ruhiy poklanish va yuksalishiga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyqotadigan qudratli botiniy kuchdir. Shuning uchun ham jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyotining ustivor yo'nalishi deb belgilandi.**

Qaramlik davridan, eski sovetlar tuzumidan bizga og'ir ma'naviy-ma'rifiy meros qolgan edi. Mustamlakachilik davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-madrasalar, eski maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. Ajdodlarimiz etishtirgan allomalarimiz idealist degan yorliq bilan qoralandi, asarlarini unutish, yuqotish siyosati yuritildi. Islom dini qadriyatlari, musulmonlarning e'tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg'in ostiga olindi. Mustabid tuzum hukmdorlari madaniy inqilob shiori ostida o'zbek xalqining yuzlab iqtidorli, milliy ozodlik uchun kurashgan vatanparvar ziyolilarini, istiqlolchi farzandlarini siyosiy qatag'on qildi, ularning nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilar edi. Noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan eski tuzum o'zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Tariximizni soxtalashtirish, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatish, milliy tuyg'ularni qo'pol ravishda kamsitish, ruslashtirish siyosati yuritilardi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarni shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi.

Mustaqilik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zulumlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga yo'l ochildi. Prezidentimiz Islom Karimov jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlarini belgilash va hayotga tadbiq etishga bosh-qosh bo'lmoqda.

**«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar - qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobalarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish - bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda».**

**Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1, 202-bet.**

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy va aqloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu boisdan yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi, dastlabki darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etildi.

Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizga, jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz-Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahoviddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Vatnimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui,

fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e’tiqod qayta tiklandi. Ramozon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro‘z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo‘lib qoldi. O‘zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevostita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi jamiyatning ma’naviy- ma’rifiy ravnaqi yo‘lida xizmat qilmoqda.

Respublikada 15 diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va rasman faoliyat ko‘rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O‘zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o‘zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta’mirlandi va yangi qurildi. 10 ta diniy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda, Toshkent Islom Universiteti ochildi.

Qayta tiklanish o‘n yilligi deb aytish mumkin bo‘lgan davrda O‘zbekiston xududida xalqning ulug‘vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta’mirlandi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda 88 muzey, 40 teatr, 1370 kinoteatr, 6000 dan ortiq kutubxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbek zalqining ming yillar davomida shakllangan insonparvar urf-odatlari va an’analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab asralmoqda va boytilmoqda. Maqomchilar, to‘y-marosim qo‘shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o‘nlab ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamera musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlar bo‘lib o‘tmoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan milliy istiqlol g‘oyasi, uning maqsadi va vazifalari ishlab chiqildi va xalqimizga singdirilmoqda. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga, millati va e’tiqodidan qat’iy nazar barcha fuqarolarni birlashtirishga, bunyodkorlik ishlariga safarbar etishga ko‘maklashmoqda.

Istiqlol yillarida maorif, fan, madaniyat, sog‘likni saqlash sohalarini rivojlantirish borasida katta tadbirlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar boqchalari, yangi tipdagi maktablar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmoqlari shakllandi. 1997 yilgacha Respublikamizda 238 litsey, 136 gimnaziya va ko‘plab kollejlar tashkil etildi. Abiturentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg‘or usullari joriy etildi.

Biroq ta’lim sohasida hali jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog‘lanmagan, o‘quv jarayonining moddiy texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolda edi. Ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilmagan, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash shakllantirilmayotgan edi. Shu boisdan ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni taraqqiy topgan davlat darajasiga ko‘tarish zarur edi.

Prezidentimiz Isloa Karimov tashabbusi bilan ta’limni tubdan isloh qilish yo‘llari ishlab chiqildi. 1997 yil 27 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xolos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dastaur ro‘yobga chiqmoqda. Yoshlar umumiy o‘rta ta’limni 9 yillik maktablarda oladilar, yana uch yil davomida yangidan tashkil etilgan akademik litseylar va kasb-xunar kollejlarida o‘rta maxsus bilim va kasb-hunar o‘rganadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001 yilda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash millat dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi yakunlandi.

2001 yilda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi. Ularda 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9661 ta umumta'lim maktablarida 440762 nafar o'qituvchi 5.992.364 o'quvchiga ta'lim-tarbiya bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha 23 ta o'quv fanidan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi. 2000-2001 o'quv yili natijalariga ko'ra 552.084 nafar o'quvchi 9-sinfni, 375.853 nafar o'quvchi 11-sinfni tugatdilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdir. 1998-2000 yillar davomida 160 ming nafar o'quvchiga mo'ljallangan 46 ta akademik litsey va 260 ta kasb-hunar kollejlari yangi qurilish va tubdan rekonstruktsiya qilish yo'li bilan tashkil etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 150 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mevasi bo'lgan mazkur o'quv maskanlarida 69.346 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. O'quvchi yoshlarga 11312 nafar o'qituvchi, 2377 nafar ishlab chiqarish ustasi ta'lim-tarbiya bermoqda, kasb-hunar o'rgatmoqda. Ulardan 67 nafari fan doktori, 540 nafari fan nomzodidir. 20 ta umumta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, akademik litseylarining 4 ta yo'nalishi bo'yicha, kasb-hunar kollejlarida kadlar tayyorlash bo'yicha 185 ta tarmoq standartlari ishlab chiqildi va tajriba sinovidan o'tmoqda, o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etilmoqda. 36 nomdagi asosiy darsliklar nashr etildi. 2001 yilda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini 4890 nafar ilk "qaldirg'och"lar bitirdilar.

O'zbekistonning yuksalib borayotgan kuch va quvvati, salohiyati sport maydonida erishayotgan g'alabalarida ham yaqqol ko'rinmoqda. O'zbekistonning sport majmuasi 46 mingdan ortiq turli inshoatlardan - o'yingohlar, sport zallari, maydonlar va hovuzlardan iborat. 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, Osiyo va Jahon musobaqalarida qatnashib, 3000 mingdan ortiq oltin, kumush va bronza nishonlarini qo'lga kiritdilar.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, odamlarning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgardi. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlandi, aholining faolligi oshdi, mamlakatimizning kelajagiga ishonchi mustahkamlandi.

Demokratik islohotlar natijasida erishgan katta yutug'imiz-bu umumiy xonadanimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir, odamlarimiz tomonidan bu qadriyatlarning beqiyos ahamiyatini anglab etayotganidir.

Jamiyat ma'naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bugungi kunda ham mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Yurtboshimiz o'zining "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush - pirovard maqsadimiz" ma'ruzalarida islohotlarning yangi bosqichida ma'naviyat sohasidagi vazifalarni asoslab berdi.

«Ma'naviyat sohasidagi eng asosiy vazifamiz milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir».

I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimizdir, 24-25 betlar.

Ma’no-mazmuni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiluvchi milliy g‘oya, milliy mafkura kontseptsiyasini yaratish va odamlar tafakkuriga singdirish butun jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo‘layotganligi, ko‘p narsalarni mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar hal qilishi mumkinligi, O‘zbekistonda ham ba’zi yoshlarni yo‘ldan chalg‘itadigan diniy ekstramizm xavfi mavjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. 80-yillarning oxirlarida mamlakatimizga o‘zini «do‘st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko‘rsatib, go‘yo islom dinining sofligi uchun kurashga «da’vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma’lum. Ular muqaddas islom dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bizga begona bo‘lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o‘ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog‘iga tortib ulgurishdi ham. Namangan va Toshkentda sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo‘lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O‘zbekistondagi bir to‘dasi ekani oshkor bo‘ldi.

Bunday mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?

«Buning yo‘li - odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash… Farzanlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur».

I.A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokorlar» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.

Donishmand xalqimizning mustahkam irodasi mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda, qaltis sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tishda biz uchun kuch-qudrat manbai va ishonch bag‘ishlaydi.

Sinov savollari.

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?
2. Mustaqillik iqtisodiyot bobida qanday imkoniyatlar yaratdi?
3. O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishda qanday yo‘lni tanladi?
4. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
5. Kichik xususiylashtirish qachon o‘tkazildi, qanday natijalar berdi?
6. O‘rta va yirik korxonlarni xususiylashtirish haqida so‘zlab bering.
7. Kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Agrar islohotlarning natijalari haqida so‘zlab bering.
9. Narxlarni erkinlashtirish qanday amalga oshirildi?
10. Bozor infratuzilmasining yaratilishi haqida so‘zlab bering.
11. Chet el sarmoyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilishi haqida nimalarni bilasiz?
12. O‘zbekistonning yoqilg‘i mustaqilligiga erishishini tushuntirib bering.
13. Mashinasozlik sanoatida qanday yirik korxonalar qurildi?
14. Engil va to‘qimachilik sanoatida qanday yangi korxonalar barpo etildi?
15. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
16. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati va amaliyoti haqida so‘zlab bering.
17. Jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish borasidagi tadbirlar haqida so‘zlab bering.
18. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tadbiq etilishi va natijalari haqida so‘zlab bering.

## 17-mavzu: O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi

**REJA:**

1. XXI asr bo‘sag‘asida dunyo. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni.
2. O‘zbekistonning mustaqil tashqi siyosati. Uning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.
3. O‘zbekiston va MDH: ko‘p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi
4. O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o‘zaro aloqalari va hamkorligi.

**Adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2004.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida… T.: O’zbekiston, 1997, 3-33, 296-323-betlar.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: O’zbekiston, 2009 y.
4. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006, 458-498-betlar.
5. Usmonov Q. O’zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. -T.: Moliya, 2003, 4-82 betlar.
6. O’zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O’zbekiston tarixi. –T .: Sharq, 2000, 496-552 betlar.
7. Murtazaeva R.X. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: 2003, 614-640-betlar.
8. Usmonov Q., Burxonova S., O’zbekiston: 15 bunyodkorlik yillari. -T.: Iqtisod-moliya, 2006.


### 1. XXI asr arafasi va boshlarida xalqaro ahvol. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.

**XXI asr bo‘sag‘asida jahon tapaqqiyotininr mazmuni tubdan o‘zgardi. Ilgari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan-SSSR va AQSh etakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki sistemaning, blokning o‘zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda "sovuq urush" siyosati hukmronlik kilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.**

XX asrning 90-yillariga kelib, sotsialistik dunyoning echakchisi bo‘lgan ulkan imperiya-SSSR parokanda bo‘ldi, sotsialistik sistema xaloqatga uchradi. Varshava Shartnomasi bloki tarqalib ketdi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina SSSR ning parchalanishi natijasida 15ta mustaqil davlat, jumladan mustaqil O‘zbekiston davlati bunyod etildi.

Xalqaro vaziyatda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lsada, "sovuq urush" siyosati barham topsada, dunyo hamon mo‘rt, murakkab va muammoli bo‘lib turibdi. Dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qoldi. Turli darajada rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va ziddiyatlar yanada o‘sdi. Pivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblangan tabiiy resurslarini rivojlangan mamlakatlar o‘z qo‘liga olishga, nazorat qilishga intilishi kuchaydi. Dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, axolisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar mavjud.

Bir qator mintaqalarda, xatto bir mamlakat fuqarolari o‘rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib mojarolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Mintaqaviy mojarolar tufayli 30 millionga yaqin odam o‘zi yashaydigan joylarni tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo‘lgan.

Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm ham tahdid qilmoqda. Dinni siyosiylashtirish natijasida vujudga kelgan terroristlar, ekstremistlar, shu jumladan islom fundamentalistlari odamlar o‘rtasida "xaqiqiy" va "soxta" dindorlik belgilari bo‘yicha qarama-qarshilik chiqarishga, millatlarni parchalashga intiladilar. Ular davlatlarni islomlashtirishga, islom tsivilizatsiyasi bilan boshqa tsivilizatsiyalar o‘rtasida yangi qarama-qarshiliklar, mojarolar keltirib chiqarishga urinmoqdalar. Diniy ekstremistlarning qadimgi islom g‘oyalari va an’analarini qayta tiklash bayrog‘i ostida qilayotgan terrorchilik, suiqasd uyushtirish ishlari dunyo ahlini tashvishlantirmoqda.

"Sovuq urush" siyosatiga chek qo‘yilishi natijasida yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo‘lsada, bu turdagi ommaviy qirg‘in qurolining ko‘p miqdorda saqlanayotganligi,yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar sonining ko‘payib borayotganligi (Hindiston, Pokiston) dunyo ahlini tavishlantirmoqda. Jahon miqyosida atrof-muhitning ifloslanganligi, nosog‘lom ekologik vaziyat, jumladan Markaziy Osiyodagi ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar insoniyat boshiga xavf solib turibdi. Tobora kuchayib borayotgan korruptsiya, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm, terrorchilik, giyohvandlik, yashirin kurol oldi-sottisi butun dunyoni, insoniyatni tashvishlantirmoqda. Bularning barchasi dunyo hali ham ilgaridek mo‘rt bo‘lib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab typran olam g‘oyat murakkab va muammoli bo‘lib keldi, hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda butun insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bog‘liq bo‘lib qoldi. Xalqaro maydondagi har bir siyosiy tanglik, mojora barcha mamlakatlar va xalqlar manfaatiga daxldor bo‘lib qoldi. Hatto ayrim olingan mamlakat ichkarisidagi nizoli jarayonlarni, urushlarni bartaraf etish ham jahon hamjamiyatining vazifasiga aylandi.

Davrimizning muhim xususiyati aholi talab extiyojlarining g‘oyat darajada o‘sganligi bilan belgilanadi. Alohida olingan bir mamlakat resurslari bilan uning aholisi talablari, ehtiyojlarini qondirib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan mamlakat uchun ham boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilish ob’ektiv zaruriyat bo‘lib qoldi. Shu boisdan barcha mamlakatlar, xalqlar bir-biri bilan bog‘langan, o‘zaro aloqadadir.

Hozirgi dunyoda biron-bir mamlakat, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi ham, boshqalardan ajralgan hudud emas. Sayyoramiz yaxlit va bo‘linmasdir.

O‘zbekiston xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish nuqtai nazaridan va o‘z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jug‘rofiy-strategik imkoniyatlarga ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li O‘zbekiston xududi orqali o‘tgan. Bu erda savdo yo‘llari tutashtan, tashqi aloqalar hamda typli madaniyatlar tutashib bir-birini boyitgan. Bugungi kunda ham Evropa va Osiyoni bog‘laydigai yo‘llar Markaziy Osiyodan, uning o‘rtasida joylashgan O‘zbekistondan o‘tadi.

Markaziy Osiyoda jug‘rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o‘rin tutgan O‘zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta’minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlariga ega. Mintaqa doirasida manfaatli munosabatlar o‘rnatish imkoniyati O‘zbekiston orqali ochiladi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan. Aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo‘shnilaridan ma’lum darajadan ustun turadi. Tabiiy-iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral-xom ashyo zahiralari va strategik materiallarga ega, dexqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o‘zini ta’minlashga qodir. O‘zbekiston sanoatning bazaviy va zamonaviy tarmoqlariga ega, o‘zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta’minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega. Yurtimizning jahonga mashhur boy ma’naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat tsivilizaliyasida salmoqli o‘rin egallab, dunyoning ma’naviy va siyosiy jarayonlariga ta’sir o‘tkazib kelgan.

Jug‘rofiy-siyosiy jihatdan O‘zbekistonga qiyinchiliklar tug‘diruvchi omillar ham mavjud. O‘zbekiston o‘zining jug‘rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan mintaqada joylashgan. O‘zbekiston fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi xavzasi va Tarim xavzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazida

joylashgan. Shu boisdan bu xududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida koʻpgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari oʻzaro toʻqnashmoqda.

Yana bir noqulaylik shundan iboratki, Oʻzbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar kurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi terrorizm, etnik murosasizlik, narkobiznes, ichki mojaro avj olgan Afgoniston kabi beqarorlik oʻchogʻi bilan chegaradosh.

Sovetlar davrida Markaziy Osiyoda, jumladan Oʻzbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirildi. Janubiy yoʻnalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmagan. SSSR parchalangach, kommunikatsiyalar muammosi Oʻzbekiston uchun yanada keskinlashdi. Oʻzbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz bandargohlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yoʻli qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Bu bir necha davlatlar hududidan oʻtadigan olis yoʻl boʻlib, Oʻzbekistonning iqtisodiy aloqalarini chegaralaydi, yuk tashishini qimmatlashtirib, mahsulotlarni raqobatga bardosh berolmaydigan qilib qoʻyadi.

Suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolar, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun nokulaylik omildir. Shuningdek mustamlakachilik davrida yuritilgan Turkistonni boʻlish, millat va elatlari ustidan hukmronlik qilish siyosatining asoratlari hozirgacha tashvishli omil hisoblanadi.

Mustaqil Oʻzbekistonda bu qiyinchiliklarni bartaraf etish, jugʻrofiy-siyosiy Prezident Islom Karimov oʻzining "Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yoʻli asos qilib olindi.

Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Mafkuraviy qarashlardan qati nazar hamkorlik uchun ochiqlik,umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahlsizligini xurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid kilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maksadida ittifoqlar tuzish, hamdoʻstliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va oʻzaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish xisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos boʻlib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat cifatida tezda tan olinishini ta’minladi. Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar oʻrnatildi. Toshkentda 40 dan ortiq mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy,

Hindiston Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek Oʻzbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat koʻrsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda - AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda Oʻzbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

## 2. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq jahon hamjamiyatiga qo‘shilish xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘lini tanladi va og‘ishmay shu yo‘ldan bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining xohish irodasi va taklifiga ko‘ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to‘la teng huquqli a’zosi bo‘ldi.

***Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo‘lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentyabrda qilgan ma’ruzasi O‘zbekistonni jahonga qo‘hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O‘zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa macalalap bo‘yicha bir qator takliflarni o‘rtaga qo‘ydi.***

1993 yil fevralda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi va BMT raxbarlarining sa’y-harakatlari natijasida BMT ning Toshkentdagi vakolatxonasi mamlakatimizda BMT ning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo‘yicha oliy ko‘mita komissari, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqiyoti dasturi, singari ixtisoslashgan muassasalarni o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

1994 yil oktyabrning boshlarida BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo‘lgan jahon sayyohlik tashkilotining "Ipak yo‘li" xalqaro yig‘ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O‘zbekistonning mavqeini yanada ko‘tardi.

O‘zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yil 15-16 seentyabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan Toshkent kengash-seminari bo‘lib o‘tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtarishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o‘z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustaxkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarni barpo etishga chaqiradi.

O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro kurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o‘z ifodasini topdi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoni Yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g‘oyasini ilgari surgan edi. O‘zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

1997 yil 15-16 sentyabr kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo -yadro qurolidan xoli zona" mavzuida xalqaro konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

1994 yil dekabrda respublikamizda YuNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo‘lib, tarkibiga ta’lim, fan, madaniyat va axborot soxasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a’zo bo‘ldi.

YuNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o‘rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo‘li - muloqot yo‘li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. YuNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish xalqaro instituti tashkil etildi. YuNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O‘zbekistondagi rasmiy tashrifi chog‘ida institut tantanali pavishda ochildi.

O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoki va boshqa tashkilotlarning a’zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko‘maklashmoqda. Xalqaro savdo markazi (YuNKTAD), ta’riflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

EXHT ning 1996 yil dekabrda Lissabonda bo‘lgan Sammitida XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish xususida munozara bo‘ldi. O‘zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog‘ etkazib berishni to‘xtatish, EXHT ning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma’qullandi va Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi.1999 yil noyabr oyida bo‘lgan EXHTning Stanbul sammiti Islom Karimovning terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ham ma’qullandi.

O‘zbekiston ko‘pgiina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Evropa ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi tashkiloti, qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yil fevral oyida O‘zbekiston va Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar bo‘ldi. Shu yil iyul oyida Florentsiya shahrida Evropa Itgifoki bilan O‘zbekiston o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim imzolandi. Bu xujjat O‘zbekiston, Evropa Ittifoqi va unga a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo‘lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena Konventsiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar xaqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta’sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo‘llashni taqiqlovchi konventsiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik xaqidagi shartnomaga qo‘shilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo‘shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko‘tarildi.

### 3. O‘zbekistonning mustao‘il davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari bilan hamkorligi.

**1991 yil 8 dekabrda Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belorus rahbarlari - B .Eltsin, L. Kravchuq, S. Shushkevichlarning uchrashuvi bo‘ldi. O‘sha kuni Belovejskoe Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ni tuzish to‘g‘risida Shartnoma imzoladilar. Shartnomada SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to‘xtatiladi, deb e’lon qilindi.**

Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari 1991 yil 13 dekabrda Ashgabadda uchrashdilar va Minskda imzolangan MDH xaqidagi Shartnoma munosabati bilan vujudga kelgan ahvolni muhokama qildilar. Uchrashuvda Bayonot qabul qilindi. Bayonotda MDH etnik printsip asosida yoki insonlar huquqini buzish asosida qurilmasligi kerak, deyilgan edi. Besh davlat boshliqlari MDHga, uni ta’sis etuvchilar maqomida kirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

1991 yil 21 dekabrda Almatida Rossiya (B.Eltsin), Ukraina (L. Kravchuk), Belorus (S.Shushkevich), Qozog‘iston (N.Nazarbaev), O‘zbekiston (I.Karimov), Qirg‘izisgon (A.Akaev), Tojikiston (R.Nabiev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo‘ldi. O‘sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoe Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, "Teng huquqli va

ahdlashayotgan oliy tomonlar" maqomida MDH muassisi bo‘ldilar. Kengashda Almati Deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

- hamdo‘stlik qatnashchilarining o‘zaro aloqalari ular o‘rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar, hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida foliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;
- MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;
- xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo‘mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;
- MDH ochiqdir, uning barcha a’zolari roziligi bilan sobiq SSSR ning a’zolari va boshqa davlatlar ham unga qo‘shilish mumkin;
-umumiy iqtisodiy makonni, umumevropa va Evropa-Osiyo bozorlarini vujudga keltirishda, rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;

MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to‘xtatildi.

1992 yil 9 fevralda Moskvada MDH davlat boshliqlarining navbatdagi kengashi bo‘lib, unda quyidagi hujjatlar imzolandi:

- Ekologiya va tevarak atrofdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi o‘zaro aloqalar haqida bitim;
- Bir-birlarining hududlaridan yuklarni bemalol o‘tkazish haqida bitim;
- Gidrometereologiya sohasidagi o‘zaro aloqalar haqida bitim;
- Temir yo‘l transportida yo‘lovchilar va yuk tashishning yangi yagona ta’riflari haqida ahdnoma.

1992 yil 20 martda Kievda MDH davlat boshliqlarining uchrashuvi bo‘ldi. Unda SSSRning mulki haqida, davlat arxivi, qarzlari, SSSR Davlat banki va boshqa masalalar muhokama qilindi. Kiev uchrashuvida davlatlarning chegaralarini va hamdo‘stlikning dengiz iqtisodiy zonalarini qo‘riqlash haqida bitim imzolandi.

1992 yil 15 may ko‘pi Toshkentda MDH mamlakatlari rahbarlarining navbatdagi kengashi bo‘lib o‘tdi.

Toshkent Kengashida bir qator hujjatlar imzolanadi, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy axvol va bu sohadagi hamkorlik haqida bitim;
- havo bo‘shlig‘idan foydalanish haqida bitim;
- kosmik dasturlarini bajarishga pul ajratish to‘g‘risida bitim;
- chegara qo‘shinlarini pul bilan ta’minlash to‘g‘risida bitim;
- qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida bitim va boshqalar.

1993 yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo‘ldi. Unda MDH ning Nizomi imzolanadi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi.

1993 yil 24 sentyabrda Moskvada MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo‘ldi. Unda muhim masala - MDH doirasida iqtisodiy ittifoq barpo etish masalasi muhokama etildi va iqtisodiy ittifoqfni tuzish haqidagi shartnoma imzolandi.

1994 yil 21 oktyabrda Moskvada MDH davlat boshliqlarining Kengashi bo‘lib o‘tdi. Kengashda Iqtisodiy ittifoqning Davlatlararo iqtisodiy qo‘mitasi (DIQ) tuzildi.

1991-2001 yillarda MDH davlat boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo‘lib, ularda hammasi bo‘lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. Hamdo‘stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bormoqda. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog‘ozda qolib ketdi. Bunga sabab tomonlarning muammolarni echishni istamayotganida emas, aksincha, o‘zaro hamkorlik teng huquqli asosda, har bir mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda yuritilishiga intilayotganligi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo‘stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Ikki tomonlama hamkorlik

deganda ikki davlat o‘rtasidagi, ya’ni O‘zbekistonning boshqa bir mamlakat bilan davlatlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish va chuqurlashtirish jarayoni tushuniladi.

O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. 1991 yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi. Uchrashuvda I.Karimov va B.Eltsin ikki davlat o‘rtasida muhtor vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

1992 yil 30 mayda I.Karimov boshliq O‘zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Shartnoma ikki davlat o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi, elchixonalar ochildi.

O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda I.Karimovning 1992 yil avgust oyida Kievga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 25 avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov va Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Shu safar chog‘ida ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risida protokol va savdo iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi.

1995 yil 20-21 iyun kunlari Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma O‘zbekistonda bo‘ldi. Ikkala davlat Prezidentlari tomonidan O‘zbekiston-Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish yo‘llari to‘g‘risida Deklaratsiya, O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risida shartnomani imzoladilar.

**O‘zbekistonning Belorus, Moldova, Gruziya Litva, Latviya va Ozarbayjon respublikalari bilan ikki tomonlama davlatlararo aloqalari rivojlanib bormoqda.**

### 4. Markaziy osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlari o‘rtasida qardoshlarcha aloqalar.

**O‘**zbekiston tashqi siyosatining ta’sirli yunalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mintaqadagi beshta davlat o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

O‘zbekiston rahbariyati bu mintaqadagi davlatlar, xalqlar o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish va mustahkamlash choralarini qadamma-qadam ko‘rib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990 yil iyunda Almati shahrida bo‘lib o‘tdi. Unda bu davlatlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik o‘rnatilish zarurligi asoslab berildi. Uchrashuv Sovet Ittifoqi hali mavjudligi sharoitida, uning ahvoli tobora yomonlashib borayotgan, xalq xo‘jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlanayotgan, narx-navo qimmatlashib borayotgan sharoitda bo‘lgan edi.

Shuning uchun ham Markaziy Osiyodagi besh davlat iqtisodiy tanglikdan chiqish uchun resurslarni birlashtirish zarur degan xulosaga keldilar. Beshta respublika davlat boshliqlari I.Karimov N.Nazarbaev, A.Masaliev, Q.Mahkamov va S.Niyozovlar O‘rta Osiyo va Qozog‘istoi xalqlariga murojaatnoma hamda respublikalar rahbarlarining Bayonoti nomli hujjatlarni imzoladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi 1991 yil 13-15 avgust kunlarida Toshkent shahrida bo‘ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda o‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalararo Maslahat Kengashini tuzish to‘g‘risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining vazifasi beshta mamlakat o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o‘tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi

kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondoshuvlarni ishlab chiqishdan iborat deb belgilandi.

1993 yil 4 yanvarda I.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Prezidentlarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyo atamasi tilga olindi va bundan keyin Markaziy Osiyo deganda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston tushuniladigan bo‘ldi. Uchrashuv qatnashchilari mintaqa davlatlaridagi siyosiy va iqtisodiy ahvolni muhokama qildilar. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar, savdo-iqtisodiy bitimlar qanday bajarilayotganligi tahlil etildi.

Toshkent uchrashuvida Orolni saqlab qolish xalqaro jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Jamg‘arma majlislarini Qizil O‘rda, Nukus va Toshhovuzda o‘tkazish zarur deb topildi.

1993 yil mart oyida Qizil O‘rdada Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo‘lib o‘tdi. Anjumanda Orol dengizi va Orolbo‘yi muammolarini hal etish, Orol mintaqasi ekologiyasini sog‘lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash sohasida birgalikda qilinadigan harakatlar to‘g‘risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug‘ullanuvchi Davlatlararo kengash tuzildi.

1994 yil 16 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida yagona iqtisodiy makon to‘g‘risida shartnoma imzolandi. 1994 yil 30 aprelda Cho‘lponota shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to‘g‘risida uch tomonlama shartnoma imzolandi. Uch qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik yangi pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston, va Qirg‘iziston Prezidentlarining 1994 yil iyul oyi boshida Almati shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo‘ldi. Unda o‘zaro integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tuzish to‘g‘risida bitimlar imzolandi. Tomonlar Davlatlararo Kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek Bosh Vazirlar Kengashi, Tashqi ishlar Vazirlari Kengashi, Mudofaa Vazirlari Kengashini ta’sis etdilar. Bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarining paydo bo‘lishi O‘zbekiston, Qozog‘iston, va Qirg‘iziston o‘rtasida tuzilgan Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatining huquqiy zaminini mustahkamladi.

1995 yil 14 aprel ko‘ni Chimkentda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining uchrashuvi bo‘ldi. Uch davlat boshlig‘i Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasini jadallashtirish bo‘yicha Hujjat (Kommyunike) imzoladilar. Bu borada 2000 yilgacha dastur ma’qullandi. Uchrashuvda Davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki ("Tsentrazbank") ning axborotlari tinglandi.

Uch davlat Prezidentlari mintaqa barqarorligini ko‘zlab, BMT xomiyligida tinchlikni ta’minlovchi birlashgan batalion tuzish maqsadga muvofiq deb ta’kidladilar va o‘z hukumatlariga, mudofaa vazirlariga bu borada Davlatlararo kengashga aniq takliflar kiritishni topshirdilar. Uch davlat o‘rtasidagi integratsiya dasturida 53 ta loyihalar ishlab chiqildi. Ularni hayotga tadbiq etish borasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqkiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik qilmoqda. "Tsentrazbank" uch mamlakat hududidagi 10 dan ortiq loyihani jumladan O‘zbekistondagi "Farmsanoat” kontsernini, Qozog‘istonda tog‘-kon sanoatini, Qirg‘izistonda elektr dvigatellari ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalarni mablag‘ bilan ta’minlamoqda.

1997 yil 9-10 yanvar kunlari Bishkekda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, davlat boshliqlarining kengashi bo‘lib, unda uch qardosh davlatlar o‘rtasida abadiy do‘stlik haqida shartnoma imzolandi. Bu hujjatni o‘zbek, qozoq, qirg‘iz xalqlarining orzu-niyatlari o‘z ifodasini topdi. Mazkur shartnoma uch qardosh davlat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo‘naltirgan.

1997 yil 12 dekabr kuni Qozog‘iston Respublikasining yangi poytaxti - Aqmola shahrida Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston Prezidentlarining kengashi bo‘lib o‘tdi. Kengashda uch mamlakat o‘rtasida energetika, suv zahiralaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta’minoti,

kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zahiralarini o‘zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo‘yicha xalqaro konsortsiumlar tuzish to‘g‘risida muzokara bo‘ldi. Prezidentlar xalqaro konsortsiumlar tuzish bo‘yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari kontseptsiyasini ma’qulladilar.

2000 yil 20-21 aprel kunlari Toshkentda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda mintaqaviy hamkorlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalar muhokama qilindi. To‘rt mamlakat rahbarlari «Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to‘g‘risida shartnoma» imzoladilar. Gap shundaki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik sohasida 200 dan ortiq hujjat imzolangan bo‘lsada, ular orasida mazkur masalaga tegishli hujjat yo‘q. Bunday hujjatning imzolanishi Markaziy Osiyodagi bugungi vaziyatdan kelib chiqqan muhim qadam bo‘ldi. To‘rt davlat Prezidentlari xalqaro terrorizmga siyosiy va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda kurash olib borishga kelishib oldilar.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo hamdo‘stligi mamlakatlari o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalari ham rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o‘rtasidagi qadimiy do‘stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib "Turkiston - umumiy uyimiz" degan g‘oyani ilgari surdi. Mintaqa jamoatchilik vakillarini birinchi navbatda, ijodkor ziyolilar - yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e’tiborini Turkiston tuyg‘usini - tarixiy birlik tuyg‘usini qaytadan tiklashga qaratdi.

Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog‘lom kuchlar bu g‘oyani qo‘llab-quvvatladilar. "Turkiston - umumiy uyimiz" deb nom olgan jamoatchilik harakati tashkil topdi.

1995 yil 21 noyabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida "Qardosh xalqlar uchrashuvi" mavzusida xalqaro qurultoy bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda "Turkiston umumiy - uyimiz" harakatini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan olam aro mashhur bo‘lgan qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ma’ruza qildi. Ma’ruzachi va so‘zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o‘tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqbolda tug‘ilajak avlodlar bog‘liqligi, mintaqa yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg‘usining muqaddasiligi haqida so‘zladilar. Qurultoyda "Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi" tashkil etildi. Chingiz Aytmatov Assambleya Prezidenti, Odil Yoqubov Assambleya vitse-Prszidenti etib saylandi. Assambleyaning qarorgohi Toshkent shahrida bo‘lib, Bishkek va Almatida uning bo‘limlari tashkil etildi.

"Turkiston - umumiy uyimiz" g‘oyasini to‘g‘ri tushunish lozim. Uning tagida Markaziy Osiyo mamlakatlarini birlashtirish yoki ular tepasida turuvchi yangi bir tizimni yaratish kabi maqsadlar qo‘yilayotgani yo‘q. "Turkiston - umumiy uyimiz" deganda barcha turkiy davlatlar hamma turkiy xalqlar nazarda tutilayotgani ham yuq.

Gap Turkiston deb nomlangan siyosiy-jug‘rofiy hudud ustida, hududdagi mamlakatlarning o‘zaro birligini mustahkamlash, ularning xalqlarini yaqinlashtirish haqida bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining har biri o‘z doirasida, o‘z taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib boraveradi.

Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat, san’at, adabiyot va fan namoyandalari o‘rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirish tadbirlari ko‘rilmoqda.

1997 yilda Bishkekda "Mustaqillik vaziyatida ma’naviyat masalasi" mavzusida simpozium bo‘lib o‘tdi. Simpoziumda qardosh xalqlar ma’naviyatining yangi sharoitdagi holati va rivojlantirish muammolari haqida qimmatli fikrlar bildirildi.

Toshkentda 1997 yil aprelda taniqli qozoq adibi Muxtor Avezovning ijodiga bag‘ishlangan "Muxtor Avezov va o‘zbek adabiyoti" mavzusida ilmiy konferentsiya bo‘ldi. 1997 yil may oyida

"Mustaqillik - baxtimiz, toleimiz, kamolimiz" mavzusida mushoira", "Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xalqlari she'riyatining buguni va ertasi" mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi.

1997 yil oktyabrda Assambleya Almatida "Muxtor Avezov va jahon adabiyoti" mavzusida uning 100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya o'tkazdi.

1997 yil oktyabr oyidan boshlab Assambleya tashabbusi bilan 8 sahifalik "Markaziy Osiyo madaniyati" nomli haftalik gazeta o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, rus tillarida chiqmoqda. Bu tadbirlar mintaqa xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda.

### 5. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalari.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab, jahondagi nufuzli davlatlar bilan hamkorlik qilish yo'lidan bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda yaqin va o'rta sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga kirishdi. Negaki, O'zbekistonning ruhi, dini, urf-odatlari va an'analari Osiyodagi musulmon mamlakatlariga yaqindir.

1991 yil 16-19 dekabr kunlari I.Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat - Turkiyada bo'ldi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

1992 yil 27-28 iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat gashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi. Safar kunlarida O'zbekiston Resnublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik printsiplari to'g'risida shartnoma, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Hozirgi kunga qadar O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. O'zbekistonda 2000 yilda Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan 30 ga yaqin qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

1992 yil 12-14 mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning XXR ga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Safar chog'ida hamkorlikning turli sohalari bo'yicha 20 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida, qishloq xo'jaligida hamkorlik to'g'risida, sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida bitimlar bor edi.

1994 yil 18-20 aprel kunlari XXR davlat Kengashining raisi Li Penning O'zbekistonga davlat tashrifi paytida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy tomoni O'zbekistonda tayyorlanayotgan IL-76 TD va IL-114 samolyotlarini harid qiladigan bo'ldi. 1994 yil 24-25 oktyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Xitoyga ikkinchi marta safar qildi va muhim ahamiyatga molik bo'lgan hujjat - «O'zbekiston Resnublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy printsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bayonnoma" imzolandi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida konsullik shartnomasi imzolandi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 78 ta O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi ikki mamlakat o'rtasida hamkorlikning rivojlanib borayotganining dalilidir.

O'zbekiston Sharqning eng rivojlangan mamlakati - Yaponiya bilan ham hamkorlik qilmoqda. 1994 yil 16-19 may kunlari O'zbekiston davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Safar paytida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida munosabatlarning asosiy

printsinlari haqida qo‘shma bayonot, tashki ishlar bo‘yicha munosabatlar haqida hujjat imzolandi. O‘zbekiston delegatsiyasi mashhur Panasonik kontsernida bo‘ldi va uning rahbariyati bilan O‘zbekistonda filial ochishga kelishildi. Respublikamiz shaharlarida Panasonik mahsulotlarini sotish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonda Yaponiyaning dunyoga mashhur «Mitsui va KO LTD», «Mitsubisi korporeyshn», «Sumitoto korporeyshn», «Tomen korporeyshn», «Chori» kabi kompaniyalarning doimiy vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular bilan O‘zbekiston tashqi iqtisodiy vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolangan. Yaponiya hukumati Ko‘kdumaloq neft-gaz kondensati konini o‘zlashtirishda, Buxoroda neftni qayta ishlash zavodini qurishda, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodini ta’mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta’mirlashda o‘z sarmoyalari bilan qatnashdilar.

O‘zbekistonning Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Malayziya, Indoneziya, V’etnam, Kambodja, Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik aloqalari yo‘lga qo‘yildi, iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Amerika Qo‘shma Shtatlari va rivojlangan Evropa mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish va tobora chuqurlashtirish alohida o‘rin tutadi.

***O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi hamkorlik, O‘zbekiston bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo‘lga qo‘yildi. 1992 yil 15-16 fevral kunlari AQSh davlat kotibi Jeyms Bekker O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda birinchi bo‘lib, AQShning elchixonasi ochildi. O‘zbekistonda 2002 yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 300 ta O‘zbek-Amerika qo‘shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko‘rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQShning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog‘ jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi "Zarafshon-Nyumont" qo‘shma korxonasi bor. 28 ta Amerika kompaniya, firma va banki Toshkentda o‘z vakolatxonalarini ochgan.***

O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1996 yil 23-28 iyun kunlarida AQShda bo‘lishi O‘zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog‘onaga ko‘tardi. I.Karimov AQSh Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga dahldor bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Klinton AQSh ma’muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O‘zbekiston bilan qalin munosabatlar urnatishni istayotganini, O‘zbekistonga tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo‘lida yordam berajagini ta’kidladi. I.Karimov bilan B.Klinton uchrashuvi ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarga siyosiy zamin hozirladi.

Mamlakatimiz rahbarining Parij xartiyasini imzolashi respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi, shuningdek, O‘zbekistonning Evropa va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Milliy banki bilan Frantsiyadagi yirik "Kredit Kommersial de Frans" banki o‘rtasida muddoalar haqida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta’minlash ko‘zda tutildi. Taniqli "Elf-akiten" neft-ximiya kontserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurishga kelishildi. Frantsiya va O‘zbekiston o‘rtasida savdo-sotiq hisob-kitoblarini ta’minlab turgan "Kredi kommersila de Frans" banki zavod qurilishini ham mablag‘ bilan ta’minladi. O‘zbekiston bu bankka mablag‘ qo‘ydi, u hamkorlik uchun kafolat bo‘lib turibdi. Ana shu hamkorlik va hujjatlar qatoriga 1994 yil 25-27 aprel kunlari Frantsiya Prezidenti F.Mitteranning O‘zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida imzolangan ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida, O‘zbekiston va Frantsiya o‘rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar, shuningdek havo transporti sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalar qo‘shildi. 1996 yil aprel oyida O‘zbekiston Prezidenti boshchiligidagi davlat delegatsiyasining Frantsiyaga tashrifi chog‘ida

ikki mamlakat o‘rtasida ikki tomonlama soliq olmaslik to‘g‘risida konventsiya hamda moliyaviy Protokol imzolandi.

O‘zbekiston bilan Frantsiya o‘rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy, aloqalar kengayib bormoqda. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda.

O‘zbekiston xalqaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya bilan ham hamkorlik qilmoqda.

1993 yil 22-25 noyabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo‘lishi ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk vokea bo‘ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha Elizaveta P, Bosh vazir J.Meyjor bilan samimiy, ochiq o‘zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Safar samarali bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida shartnoma, sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risida bitim, havo yo‘llarini ochish to‘g‘risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. Mashhur Rotshildlar banki hamda Evropa tiklash va taraqqiyot banki rahbarlari bilan uchrashuvlar bo‘ldi, ular bilan o‘zaro hamkorlik haqida bitimlar tuzildi. Evropa qayta tiklash va taraqqiyot banki O‘zbekistonda oltin qazib olish korxonalari qurish uchun 150 mln. AQSh dollari ajratishga qaror qildi. O‘zbekiston va "Lonro" kompaniyasi o‘rtasida imzolangan oltin biznes haqidagi bitim amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu tadbirlar amalga oshirilmokda. O‘zbekistonning Niderlandiya, Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Evropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o‘rnatildi va kengayib bormoqda. Shveytsariyaning Altendorf shahrida O‘zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo‘ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo‘lib qolmay, O‘zbekistonning Evropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat - Shveytsariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. 1995 yil oktyabrda Jenevada "O‘zbekistonda xususiylashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar" mavzusida konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Shu yil noyabr oyida esa Londonda o‘tgan "O‘zbekistonda biznes" konferentsiyasida iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi. Shtutgardta bo‘lib o‘tgan "Buyuk ipak yo‘li merosi: O‘zbekiston" ko‘rgazmasi O‘zbekiston-ning aql-ziyo sohasida jahonda tutgan o‘rniga va salohiyatiga berilgan katta baho bo‘ldi.

O‘zbekiston Prezidentining Davosda har yili o‘tadigan jahon iqtisodiy anjumanida ishtirok etishi va anjumanda so‘zlagan nutqlari uning ishtirokchilarini, davlat va hukumat boshliqlarini, xalqaro moliya tashkilotlari, yirik banklar va kompaniyalarning rahbarlarini, qolaversa jahon biznesmenlarini O‘zbekiston bilan, uning salohiyati bilan tanishtirdi, O‘zbekistonga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining jo‘g‘rofiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. U mustaqillikni mustahkamlashga, xalq farovonligini va xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. O‘zbek diplomatiyasi xorijiy mamlakatlardan sadaqa so‘rashga emas, ikki tomonlama manfaatdorlikka, insonparvarlikning yuksak va oliyjanob printsiplariga tayanadi. Respublika Prezidenti I.Karimov qaysi mamlakatda bo‘lmasin, avvalo ulardagi ilg‘or tajribani o‘rganishga, foydali narsalarni topishga, ulardan foydalanishga alohida e’tibor beradi.

O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, sarmoyalar kirib kelishi, ko‘plab qo‘shma korxonalarning qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir. Hozirgi kunda respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan 1850 qo‘shma korxona jahondagi 65 mamlakatdan kelgan sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular iste’mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarmoqda, aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Jahondagi 80 dan ortiq xorijiy bank bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatilgan. Ilg‘or mamlakatlar kadrlar tayyorlashda, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo‘lga qo‘yishda, etakchi birjalar bilan aloqalar o‘rnatishda, qonunchilik tajribasini o‘rganishda respublikamizga ko‘maklashmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bobida bir necha o‘n yilliklarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

**Sinov savollari**

1. XX asr oxirlarida jahonda qanday tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. Dunyo tinchligiga qanday omillar havf solmoqda?
3. O‘zbekistonning geosiyosiy imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. O‘zbekiston tashqi siyosatda qanday tamoyillarga asoslanib faoliyat yuritmoqda?
5. O‘zbekiston nima uchun jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lidan bormoqda?
6. O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?
7. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assembleyasining 48-50 sessiyalarida qanday takliflarni ilgari surdi?
8. O‘zbekistonning EXHT bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz? MDH qachon tashkil topdi, unga qaysi davlatlar a’zo bo‘lgan?
9. MDH doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik haqida nimalarni bilasi? O‘zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida so‘zlang?
10. O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasida qanday sohalarda hamkorlik qilinmoqda?
11. Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatining tashkil topishini tushuntirib bering?
12. Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari o‘rtasidagi qardoshlarcha aloqalar haqida so‘zlang?
13. Orol dengizini qutqarish bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
14. O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan abadiy do‘stlik to‘g‘risida tuzgan shartnomalarning mohiyatini tushuntirib bering?
15. O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi aloqalar qanday hujjatlar asosida rivojlanib bormoqda?

**“O’zbekiston tarixi” fani bo’yicha talabalar uchun tarqatma materiallar.**
**«O’zbekiston tarixi» kafedrasi professor-o’qituvchilarining yig’ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.**
**(2011yil 25 avgust, 1-sonli bayonnoma)**

# “O’ZBEKISTON TARIXI” FANI BO’YICHA TALABALAR UCHUN TARQATMA MATERIALLAR.

**1-Mavzu**:O’zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy metodologik asoslari va ahamiyati.

**Reja:**

1. O’zbekiston tarixi predmeti.
2. O’zbekiston tarixini o’rganishning metodologik prinsiplari va manbalari.
3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati

Mustaqil o’rganish uchun tavsiya etiladi:

I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asari .

**Adabiyotlar:**

I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Asarlar 7 jild. T:O’zbekiston. 1998 132-155 betlar

I.A.Karimov. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Asarlar 6 jild. T:O’zbekiston 1998, 324-347 betlar.

A.Sa’dullaev va boshqalar. O’zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. T:Akademiya 2000, 3-8 betlar.

Q.Usmonov va boshqa. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. T: Moliya 2000.

QUsmonov va boshqalar. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. T:Meros, 2002, 6-17 betlar.

**Muqaddima.**

XXI asr bo’sag’asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqea qadimiy O’zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergan voqea sodir bo’ldi. 1991 yil 31 avgust kuni bo’lgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida o’zbek xalqining xohish-irodasi bilan O’zbekistonning davlat mustaqilligi, ozod va suveren davlatni- O’zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e’lon qilindi va Davlat mustaqilligi asoslari to’g’risidagi» Qonun bilan mustahkamlandi. O’zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og’ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nixoyatda qimmatga tushganidan, bu yo’lda katta qurbonlar berilganligidan guvoxlik beradi. Endilikda xalqimizning o’z taqdiri o’z qo’lida, o’z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo’lida astoydil mehnat qilmoqda. Prezident Islom Karimov rahnomoligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar tufayli demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari yaratildi, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllanmoqda. Ma’naviy hayotda uyg’onish yuz berdi, odamlarimizning tafakkuri va hayotga munosabati o’zgardi. Aholi ongida demokratik qadriyatlar shakllanib, uning faolligi oshib bormoqda.

O’zbekiston fuqarolari, xususan, yoshlar qalbiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish, ularda mafkuraviy immunitetini shakllantirishda «O’zbekiston tarixi» fanining o’rni, imkoniyatlari katta. Shu boisdan Respublika Oliy o’quv yurtlarining bakalavriat bosqichida «O’zbekiston tarixi» fanini o’qitish asosiy fanlar qatorida turadi.

**1.O’zbekiston tarixi predmeti.**

Har qaysi mamlakat, har bir xalq o’zining uzoq va betakror tarixiga ega bo’lganidek, O’zbekistonning, o’zbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Qadim zamonlardayoq Turon, Turkiston deb e’tirof etilgan Ona Vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko’ra Xitoy, Xindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhurdir.

O’zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. O’zbekiston xududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo’lib, qariyib 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko’tarilgani jahonga ma’lum.

Vatanimiz tarixi o’zbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo’shganligidan guvohlik beradi. Al-Xorazmiy, Farobiy, al-Farg’oniy, ibn Sino, Beruniy, al-Buxoriy, Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz bilan nafaqat o’zbeklar, butun er yuzi xalqlari faxrlanmoqda. Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shaxrisabz kabi ko’hna shaharlar bugungi kunda jahon miqiyosida ziyoratgohga aylangan. Muqaddas erimiz orqali o’tgan Buyuk ipak yo’li Osiyo va Evropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog’lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixi, xalqimiz o’tmishini «O’zbekiston tarixi» fani o’rganadi.

Tarix - arabcha so’z bo’lib, «tadqiq etish», «tekshirish, voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma’nolarini anglatadi.

Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o’tmishidan bizgacha etib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

O’zbekiston tarixi ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga ko’tarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san’atni yoritadi.

**2.Tarixni o’rganishning metodologik tamoyillari va manbalari**.

Tarixiy voqealarni o’rganishda to’g’ri ilmiy-nazariy metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o’qitish va o’rganish ishlari markscha - lenincha metodologiyaga bo’ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarlardan yoritildi.

Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga - eksplutator va ekspluatasiya qiluvchilar, mulkdorlar va yo’qsillar tarixiga bo’lindi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, buyuk olimlar, yozuvchilar ikkiga: materialistlar va idealistlarga bo’lindi. Dinga e’tiqod qilganlar - idealistlar deb ataldi, ularning ijodiy faoliyatini o’rganish chegaralandi, yosh avlodga ularni xurofat, eskilik sarqitlari deb o’rgatildi. Tarix fani totalitar tuzum tashviqotchisiga, himoyachisiga, kommunistik mafkura xizmatkoriga aylantirilgan edi.

Insoniyat tarixini, tarixiy voqea, xodisalarni to’g’ri yoritishga va o’rganish uchun bir qator nazariy-metodologik tamoyillarga tayanmoq zarur.

Dealektik usul ana shunday tamoyillardan biridir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dealektak jarayondir. Dialektika olam yagona, unda sodir bo’ladigan xodisalar, voqealar umumiy va o’zaro bog’lanishda, uzluksiz harakatda ziddiyatli taraqqiyotda bo’ladi deb ta’lim beradi. Dialektika uzoq tarixga ega, uni bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, ibn Sino, Spinoza, Gegel, Gersen va boshqalarning xizmati yuksakdir. Ular moddiy va ma’naviy dunyoni uzviy bog’liq jarayon shaklida, ya’ni ularni uzluksiz harakat qilib, o’zgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotning ichki bog’lanishda olib o’rganish qoidalarini yaratdilar.

Dealektik metodologiya har qanday mamlakat tarixni, shu jumladan, O’zbekiston tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog’liq holda o’rganishni taqozo etadi. Negaki, har bir xalq tarixida milliylik, o’ziga xos betakrorlik xususiyatlari bilan birga jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog’lanishdadir.

Tarixni o’rganishda tarixiylik prinsipi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni o’z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o’rganishni taqazo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar bilan bog’lab o’rgangandagina mazkur voqea hodisalarning umumiy tarixiy jarayonidagi o’rnini to’g’ri aniqlash mumkin bo’ladi.

Tarixiylik tamoyili xalqning o’tmishini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o’tmish hozirgi zamoni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo’ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo’lgan avlod tarix fani orqali o’tmishini yaxshi bilmog’i lozim. O’tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to’g’ri tasavvur etamiz.

Insoniyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida xususiy mulkchilik kelib chiqadi, keyin urug’chilik jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo’linadi. Har bir ijtimoiy tabaqa o’z manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan bo’lib qoldi.

Ijtimoiy yondashuv tamoyili tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o’rganishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz tarixini o’rganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, xalq an’analari va urf-odatlari, din, islom dinining tarixini, ularning asoschilari faoliyatini taxlil qilish nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak.

Tarixni o'rganishda metodologik tamoyillar bilan bir qatorda farqlarni taqqoslash, mantiqiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sosiologik, tadqiqotlar o'tkazishdan ham foydalanish zarur.

Vatanimiz tarixini o'rganishda uni to'g'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Sovetlar xukmdorligi davrida Vatanimiz tarixini marksistik formasion g'oyaga bo'ysintirilgan holda davrlashtirildi. Barcha xalqlarni tarixi besh davrga: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sosializm va kommunizmga bo'lindi.

XX asr oxiriga kelib butun dunyoda sinfiylik qadriyatlaridan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning, o'zbek xalqining boy, betakror tarixi bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin.

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. O'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri

**Bu davrlarning har biri o'ziga xos, kichik davrlarga bo'linadiki, uni mazkur o'quv qo'llanmaning mundarijasidan ko'rish mumkin.**

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti yo'q bo'lib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo'lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga: moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.

Qadimgi odamlardan mehnat qurollari, tanga pullar, qurol-yaroqlar, uy-joylar, shaharlar, rasmlar moddiy tarixiy manba hisoblanadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar o'z fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqealar, podshox va hokimlarning qonunlari va farmonlari yozma manba deyiladi.

Ajdodlarimizning m.a. VIII-VII asrlardagi hayotini o'rganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan

Vatanimiz tarixiga doir ma'lumotlar Yunon va Rim, chunonchi Gerodod, Arrian, Strabon va boshqalarning asarlaridan, shuningdek xitoy, fors, arab, turkiy manbalarda ham bor.

O'zbek xalqining o'rta asrlardagi hayotini o'rganishda Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Amir Temurning «Temur tuzuklari» kabi nodir kitoblar muhum tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston FAning Sharqshunoslik instituti, Sharq qo'lyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qo'lyozmalar xazinalaridan biri xisoblanadi. Bu erda 40 mingdan ziyod qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud.

**3.Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati.**

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. Prezident Islom Karimov ta'qidlaganidek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashga,yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekani anglashga undaydi».

Insonda tarixiy xotira o'z vatani tarixini, o'z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Yaqin o'tmishda mustamlakachilar ko'pgina xalqlarni, jumladan o'zbek xalqini o'z tarixidan judo qilish, ularni o'z o'tmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, uning bir necha ming yillik boy tarixi soxtalashtirildi.

Mustaqillik sharofati tufayli Vatanimiz tarixi o'z o'rnini topdi, barcha o'quv maskanlarida talabalarga Vatan tarixini o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish - xayotdan judo bo'lish demakdir» degan metodologik ahamiyatga molik so'zlari dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda.

O’z o’tmishini, ajdodlarini tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo’ladi, unda har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O’tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab etgan inson hozirgi zamonni tushunadi, kelajakni to’g’ri tasavvur etadi.

O’zbekiston tarixi talabalarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, xuquqiy davlatchilikni barpo etish, fuqarolik jamiyatni qurish, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o’rgatadi. Bu o’z navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o’z o’rnini to’g’ri belgilashga ko’maklashadi.

**2-mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.**

**REJA:**

5. Ilk davlatlar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
6. Xorazm va Baqtriya - o'zbek davlatchiligining ilk bosqichi. «Avesto».
Turon zaminida vujudga kelgan Yunon-Baqtriya, Qang'a, Davon davlatlari.
7. Kushonlar saltanati va uning mamlakatimiz davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.

**ADABIYOTLAR:**


1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.1.T. "Sharq" 1998.a
2. Abu Rayhon Beruniy. O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar jild. T.: "Fan" 1993.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.6 "Fan" 1993.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000, 25-48 betlar.


**1. Ilk davlatlar vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.**

Mehnat qurollarining takomillanishi natijasida erga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo'lib bordi. Temirning kashf etilishi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning tez o'sishiga olib keldi. Odamlarning daryolarni bo'g'ib, to'g'onlar qurib, kanallar qazib erlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi. O'rgatilgan ishchi hayvonlari qo'shilgan temir tishli omochlar bilan erni haydashning o'zlashtirilishi hosildorlikning oshishini, ko'proq mahsulotlar etishtirishni ta'minladi. Bu odamlar turmushini ancha yaxshiladi, umrini uzaytirdi, aholi son jihatdan ko'payib bordi.

Urug'chilik munosabatlari ham o'zgarib boradi. Ikki urug' a'zolaridan tashkil topgan er-xotin-juft oilalar vujudga keladi.

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishi asta-sekin ortiqcha mahsulotlarni ayirboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqaradi. Jamoa a'zolari ishlab chiqarishning o'zlariga qulay sohasini tanlab oladilar. Shu tariqa dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik ajralib chiqadi. Ayrim ishlab chiqarish jamoalari dehqonchilik bilan boshqalari chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar. Ular o'rtasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash kengayib boradi. Bu o'z navbatida savdogarlar tabaqasini, ilk shaharlarning belgilaridan biri sifatida bozorlarni keltirib chiqaradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tovar ayirboshlash yuz beradi, dastlabki shaharlar paydo bo'ladi.

Arxeologlar Afrosiyob (hozirgi Samarqandning sharqiy chekkasi), Erqo'rg'on va Uzunqir ( Qashqadaryo vodiysi), Ko'zaliqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo) va boshqa qadimiy shaharlar xarobalarini o'rganishgan, ularning qiyofalarini tasvirlashgan. Qadimgi shaharlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ularda saroylar, qal'alar, hunarmandchilik ustaxonalari, bozorlar bo'lgan. Shaharlarni shahar boshliqlari - hokimlar boshqargan.

**2. Xorazm va Baqtriya - o'zbek davlatchiligining ilk bosqichi.**

Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda Batanimiz hududlarida Katta Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan davlatlar vujudga kelib, o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar- Qal'aliqir, Ko'zali- qir, Jonbosqal'a va boshqalar - bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Xorazmiylar dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lib, ular donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug'doy, suli, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo'l-ko'l etishtirganliklari qayd etib o'tiladi. Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki

ko’rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o’ziga xos ko’rkamligi ta’minlangan. Bu ko’hna hudud bag’rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o’tib, saqlanib kelayotgan ko’plab asori atiqalar, shahar-qal’alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog’-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu erdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlar ishlov berilib, yuksak sifat ko’rsatkichiga etganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan. Xorazm zumradi Sharqning bir qator, jumladan, Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlariga ham yuborilgan.

O’rta Osiyoning yana bir boshqa davlati - Baqtriya podshohligi bo’lgan. Uning tarkibiga Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg’oniston shimoli-sharqiy qismi, shuningdek Sug’diyona va Marg’iyona yerlari ham kirgan.

Baqtriyadagi ko’pdan-ko’p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo’lib mamlakatning poytaxti bo’lgan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o’ralgan, unda podshoh qal’asi alohida joylashgan.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o’lkalardan biri bo’lgan, baland bayroqli, go’zal o’lka» sifatida ta’riflangan. Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o’z davrining yirik davlatlaridan biri bo’lganligidan dalolat beradi.

Ktesiy ma’lumoticha, Baqtriyaga qarashli Vaxsh vodiysi obi- hayotga mo’l-ko’lligi, unumdor yerlari ko’p bo’lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog’dorchilik, mevachilik mahsulotlari etishtirishda omilkor bo’lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Erqo’rg’on singari aholi manzilgohlarini o’rganish shuni ko’rsatadiki, bu joylarda o’troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug’ullanganlar.

Baqtriyada oltin, la’l kabi qimmatbaho ma’danlar ko’plab miqdorda qazib olinib, ular tegishli ishlovdan so’ng yurt ehtiyoji uchun, qolaversa, xorijiy ellar uchun tayyor mahsulot holiga keltirilgan. Baqtriya la’liga uzoq Xitoy, Misr, Hindiston singari mamlakatlarda ham talab-ehtiyoj katta bo’lgan.

Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo’lidan ilgarilab borib, o’z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug’ bobokalonlarimiz o’lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular O’zbekiston hududidagi dastlabki davlatchilik tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

O’z mazmun, mohiyatiga ko’ra yakka xudolik, insoniylik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g’oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas «Avesto» olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi. «Avesto» kitobi mil. av. so’nggi ming yillik boshlari va o’rtalarida yashagan hududimizdagi qadimgi xalqlarning o’ziga xos turmush tarzi, xo’jalik mashg’uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari-yu, marosimlari haqida ma’lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir.

«Avesto»da tilga olingan 16 ta yirik hududiy nomlarning 9 tasi O’rta Osiyoga taaluqlidir. Bular Gava (Sug’da), Xvarizam (Xorazm), Bahdi (Baqtriya); shuningdek Hisor, Pomir, Tangritog’ (Tyonshon) tog’lari, chuqur ko’llar - Kaspiy, Orol, Issiqko’l, keng daryolari - Amudaryo va Sirdaryolardir.

«Avesto»da ezgulik, yaxshilik xudosi Ahuramazda tilidan shunday deyiladi: «Men Ahuramazda eng afzal makon va mamlakatlar sirasidan Ayranamvejoni, ...so’ngra sug’dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to’rtinchi bo’lib Baxdini, ...beshinchi bo’lib Mouru va Baxdi oralig’idagi Hisayani...yaratdim» Зardushtra o’z dini zardushtiylik g’oyalarini aholi o’rtasida tashviq-targ’ibot qilgan, bu jarayon nihoyatda qiyin, murakkab kechgan, hududma-hudud sarson-sargardon kezib yurishga majbur bo’lgan.

«Avesto» 21 kitobdan iborat bo’lgan. Abu Rayhon Beruniyning «O’tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ta’kidlanishicha, Eron podshohi Doro davrida «Avesto» to’liq holda 12 ming qora mol terisiga zarhal xarflar bilan bitilgan. Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa istilosi davrida uning buyrug’i bilan zardo’shtiylik ibodat xonalari vayron qilinganidek, muqaddas «Avesto»ning 5 dan 3 qismi ham kuydirib yuborilgan. Keyinroq Parfiya podshohlari Bologez I va Balgash III davrida (I-II asrlarda) «Avesto»ning qolgan-qutgan qismlari to’plangan. Sosoniylar davrida (III- IV asrlarda) «Avesto» qismlari jamlanib, pahlaviy tilida yangidan kitobot holiga keltirilgan. Hozirgacha «Avesto»ning jami 21 kitobidan «Yasna» - « Qurbonlik keltirish», «Bisparat» - «Hamma hukmronlar», «Yasht» - « Qadrlash», «Bidevdat» - «Devlarga qarshi qonun» nomli kitoblari etib kelgan.

«Avesto» ta'limoti bir tomondan, erli qabila, elatlarni turli mahalliy ko'rinishdagi bid'at va xurofotlar ta'siridan xalos bo'lishiga, ikkinchidan, mahalliy etnoslarning chuqur ildiz otib, mustahkamlanib, etnik shakllanishiga va uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonining tobora kengayib, ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi jarayoniga sezilarli turtki berardi.

«Avesto»dagi bosh ma'buda - ezgulik, yorug'lik, yaxshilik, baxt-iqbol xudosi Ahuramazda bilan yomonlik, yovuzlik, qorong'ulik, razolat timsoli - Ahriman o'rtasidagi doimiy murosasiz kurash g'oyasi zardo'shtiylik (otashparastlik) dinining asosiy mazmunini tashkil qiladi. «Avesto»da moddiy dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Er, suv, xavoni bulg'ash, olovga tupirish eng og'ir gunoh sanaladi.

«Avesto» avvalgi dinlarda rasm bo'lgan insonlarni qurbonlik qilishni qat'iyan man etadi va uning daxlsizligini himoya qiladi. Зardo'sht dinida ta'kidlanadiki, odamzod yashashga haqli bo'lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo'qdir.

Зardo'shtiy dinida olov muqaddaslashtirilgan bo'lib, u insonning baxtu-saodati ramzi sifatida ulug'langan.

**3. Turon zaminida vujudga kelgan Yunon-Baqtriya, Qang'a, Davon davlatlari**

**1. Yunon – Baqtriya davlati.**

Batanimiz xalqlarining salavkiylarga qarshi ozodlik kurashi muvaffaqiyatli yakun topgach, O'rta Osiyoning katta hududida Yunon-Baqtriya davlati vujudga keladi. Uning tarkibiga Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi), Sug'diyona (Zarafshon vohasi), hozirgi Afg'onistonning shimoliy, Turmanistonning sharqiy yerlari kirgan. Bu davlatning Yunon-Baqtriya deb atalishining boisi shundaki, uning markazi Baqtriya hududlari edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari edi. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlati unga asos solgan, o'zini shoh deb e'lon qilgan Diadot I, uning o'g'li Diodot II davrlarida bir muncha yuksaladi. Bu jarayon Evtidem I va u boshlab bergan evtidimiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Yunon olimi Yustin Yunon-Baqtriyani ming shaharli davlat deb bejiz ta'riflamagan. Bu davlatning poytaxti Balx shahri bo'lib, u qadimda Baqtra nomi bilan atalgan. Yunon-Baqtriya davlati o'zining pul birligiga ega bo'lgan. Oltin, kumush va misdan kerakli miqdorda tanga pullar zarb etilib muomalaga chiqarilgan. Bu pullarda, shubhasiz, Yunon xudolari – Appolon, Afina, Gelios, Zevs, Gerakl, Poseydon va erli hukmdorlarning tasvirlari aks ettirilgan. Yunon-Baqtriya tangalarining turli davlatlar hududida topilishi - bu mamlakatda savdo-tijoratning o'sganligi, uning xalqaro miqyosda kengayib borganligiga ishonchli dalildir.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib bir qator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergan keskin o'zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi.

**2. Qang' va Dovon davlatlari.**

Batanimiz hududida mil.av. III asr boshlarida vujudga kelib milodning I-II asrlarida o'zining yuksak ravnaqiga erishgan mustaqil davlatlardan biri-bu Qang' yoki Qang'a davlatidir.

Qang' davlatiga saklar asos solishgan. Qang' davlati mil.av.III asrda Sirdaryoning O'rta oqimi hududlarida (xususan Toshkent vohasi va unga tutash tog'li va cho'lli zonalarda) tashkil topgan.

Qang' davlati o'z qo'shnilari - Dovon, Qashg'ar, YOrkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da'vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo'lganda o'z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Qang'a aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ular asosan o'troq hayot kechirganlar. Aholining ma'lum qismi ko'chmanchilik bilan shug'ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Chunonchi, Toshkent vohasida boshoqli, dukkakli o'simliklar ko'p miqdorda o'stirilgan, shirin-sharbat mevalar etishtirilgan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmanchilik rivoj topgan. Mahaliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayzalar va b.), xo'jalik asbob-uskunalariga talab - extiyoj katta bo'lgan.

**Dovon yoki Parkana** nomi bilan mashhur bo'lgan davlat Batanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Фaqat Xitoy yozma manbalarida ko'rsatilishicha bu davlat mil. av. III-II asrlarda mavjud bo'lgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham Dovonning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Dovon hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda erli mirishkor aholi sholi, bug'doy, paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari etishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsay, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Moylisoy, Ulug'nor, Йilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini nisbat berish mumkin. Xitoy sayyohi vodiyda uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o'tkir vinolar tayyorlash yuksak darajada yo'lga qo'yilganligiga alohida urg'u beradi. Dovondagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati - bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeining alohidaligidir.

## 4. Kushonlar saltanati va uning mamlakatimiz davlatchiligi tarixida tutgan o'rni

Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagina emas balki butun antik dunyo tarixida mashhur bo'lgan Rim, Parfiya, Xan (Xitoy) imperiyalari safidan mustahkam joy olgan Kushonlar saltanati insoniyat цivilizaцiyasi tarixida o'ziga xos munosib o'rin egallaydi. Xitoy makbalarida ta'kidlanganidek yuechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar: Guyshuan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Xuanmi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig'i Kujula Kadfiz (Kioцzyukyu) barcha yuechji qabilalarini birlashtiradi va butun baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi.

Kadfiz 1 davrida zarb etilgan tangalarda «Kujala Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlar uchraydi. Uning o'g'li Bima Kadfiz podsholigi davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib shimoliy Hindistoning bir qator muhim hududlari egallanadi. Bima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomalaga chiqartiradi. Bu esa halqaro savdoda Kushonlar davlatining obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Uning din sohasida o'tkazgan islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va dahlsizligi saqlanib qoldi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz koldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yoxud elatlar hayoti misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Batanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik, haykaltoroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlarining yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'hna Tuproqqal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Kushonlar davri madaniyatining muhim katta yutuklaridan biri shundaki, bunda turli qutb va mintaqada yashagan xalqlarning madaniyatlari o'zaro yaqinlashib, bir-birlarini to'ldirib, boyitib borgan. Bu esa ularning bir birlari bilan turli-tuman sohalarda yaqindan hamkorlik, hamjihatlik qilishlariga keng yo'l ochgan, umumiy yuksalishiga turtki bergan.

**3-mavzu. O’zbek xalqining etnik shakllanishi**

**REJA**

5. Urug’, qabila, elat, xalq, millat tushunchalari. Turonzaminda turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi.
6. Vatanimiz hududida kechgan etnik jarayonlar. O’zbek xalqining etnik shakllanishi.
7. XV asr oxiri XVI asr boshlarida o’zbek xalqining etnik tarikibida yuz bergan o’zgarishlar. «O’zbek» atamasi va uning keng yoyilishi.
8. Mustaqillik yillarida millatlararo do’stlik va hamjihatlikning mustahkamlanishi.

**Adabiyotlar:**

I.A.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. 7. -T.: O’zbekiston, Sharq, 1998, 132-147 betlar.
I.A.Karimov. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida …. -T.: O’zbekiston, 1997. 69-85 betlar.
Abulg’oziy. Shajarayi turk. -T.: Cho’lpon, 1992.
B.Axmedov. O’zbek ulusi. -T.: Meros, 1992.
I.Jabbarov. O’zbek xalqi etnografiyasi. -T.: Qqituvchi, 1994.
K.Shoniyozov O’zbek xalqining shakllanish jarayoni -T.: Fan, 2001.
Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. -T.: Cho’lpon, 1993.
A.Ibrohimov. Biz kim, o’zbeklar … -T.: Sharq, 2000, 55-66 betlar.
O’zbekiston tarixi. - T.: QAJBNT, 2003, 45-60 betlar.

**1. Urug’, qabila, elat, xalq, millat tushunchalari. Turonzaminda turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi.**

Milliy istiqlolga erishganligimizdan keyin o’zbek xalqining etnologiyasi, etnik tarixini o’rganish, haqqoniy yoritish tarix fanining muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Negaki, mustaqillik sharofati Bilan xalqimizning o’z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o’zligini anglashga qiziqish o’sdi. farzandlarimiz tarix ijodkori bo’lgan o’z ajdodlari kimlar bo’lganigini, O’zbek xalqi qachon va qanday shakllanganligini chuqur anglashni, bilishni xohlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asarida ta’kidlanganidek: «har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo’lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turish, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o’ziga berishi tabiydir… Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to’g’ri xulosalar chiqaradi».

**Qadimdan qon-qardoshlik rishtalari bilan bog’langan, bir tomirga borib taqaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan urug’lar hosil bo’lgan. Urug’ jamoasining o’z etakchisi - oqsoqoli bo’lgan. Urug’ jamoasi hamma narsada, har bir masalayu sa’y-harakatlarda oqsoqolning izmida bo’lgan.**

**Qabila ibtidoiy bosqichga xos etnik birlik bo’lib, qon-qorindoshlik munosabatlari, bir necha urug’larning birikuvi natijasida tashkil topgan. Qabilaning o’ziga xos tili, hududi, qabila a’zolarining o’zaro hamkorligi, qabila nomi, o’ziga xos an’analari bo’ladi. Qabila hayotiga doir ishlarga boshchilik qiladigan qabila oqsoqoli saylangan, muhim masalalar bo’yicha qabila yig’inlari o’tkazilgan.**

Qabilalar o’rtasida etnik, xo’jalik, moddiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida ular qo’shilishib, birlashib ketadilar. Natijada ularning etakchi, nufuzli guruhi nomi bilan yangi etnik birlik - elat yoxud xalq shakllanadi. Xalq hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida tarkib topadi.

Qadimiy manbalarda aytilishicha, hozirgi Qrta Osiyo xududlari massagetlar, saklar, so’g’diylar nomi bilan atalgan qabilalar yashaganlar.

Taniqli etnograf olim K.Shoniyozovning ta’qidlashicha, «O’zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub erli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizi esa qadimgi turkiy xalqlardan boshlangan. Har ikkala ildizlarning birikishi - o’zaro sintez o’zbek elatini va keyinchalik millatini tashkil etgan. Har qanday xalq alohida etnik birlik (elat) bo’lib ma’lum bir hududda, ma’lum tarixiy davrda shakllanadi. O’zbek xalqi ajdodlari ham elat bo’lib, Movarounnahr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalarda shakllangan».

Eron manbalarida Qrta Osiyoda yashagan sak (yoki shak) qabila uyushmalarining 3 xil toifasi tilga olinadi:

| | | |
|---|---|---|
| **Qadimda Qrta hagan sak qabilalari.** | ➢ Saka –Xaumavarga | Ular asosan o’lkaning shimoliy-sharqiy qismida, ya’ni Murg’ob vodiysi, Amuning yuqori oqimida, Oloy, Farg’ona vodiysida yashaganlar. |

| | |
|---|---|
| ➢ Saka - Tigraxauda | (Cho'qqi qalpoq kiyganlar). Ular Amuning quyi oqimi va Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidan to Orol shimoligacha bo'lgan keng cho'lli hududlarda joylashganlar. |
| ➢ **Saka-Tiay para-daraya** | Kaspiy shimolida, Ural tog' oldi mintaqalarida yashaganlar. |

Firdavsiyning «Shohnoma» asarida va boshqa mo'tabar manbalarda Turkiy etnoslar Qrta Osiyoda yashovchi azaliy qavm ekanligi ta'kidlanadi. Shu boisdan bu o'lka qadimdan Turon deb atalib kelindi. Turonzamindagi qo'shni qardosh elatlar o'zaro hamjihatlikda yashab, chuqur ildiz otib borish barobarida tabiiy zaruriyat taqozasi o'laroq bir-birlari bilan qo'shilishib, birikishib o'zaro etnik jarayonlarni boshdan kechirganlar. Bu esa asta-sekin bu hududda turkiy va sug'diyda so'zlashuvchi ikki tilli xalqning shakllanib borishida o'z ifodasini to

４． **Yurtimiz hududida kechgan etnik jarayonlar.**

**O'zbek xalqining shakllanishi.**bek elatining alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllanishida, Ushbu elatning ilk ajdodlari bo'lgan tub erli etnik birliklar, ya'ni ikki til (turkiy va eron) turkumidagi qavmlarning aralashuvi alohida o'rin tutadi. Ikki til guruhidagi etnoslarning aralashuv jarayoni sak-massagetlardan, ular yashagan hududlarga qiyosan aytganda xorazmiylar, baqtriylar, so'g'diyonaliklardan boshlangan. Antropolog olim T.Q.Xo'jaevning tadqiqot xulosalariga ko'ra, yurtimizda hozirgi o'zbeklarga xos antropologik qiyofa mil. avv. III-II asrlarda shakllanib bo'lgan. Keyinchalik shimoliy-sharqiy hududlardan Qrta Osiyoga ko'plab turkiy etnik guruhlarning kirib kelishi va mahalliy aholi bilan aralashuv jarayoni kuchayib boradi. Miloddan avvalgi IV-V asrlarda Qrta Osiyo hududiga xiёniylar kidariylar, eftaliylar nomli etnik guruhlar kirib keladilar. VI asrlarda turk xoqoligi tasarrufiga o'tgan.

X asr o'rtalarida sharqiy Turkiston, Ettisuv kengliklarida yashagan qorluq, chigil, yag'mo va boshqa turkiy qabilalarning Abdulkarim Sotiq Bug'raxon boshchiligida Qorahoniylar nomi bilan atalgan markazlashgan yirik turkiy davlatga birlashuvi turkiy elatlar tarixiy taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

X asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qoraxoniylar davlati hududining Turonzamin tomon kengayib borishi va buning natijasida Samoniylar sulolasining inqirozga yuz tutib, butun Movarounnahr bo'ylab Qoraxoniylar hukumronligining o'rnatilishi jarayonida bu zaminga sharqdan ko'p turkiy urug' va qabilalarning kelib joylashishi sodir bo'ldi

| | |
|---|---|
| **IX-X asrlarda Movarounnahr xududlariga kelib o'rnashgan turkiy elatlar** | ➢ Qorluqlar<br>➢ Chig'illar<br>➢ **Yag'molar**<br>➢ **Arg'ular**<br>➢ **Turgeshlar**<br>➢ **Uyg'urlar**<br>➢ **Qirg'izlar**<br>➢ **Yabakular v.b.** |

Eng muhimi, xuddi shu asrlarda o'zbek adabiy tili uzil-kesil shakllandi. O'zbek tilining shakllanishida o'orluq-chig'il lahjasi muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida umumbashariy g'oyalar va qarashlarni o'zida ifoda etgan ko'plab yuksak, umrboqiy asarlarning yaratilishi buning yorqin isbotidir. O'zbek tilining yuksak badiiy jarangdorligi, boyligi va qudrati jixatidan o'sha davrda keng e'tirof topgan arab va fors-tojik adabiyotlaridan sira qolishmasligini ko'rsatadi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i singari yuksak insonparvarlik g'oyalari ruhi bilan sug'orilgan baquvvat asarlar bunga misol bo'la oladi. Taniqli yozuvchi A.Ibrohimov so'zlari bilan aytganda, «Barcha turkiy xalqlar davrasida faqat bizkim, o'zbeklar birinchi voris o'laroq Ahmad Yassaviy she'riyatini asliyatida - bevosita o'qiymiz, chunki Ahmad Yassaviy tili o'zbek adabiy tilining xalqchil va yorqin namunalaridan biridir. Ahmad Yassaviy «Hikmati» barcha o'zbeklar uchun xuddi shu zamonda yozilgandek tushinarli va yoqimlidir».

５． **XV asr oxiri – XVI asrda o'zbek xalqi tarkibida yuz bergan muhim o'zgarishlar.**

**«O'zbek» atamasi va uning keng yoyilishi.**

O'zbek xalqi etnik tarkibining evolyutsion o'sish jarayoni XV asr oxiri va XVI asrda yana muhim o'zgarishlarga duch keldi. Bu jarayon mamlakatda hokimiyatning Temuriylar sulolasidan Shayboniylar sulolasiga o'tishi Bilan bog'liq holda kechdi. Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni shayboniylar sulolasi egallagach, bu hududlarga Dashti Qipchoqda yashovchi o'zbek urug'-qabilalari kirib keldilar. ko'tarildilar. Ba'zi manbalarda 92, boshqa bir manbalarda 96 ta deb tilga olinuvchi bu ko'p sonli o'zbek urug' va qabilalarining kirib kelishi, er-suv va mulk olib, o'troq hayot kechirishga o'tishi, mamlakatni boshqarish jilovi markazda va joylarda shu sulola vakillari qo'lida to'planishi o'z navbatida o'lka hayotida keskin o'zgarishlarning yuz berishiga olib keldi. Bu hol ayni paytda etnik jarayonlar borasida ham aks etmay qolmadi.

Ularning sa'y-harakatlari, mehnati, zahmati bilan yurt obod etilib, bir-biridan ko'rkam, gavjum shaharlar bunyod topib, dovrug' topgan.

| | | |
|---|---|---|
| | ➢ Burkut | Kenegas |
| | ➢ Qiyot | Do'rmon |
| | ➢ **Qushchi** | **Qurlovut** |
| **Dashti Qinchoqdan kirib kelgan o'zbek urug'lari:** | ➢ **Qo'ng'irot** | **Tub** |
| | ➢ **Ushun (usun)** | **Oyi** |
| | ➢ **Qtachi** | **Mang'it** |
| | ➢ **Nayman** | **No'kuz** |
| | ➢ **Jot** | **Uyg'ur** |
| | ➢ **Chimboy** | **Xitoy** |
| | ➢ **Qorliq** | **Toymas** |
| | ➢ **Echki** | **Tuman** |
| | ➢ **Qirq** | **Yuz ming** |

Dashti qipchoqlik bu ko'p sonli o'zbek urug', qabilalari Movarounnahr hududlariga kirib kelar ekanlar, ular, eng avvalo, mahalliy qardoshlari, elatdoshlari bilan tabiiy suratda yaqinlashish, ulardek o'troq hayotga moslashish, ularning turmush tarziga xos hamma eng yaxshi narsalarni o'zlariga qabul qilib, singdirib bordilar.

Yurtboshimiz o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida mana bu so'zlarni bejiz ta'kidlab o'tmagan: **«O'zbek nomi qachon paydo bo'lgan? Sovet tarixshunoslarining yozishicha, XVI asrda bizning zaminimizni Dashti Qipchoq xonlari ishg'ol qilgandan keyin o'zbek nomi paydo bo'lgan emish. Axir biz Movarounnahr deb ataydigan ikki daryo oralig'ida ungacha ham xalq yashaganku! Yoki bu xalq boshqa millat bo'lganmi? Mantiq qani bu erda**»

Bu keskin va haqqoniy aytilgan so'zlarning ma'no, mazmunini chaqar ekanmiz, millatimiz haqidagi bir haqiqatni bilishimiz, uning nomi bilan mazmun-o'zagi o'rtasidagi tafovutni aniq-tiniq tasavvur etishimiz nechog'lik muhim ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ma'lumki, xalqimizning «o'zbek» atamasi bilan nomlanib kelishi ona tariximizning hiyla keyinroq davrida, aniqrog'i XVI asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu hol asosan yurtimiz hududlariga Dashti Qipchoqdan katta oqim sifatida kirib kelgan o'zbek urug'lari va qabilalari hayoti bilan bog'liq yo'sinda yuz bergan.

Ma'lum bo'lishicha, «O'zbek» iborasi XIII-XIV asrlarda yashab o'tgan o'sha davrning mashhur tarixchilari Juvayniy va Rashididin asarlarida ham uchraydi. Mashhur bobokalonimiz, buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asarida ham «O'zbekiya», «O'zbeklar mamlakati» degan jumlalarga ko'zimiz tushadi. Bunda, bizning nazarimizda, Dashti Qipchoqdagi o'zbek urug', qabilalari yashagan joy, hudud nomlari ko'zda tutilgan bo'lsa kerak.

Ba'zi manbalarda esa o'zbek nomi Oltin Qrda xonlaridan sanalgan O'zbekxon (1312-1340) nomidan olinganligiga ishora qilinadi. Rus olimlaridan A.Yakubovskiy, N.Aristov,I.Ivanovlar ham shunday qarashga moyillik ko'rsatadilar. Vengr olimi Xerman Vamberi esa yanada qiziqroq ma'lumotni ilgari suradi: «O'zbek» so'zining tub ma'nosi – «o'z-o'ziga bek, xo'jayin, mustaqil». Nima bo'lganda ham «O'zbek» atamasi Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy qabilalarining uzoq davrlar davomidagi nomi bo'lib, u bu qavm, elatlarning yurtimizga o'rnashishi, tubjoy aholi odamlari bilan taqdiran qo'shilishi jarayonida butun Turkistonda yashagan turkiy xalqning umumiy nomiga aylandi.

4. Mustaqillik davrida O'zbekistonda milliy totuvlikning ta'minlanishi.

O'zbekiston milliy istiqlolining qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining tarixiy taqdirida tub burilish yasash barobarida uning tom ma'nodagi emin-erkinligi, ozodligi va mustaqilligini ta'minlab, ijtimoiy taraqqiyotning keng, istiqbolli yo'llariga olib chiqdi. Xalqimiz o'zgalarga tobelik va qaramlik asoratidan butunlay xalos bo'lib, o'zligini tanib, qaddini tiklab jahon hamjamiyati tomon yuz tutdi. Uning tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy qadriyatlar, asori atiqalar, moddiy va ma'naviy boyliklar barcha-barchasi yurt fuqarolarining umumiy mulkiga aylandi.

Mustaqillik ayni paytda milliy munosabatlarga ham bevosita daxl etib, bu sohadagi muammolar echimini muvaffaqiyatli hal etish yo'llarini belgilab berdi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lganligi bois ham milliy masalani to'g'ri, oqilona hal etish uning demokratik rivojlanish yo'lidan ilgarilab borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ustiga respublikada ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligi, fuqarolar totuvligi, bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarining maromi ko'p jihatdan milatlararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, ularni aniq maqsadlar sari yo'naltirishga bog'liqdir. Mustaqil O'zbekiston hozirgi murakkab o'tish davrining barcha qiyinchiliklarini asta-sekin bartaraf etib, ilgarilab borar ekan, bunda sobiq sovetlar tuzumidan meros bo'lib qolgan milliy munosabatlar masalasidagi ko'plab ziddiyatli, muammoli masalalarnihal etish yo'lidan bormoqda. Ma'lumki, mustabid sovet hokimiyatining milliy siyosati shu darajada bir yoqlama yo'nalishda olib borilganki, bunga ko'ra millatlar va ellatlarga daxl qiladigan hamma hayotiy masalalar, eng avvalo, baynalminallik nuqtai nazardan qaralib, baholanib, millatlarning o'ziga xoslik, milliylik jihatlari muttasil inkor etilib kelinardi. Ayni paytda ulug' davlatchilik shovinizmi siyosati butun

choralar bilan ulug'lanib, hayotga izchil tadbiq etib  kelinardi. Bundan sobiq ittifoq tarkibida majburan, zo'rlik  bilan tutib kelingan milliy respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston va uning jabrdiyda xalqi ham bab-barobar aziyat tortdi. Xususan, o'zbek xalqining ko'p asrli asl ma'naviy qadriyatlari, islomiy diniy e'tiqodi, milliy udumlari, an'analari, marosimlarining cheklanib, tahqirlanib kelganligi, ko'hna boy tarixi soxtalashtirilib, buzib talqin etilganligi, milliy tilining doimiy kamsitilganligi va shu singari salbiy holatlar buning yaqqol ifodasidir.

**4-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot**

**REJA:**

4. Eftaliylar sulolasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
5. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O‘rta Osiyo halqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti.
6. O‘rta Osiyo halqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida.

**Adabiyotlar:**


7. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. -T.: O’zbekiston, 1994. 52-73 betlar.
8. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
9. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi -T.: Sharq. 2000, 72-90-betlar.
10. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. -T.: Meros, 2002, 85-107 –betlar.
11. Murtazaeva R.X. Istoriya Uzbekistana. Uchebnik. -T.: 2005.
12. Usmonov Q, Sodiqov M., Oblomurodov N. O’zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. 1 qism. -T.: Moliya, 2000, 75-94- betlar.


**Tayanch so’z va iboralar:** Kidariylar. Eftaliylar. Yerga egalik qilish munosabatlari. Dehqon. Kadivarlar. Kashovarzlar. Mazdakchilik. Turk xoqonligi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot. Arab xalifaligi. Arablar istilosi. Soliq siyosati. Xalq qo’zg’olonlari. Muqanna. Islomning yoyilishi.

## 1. Eftaliylar davlatining vujudga kelishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

**Kidariylar.** V asrning 20-yillarida O’rta Osiyoga Sharqdan Sirdaryo va orol bo’ylari orqali yana bir ko’chmanchi aholi – kidariylar ( yuechji yoki toxarlarning avlodi) kirib keladi. Kidar ismli hukmdor yo’lboshchilik qilgani uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Kidariylar Sug’diyonani, Amudaryo bo’ylaridagi yerlarni egallab, o’z hukmronligini o’rnatadilar. Kidariylar Balx shahrini o’z davlatining poytaxtiga aylantiradilar. Biroq kidariylar hukmronligi uzoq davom etmadi. Kidariylar bilan sosoniylar o’rtasida ziddiyatlar kuchayib, ular o’rtasida bir necha marta qurolli to’qnashuvlar bo’lib bo’ladi. 456 - yilda bo’lgan navbatdagi jangda kidariylar sosoniylardan qaqshatg’ich zarbaga uchradilar. Ayni paytda shimoldan janubga siljib kelayotgan eftaliylar bosimiga uchrab, shimoliy Hindiston tomon chekinishga majbur bo’ldilar. Kidariylar u yerda 75 - yilcha hukmronlik qiladilar.

**Eftaliylar.** Ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Rim va Vizantiya tarixchilari Mart selin (IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofan Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favst Buzand (IV asr), xitoy solnomalaridan Bey-shi (VI asr) bergan ma’lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftaliylar Xitoy manbalarida «i-da», «e-da», armanlarda «idal», xeptal, arablarda «haytal», Suriya va lotin manbalarida «eptalit», «eftalat», «abdal» deb nomlanadi. Bunday turlicha atamalar har bir til va yozuvning o’ziga xos xususiyatlari ifodasidir, albatta. Rus va Vizantiya tarixchilarining aksariyati eftaliylarni turkiy qabila-massagetlarning so’nggi bo’g’inidan kelib chiqqan deb fikr bildiradilar. F.Vizantiyskiy eftallar nomini V asrning ikkinchi yarmida podshohlik qilgan Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog’laydi. Biroq nima bo’lganda ham shu narsa haqiqatki, eftaliylar Turkiston mintaqasida ko’pdan buyon yashab kelgan tub joy, yerli qavmlardandir.

Eftaliylar hukmdori **Vaxshunvor Eftalon** 457 - yilda Chag’oniyon (hozirgi Surxon yerlari), Toxariston va Badaxshonni o’ziga bo’ysundiradi. So’ngra eftaliylar Sug’dda ham mustahkamlanib oladi. Ular ko’p o’tmay o’z hududiy yerlarini kengaytirishda davom etib, Qobul va Panjob vodiysini, shuningdek, Kuchu, Qoshg’ar va Xo’tonni (Sharqiy Turkiston) zabt etadilar. Xullas, ular avvalda Kushonlar saltanati egallagan hududlarni birin-ketin qo’lga kiritib, o’z siyosiy hokimiyatini ko’chaytirishga erishadilar. Ular tuzgan qudratli davlat O’rta Osiyodan tashqari Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eron hududlariga ham yoyilgan edi.

Eftaliylar bir necha bor o’zlarining eng kuchli raqibi Eron sosoniylari bilan ham urushlar olib boradilar. Xususan Eron shohi **Pero’z** bilan bo’lgan urushlarda ularning qo’li baland kelib, Eron hukmdori ikki bor asirlikka tushadi. Katta to’lov va majburiyatlar evaziga arang qutilgan Pero’z o’g’li Kubodni uzoq muddat eftaliylarga garovga berishga majbur bo’ladi. Pero’zning 484 - yildagi uchinchi urushi sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Eftaliylar Marvni egallaydi, Eron ustiga og’ir o’lpon

yuklanadi. Pero'zdan so'ng hokimiyatga kelgan **Kubod (488-531)** davrida ham Eron eftaliylarga xiroj to'lashga majbur bo'lgan. VI asr boshlariga kelib Eftaliylar davlati shu qadar kuchayib ketadiki, ular 502-yilda Vizantiyaga ham yurish qilib unga katta talofat etkazadilar. 506 - yilda ikki o'rtada tuzilgan sulx shartnomasi bo'yicha eftaliylar Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Kubodning o'g'li **Xusrav I Anushervon** ham 554 - yilga qadar eftaliylarga har yili xiroj to'lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftaliylarga bergan kuchli zarbasi natijasidagina Eron eftaliylar ta'siridan qutilishga muvaffaq bo'lgan.

Eftaliylar davrida davlat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan, biroq taxt otadan bolaga meros bo'lib qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Mamlakat hududlari markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etilgan. Davlatni boshqarishning o'ziga xos qonun-qoidalari bo'lgan. Mamlakat lashkarini asosan otliq askarlar tashkil etgan.

**Yer egaligi munosabatlari.** Ilk o'rta asrlardayoq ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Vohalarda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari kengayib bordi. Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga urug' boshliqlari, qishloq oqsoqollari boshchilik qiladi. Shu boisdan ular o'zlashtirilgan yerlarni katta qismini, sug'orish inshootlari yonidagi yerlarni egallaydilar. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi, ular bora-bora ziroatkor aholi ustidan xukmronlik qila boshlaydilar. O'sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan. Dehqonlarning shaharlarda hashamatli uylari, qishloqlarda esa qo'rg'onlari bo'lib, xizmatkor-cho'rilarga qo'riqlovchi choparlarga, ega bo'lgan.

V asrda obikor yerlarning asosiy qismi hali qishloq jamoalarining qaramog'ida edi. Qishloq jamoalarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkda o'ziga tegishli yerlari bo'lgan erkin ziroatchilar kashovarzlar deyilar edi. Ularning bir qismi o'ziga tegishli yerlaridan dehqonlar foydasiga mahrum bo'lib, bora-bora Kadivarlarga aylanib borganlar. Kadivarlar dehqonlar yerida ijarador bo'lib ishlashga majbur bo'ladi, dehqonlarga qaram tabaqaga aylanib boradilar. Shu tariqa qishloq ahli uch tabaqaga bo'linadi.

| | |
|---|---|
| **Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar** | ➢ Eng asosiy o'zgarish – yerga egalik qilish munosabatlarining vujudga kelishi<br>➢ Yirik mulkdorlar – dehqon xo'jaliklari salmog'ining kuchayishi<br>➢ Ularga qaram – ijarador – kadivarlar tabaqasining ortib borishi<br>➢ O'ziga tegishli yerlarda erkin xo'jalik yurituvchi kashovarzlar tabaqasining mavjudligi |

Yirik mulkdorlar, zodagonlar zulmi va asoratining ortishi, aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi pirovardida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari, g'alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. VI asr birinchi choragida Eronda boshlanib, O'rta Osiyo hududida ham keng aks-sado bergan **Mazdak**[20] **qo'zg'oloni** buning yaqqol ifodasidir.

Eftaliylar davrida madaniyat ham o'sdi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o'ymakorlik va ganjkorlik namunalari - bular ajdodlarimiz yuksak badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

**Turk xoqonligi. Xoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti**

Turkiy elatlarning keng sharqiy hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o'zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko'plab tarixiy manbalar ham tasdiq etadi. Mo''tabar Xitoy manbalari, mashhur «O'g'iznoma», Urxon-Enasoy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttuz tatar, Karluq, Kitan, Tolis, Turk, Uyg'ur, To'qri (toharlar), Quriqan, Duba (tuba-tuva)va boshqalar yashardilar.

VI asr boshlarida Oltoy o'lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub **Asan** va **Tuu 460-545 - yillar**da boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar.Tuuning o'g'li **Bumin** Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 - yilda Jujan xonining qo'shinlarini engib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 552 - yilda Xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat - **Turk hoqonligiga asos**

---

[20] Mazdak (470-529) – mazdakiylik ta'limotining asoschisi, mazdakiylar harakati rahbari

**soladi.** Uning poytaxti Oltoydagi **O'tukan** shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i ortib borgan. U ko'p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o'lpon tariqasida yuz bo'lakdan iborat ipak mato berib turishga majbur bo'lgan.

553 - yilda Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning katta o'g'li Mug'anxon (553-572) o'tiradi. **Mug'anxon** 558 - yilda jo'janlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib, o'z davlati hukmronligini Tinch okeangacha bo'lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi **Istami** (unga «Yabg'u» - bahodir unvoni ham berilgan) bo'lsa, bu davrda xoqonlik hududini g'arbga tomon kengaytirib, Ettisuv, Qashqar va boshqa hududlarni egallaydi.

563-567 - yillar davomida Istami yabg'u qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib, O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi.

Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi **Xusrav I Anushervon**ga turk malikasi uzatiladi, Eronga elchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffiyatsiz chiqqach, Eronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ma'lum bo'ladi. Buning boisi Eron shohining O'rta Osiyo hududlariga da'vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Eron bilan urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shinlari Eron shohi Xisrav I ni engadi. Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari g'arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabt etib o'zlariga bo'ysundirganlar.

Turk xoqonligi 568-569 - yillarda o'sha davrning qudratli davlati-Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, sug'd savdogari **Maniax** boshchiligidagi elchilarni u yerga yuboradi. Elchilar imperator **Yustinian II** qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyannig **Zemarx** boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo'lgan **Turk-ruin, Urxon-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi** va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 - yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

Turonzaminda turkiy yozuv bilan bir qatorda sug'd va xorazm yozuvlari ham keng qo'llanilgan. Sug'd yozuvi 22 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Shaharlarda so'g'd-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo'lganligi haqida Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» (XI asr) asarida ham qayd etib o'tilgan. Bu yozuvlarda ulug' ajdodlarimizning katta tarixi, boy madaniyatiga oid ma'lumotlar aks etgan. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, o'sha davrlarda ulug' ajdodlarimiz o'z navqiron nasllari to'g'risida ham muttasil qayg'urganlar. Shu boisdan o'smir 5 yoshga to'lishi bilan uni bilim olishga yo'llab, dastavval, xat-savod va hisob-kitobni o'rganishga jalb etganlar. Bolalar o'smir-balog'at yoshiga etgach esa ularni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o'rganish uchun maxsus vakillar homiyligida xorijiy ellarga yuborganlar.

Turk xoqonligida yashagan chorvador aholi qam (shomoniylik) diniga, yani jon va ruhlarga etiqod qilganlar. Bu esa ularda turli xil osmoniy va yer jismlari - quyosh, oy, yer-suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishlikni keltirib chiqargan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Hozirda ham «Tangri» iborasi Alloh nomiga nisbat sifatida qo'llaniladi. Shunday qilib, Turk xoqonligi o'z davrida keng hudularga yoyilgan eng yirik davlat bo'lgan. Uning hukmdorlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan bo'lgan munosabatlarda uzoq yillar o'z ta'sirini o'tkazganlar. Shu bilan birgalikda xoqonlik davri moddiy va ma'naviy madaniyati, uning nodir namunalari Turonzamin xalqlarining to'laqonli turmush tarzini o'ziga xos yo'sinda aks ettirib qolmasdan, ular bobokalonlarimiz dahosining teranligidan, ularning yuksak ijodkorligi, izlanuvchanligidan ham shahodat beradi.

**3. O'rta Osiyo xalqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida**

VI asrning o'rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila, urug'larning hayot tarzi qoloq bo'lib, ularning mutloq ko'pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukm surgan. Ko'chmanchi badaviy oilalari, urug'lari o'z chorva mollari uchun yer-suv, o'tloq qidirib keng sahrolar bo'ylab kezib yurganlar. Faqatgina yarim orolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda ahvol birmuncha boshqacharoq bo'lib, bu hududlarda arab qabilalari asosan o'troq hayot

kechirgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa Hijozning bosh shahri - Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarining turli mintaqalar bilan bog'langanligi, savdo-tijorat va hunarmandchilik ishlarining kuchayib borishi pirovardida tarqoq arab qabila, urug'larini birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishda etakchilik o'rni egallashiga ikkoniyat yaratdi. Makka aholisi tevaragida ko'chmanchi arab qabilalarining birlashuvi jarayoniga turtki bergan yana bir muhim omil - bu shu yerlik quraysh qabilasining hoshimiylar urug'idan chiqqan payg'ambarimiz **Muhammad sallalohu alayhi vasallam** nomi bilan bog'liq holda keng yoyila boshlagan islom dini va ta'limoti bo'ldi.

O'lkamizni bosib olishning ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi VIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Xususan, 704 - yilda **Qutayba ibn Muslim**ning Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O'rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasi yuklanadi. Qutayba 707 - yilda Amudaryodan o'tib Poykandni egallash sari harakatlanadi. Arablar mahalliy xalq qarshiligini engib shaharni qo'lga kiritadilar, uning boyliklarini talaydilar. Buxoro va uning atrofidagi Vardanze va Romitan ishg'ol qilinadi. 710 - yilda Kesh, Nasaf ham og'ir janglar bilan fath etiladi. Qutayba mahalliy hukmdorlarning o'zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, Sug'dning bosh shahri - Samarqandni bosib olishga tayyorgarlik ko'radi. Shu orada Xorazm shohi Chag'on o'z ukasi Nurzod boshchiligida ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, 711 - yilda yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi. Qutayba qulay vaziyatdan foydalanib Xorazmga yurish boshlaydi. Nurzod tarmor qilinadi va o'ldiriladi. Biroq Xorazmshoh bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, u o'z mustaqilligini yo'qotib, xalifalikka tobe bo'lib, uning bojdoriga aylanadi. Chag'onning qo'shini Qutaybaning harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

712 - yilda Qutayba Samarqandga hujum qiladi. Bu paytda Samarqand hukmdori G'urak edi. G'urak arab qo'shinlariga qarshi jang qiladi, ammo kuchlar teng bo'lmaganligi sababli engiladi. Qutayba bilan **G'urak** o'rtasida tuzilgan Shartnomaga binoan u arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirxam hisobiga boj to'lash, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o'rnida berishi ko'zda tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi - Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turar joy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o'z joyidan mahrum etiladi. Arab qo'shini 713-yilda Sirdaryo orqali yurish boshlab O'rta Osiyoning sharqiy hududlarini egallashga kirishadi. Qutayba shu yurishi davomida Choch viloyati, Farg'ona vodiysini egallaydi, ko'p o'tmay o'lkaning boshqa hududlari ham birin-ketin ishg'ol qilinadi. Shu tariqa, qirg'inborot janglar oqibatida arablar Movarounnahr deb nom bergan Vatanimiz hududlari bosib olindi. Bosib olingan hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlandi.

Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo'ravonlik o'tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma'naviy boyliklar, asori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan son-sanoqsiz nodir kitoblar, qo'l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko'plab ibodatxonalari, muqaddas qadam jolari kunpaya-kun etildi.

Ulug' bobokalonimiz Beruniy o'zining «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta'kidlaganidek, arablar mahalliy din, san'at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni o'ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So'ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiy hujjatlarni yo'q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g'ayritabiiy hol hisoblanib, ayovsiz yo'q qilindi. Bularning o'rniga arablar aholidan olingan mo'may daromadlar, to'lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjidu, madrasalar xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da'vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo'lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulmu asoratni kuchaytirish maqsadida turli xil soliq, o'lponlarni joriy etdilar.

<table>
<tr>
<td>Arab xalifaligi xazinasiga to'lanishi majburiy bo'lgan soliq turlari</td>
<td>
➢ Xiroj (yer solig'i) – daromadning uchdan bir qismi miqdorida yig'ilgan;<br>
➢ Ushr, davlat idora ishlari uchun daromadning 10 foizi miqdorida olingan;<br>
➢ Zakot, mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olingan;<br>
➢ Juzya (jon solig'i) - oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig'ilgan;<br>
➢ Aholidan olinadigan markazlashgan soliqlar hajmi daromadning qariyb yarmini tashkil etardi;<br>
➢ Bulardan tashqari aholiga mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklangan edi.
</td>
</tr>
</table>

<table>
<tr>
<td>O'rta Osiyoda arablarga qarshi</td>
<td>
➢ Sug'diyonada 720-722 - yillarda G'urak va Divashtich boshchiligida<br>
➢ Samarqand, Buxoro, Xuttolonda 725-729 - yillarda<br>
➢ Tohariston va Sug'dda 736-737 - yillarda
</td>
</tr>
</table>

| | |
|---|---|
| **xalq qo'zg'olonlari** | ➢ Xuroson va Movarounnahrda **Abu Muslim** boshchiligida 747-750 - yillarda<br>➢ **Muqanna** qo'zg'oloni 769-783 - yillarda<br>➢ Rofe ibn Lays qo'zg'oloni 806-810 - yillarda |

## 5-Mavzu. O'rta Osiyoda IX-XII asrlardagi davlatlar. ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

REJA

1.Tohiriylar va Somoniylar davlati.
2.Qoraxoniylar davlati.
3.G'aznaviylar davlati.
4.Saljuqiylar davlati.
5.Xorazmshohiylar davlati.

**ADABIYoTLAR**

I.A.Karimov. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yiligiga bag'ishlangan tartanali marosimlarda aytilgan so'zlari. Asarlar 6-jild. T.: "O'zbekiston", 1998y.
Azamat Ziyo. O'zbek davlatshiligi tarixi. T.: Sharq, 2000y, 91-50-betlar.
A.Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar T.: Sharq, 1999y.
Xerman Vamberi.Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.
T.: "Fan", 1991y.
Z.Buniyadov.Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231).
T.: G'ofur G'ulom, 1998.
Nizomulmulk. Siyosatnoma. T. "Adolat"1997.
Buyuk siymolar, allomalar. (5 va 12 asrlar). T., "Me'ros" 1995-1996.

### Tohiriylar va Somoniylar davlati.

**Arablarning O'rta Osiyo hududlaridagi deyarli bir yarim asrlik hukmronlik davri, bu hududning erksevar xalqlarining o'z eli, Vatanining mustaqilligi yo'lidagi jo'shqin kurashini, intilishi so'ndira olmadi.**

Darhaqiqat, IX asr boshlariga kelib Arab xalifaligida yuzaga kelgan bo'hronli vaziyat, siyosiy tanglik, Xuroson va Movarounnahrda kechayotgan ziddiyatli jarayonlar, eng muhimi, bu hududda yuz bergan Ibn Lays qo'zg'oloni (806-810) mazkur o'lka xalqlari uchun xalifalik tobeligidan qutilish, yurt mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirgandi. Gap shundaki, mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so'ng xalifalik taxtini egallash uchun uning o'g'illari – Amin va Ma'mun o'rtasida qizg'in kurash boshlangan edi.

Xuroson noibi Ma'mun o'z kurashida Xuroson va Movarounnahrning nufuzli kuchlariga tayanib, nihoyat 813 yilda xalifalik hokimiyatini egallaydi. Bundan avvalroq Ma'mun bu o'lkada xiyla uzoq davom etgan Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda mahalliy feodal kuchlar madadidan foydalangandi.

Xalifa Ma'mun Xuroson va Movarounnahrda davom etayotgan arablarga qarshi kuchli muxolifatchilik harakatlarini bartaraf etish qiyinligini anglab etganidan bu hududlarni boshqarish huquqini mahalliy feodal tabaqa vakillari ixtiyoriga berishga majbur bo'ladi.

Tohiriylar davlatining asoschisi Tohir ibn Husayn 821 yildan e'tiboran Xuroson noibligini qo'lga kiritadi. Dastlab Movarounnahrning ko'pgina viloyatlari ham bu davlat tarkibiga kirgan. Buning boisi, ikkala o'lkaning noiblik markazi Xurosonning Nishopur shahri bo'lgan.

Tohir ibn Husayn o'z davlatining mustaqilligini tiklash maqsadida 822 yilda xalifa nomini xutba namozidan chiqarib tashlashga amr kiladi. Biroq tez orada uning sirli o'limi bu borada katta ishlar qilinishiga imkon bermaydi. Uning vorislari Talha (822-828), Abul Abbos Abdulloh (830-844), Tohir

ibn Abdulloh (844-862), Muhammad ibn Tohir (862-873) davrida Tohiriylar davlatining mustaqilligi xiyla ta'minlandi. Tohiriylar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni, mulkiy munosabatlarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini tartibga keltirish, suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash, suv inshootlari barpo etish, shuningdek fuqarolardan olinadigan soliqlarni mo''tadillashtirishga ahamiyat beradilar. Jumladan, Abdulloh ibn Tohirning chiqargan bir farmonida "dehqonlarni xafa qilmaslik", buningsiz xazinaga etarli miqdorda soliq tushmasligi alohida uqtirilgandi. Biroq shunga qaramay, Tohiriy hukmdorlar amalda dehqonlarni emas, balki ko'proq yirik mulkdorlar, savdogarlarning manfatlarini himoya qilardilar. Shu bois Tohiriylar davrida oddiy aholi, ayniqsa dehqonlar og'ir asoratda yashash, haddan ziyod soliq-o'lponlar to'lashga majbur etilgandi. Birgina 844 yilda ulardan olingan soliq miqdori 48 mln. dirxamni tashkil etgan. Bu o'sha davr sharoiti uchun mislsiz edi. Shuning uchun ham mamlakatning Seyiston va boshqa viloyatlarida dehqon g'alayonlari yuzaga kelib, kuchayib borgan. Mamlakatning sharqiy hududlarida yuzaga kelgan g'oziylar harakati va dehqonchilik vohalaridagi g'alayonlar qo'shilib, keng miqyoslar kasb etib bordi. Bu harakatlarning etakchilariga aylangan, asli kelib chiqishlari hunarmand – miskar bo'lgan aka-uka Yoqub va Amir ibn Layslar 873 yilda Toxiriylar sulolasini ag'darib tashlashga muvaffaq bo'ldilar. Buning natijasida Yoqub ibn Lays asos solgan safforiylar (miskarlar) sulolasi hokimiyatga keldi.

Movarounnahrda Somoniylar davlatining yuzaga kelish jarayoni ham IX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bunda ham xalifa Ma'munning o'ziga sodiq xizmat qilgan balxlik mahalliy hukmdorlardan Somon Xudot avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqining topshirganligi yangi mustaqil davlatning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi.

IX asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning katta o'g'li Nasr Somoniylar Movarounnahr hududlarini birlashtirib, yaxlit mustaqil davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldilar. Nasr (856-888) va uning ukasi Ismoil (874-907) davrida bu davlat qudrati benihoya kuchayib bordi.

Buning natijasida aka-ukalar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro kurash boshlanadi. Oqibatda 888 yilda ular o'rtasida katta urush bo'lib, unda Ismoil g'olib chiqadi. Shu davrdan boshlab u Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Akasi Nasr vafotidan so'ng (892y) esa Ismoil Somoniylar davlatining birdan bir rasmiy rahbari – amiri bo'lib qoladi.

Ismoil katta, qudratli davlatga ega bo'lgach, u markaziy davlat boshqaruvi tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi.

Somoniylar davrida Samarqand, Buxoro, Marv, Shosh, Isfijob, shuningdek, Farg'ona, Xorazm vohasi shaharlari savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sifatida g'oyatda ravnaq topgan.

**2. Qoraxoniylar davlati.**

Markaziy Osiyoning o'rta asr tarixida muhim o'rin tutgan va xiyla uzoq davr hukm surgan (X-XII asrlar) turkiy qoraxoniylar sulolasi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, bunda Shu narsani chuqurroq anglamoq joizki, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining talay hududlarida, ayniqsa uning sharqiy qismida juda qadim davrlardan buyon turli nomlar bilan atalgan turkiy qabilalar, elatlar yashab kelgan.

Mintaqamizning sharqiy hududida, hozirgi Ettisuv, Sharqiy Turkiston o'lkalarida X asr o'rtalariga kelib turli turkiy qavmlar, elatlarning o'zaro birikuvi va qo'shiluvi davomida Qoraxoniylar davlatining yuzaga kelganligi buning yaqqol ifodasi bo'ldi. Bu davlatning tayanch negizining yaratilishida ayniqsa qorluq, chigil va yag'mo elatlarining roli va ta'siri katta bo'lgan. Mazkur davlatga asos solgan siymo Satuk Abdulkarim Bug'roxon (Qoraxon) yag'molar qavmiga mansub bo'lgan. Qoraxon so'zining lug'aviy ma'nosi esa turkiy qabilalarda «ulug'», «buyuk» degan tushunchani anglatgan.

Bu davlatning qudrati yuksalib, u tez orada katta hududlarni o'z qo'l ostiga kirita boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lgan. Abdulkarim Bug'raxon vafotidan keyin (955y) uning vorislari davrida Markaziy Tyan-Shanь va Ettisuv o'lkalari egallandi. Эndilikda Qoraxoniylar Somoniylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahr erlarini butunlay egallashga kirishadilar. Bu davrda Somoniylar davlatining chuqur ichki ziddiyatlar, sinfiy ixtiloflar orqasida tanglik holatiga tushib qolganligidan foydalangan Qoraxoniylar hukmdorlar - Hasan va Nasr Bug'raxonlar etakchiligidagi qo'shin Somoniylar qarshiligini qiyinchiliksiz engib, ikki bor (992-999 yillarda) poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Bu voqea XI asr boshlarida sodir bo'ladi. Shu tariqa, Qoraxoniylar hukmronligi katta hududlarga yoyiladi. 1041 yilga kelib Qoraxoniylar hokimiyati ikkiga: markazi Buxoro bo'lgan G'arbiy xonlikka va markazi Bolasog'un bo'lgan sharqiy xonlikka bo'linib ketadi.

**3. G’aznaviylar davlati.**

Aslan Somoniylar tarkibida bo’lib kelgan G’azna mulkining X asr ikkinchi yarmiga kelib mustaqil davlat maqomiga ega bo’lishi avvalo Shu davrda mintaqada kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar hamda ayrim sulolaviy kuchlarning o’zaro kurashlari va uning oqibatlari bilan bog’liqdir. Negaki Somoniylar davlatining biz tilga olgan vaqtga kelib har taraflama ichki ziddiyatlarga duch kelishi, tobora zaiflashib borishi tabiiy suratda uning hududiy parchalanishiga sabab bo’ldi. 961 yilda Somoniy hukmdor Abdulmalik vafotidan so’ng davlatning zaiflashganligidan foydalanib G’azna mulkini qo’lga kiritgan, asli turkiy g’ulomlardan bo’lgan salohiyatli lashkarboshi Alptaginning bu hududda yangi davlatga asos solganligi ham shundandir. Biroq G’aznaviylar davlatining yuksak maqomini qaror topishi va keng e’tirof etilishi Sabuktegin nomi bilan bog’liqdir.
G’aznaviylar davlatining eng yuksalgan, qudratli saltanatga aylangan davri Sulton Mahmud (998-1030) podsholigi vaqtiga to’g’ri keladi. Negaki o’zida noyob harbiy sarkardalik iste’dodi, etuk davlat donishmandi, yuksak aql-zakovat sohibi sifatlarini mujassamlashtirgan, nihoyatda qattiqqo’l, ayyor Mahmud o’z jahongirlik shuhrati-yu, hukmronligini butun choralar bilan qaror topdirishga intildi. Bu yo’lda ko’plab jangu jadallardan ham qaytmadi.

Mahmud davrida G’aznaviylar davlati hududlari benihoya kengayib, mamlakat shaharlarida, ayniqsa G’aznada katta inshootlar, salobatli masjidu madrasalar, kutubxonayu shifoxonalar, ilm maskanlari ko’plab barpo etilgan bo’lsa-da, biroq ko’pchilik aholining moddiy – maishiy ahvoli nochor kechgan, turli xil soliq va majburiyatlar odamlarning tinkasini quritgan.

Mahmud G’aznaviy davlati tashqaridan go’yo g’oyatda qudratli ko’ringani bilan haqiqatda esa uning ichdan emirilishini, omonatligini payqash qiyin emas.

**4. Saljuqiylar davlati.**

Sirdaryo quyi oqimida paydo bo’lgan o’g’iz davlatining dastlabki yobg’usi (podshosi) Saljuqbek bo’lgan. Uning avlodlari Tug’rulbek, Dovudbek, Chag’ribek va Shakarbeklar o’z davrlarida saljuqiylar shuhratini yuksakka ko’tardilar.

Saljuqiylar hukmdori Tug’rulbek egallangan Movarounnahr va Xuroson hududlarini o’z avlodlari - Chag’rilbek va Dovudbeklar tasarrufida qoldirib, o’zi g’arbga tomon harbiy yurishlarni davom ettiradi. Tug’rulbekning 1038-1063 yillarni o’z ichiga olgan hukmronlik davri old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo’lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi.

Saljuqiylar davlati qudratining Movarounnahr va Xurosondagi eng kuchaygan payti Malikshoh (1072-1092) davriga to’g’ri keladi. Gap shundaki, xuddi Shu yillarda Malikshoh va uning tadbirkor, dono vaziri Nizomulmulk (asli ismi Abu Ali ibn Ali ibn Ishoq) tomonidan mamlakat hayotining ko’plab sohalarida juda muhim ijobiy o’zgarishlar amalga oshirildi.

Malikshoh davrida davlat xokimiyatining kuchayishida dono vazir Nizomulmulk (1017-1092) roli benazirdir. Katta huquq va keng vakolatlarga ega bo’lgan birinchi vazir markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, davlat amaldorlarining mas’uliyati, javobgarligini oshirishga, davlatning moliya, soliq va boshqa boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berdi. U o’zining bu boradagi yuksak salohiyati va tajribasini umumlashtirib, mashhur «Siyosatnoma» asarini yozadi. Bu kitob katta shuhrat va e’tirof qozonib, mana, necha asrlardirki, Sharq va G’arb mamlakatlarining davlat arboblari, vaziru vuzarolari uchun siyosat bobida muhim dasturulamal qo’llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Mustaqilligimiz sharofati tufayli bu nodir kitob 1997 yilda ilk bor ona tilimizda nashr qilinib, o’zbek kitobxonlari qo’liga etib bordi.

Saljuqiylarning eng so’nggi hukmdori Sulton Sanjar (1118-1157) podsholigi bu davlatning, ham yuksalishi, ham halokatga yuz tutishi bilan o’ziga xos murakkab, ziddiyatli davrni aks ettiradi.

XI asrning 40-yillariga kelib saljuqiylar davlatining mavqei puturdan keta boshlaydi. Bunda ayniqsa Sharqdan bostirib kelgan qoraxitoylar bir vaqtning o’zida ham qoraxoniylar va ham saljuqiylar saltanatiga katta xavf soladi. Sulton Sanjar va qoraxoniylar xoni Mahmudning birlashgan qo’shini 1141 yilda Samarqand yaqinidagi Katvon cho’lida qoraxitoylar bilan bo’lgan hal qiluvchi jangda qaqshatqich mag’lubiyatga uchragach, Movarounnahr erlari qoraxitoylar qo’li ostiga o’tadi. Saljuqiylar esa katta hududlarga egalik qilish huquqidan mahrum bo’ladi.

**5. Xorazmshohlar davlati.**

Xorazm vohasi o'zining qulay strategik va jug'rofiy mavqei hamda qadimdan rivojlangan hudud bo'lganligidan, u Markaziy Osiyo mintaqasida turli davrlarda kechgan muhim tarixiy jarayonlarda alohida o'rin tutib, o'z muayyan ta'sirini o'tkazib borgan.

XI asrning boshlarida yuz bergan tarixiy jarayonlar taqozosi bilan Xorazm davlati tanazzullikka uchrab, 3aiflashib, mintaqaning boshqa sulolalari, chunonchi avval boshda G'aznaviylar hukmronligi (1017-1044), undan so'ng buyuk saljuqiylar boshqaruvi ta'siriga tushib qolgandi. XI asr ikkinchi yarmiga kelib Xorazm oldida yangidan mustaqillikka erishish vazifasi ko'ndalang bo'lib turardi.

Xorazmning qaytadan mustaqillikni qo'lga kiritishi,bugina emas, hududiy jihatdan kengayib, butun-butun o'lkalarni o'z tarkibiga kiritib, qudratli saltanat darajasiga ko'tarilishi, so'ngra uning pirovardida inqirozga yo'liqishi - bu jarayonlar yangi sulola - anushteginlar sulolasi (1097-1231) nomi bilan uzviy bog'liqdir.

Xususan saljuqiy hukmdorlardan Malikshoh (1071-1092) davrida katta obro' - martabaga erishgan harbiy lashkarboshi Alpteginning Xorazm hukmdori etib tayinlanishi (1077-1097) hamda ko'p o'tmay uning Xorazmshoh unvoniga sazovar bo'lishi – bu Xorazmning mustaqillikka erishishida jiddiy qadam bo'lgan edi. 1097 yilda uning o'rniga Xorazm taxtiga o'tirgan va Xorazmshoh unvoni sohibi Qutbiddin Muhammad o'lka mustaqilligini ta'minlashda muhim rolь o'ynagan.

Xorazm mustaqilligini ta'minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbiddin Muhammadning o'g'li Jaloliddin Otsiz (1127-1156)ning roli alohidadir.

Xorazmning davlat sifatidagi ravnaqi, hududlarining benihoya kengayib borishida Alovuddin Takashning o'rni va roli katta bo'lgan. Uning hukmronlik davrida (1172-1200) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Takash va Muhammad Xorazmshohlarning katta qo'shin tuzib boshqa mamlakatlar, ellarni bosib olish, ularni o'z tasarruflariga kiritish borasida olib borgan ko'p yillik istilochilik yurishlari, bir tomondan, Xorazmshohlar saltanati shuhratini oshirib, uning hududlarini benihoya kengaytirishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, bu hol pirovard oqibatda bu davlatning chuqur ichki tushkunlikka, tanazzullikka yo'liqishiga ham sabab bo'ldi. XIII asrning birinchi choragida amalga oshirilgan mo'g'ul-tatar galalarining shafqatsiz bosqini nafaqat Xorazmshohlar davlati tarixida, balki Shu bilan birga unda yashagan barcha ulug' ajdodlarimiz qismatida ham mislsiz fojia bo'ldi.

**6-Mavzu. Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash.**
**Jaloliddin Manguberdi**

**REJA:**

4. Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ullarning Movarounnahrga bosqini. Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi.
5. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.
6. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti.

**ADABIYoTLAR.**

I.A.Karimov . Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.
T.:"O’zbekiston", 1996, 74-86 bet.
Z.Buniyadov.Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). T.: G’ofur G’ulom, 1998, 134-150-betlar.
A.Ibrohimov.Bizkim,O’zbeklar...T.:Sharq.,1999.
T.Saidqulov.O’rta Osiyo xalqlar tarixining tarixshunosligidan lavhalar. T.: “O’qituvchi”, 1993, 3 bob.
N.Hakimov, M.Sodiqov va boshqalar. Vatan madaniyati tarixi. T.: 1995, 40-74-betlar.
X.Zayniddin. Jaloliddin Manguberdi. T.: “Fan”, 1993 y.

**1.Chingizxon boshshiligida mo’g’ullarning Movarounnahrga bosqini . Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi.**

O’z dovyurakligi ustakorligi, makkorligi bilan mashhur bo’lgan Temuchin (1155-1227) XII asrning oxirlariga kelib nafaqat mo’g’ullarning ko’p sonli urug’-qabilalarini, Shu bilan birga ular bilan yonma-yon, qo’shni yashab kelgan ko’plab turkiy elatlar, chunonchi, jaloirlar, oyratlar, qaraitlar, naymanlar, qoraxitoylar, qirg’izlar, uyg’urlar, qorluqlar va boshqalarni ham birin-ketin bo’ysundirib, kuchli davlatga asos soldi.

Temuchin oliy hokimiyat muruvvatlarini o’zining o’g’illari va eng yaqin kishilariga topshiradi. Jumladan, uning yaqin safdoshlaridan Subitoy, Xubiloy, Jebe, farzandlari: Jo’jixon, Chig’atoy, O’qtoy, To’luyxonlar birinchi bo’lib tuman sohiblari bo’lganlar.

Temuchinning mo’g’ullarning ulug’ xoqoni sifatidagi o’rni va mavqeini har jihatdan mustahkamlash, bunga qonuniy tus berishda 1205 yili poytaxt Qoraqurumda bo’lib o’tgan umummo’g’ul Qurultoyi alohida ahamiyatga molik bo’ldi. Qurultoyda Temuchin barcha mo’g’ul - tatar xonlarining ulug’ xoni qooni deb e’lon qilindi va unga Chingizxon laqabi berildi. (Chingizxon laqabi turli mualliflar tomonidan turlicha, chunonchi, «kuchli», «qudratli», «toza» yoki dengizlar Dengizxon , okeanlar hukmdori va xokazo ma’nolarda talqin qilinib kelinadi). Qurultoy tomonidan qabul qilingan «Yaso» hujjati mo’g’ullar davlatining asosiy qonunlari majmuasi ulug’ xon hokimiyatini yanada mustahkamladi.

XIII asr boshlariga kelib Chingizxon qo’shni davlatlar va xonliklarni birin - ketin bosib olishga kirishadi. Agar 1206 yilga qadar bepoyon G’o’bi sahrosidagi qavm - qabilalar itoatga keltirilgan bo’lsa, 1206 - 1211 yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari buryat, yoqut, oyrat, qirg’iz va uyg’urlar bo’ysindiriladi. Mo’g’ul sarkardasi Xubiloy Ettisuvning shimoliy hududlarini ishg’ol etib, bevosita Xorazmshohlar davlati chegaralariga yaqinlashib boradi. 1211 yilda uyg’urlar eri istilo etilgach, Chingizxon Xitoyga hujum boshlaydi. 1215 yil boshlariga kelib Shimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishg’ol etiladi. 1217 yilda Xuanxe daryosining shimolidagi barcha erlar mo’g’ullar tasarrufiga o’tadi. 1218 yilga kelib esa Ettisuv hududining qolgan qismi ham mo’g’ullarga tobe bo’ladi. Эndilikda Chingizxonning asosiy bosh maqsadi uning jahonga hukmron bo’lishiga katta to’g’onoq bo’lib turgan buyuk Xorazmshohlar qo’shinini tor-mor keltirib, uning erlarini o’z qo’l ostiga kiritish edi.

Bu davrda Xorazmshohlar davlatining ichki ijtimoiy - siyosiy hayoti g’oyatda murrakab, ziddiyatli keshayotgan edi. Bu davlat tashqaridan ulug’vor, keng hududlarga yoyilgan, qudratli saltanat tarzida ko’rinsa-da va uning hukmdori Muhammad Xorazmshoh o’zini «Iskandari soniy», «xudoning erdagi soyasi» deb bilsa-da, biroo’ haqiqatda esa mamlakat allaqachonlardan buyon ichdan emirilishga, tanazzullikka yuz tutgan edi. Avvalo, oliy hokimiyat boshqaruvida chuqur ixtiloflar mavjud edi. Bir

tomondan, Muhammad yurgizayotgan rasmiy siyosatga nisbatan uning onasi Turkon Xotun va uning qavmlaridan iborat nufuzli siyosiy kuchlar doimiy muxolifatchilik munosabatida bo'lib kelmoqda edi. Ikkinchi tomondan, mahalliy hududlar beklari va hokimlari markaziy hokimiyat bilan hisoblashmay o'zboshimchalik qilar, xalqqa haddan ziyod jabr - zulm o'tkazardi. Bu davrda Xorazmshohlar davlati oliy devonida ham, mahalliy hokimlar, amaldorlar o'rtasida ham poraxo'rlik, xoinlik, sotqinlik holatlari avj olib borayotganligi sir emasdi. Uchinchidan, xalqning hokimiyatdan noroziligi ko'plab g'alayonlarni keltirib chiqarmoqda edi. Bunday qaltis vaziyat, shubhsiz, mamlakat birligiga raxna solayotgan, uni tobora zaiflashtirayotgan edi.

Chingizxon barcha vositalarni ishga solib, kerak bo'lsa shuhratparast Shu Muhammadni tinchlantirib, amalda Movarounnahr ustiga yurishga puxta hozirlik ko'radi. Ayni chog'da urushga bahona izlash harakatida bo'ladi. Xuddi shunday qulay bahona 1218 yilda sodir bo'ldi. Shu yili Chingizxon amri bilan Xorazm davlatiga 500 tuyada qimmat baho sovg'alar, tillo-kumush bisotlar, savdo mollari ortilgan, asosiy tarkibi musulmon savdogarlaridan iborat 450 kishilik karvon yuborildi. Biroq karvon O'trorga kelib qo'nishi bilanoq Xorazmshohning maxsus topshirig'i bilan O'tror hokimi uni yo'q qilishga buyruq beradi. Shu tariqa, karvon butunlay talanib, qirg'in qilinadi. Chingizxon uchun endi Movorounnahrga bostirib kirish fursati etgan edi. Bu vaqtga kelib Chingizxon va uning lashkarboshilari tasarrufida 60 tumanli ya'ni 600 ming nafarli jangovor qo'shin tayyor holga keltirib qo'yilgandi.

Mo'g'ullarning birinchi hujumiga duchor bo'lgan hudud O'tror shahri bo'ldi. Chingizxon va uning lashkarlarining o'trorliklardan alohida o'chi borligi avvaldan ma'lum. Negaki Chingiz yuborgan savdo karvoni huddi Shu erda saronjom qilinganligi ularning yodidan ko'tarilmagandi. Chig'atoy va O'qtoyning son-sanoqsiz kuchlari shahar qal'alariga bosqin uyushtirgan kezlarda O'trorliklar ularga qarshi mardonavor jang qildilar, qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Shahar aholisi G'oirxon Inalchuq va Qorachor bahodirlar etakchiligida tengsiz dushman bilan uzoq vaqt jon berib, jon olishdilar. Shahar mudofaasi 5 oydan ziyod davom etdi. Xalq qarshiligi mislsiz bo'ldi. Biroq shahar dushman tomonidan egallandi.

Chingizxon galalari Xorazmshoh davlatining eng yirik va obod shaharlaridan biri Samarqandni qo'lga kiritish uchun ham barcha makkorona tadbirlarni qo'lladilar. 100 mingdan ziyod sara qo'shinlar to'plangan, mustahkam istehkomlar barpo qilingan nuqtalarga o'z kuchlarini tashlab ko'rdi, atrof joylarni oldin bosib olib, shaharni tashqi dunyodan ajratishga harakat etdi yoxud boshqa bahodirlar qo'shinidan qo'shimcha kuchlar chorlab, bu joyga son-sanoqsiz jangovar lashkar to'plashga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa, uch kunlik qattiq jangdan so'ng Chingizxon qo'shini shaharga yorib kirish va uni butunlay o'ziga bo'ysundirishga erishadi.

Shunda ham Temur Malik bir qism dovyurak, qo'rqmas jangchilari bilan Sirdaryoga yo'nalib, maxsus orolda joylashib dushman bilan mardlarcha olishadi. Nihoyat, ular maxsus kemalarda mo'g'ullar hujumiga bardosh berib, yo'l-yo'lakay jang qilib, Xorazm sari harakatlanadilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik faoliyati Xorazm va ona yurtning boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida davom etdi.

Movarounnahrning asosiy shaharlarini bosib olgan, behisob boyliklarga ega bo'lgan, o'z g'alabalaridan g'ururlangan mo'g'ullar 1221 yil davomida Xuroson o'lkasi hududlari tomon hujum boshlab, birin-ketin Balx, Termiz, Marv, Nishopur, Hirot, Mozandaron singari boy shaharlar, qal'alarni bosib oldilar. **Jaloliddin Manguberdi jasorati.** Shu o'rinda Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, jasur lashkarboshi Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga to'xtalib o'tmoqlik joizdir. U mo'g'ullar istilosi boshlangan kundanoq doimo yurt himoyachilari tomonida turdi, ularga rahnamo bo'ldi. Ona Vataniga bo'lgan cheksiz mehr hissi, farzandlik burchi uni Shu qadar elga mashhur qildiki, hatto uning nomini eshitgan Chingizxonning ham sochi tik bo'lib, yuzi tundlashar, uni qo'lga tushirish yoxud jismonan yo'q qilish chora-tadbirlarini izlardi.

Jaloliddin goh zafar quchdi, goh mag'lubiyat alamini tortdi, biroq kuchli dushman oldida bosh egib, mag'lub bo'lmadi. Lekin ne ko'rgilikki, Jaloliddin Manguberdining aziz umri yovlar bilan jang maydonida, yakkama-yakka olishuvda emas, balki bir alamzada qurdning banogoh tig'idan xazon bo'ldi. Bu mudhish voqea 1231 yilning 17-20 avgustlarida Ozarbayjon hudularida sodir etildi.

**2. Chig'atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.**

Chingizxon o'z hukmronligining so'ngi davrlariga kelib, o'z qo'l ostiga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o'rtasida taqsim qiladi. Chunonchi, Irtish daryosining narigi tomonidan to «mo'g'ullar otining tuyog'i etgan joygacha» bo'lgan erlar, Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoliy - g'arbiy qismlari to'ng'ich o'g'li Jo'jiga berildi. Qashqar, Ettisuv va Movarounnahr erlari Chingizning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga berildi. Keyinroq Baroqxon 1266-1271 davrida Chig'atoylar

hukmronligi hozirgi Shimoliy Afg'on hududlarigacha yoyildi. Chig'atoy O'rdasi ko'shi Ili daryosi bo'yida edi. Uchinchi o'g'il O'g'adoy O'qtoy ga esa G'arbiy Mo'g'uliston va unga tutash o'lkalar ajratildi. Kenja o'g'il To'luyxonga ota ulusi - Xanka-Mo'g'uliston, ya'ni shimoliy Mo'g'uliston meros qilib berildi. Keyinchalik Chingizxonning jahongirlik yurishlarini davom ettirib, Sharqiy Evropaning katta qismini bosib olib, Oltin O'rdaga asos solgan uning nabirasi Botuxon hukmronligi davrida 1227-1255y. Movarounnahrning qator hududlari, chunonchi, Xorazm shimoli, Sirdaryo quyi etaklari ham uning ta'sirida bo'lgan. Chig'atoy avlodlaridan Olg'uy 1261-1266 , Baroqxon 1266-1271 davrlariga kelibgina Chig'atoy ulusi Movarounnahr erlari Oltin O'rda ta'siridan holi bo'lishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, Chingizxon avlodlari o'rtasidagi merosiy bo'linish natijasida Movarounnahr asosan Chig'atoy va uning vorislariga o'tib, u Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshladi. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasi uchun quydagi soliqlar undirilgan:

1. Kalon yoki er solig'i.
2. Ko'pcho'r va shulasi solig'i.
3. Targ'u solig'i
4. Tuz solig'i;
5. Jon va kumush solig'i.

1238 yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'ida boshlangan oddiy elaksoz, hunarmand Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni Shu tariqa yuz berdi.

Ma'sudbekning bevosita tashabbusi bilan 1271 yilda o'tkazilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bir xil vazn va o'lchovdagi sof kumush tangalar zarb etildi.

Ma'sudbek davrida mo'g'ullar istilosi paytida xonavayronlikka yuz tutgan Buxoro, Samarqand, Ho'jand, Toshkent, Termiz singari shaharlar ancha gavjumlashib, yangidan savdo-sotiq, hunarmandchilik ishlari rivojlanib bordi.

XIV asrdan boshlab Chig'atoy ulusida mo'g'ul xonlari boshqaruvi sohasida ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar, dastavval, Chig'atoy xonlaridan Duvoxon 1282-1306 , uning o'g'illari Kebekxon 1318 - 1326 , Tarmashirin 1326 - 1334 nomlari bilan bog'liqdir. Jumladan, Duvaxon davrida katta vakolatga ega bo'lgan Ma'sudbek singari yurt hukmdorlari sa'i-harakatlari bilan shaharsozlik rivojlanganligi, savdo-sotiq ahli katta naf topganligi, qishloq xo'jaligi ancha yuksalganligi ko'zga tashlanadi. XIV asrning 40-60 yillariga kelib Movarounnahrning hududiy parchalanishi kuchayib borganligi, markazdan qochuvchi kuchlarning besamar urushlari, ayrim mo'g'ul xonlarining nomigagina hukmdor bo'lib, amalda ayrim ta'sirli sulolaviy kuchlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lganligi-bular shak-shubhasiz, o'lka hayotining har jihatdan tushkunlik va tanazullik girdobiga g'arq etdi. XIV asrning 40 yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga: Ettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va g'arbiy ulus, ya'ni Movarounnahrga bo'linib ketdi.

## 4. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti.

Sahroyi mo'g'ullar xarobazorga aylantirgan kultepalar o'rnida ko'p o'tmay yangidan ko'rkam shaharlar, me'morchilik obidalari qad rostlab, hayot yana yangidan izga tushib bordi. Mahalliy xalq orasidan etishib chiqqan ajoyib me'morlar, naqqoshu-hunarmandlar sa'y-harakati, mahorati bilan betakror moddiy madaniyat namunalari yaratilib, bundan o'lka hayoti o'zgacha fayzu manzora kasb etib bordi. Bu davrda bunyod etilib, gavjum savdo-sotiq, hunarmandchilik markazlariga aylana borgan Andijon, Qarshi, Urganch, qaytadan ta'mirlanib chiroy ochgan, oldingi mavqeini tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Termiz singari shaharlar, ularning o'ziga xos me'morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi. Ko'hna Urganchda qad ko'targan, balandligi 62 metrli ulug'vor minora XIII asr arxitekturasining noyob yodgorligi hisoblanadi. Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To'rabek xonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xo'janddagi Tubaxon maqbarasi va Shu singarilar XIV asrning nodir me'moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

Xalq amaliy san'ati, kulolchilik namunalarini, sirli naqshinkor sopolli idishlar, Shu jumladan, ko'zalar, chinni buyumlar, uy-ro'zg'or ashyolari, binolar peshtoqiga bitilgan, san'at darajasidagi nastalik bitiklari-bular O'rta Osiyo moddiy madaniyatining XIII-XIV asrlarda ham rivojlanishda davom etganligidan shahodat beradi. Bu davrda ilm-fan, ayniqsa tarixshunoslik rivojida ham muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Tarixshunos Juvaniyning «Tarixi jahongusha» Jahon fotihi tarixi , Rashididinning «Jomeut-tavorix» «Йilnomalar majmuasi» asarlari mo'g'ullar istilosi va hukmronligi davri tarixini chuqur o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek o'lkada badiiy adabiyot sohasi ham anshayin ravnaq topdi. O'rta Osiyo xalqlari orasidan badiiy adabiyotning ko'plab yirik namoyandalari etishib chiqdi. Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin

Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Pahlavon Mahmud, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi singari xalq orasidan chiqqan mumtoz ijodkorlar ko'plab umrboqiy, o'lmas asarlar yaratdilar. Jumladan, XIII asrning ikkinchi yarmi hamda XIV asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan yurtdosh daho shoirimiz Pahlavon Mahmud ijodi bu jihatdan ibratlidir. Uning tug'ilgan yili noma'lum bo'lib, vafot etgan davri manbalarda 1322 yil deb ko'rsatiladi. U hunarmand oilada dunyoga kelgan. O'zi ham po'stinduzlik bilan shug'ullangan, o'z zamonasining ilg'or, ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Pahlavon Mahmud nomi bilan zikr qilingan barcha tazkiralarda u g'azal, ruboiy janrlarida samarali ijod qilgan shoir sifatida tilga olinadi. Biroq, Mahmudni elga mashhur etgan, avlodlar ehtiromiga sazovor qilgan narsa, bu, eng avvalo, uning otashnafas ruboiylaridir. Shoirning ijtimoiy, falsafiy qarashlari ham uning ruboiylari mazmunida aks etgan. Umuman Pahlavon Mahmud she'riyatida keng ma'nodagi hayotiy voqealar, insoniy kechinmalar, chuqur ahloqiy, falsafiy qarashlar ifodalanganki, bu hol shoirning o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga faol munosabatda bo'lganidan dalolat beradi.

XIII asr oxiri va XIV asr birinchi choragida Turkistonda kechgan adabiy jarayonni Burxoniddin o'g'li Nosiriddin Rabg'uziy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa bunda uning qalamiga mansub «Qissai Rabg'uziy» asari adib nomini asrlar osha sarbaland etib kelmoqda. Bu asar ilk o'zbek nasrining dastlabki namunasi sifatida ham qimmatlidir. Rabg'uziy asaridagi dunyoviy ruh bilan sug'orilgan ko'plab she'riy parchalar g'azalchilik janrining keyingi rivoji uchun ham ayricha ahamiyat kasb etadi. XIV asr turkiy (eski o'zbek) adabiyotining yirik namoyandalari- Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Suxayl va Guldursun», «Sinbadnoma», «Gulistoni bit-turkiy» she'riy asarlari-dostonlari ham o'sha davr ma'naviy madaniyatining bebaho durdonalari hisoblanadi.

**7-Mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot**

**REJA:**

4. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Uning markazlashgan davlat tuzishdagi tarixiy xizmati.
5. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. «Temur tuzuklari».
6. Ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

**ADABIYoTLAR**

I.A.Karimov. O'tmishsiz kelajak, hukmronliksiz taraqqiyot bo'lmaydi. Asarlar 4-jild. T.: "O'zbekiston" 1997,
181-192-betlar.
Azamat Ziyo O'zbek davlatshiligining tarixi T.:Sharq.,2000
A.Ibrohimov.Bizkim,O'zbeklar...T.:Sharq.,1999.
B.Axmedov. Amir Temur(tarixiy roman) ,T.: "Meros", 1995.
A.Axmedov. Ulug'bek(esse).T. "Kamalak" 1994.
A. Muxamadjonov. Amir Temur vaTemuriylar davri. T.: "Fan"1996.
I. Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli. T.: "Fan", 1993.
Temur va Ulug'bek davri tarixi. T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1996.
N. Shomiy. Zafarnoma.T.: "O'zbekiston" ,1996.
Shu.Yazdiy.Zafarnoma. T.: "Sharq", 1997.
A. Qayumov. Alisher Navoiy (esse)T.: "Fan", 1994.

**1. Amir Temur davlati. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi.**

Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof topgan yorqin siymodir.

Temur Tarag'aybek o'g'li siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60-yillari mo'g'ullarning Chig'atoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan, ularning mahalliy xalqlarga zulmi, zug'umi tufayli tushkunlik, porokandalik jarayoni yuz berayotgan edi. O'lkaning turli hududlarida mustaqillik da'vosi bilan ish ko'rayotgan mahalliy sulolalar, chunonchi, Xorazmda so'fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar va hokazo kuchlarning ajratuvchilik harakatlari yurt butunligiga jiddiy havf tug'dirayotgandi.

Temurbek uddaburonlik, o'ziga xos taktika qo'llab, o'zining bosh orzu-maqsadlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozasi bilan vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361 yilda Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'tar-o'tmay, Balx hokimi Amir Husayn bilan do'stlashib, u bilan birgalikda mo'g'ullardan ona yurtni ozod qilishga kirishadi va 1362-1364 yillarda mo'g'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi.

Xalqimizda «birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan» deyilganidek, amir Husayn o'zi qazigan chohga o'zi yiqildi. Vaziyat taqozasi bilan Amir Temur amir Husayn o'rnashib olgan Balxga 1370 yilning bahorida qo'shin tortib bordi va uni mahv etdi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Эndilikda yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Эng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Buningsiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosida ko'tarish mumkin emasdi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo'g'uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi. Garchand ular harbiy yurishlar deb atalsa-da, aslida mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlarini mo'g'ullar hujumlaridan qutqarish, qaratilgan urushlari edi. Amir Temur mana Shu tinimsiz jangu jadallar davomida o'z mamlakatining sharqiy hududlarini mo'g'ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Temur Xorazm erini qaytarib olish bobida ham katta sa'y-harakatda bo'ldi. Buning uchun ko'p bor qo'shin tortishga to'g'ri keldi.

Faqatgina 1388 yilgi so'nggi Xorazm yurishi natijasida Sulaymon So'fiy hukmronligi ag'darilib, bu o'lka Temur saltanati tarkibiga uzil-kesil qo'shib olindi. Bunga qadar Shosh, Termiz, Hisor, Badaxshon, Qunduz singari hududlar hukmdorlari Amir Temur hokimiyatini e'tirof etib, uning itoatiga bo'ysungandilar.

Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o'z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish, jug'rofiy kengliklarga chiqish maqsadida XIV asrning 80 yillaridan e'tiboran xorijiy yurtlar tomon ko'plab harbiy yurishlar uyushtiradi. Uning 1386-1388 yillardagi «uch yillik», 1392-1396 yillardagi «besh yillik» va nihoyat 1398-1404 yillardagi «etti yillik» yurishlari xuddi Shu maqsadlarga qaratilgandi. Bu harbiy yurishlar davomida Эron, Кavkaz orti hududlari, shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq erlari, Kichik Osiyoning talay qismi egallanib, ular Amir Temur davlati tarkibiga qo'shib olindi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan uni omilkorlik bilan idora qilish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirib borishga ham ahamiyat berdi. U o'zbek davlatchiligining somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar davrida tarkib topib, rivojlanib borgan tizimi, tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab, ehtiyojlariga qarab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.

Amir Temur o'zigasha shakllangan o'zbek davlatshiligining quyidagi 8ta asoslariga izshil amal qilish bilan birga ularni mazmunan boyitishga jiddiy ulush qo'shdi.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hisob berib turgan.

**2. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.**

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharqu g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzullikka uchrab bordi.

Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan yana bir muhim sabablardan biri - ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt talashib boshlanib ketgan va bir necha yilga cho'zilgan o'zaro besamar urushu nizolardir.

Amir Temur Xitoy yurishiga otlangan bir paytda O'trorda 1405 yil 18 fevralda kasallanib vafot etgan paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi (Mironshoh va Shohruh Mirzolar) va 19 ta nevara, 15 chevara, shuningdek qizlari Og'a begim, Sulton Baxt begim va Og'a begimning o'g'li Sulton Husayn Mirzolar qolgan edi.

Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rnini Qobul, Qandahar va Shimoliy Hind erlarini boshqarib turgan nabirasi Pirmuhammad (Jahongir Mirzo o'g'li) egallashi kerak edi. Biroq shahzoda Halil Sulton (Mironshoh o'g'li)ning o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini hukmdor deb e'lon qilishi, tabiiyki, boshqa shahzodalarning ham qo'zg'alishiga, saltanatning darz ketishiga olib keldi. Buning oqibatida tez orada g'arbiy hududlarning ancha qismi mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Faqat qat'iyatli, shijoatli Shohruh Mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat jilovini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. U 1409 yilda Movarounnahrdagi vaziyatni o'z foydasiga hal etib, uni katta o'g'li Ulug'bekka topshiradi. O'zi esa Xuroson hukmdori bo'lib qoladi (1407-1447).

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394 yilda Sultoniyada tavallud topgan. Bobosi Amir Temur unga katta mehr bilan qarab yoshligidan o'z tarbiyasiga olgan. Ulkan tug'ma iste'dod, aql-zakovat sohibi bo'lgan Ulug'bek (Sohibqiron xonadonida uni shunday nom bilan erkalashganlar) davlat boshqaruvini puxta egallashdan tashqari diniy va dunyoviy bilimlarni ham etuk darajada o'zlashtirgan. U Movarounnahr taxtini egallaganida endi 15 yoshga to'lgan edi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409-1449) temuriylar saltanatining an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab berishida alohida davrni tashkil etadi.

Ulug'bek Amir Temur singari jangu jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'bati ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqoza qilgandagina u harbiy yurishlarga otlangan.

Ulug’bek Mirzo urush harakatlaridan ko’ra ko’proq o’z faoliyatini mamlakat ishlari, ichki siyosat masalalari bilan shug’ullanishga qaratadi. Shu boisdan ham endilikda uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnaqiga oid masalalar asosiy o’rin egallaydi. Mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik va ziroatchilik avvalgidek rivojlanishda davom etadi. Ko’plab sun’iy sug’orish inshootlari barpo etiladi. Mamlakat Buyuk ipak yo’li orqali halqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi.

Ulug’bekning 1428 yilda o’tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo’lga qo’yishda muhim voqea bo’lgan. Ulug’bek davlati muomalaga chiqargan yangi vazndagi tanga pullar o’z qadri, qimmati bilan iqtisodiy hayotni jonlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirishda alohida roль o’ynadi. Ulug’bek o’z davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritishga, ilm-fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo tijorat va hunarmand ahliga ko’p rag’bat ko’rsatishga harakat qilmasin, unga qarshi muxolifat kuchlar ham bor edi. Ulug’bek zamindor feodallarning oddiy fuqarolarga nisbatan suiiste’molshiliklarini cheklash tadbirlarini ko’rganda, ular «taxtdagi olim»ga qarshi chiqdilar.

Xurosonda XV asrning ikkinchi yarmida Abusaid Mirzo o’limidan so’ng (1469) hokimiyatga kelgan Husayn Boyqaro (1438-1506) davrida bu o’lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ko’plab muhim o’zgarishlaru siljishlar yuz berganligi faktdir. Buning boisi shundaki, Temuriy shohzodalar ichida ja’sur va tadbirkor, salohiyatli va ma’rifatli hukmdor bo’lgan Husayn Boyqaro o’zining salkam 40 yillik hukmronligi davrida Xuroson mamlakatida katta xayrli ishlarni amalga oshirish, saltanat qudratini ko’tarishga muvaffaq bo’ldi. Bu ulug’vor ishlar va sa’y-harakatlarda uning maktabdosh do’sti, buyuk donishmand siymo, o’zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari (1441-1501)ning roli beqiyosdir.

XVI asr boshlariga kelib, ya’ni Husayn Boyqaro vafotidan so’ng (1506) Xuroson erlari tomon yurish boshlagan Shayboniyxon qo’shini Badiuzamon va Muzaffar Mirzo qo’shinlarini birin-ketin engib, tez orada butun Xuroson o’lkasini o’z qo’l ostiga kiritib oladi.

Shu tariqa, qariyb bir yarim asr davom etgan o’z davrida Vatanimiz nomini shonu shuhratga burkagan, uni ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga olib chiqqan, ulug’ ajdodlarimiz tarixida o’chmas iz qoldirgan Temuriylar saltanati hukmronligi tarix taqozasi bilan halokatga mahkum bo’ldi.

### 3. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati.

**Moddiy madaniyat.** Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o’tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko’tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun tarovati, yorqin manzarasi ko’z o’ngimizda namoyon bo’ladi.

Amir Temur davrida Samarqandda bunyod etilib, tevarak-atrofga husnu latofat bag’ishlagan, bir-biridan ko’rkam o’nlab bog’lar, chunonchi, «Bog’i Dilkusho», «Bog’i Jahonaro», «Bog’i Davlatobod», «Bog’i Nav», «Bog’i Зag’on», shuningdek o’z davrining tengsiz me’moriy obidalari - «Ko’ksaroy», «Bo’stonsaroy», Go’ri Amir maqbarasi, Registon majmui, Shohi Зinda ansambli, Bibixonim masjidi va madrasasi, Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xo’ja Ahmad Yassaviy maqbarasi va Shu singari noyob inshootlar Amir Temur davrida moddiy madaniyatning yuksak darajada rivoj topganligiga ishonchli guvohdir. Mirzo Ulug’bek zamonida (1409-1449) Samarqand, Buxoro, G’ijduvon va boshqa shaharlarda qurilgan muhtasham masjidu madrasalar, ilm-urfon maskanlari, saylgohlar va boshqa noyob inshootlar bunyod etilgan. Uning rahnamoligida 1420-1428 yillar mobaynida qurilgan rasadxona o’sha davrning tenggi yo’q oliy inshooti bo’lgan.

Rassadxona etagida Ulug’bek bobosi Amir Temur an’anasini davom ettirib, ikkita chorbog’ qurdirdi. Ularning biri «Bog’i maydon», ikkinchisi esa «Chinnixona» nomi bilan ataldi. Bog’i maydon o’rtasida bunyod etilgan ikki oshiyonli binoning devor va ustunlari oq marmar bilan qoplangan edi. Chinnixonadagi binolarning biri toshdan, ikkinchisi esa chinnidan bo’lgan.

Xurosonning obod o’lka sifatida gullab-yashnashi ham Temuriylar davriga to’g’ri keladi. Shohruh Mirzo va uning vorislari tomonidan barpo etilgan 150 dan ziyod mashhur obidalar, jumladan «Bog’i Зog’on», «Bog’i jahon» qal’a maskanlari, «Gavharshodbegim» madrasasi, Boysunqur «Nigoristoni» (kutubxonasi), yoxud Husayn Boyqaro davrida (1469-1506) uning do’sti, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot va uning atrofida qurilgan 300 dan ziyod noyob bino va inshootlar: masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh, hammom, shifoxona, saroylar, istirohat bog’lari, rabot, karvonsaroylar, suv havzalari, ko’prik, qorizlar-bular hammasi tumuriylar zamonasi madaniy yuksalishining ishonchli tasdig’idir.

**Ilm-fan ravnaqi.** Temuriylar ma’naviy madaniyati to’g’risida gap borganda, dastavval, ona yurtimiz Uyg’onishi davrining ikkinchi bosqichi bo’lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog’lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo’shgan bebaho hissasi haqida har qancha g’ururlansak arziydi.

Ulug’bek ilmiy maktabining eng katta yutug’i, avvalo, astronomiya va matematika fanlari sohasida yaratilgan muhim kashfiyotlardir. Masalan, Ulug’bek qalamiga mansub «Зiji ko’raganiy» asari o’zining beqiyos to’g’ri ilmiy echimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham olimlar e’tiborini qozonib kelmoqda.

Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug’bekning «To’rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta’sir ko’rsatganligi shubhasizdir. Temuriylar davrida salmoqli iz qoldirgan alloma olimlardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning «Зafarnoma», Xofizu Abruning «Зubdat at-tavorix», A.Samarqandiyning «Matla ul-sa’dain» va «Majma’ ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi o’rni va ikki azim daryoning quyilish joyi»), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning etti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bog’i»), Xondamirning «Makorimul axloq» («Yaxshi fazilatlar»), «Xabibus siyar fi axboru afodul bashar» («Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari») asarlari o’sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklik darajasini o’zida ifoda etadi. **Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san’at va musiqa madaniyati rivoj topdi.** Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayh Muhammad, Junand Naqqosh, Temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi maktabi atoqli vakillari Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi benazirdir. Masalan, nastalik xatining mislsiz ustozi, «Qiblat ul-kuttab» (Kotiblar peshvosi) unvoni sohibi bo’lgan S.Mashhadiy A.Navoiy va H.Boyqaroning ko’plab bebaho qo’lyozmalarini kitobot holiga keltirishda katta zahmat chekkan.

Amir Temur nabirasi (Shohruh Mirzo o’g’li) Boysunqur Mirzo homiyligida bunyod topgan o’ziga xos badiiy akademiya rolini o’ynagan uning Nigoristonida ijod qilgan ko’plab mo’yqalam sohiblari tomonidan mukammal tarzda ishlangan son-sanoqsiz rangli tasvirlar, miniatyura namunalari, kitob bezaklari, chunonchi, hind xalqi eposi «Kalila va Dimna», Sa’diyning «Guliston», Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyning «Xamsa» va boshqa asarlarga ishlangan tasviru-bezaklar hanuzga qadar ham o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Musavvirlik san’atining tengi yo’q yulduzi Kamoliddin Behzod (1455-1537) ijodi ham Temuriylar davri san’atining yuqori cho’qqisi hisoblanadi. Uning mo’yqalamiga oid hadsiz-hisobsiz rangin tasvirlar, chunonchi, Yazdiyning «Зafarnoma», Jomiyning «Salomon va Ibsol», Sa’diyning «Bo’ston» va «Guliston», Nizomiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan miniatyura namunalari yohud Hirotdagi «Bog’i Behisht», «Ov qilayotgan Bahrom Go’r», «Tuyalar jangi» tasvirlari va shunga o’xshash rassomlik asarlari bu tug’ma ijodkor iste’dodining yuksak mahoratidan shahodat beradi.

**Badiiy adabiyot.** Amir Temur va temuriylar davri madaniy muhitining yorqin sahifasini turkiy (eski o’zbek) adabiyotining ravnaqisiz tasavvur etib bo’lmaydi. O’zbek mumtoz adabiyotining tamal toshini qo’ygan Mavlano Lutfiy (1366-1465) dan boshlab Haydar Xorazmiy (XIV asr oxiri, XV asr boshlari), uning zamondoshlari Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy singari zabardast turkigo’y shoirlar ijodi ravnaqi tufayli mumtoz adabiyotimiz yangi marralarga ko’tarildi va uning xilma-xil janrlarida bir-biridan go’zal, nafis va baquvvat badiiy asarlar dunyo yuzini ko’rdi.

Lutfiyning «Gul va Navro’z», Xorazmiyning «Mahzunul asror» («Sirlar xazinasi»), Durbekning «Юsuf va Зulayxo» asarlari yohud Gadoiy va Atoiylarning ishq-muhabbat, hayot na’shu namosini, inson shaxsi va uning yuksak orzu-armonlari, intilishlarini baland pardalarda ulug’lagan otashnafas she’r-g’azallari, qasidalari-bular mumtoz o’zbek adabiyoti rivojining muhim yutug’idir.

Shu bilan birlikda bu davrda fors-tojik adabiyoti ham an’anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Bu adabiyot dovrug’ini baland ko’targan, yuksak badiiy ijod namunalarini yaratgan kamol Xo’jandiy, Xofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Binoiy, Hiloliy va Vosifiy singari daho so’z san’atkorlar nomini alohida tilga olib o’tish joizdir.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko’tarilib borishlari davomida o’chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo’ldi.

## 8-Mavzu: Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi uning sabablari va oqibatlari

**REJA:**

4. Turkistonning uch xonlikka bo‘linib ketishi.
5. XIX asr birinchi yarmida o‘zbek xonliklarining jug‘rofiy-siyosiy o‘rni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va madaniy hayoti.
6. Xonliklarda o‘zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari.

**Adabiyotlar:**


6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. -T.: Sharq, 1998. 14-21 betlar.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S.. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
8. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2000, 234-302 betlar.
9. Usmonov Q., SodiqovM, Oblamurodov N. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. -T.: Meros, 2002, 194-224 betlar.
10. Murtazaeva R.X. Istoriya Uzbekistana. Uchebnik. -T.: 2005.


Vatanimiz tarixi o’zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o’tmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo’lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo’lganligi jahonga ma’lum. U o’z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni qoldirgan edi. «... Farzandlarim va avlodimdan bo’lganlarning har biri,- deb yozgan edi u o’zining tuzuklarida,- unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o’z saltanat ishlarini boshqarishda qo’llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga etadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo’lg’ay»[1]. Ammo uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o’zaro va ichki kurash, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan ko’chmanchi o’zbeklar davlati hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 - yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 - yilda Farg’ona va Hisor viloyatini, 1505 - yillarda Urganchni, 1506-1507 - yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg’ona, Sirdaryo va Xorazm yerlari Afg’onistonning Qandahor, Zamindovur viloyatlari egallandi va Muhammad Shayboniyxonga qaram bo’lib qoldi.

Movarounnahrda 100 - yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo’lmadi, qirg’inborot urushlar, o’zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 - yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo’lib kelgan Ubaydullo sulton 1533 - yilda Shayboniylar davlatining Oliy hukmdori etib ko’tarildi.Ubaydulla sulton Samarkanddagi Ko’chkunchixon avlodlari karshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi va Buxoroni davlat poytaxti deb e’lon qiladi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Shu tariqa Buxoro xonligi tashkil topdi. Ammo tarqoqlik davom etardi, Movarounnahr XVI asr o’rtalarida ham mustaqil hokimliklardan iborat edi. Buxoroda Abdulazizxon, Samarqandda Abdulatifxon hukmdor edilar.

Tarqoqlikka barham berish, mamlakatni birlashtirish dolzarb bo’lib turgan bir paytda Abdulla sulton maydonga chiqdi, uni katta mavqega ega bo’lgan juybar shayxlari qo’llab-quvvatladi. Abdullaxon II Buxoro taxtini egallaydi. 1557-1561 – yillarda uning amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 - yillarda otasi Iskandarxon oliy xukmdor deb e’lon kilingan bo’lsada, amalda xukmdor Abdullaxon II edi.

601 - yildan e’tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi qo’liga o’tadi. 150 - yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo’lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o’zboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari o’rtasidagi o’zaro kelishmovchilik, ur-yiqit mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni Ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga ko’tarilgan o’nta xondan ikkitasining taxtdan ag’darilgani, to’rttasining taxt ustida o’ldirilgani ham yaqqol ko’rsatadi.

Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo’lgan mang’it urug’idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo’yiladi, Hakimbiy Buxoroning to’la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743 - yilda Hakimbiy, uning o’g’li Muhammad

---

[1] Temur tuzuklari. -T.: Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991, 53-bet

Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747 - yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o’z qo’liga olishga kirishadi.

Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo’lgan mang’it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 - yilda Abulfayzxonni, so’ngra rasman xon deb (soxta xon) e’lon qilingan uning o’g’li Abdulmo’min - nabirasi Ubaydullo sultonlarni o’ldirib, hokimiyatni o’z qo’liga oladi. Muhammad Rahim 1756 - yilda taxtga o’tirib, o’zini Buxoro amiri deb e’lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, **Mang’itlar sulolasiga** asos soladi. Shundan e’tiboran Buxoro xonligi **Buxoro amirligi** deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 - yilgacha **Mang’itlar sulolasi** qo’lida bo’ldi.

Xorazm XV asr oxiri - XVI asr boshida temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq davlatning bir qismi edi. 1505 - yilda Muhammad Shayboniyxon qo’shinlari Xorazmni egalladi va qo’ng’irot urug’idan Kepakbiy Xorazmga hokim etib tayinlanadi. Eron shohi Ismoil bilan jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo’lgandan keyin Xorazm Ismoilshoh tomonidan zabt etiladi. Ismoilshoh Xorazmni o’z davlati tasarrufiga kiritgach, Vazir, Urganch va Xiva shaharlarini boshqarish uchun 3 ta dorug’a (hokim) tayinladi.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligi uzoqqa bormadi. Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Hisamiddin etakchilik qildi. Ular Shaybon avlodidan bo’lgan Berka sultonning o’g’li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo’lishni taklif qildilar. Elbarsxon 1511 - yilda qo’shin bilan kelib Vazir shahrini egalladi. Keyingi janglar natijasida Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo’shinlaridan tozaladi, Xorazmda Elbarsxon hokimiyati o’rnatildi. Shunday qilib, 1512 - yilda mustaqil **Xiva xonligi tashkil topdi**, Elbarsxon uning birinchi xoni bo’ldi. Xivada shayboniylar sulolasi xukmronligi 1770 - yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryo o’zanining o’zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqei pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko’chib borib joylashadi va bu yerda Yangi Urganch shahri paydo bo’ladi. Bu orada Xiva shahrining mavqei ko’tariladi. Arab Muhammadxon (1602-1623) davrida Xivaning mavqei kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylandi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang’ishloq, Dahiston (Mashhad) va O’zboy atrofidagi ko’chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo’lmadi. Uzoq - yillar davomida xonlik tepasida turgan o’zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o’rtasida, shuningdek, shahzodalar o’rtasida tinimsiz urushlar bo’lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o’rtasida Murg’ob daryosi bo’ylari uchun, Marv uchun qirg’inborot urushlar bo’lib turar, bu hududlar qo’ldan-qo’lga o’tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez xujum qilib falokatlar keltirardi.

XVIII asr o’rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o’g’li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o’z boshqaruvini o’rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko’chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo’lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g’alayonlar bo’lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o’zbek qabilalaridan Qo’ng’irot urug’ining boshlig’i Muhammad Amin inoq 1770 - yilda hokimiyatni qo’lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola - **Qo’ng’irot sulolasiga** asos soldi (bu sulola 1920 - yilgacha hukm surdi).. Muhammad Amin Inoq turkmanlar qo’zg’olonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo’ysundirdi. Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli, u XVIII asr boshlarida ikkiga bo’linib ketdi. Ashtarxoniylar xukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg’ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan bo’lib qoldi. Bunday vaziyat Farg’onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Farg’ona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishga qulay omil bo’lib xizmat qildi.

1710 - yilda Qo’qon atrofida yashab turgan o’zbek qabilalaridan biri - minglar o’z etakchisi Shohruxbiyni hokimiyat tepasiga ko’taradilar. Shu tariqa, keyinchalik **Qo’qon xonligi** deb atalgan yangi davlat tashkil topdi, o’zaro ichki kurashlar botqog’iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o’ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko’rsatolmadi. Qo’qon xonligida ming qabilasi sulolalari 1876 - yilgacha hukmronlik qildi. Qo’qon shahri chetida joylashgan Tepaqo’rg’on Qo’qon xoni Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo’rg’onda mustahkam qal’a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi.

Qo’qon xonlari Farg’ona vodiysini, Xo’jand, O’ratepani birlashtirgach, Qo’qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o’rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo’qon xonlari Toshkentni bo’ysundirishga kirishdilar.

1784 - yilda Shayxontohur dahasi sobiq hokimining o’g’li Yunusxo’ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent davlati bekligi o’ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo’janing to’rt maslahatchisi bo’lgan. Toshkent shahar nazorati va soliq yig’ish

Boshxo'janing qo'lida bo'lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o'lchovlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirlarida qozoq sultonlari hujumlarini bartaraf etib, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkentga bo'ysundirgan edi. Toshkent mavqeining oshib borishi Qo'qon xonlariga yoqmadi. 1799 - yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy Toshkenta yurish qildi, ammo Chirchiq bo'yidagi jangda mag'lubiyatga uchradi.

1805 - yilda Qo'qon hukmdori Olimbek xon unvonini qabul qiladi va shu paytdan e'tiboran Farg'onada tashkil topgan davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi. Yunusxo'ja vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari yurish qilib, 1809 - yilda Toshkentni va unga qarashli Chimkent, Sayram va boshqa hududlarni Qo'qon xonligiga bo'ysundiradi. Qo'qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi.

Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo'linib ketdi. Uchta davlat - Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. **Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniy hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsa-da, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan - yillarda tanazullik hollari yuz berganligidan guvohlik beradi.**

Shayboniylar, xususan, Abdulaxon II davrida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murg'ob daryolari bo'ylarida ko'plab kanallar, anhorlar, ariqlar qazilib, atrofdagi yerlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bog'lar barpo etilgan. Birgina Qashqadaryo bo'ylaridagi yerlarga suv chiqaruvchi o'ndan ortiq kanallar qazilganligi va ishlab turganligi ma'lum. Abdullaxon II davrida qurilgan Zarafshon daryosidagi Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'prik suv ayirg'ichlari, Sangzar daryosidagi Tuyatortar kanali, Amudaryo-Chorjo'y kanali, Toshkent viloyatidagi Zaxariq, Nurota tog'lari suvlarini to'plovchi Abdullaxon Bandi suv omborlari yirik inshootlardan edi. Bu tadbirlar g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xiva xonligida ham sun'iy sug'orish ishlariga katta e'tibor berilgan. XVI-XVII asrlarda barpo etilgan, uzunligi 143 km bo'lgan Shohobod, uzunligi 96 km bo'lgan Urmush, G'oziobod va boshqa o'nlab kanallar dehqonchilikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo'qon xonligida ham ariq va kanallar tarmog'i kengaytirildi. Namangan hududida Yangiariq kanali, Sirdaryodan O'ratepa tomon sug'orish tarmoqlari, ko'plab ariqlar qazildi, dehqonchilik ancha rivojlandi.

## 1. XIX asr birinchi yarmida o'zbek xonliklarining jug'rofiy-siyosiy o'rni, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayoti

**Buxoro amirligi.** Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqeiga ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etardi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'lari, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni ishg'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millionga yaqin aholi yashardi. Aholi amirlikning sersuv vohalarida yashab, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida -350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxandaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 mingcha aholi yashardi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina elatlardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'irot, jabg'u,

qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxandaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda yashardi.

Buxoro amirligining Xisor, Dushanbe, Sharqiy Buxorodagi Vaxsh, Kafirnihon va Panj daryolari vodiylarida, asosan tojiklar yashar edi.

Amirlikning janubiy va g'arbiy qismida turkmanlar, shimoliy-sharqiy tomonida qozoq va qirg'izlar yashardi. Shuningdek, amirlik hududida afg'onlar, Eroniylar, arablar, yahudiylar, hindlar va boshqa etnik guruhlar mavjud edi.

Aholining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda istiqomat qilardi. Ular dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanardi. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'hori, bog' va poliz mahsulotlari etishtirilar edi. Uzum, olma, nok, shaftoli, o'rik, gilos, anjir, qovun, tarvuz etishtirilardi. Meva-chevalar quritilib shirinlik o'rnida ishlatilardi. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l qo'ychiligi, hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvozlik, sovungarlik keng tarqalgan edi.

Amirlik iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud edi, aholining turmushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi, aholiga solinadigan o'lpon va soliqlar haddan tashqari ko'p edi. Aholi sotib olish qobiliyatining pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Buxoro amirligi monarxiya tipidagi davlat bo'lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Amir o'z fuqarolarini o'ldirishi yoki hayot qoldirishi, butun aholi mulkiga ega bo'lishga ham haqli edi, ko'ngli tusaganini qilardi.

XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining o'zida ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Bu tabaqa davlat xazinasidan maosh olar, amirga batamom qaram bo'lib, ularni amirning o'zi tayinlar yoki egallab turgan lavozimidan olib tashlar edi. Amaldorlar amir farmoyishini bajaribgina qolmay, uning istak-xohishi va ko'nglini topa bilishlari, unga doimo xushomad qilishlari kerak edi. Shu bois saroyda xushomadgo'ylik, amir shaxsini ulug'lash rasm bo'lib qoladi. Amir va uning oilasigagina emas, quyi mansabdagilar yuqori amaldorlarga ham xushomadgo'ylik qilardilar. O'z mavqei, turmushi, oilasining omonligi, mulki uchun qo'rqish, ertangi kunga ishonmaslik kabi og'ir vaziyat vujudga keladi. Qisqasi, mansabdorning taqdiri to'lig'icha yuqori amaldor qo'lida edi. Mansabni sotish, poraxo'rlik keng tarqaldi.

**Xiva xonligi.** Manbalarda ko'rsatilishicha, XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat milni tashkil etgan. Xonlik janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz, cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Quyi Amudaryo bo'yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etardi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Ko'na Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (Xozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri xonlikning poytaxti hisoblanardi. Shahar ikki qismdan - Ichan qal'a (shaharning ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan bo'lib, ular asosan X1X asrda barpo etilgan. 1842 - yilda Dishon qal'a qurilib, devor bilan o'rab olinadi. Dishon qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar ham istiqomat qilganlar.

Xiva xonligida taxminan 800 mingga yaqin kishi yashardi. Aholining ko'pchilik qismi o'zbeklar bo'lib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanallar bo'ylarida joylashgan edi.

## 4. Xonliklarda o'zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari

Chor Rossiyasi butun Sibirni bosib olib, qozoq va qirg'izlar yashovchi hududlar - kichik juz, o'rta juz va katta juzni o'ziga bo'ysundirib, endi O'rta Osiyoga siljib kelmoqda edi. Rossiya bilan Qo'qon xonligi bevosita chegaradosh bo'lib qolgan edi.

Rus hukumatining Qo'qon xonligiga tazyiqi xonlikning qozoq va qirg'izlarga nisbatan ta'sir doirasini qirqish siyosati va amaliyotida yaqqol ko'rinmoqda edi. Bu yovuz niyatni barcha o'zbek xonlari tushunardi, ammo ojizligi tufayli tajovuzni bartaraf etish bo'yicha taqozo etgan darajada tadbir topolmadilar.

Vaziyat uchchala xonlikning birlashib dushmanni daf etish yo'lidan borishini talab qilardi. Amalda esa buning aksi bo'ldi, ular birlashish o'rniga o'zaro kurashni avj oldirdilar. Xususan, Qo'qon xonligida notinchlik, xokimiyat uchun ichki kurash avj olib ketdi.

Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1841) taxtga o'tirgandan boshlab 1834 - yilgacha Qorategin, Kulob, Darvoz viloyatiga to'xtovsiz yurishlar qilib, ularni Qo'qon xonligiga bo'ysundirdi. 1826-1831 - yillar davomida esa bir necha marta Qoshg'arga bostirib bordi, xitoyliklar bilan urush qildi, ming-minglab kishilarning qirilib ketishga sababchi bo'ldi.

Muhammad Alixon o'z atrofidagilarning ta'siriga tushib, hatto o'z otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qildi, xon hokimiyati bilan mahalliy amaldor-zodagonlar o'rtasida tarkib topgan ittifoqni buzdi. Ularning ayrimlari qatl etildi, surgun qilindi, ba'zilari Buxoroga qochib ketishdi. Omon qolganlar xondan norozi bo'lganlarni o'z atrofiga to'plab, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar. Xonning engiltakligi, aysh-ishratga berilishi aholini o'ziga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni axloqsizlikda, shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi.

Xondan norozi bo'lganlar 1839 - yilda o'z elchilarini Buxoro amiri Nasrullo xuzuriga yuborib, yordam so'raydi. Bu vaqtda Buxoro amiri bilan Qo'qon xoni o'rtasida Jizzax, O'ratepa va Xo'jand uchun urush borayotgan edi. Amir Nasrullo Qo'qon qo'shinini tor-mor etib, Jizzax, O'ratepa va Xo'jandni o'z tasarrufiga kiritadi. Endi Qo'qon sari otlandi. Ayni paytda, 1841 - yilda Muhammad Alixonning zulmiga qarshi Qo'qon shahar aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Xon O'rdadan qochib ketdi. Qo'zg'olonchilar talabiga binoan bir necha aybdor shaxslar qatl etildi.

Xalq Buxoro amiri Nasrulloning Qo'qonga xujum qilmoqchi bo'lganligini eshitgach qo'zg'olonni to'xtatdilar. Buxoro amiri o'z qo'shinlari bilan Qo'qonga yaqin joylashgan Beshariqqa kelganda Muhammad Alixon elchilar orqali amir Nasrulloga qimmatbaho sovg'alar yuborib, Xo'jandni amirga topshiradi va o'zini Buxoro amirining noibi deb tan oladi. Amir Nasrullo esa Buxoroga qaytib ketadi. O'z taxtini saqlab qolgan Muhammad Alixon o'ziga yoqmagan kishilarni yana ta'qib etish, qatl qilishni davom ettirdi. Poytaxtda yana norozilik kuchayib, qo'zg'olon boshlandi. Nihoyat, 1841 - yil noyabr oyida Muhammad Alixon taxtdan voz kechishga majbur bo'ladi va uning ukasi Sulton Mahmud xon bo'ladi. 1842 - yili Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonga qarshi o'z qo'shinlarini safarbar etdi. Qo'qon qo'shinlari tor-mor etildi. Qo'qon xonligi Buxoro amirligiga bo'ysundirildi. Qo'qonnning taslim bo'lishiga xonlikdagi parokandalik va xalqning o'z hukmdoridan noroziligi sabab bo'ldi. Muhammad Alixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Hatto xalqning sevimli shoirasi Nodiraga ham shafqat qilinmadi.

**O'zbek xonliklarining hukmdorlari Rus davlati tajovuzlariga e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik qildi. O'zaro urushlar girdobiga botib, katta kuchlarni behuda qurbon qildi, mamlakat boyligini besamar ishlarga sovurdi. Vaqtini aysh-ishrat, kayfu safoda o'tkazdi.**

Yurtboshimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: «Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?»[21].

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar qabilalar ko'chishini keltirib chiqarardi yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir butun xalq bo'lib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni Turkistonni, xalqni birlashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yo'lboshchi topilmadi.

Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash tarzi davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga, yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

O'zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo'shni mamlakatlarni o'z tasarrufiga kiritib olish siyosatini jadallashtirayotgan chor Rossiyasiga qo'l keldi. Xonliklardagi parokandalik, o'zaro nizo va urushlar, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylanishiga olib keldi.

[21] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T: «Sharq», 1998, 9-bet.

**9-mavzu. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi. Chorizm istibdodiga o’arshi Turkiston xalo’larining milliy ozodlik kurashi. Jadidshilik.**

**REJA:**

1. Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakashilik idora usulining joriy etilishi.
2. Mustamlakashilarning io’tisodiy, ma’naviy-madaniy siyosati va amaliyoti.
3. Chorizm mustamlakashilik zulmiga o’arshi milliy ozodlik harakati.
4. Turkistonda jadidlar harakatining vujudga kelishi. Jadidlarning madaniy oqartuvshilik va istiqlolshilik faoliyati.

**ADABIYoTLAR.**

I.A.Karimov. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida T.: O’zbekiston, 1997, 49-69 betlar.
I.A.Karimov. Mustaqillik – muqaddas ne’mat. Asarlar, 6-jild. T.: O’zbekiston, 1998, 318-321-betlar.
X.Ziyoev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.: Sharq, 1998.
M.Xasaniy. Turkiston bosqini. T.: Nur, 1992.
O’zbekistonning yangi tarixi. Birinshi kitob. T.: Sharq, 2000.
Jadidshilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot ushun kurash. T.: Universitet, 1999.
Q.Usmonov v.b. O’zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. –T.: Meros, 2000, 224-258 betlar.

4. **Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakashilik idora usulining joriy etilishi.**

XIX asrda yirik mustamlakachi davlatlar tomonidan Afrika, Osiyo, Amerika va Okeaniya mamlakatlarini bo’lib olish uchun kurash yanada kuchayadi. Ayni Shu asr eng yirik mustamlakachi imperiya bo’lmish Rossiyaning O’rta Osiyoni zo’ravonlik yo’li bilan bosib olish, mustamlakaga aylantirish davri bo’ldi.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksand II tomonidan 1859 va 1861 yillarda o’tkazilgan saroy kengashida muhokama qilinadi va birinchi navbatda Qo’qon xonligini bir yoqli qilish, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi.

1864 yil may oyida Qo’qon xonligi hududiga Sharq tomondan polkovnik Chernyaev qo’mondonligidagi Rossiya qo’shinlari, G’arbdan polkovnik Verevkin qo’shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo’qon xonligining muhim va tayanch shaharlari Avliyoota, Suzak, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinshlar 1864 yil 14 iyulda Chimkentga yurish boshladilar. Bu orada Qo’qon xoni Sulton Sayidxon va lashkarboshi Mulla Alimqul bor kushlarini to’plab Chimkent atrofida jangga tayyorlandilar. Ush kun davomida qattiq jang bo’ldi. Manbalarda yozilishisha, jangda shunday qirg’in bo’ldiki, o’liklardan tepalar hosil bo’ldi. Jangda Mulla Alimqul qo’shinlari g’olib shiqdi, Chernyaev qo’shinlari jangda engilib orqaga shekinishga majbur bo’ldi.

Aleksandr II 1867 yil 14 iyulda Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugini tuzish to’g’risida Farmon berdi. General-gubernator va okrug qo’mondoni etib general-ad’yutant K.P. Fon Kaufman tayinlandi. Unga biror davlatga urush e’lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma’muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan, Shu boisdan u «Yarim

podshoh» deb atalardi. Bu tadbir Chor Rossiyasining o’rta Osiyoni bosib olish yo’lidagi harakatida yangi bosqich bo’ldi.

Fon Kaufman Samarqandga tomon yurish boshladi. 1868 yil 1 may kuni shahar yaqinidagi Cho’ponota tepaligida Buxoro amiri qo’shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag’lubiyatga uchratdi, bir paytlar dovrug’i olamni tutgan Samarqand 2 may kuniyoq deyarlik jangsiz dushmanga taslim bo’ldi. Bu voqeadan dunyo hukmdorlari, jumladan Rossiya podshohi ham hayratlangan. Buxoro amiri Muzaffar Samarqandning bosib olingani to’g’risidagi xabarni etkazgan odamni osib o’ldirishga farmon berib, o’zi alamidan yig’lagan.

Buxoro amiri o’z qo’shinlarini to’plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo’shinlari Зirabuloqda 1868 yil 2 iyunda to’qnashdi, qattiq jang bo’ldi, amir qo’shinlari tor-mor etildi. Bu orada Samarqandda istilochilarga qarshi qo’zg’olon ko’tarildi. Shaxrisabz, Kitob beklari Jo’rabek va Bobek hamda amirning o’g’li Abdumalik To’ra 27 may kuni Samarqandga qo’shin bilan etib kelib, qo’zg’olonchilar bilan birgalikda Fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o’ldirildi va yarador qilindi. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan Fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keladi va 8 iyun kuni shaharni to’plardan yoppasiga o’qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyruq beradi. Aholi qirg’in qilindi, masjitlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma’naviy obidalar Peterburgga olib ketildi.

1968 yil 23 iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o’rtasida sulh bitimi imzolandi. Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya’ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qilaolmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xo’jand, O’ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo’rg’on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir 125 ming tilla (500 ming so’m) tovon to’lash majburiyatini oldi. Bunday bosqinchilik, talanchilik sulhi aholi yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo’rabek va Bobek kuchlari nafaqat bosqinshilarga, shuningdek amir Muzaffarga qarshi ham qaratiladi. Ular Abdumalikni amir deb e’lon qiladilar. Amir Muzaffar endi bosqinshilarga emas, fon Kaufman yordamida o’z vatandoshlariga qarshi urushga kiradi va 1870 yil avgustda ularni kuch bilan bostirib, o’z taxtini saqlab qoladi. Shahrisabz va Kitob bekliklari amirlik tarkibida qoldi.

1873 yil 12 avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog’ida Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo’ldi, tarixda Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantirildi, Amudaryo quyi oqimining o’ng tomonidagi erlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka 2 million 200 ming so’m tovon to’latish yuklatildi, Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida boj va majburiyatlarni bajarishdan ozod etildi. Xon o’zini Rossiya podshohining itoatkor xizmatkori deb tan olishga majbur bo’ldi.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo’qon xonligini tugatishga kirishdi.

**2. Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma’naviy-madaniy siyosati va amaliyoti.**

Rossiya hukumati Turkistonni iqtisodiy jihatdan batamom bo’ysundirish, uning boyliklarini tashib ketish, o’lkani xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini yuritdi. Bu siyosatni Chor Rossiyasi dvoryan-pomeshiklari va burjuaziyasi qo’llab-quvvatladi, ular o’lkani zuluk kabi so’rishga kirishib ketdilar.

Rossiya to’qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun yiligi 30-40 million so’m boj to’lab kelardi. Shu boisdan Turkistonni paxta xom ashyosi etishtiradigan bazaga aylantirish, Turkiston hisobiga paxta mustaqilligiga erishish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi, deb belgilandi. Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta-katta er maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e’lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan erlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni ilgarigi egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga er olib, undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga o’sha erlar meros qilib biriktirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa o’lkaning barcha hosildor erlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. Er solig’i XIX asr oxirida 4 million so’mni tashkil etgan bo’lsa, 1916 yilda 38 million so’mdan oshib ketdi.

Turkiston Rossiyaning jahon bozorlarida o’tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga ham aylantirildi. 1895 yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan 6 million so’mdan ortiqroq summada temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog’och, choy, oziq-ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo’lsa, 1914 yilda sotilgan buyumlar salmog’i 243 million so’mdan oshib ketdi. Achinarlisi shundaki, sotilgan maxsulotlarning 40 foizi o’lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to’qimachilik korxonalarida to’qilgan gazlamalar tashkil etardi. Rossiya savdo-sanoatchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, Turkistondan xom ashyo sotib olishdan ham katta daromad olardilar.

Chor ma'murlari mahalliy aholiga Rossiyaning ulug'vorligini ko'rsatish, evropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirdilar. Katta yoshdagilarni, shuningdek yoshlarni guruh-guruh qilib Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rsatishardi. Mustamlakachilar sayohatchilar o'z yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug'vorligi haqida vatandoshlariga so'zlab beradi, Rossiya tarkibida bo'lganidan g'ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko'zlab uyushtirildi.

Turkistonda hukmronlik qilgan general gubernatorlar

| | |
|---|---|
| K.P. fon Kaufman | - 1867-1882 |
| M.G.Chernyaev | - 1882-1884 |
| N.O.Rozenbax | - 1884-1888 |
| A.V.Vrevskiy | - 1889-1898 |
| S.M.Duxovskiy | - 1898-1901 |
| N.A.Ivanov | - 1901-1904 |
| P.N.Tevyashov | - 1904-1905 |
| D.I.Subbotish | - 1905-1906 |
| I.I.Grodekov | - 1906-1908 |
| P.I.Mishshenko | - 1908-1909 |
| A.V.Samsonov | - 1909-1913 |
| Flug, Martson, Erofeev general gubernator vazifasini bajaruvshilar | |
| A.N.Kuropatkin | - 1916-1917 |

**3. Chorizm mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati.**

Turkiston xalqlarining Chor Rossiyasi qo'shinlarining bosqinshilik yurishlariga qarshi Vatan ozodligi ushun kurashi oldingi mavzuda yoritilgan edi. Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgash, uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy zulmi kushayib bordi. Chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi xalqni noroziligi, nafrati oshib bordi, qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allar bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar.

1880-1883 yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'Shu va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'laoladi. Mustamlakachilar harbiy kuch bilan qo'zg'olonlarni bostirib, harakat boshliqlarini qamoqqa olib, faollarni qattiq jazoladilar. 1885 yilning yozida Farg'ona vodiysida xalq qo'zg'olonlari qaytadan avj olib ketdi. Эndi qo'zg'olonchilar kurash usullarini o'zgartirib, boylar va volostь hokimlarining qo'rg'onlariga o't qo'yadilar. Qo'zg'olon birin-ketin viloyatning barcha uezdlariga yoyiladi, ba'zi joylarda qurolli harakat tusini oladi. Manbalarda 1885-1892 yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy shiqishlari, xarakatlari ko'tarilgani qayd etilgan.

Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammad Ali Эshon boshchilik qildi. U otasining kasbini olib duk yasardi, shuning uchun uni Dukchi Эshon deb atashardi. Muhammad Ali Buxoroda o'qidi, Makkaga hajga boradi, Farg'ona viloyatidagi Sultonxon To'ra Эshon xizmatida bo'ldi. Uning vafotidan keyin o'zi Эshon bo'ladi. Uning maqsadi rus hukmronligidan qutilish, Farg'onada o'z kishisini xon qilib ko'tarish edi. Uning atrofida kambag'allar to'plana bordi, bog'lar yaratdi, suvsiz erlarga suv chiqardi. Muhammad Ali Эshon o'z muridlari bilan kengashib mustamlakachilarga qarshi hujum qilish rejasini tuzadi.

1898 yil 17 may kuni bir guruh kishilar Muhammad Ali Эshonni oq kigiza o’tqazib, xon deb ko’tardilar, xaloyiqni qo’zg’olonga da’vat qildilar. Shu kuni xufton paytida har kim qo’liga tushgan narsani olib, taxminan olti yuz kishi Andijon shahariga jo’nadilar.

**4. Turkistonda jadidlar harakatining vujudga kelishi, ularning islohotchilik faoliyati. 1916 yil qo’zg’oloni.**

Sharq bilan G’arbni taqqoslab musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan Rossiya tasarrufiga olingan musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo’lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo’q qilish, ma’naviyat-ma’rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko’tarilish harakatini boshlab berdi. Ismoil Gaspirali maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o’qitish masalasini ko’tardi. U 1884 yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi.

«Jadid» arabcha so’z bo’lib «yangi» degan ma’noni bildiradi. U o’zi tashkil etgan maktab o’quvchilari uchun o’quv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. U 40 kun ichida 12 o’quvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. «Tarjimon» gazetasini chiqarib, o’z g’oyalarini eydi. 1888 yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo’ldosh» kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars o’tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi.

Ismoil Gaspirali g’oyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893 yilda U Turkistonga kelib ilg’or ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida bo’lib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, « Usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898 yilda Qo’qonda Salohiddin domla, 1899 yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkistonda 102 ta boshlang’ich va 2 ta o’rta jadid maktablari faoliyat ko’rsatdi.

Turkiston jadidlariga Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o’nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yo’lidan bordilar. « Usuli jadid» maktablari tarmog’i kengayib bordi, ularda diniy ta’limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasi kabi dunyoviy bilimlar o’rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi.

Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. O’n minglab askarlari jangda qurbon bo’ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya Oliy Bosh qo’mondon shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni» zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to’plashga umid bog’ladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916 yil 25 iyunda Turkiston, Sibir va Кavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo’lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to’g’risida farmon chiqardi.

4 iyulda Xo’jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unda dehqonlar, mardikorlar,chorakorlar, ayollar - jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o’tdi. Poliцiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog’ildi. Harbiy qismdan soldatlar etib kelib poliцiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o’ldi, bir kishi yarador bo’ldi. Xo’jand voqeasi haqidagi xabar butun Turkistonga yoyildi. 5 iyulda Samarqand uezdining Urgut qishlog’ida g’azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar olomoni volostь boshqaruvining mahkamasi oldiga to’plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O’sha kuni Samarqand uezdining Siyob, Mahalla, Xo’ja Axror va Angar volostlarida ham namoyishlar bo’lib o’tdi.

11 iyulda Toshkentda katta g’alayon boshlanib ketdi. Hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag’allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog’ochdagi poliцiya boshqarmasi tomon yo’l oldilar. Bu erda katta olomon to’plandi. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko’ra o’zimiz o’lganimiz yaxshiroq, podsho o’lib ketsin» deya maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Йo’lchi Ibrohimov (ko’nchi), G’ulom Кamolov (g’isht teruvchi), ishchi ayol Зuhrabibi Musaeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat’iy kurash boshlashga da’vat etdilar. « Ur poliцiyachilarni!» degan qichqiriqlar bilan boshqarmaga hujum qildilar. Qamal va otishma boshlanganidan bir soat keyin yordamga jazo qo’shini etib keldi. Кazak qismlar 5 kishini otib o’ldirishdi, 15 kishi yarador bo’ldi.

**10 – mavzu: Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakati**

**REJA:**

5. 1917 yil fevral inqilobining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri.
6. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati.
7. Turkiston muxtoriyati. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat.
8. Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o‘sib borishi.

**Adabiyotlar:**


7. Karimov I. A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida… -T.: O’zbekiston, 1997, 49-69 betlar.
8. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
9. O’zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O’zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq. 2000, 10-113 betlar.
10. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. -T.: Universitet, 1999, 66-75 betlar.
11. Usmonov Q,. Sodiqov M O’zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). -T.: Sharq, 2002, 1 bob. 5-69 betlar.
12. Murtazaeva R.X. Istoriya Uzbekistana. Uchebnik. -T.: 2005.


Rossiyada 1917 - yil fevralida burjua - demokratik inqilobi sodir bo’ldi, ko’p asrlik Romanovlar sulolasi hukmronligi ag’darildi. Chorizm siyosiy tuzumining barham topishi Rossiya imperiyasi va uning turli hududlarida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskin o’zgarishiga olib keldi. Buning natijasida Rossiyada tarixda kamdan-kam uchraydigan hodisa - ikki hokimiyatchilik vujudga keldi.

- burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat
- Ishchi, askar, dehqon deputlari sovetlari

Shunday qilib, Turkistonning ilg’or ziyolilari milliy istiqlolga erishish yo’lida o’lkadagi barcha sog’lom, vatanparvar kuchlarni birlashib, jipslashib harakat qilishga da’vat etgandilar. Biroq, afsuski, Turkistonda ayricha faoliyat yuritgan, o’z nafsoniyatiga berilgan hamda muxolifatchilik ustivor bo’lgan ayrim mahalliy, milliy tashkilotlar mana shu yuzaga kelgan imkoniyatlardan foydalana olmadilar. Bu esa, shubhasiz, vaziyatni ustamonlik bilan o’z izmiga burib yuborishga intilayotgan bolsheviklarga qo’l keldi.

### 1. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o’rnatilishi, uning shovinistik siyosati

Muvaqqat hukumatning mamlakatni jahon urushidan olib chiqa olmaganligidan, agrar va milliy masalalarni hal etolmayotganligidan bolsheviklar ustamonlik bilan foydalandilar. Bolsheviklar ilgari surgan “Butun hokimiyat Sovetlarga!”, “Yer dehqonlarga”, “Xalqlarga tinchlik” shiorlari ularning hokimiyatga kelishlarida ayniqsa asqotdi. Rossiya poytaxti Petrogradda 1917 - yil 24-25 - oktyabrda davlat to’ntarilishi sodir bo’ldi. Uni Lenin boshchiligida bolsheviklar partiyasi zo’rlik bilan amalga oshirdi. 1917 - yil 25 - oktyabrda bolsheviklar tomonidan Petrogradda Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyi chaqirilib, unda Lenin boshliq Sovet hukumati – Xalq Komissarlar Soveti tuzildi. Sulx va Yer to’g’risida dekretlar qabul qilindi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga sobiq chor Rossiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda ham o’z hokimiyatini o’rnatish harakatida bo’ldilar.

Bolsheviklar Markazda siyosiy hokimiyatni qo’lga kiritgach, Turkistonda ham sovet hokimiyatini qaror toptirishga intildilar. Turkistonda Sovet hokimiyatini o’rnatish g’oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktyabr g’oyalarining mahalliy tubjoy aholining dili va shuuriga botmaganligidadir. Negaki, bu zamin aholisi bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o’zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliylashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o’zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o’ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo’jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o’zgartirishni xohlamasdi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o’zligi va ma’naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa bolsheviklarning ateistik ruhdagi mafkurasi, uning hujumkor yo’nalishi islom qadriyatlari doimo e’zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyoqarashi bilan singisha olmasdi. Bir so’z bilan aytganda, mahalliy tub yerli aholi tabiiy ravishda oktyabr g’oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko’rsatmadi. Biroq begona maslak va g’oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo’rlik bilan o’lka xalqlariga majbur qilindi.

Toshkentda faoliyat ko’rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo’zg’olon yo’li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirishdilar. Bolshevik V.S.Lyapin boshchiligida inqilobiy qo’mita tuzildi va qo’zg’olon

boshlandi. 1917 - yil 27 - oktyabr oqshomida Toshkentda boshlangan qo'zg'olon natijasida 1 - noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. **Toshkentda Sovet hokimiyati o'rnatildi.** Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Yangi Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati o'rnatildi.

Turkistonda sovet hokimiyati organlarini tuzish vaqtida ham bolshevik yo'lboshchilarning ulug'davlatchilik va shovinistik siyosati to'la kuch bilan namoyon bo'ldi. 1917 - yil 15-22 - noyabr kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III O'lka qurultoyi hokimiyat masalasini o'zboshimchalik va biryoqlamalik bilan hal etdi. Unda bolshevik Kolesov boshchiligida **Turkiston Xalq Komissarlari Soveti** tuziladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta so'l eser vakillar kiritildi. Uning tarkibiga butun o'lka aholisining 95 foyizini tashkil etuvchi yerli millat aholisidan esa birorta ham vakil kiritilmadi.

Vaholanki, oktyabr o'zgarishi rahnamosi Lenin imzo chekkan "Rossiya xalqlari xuquqlari Deklaratsiyasi", "Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi", "Rossiya va Sharq musulmonlariga" xitobnomasi hamda boshqa hujjatlarda millatlarning ozodligi, erki, huquqlari rasman e'tirof etilgan edi. Amalda esa ulug' davlatchilik siyosati yuritildi..

Sovetlar mahalliy aholining asriy orzularini ruyobga chiqarishni emas, balki aksincha uni har sohada kamsitish, milliy va diniy qadriyatlarini tahqirlash yo'lidan bordilar. Sovet hokimiyatining mahalliy aholining xususiy mulklarini tortib olish, hamma narsani Sovetlar manfaatlari yo'lida umumlashtirish yo'lida amalga oshirgan g'ayritabiiy faoliyati pirovard oqibatda o'lka halqlarining keskin norozilik harakatlarining kuchaya borishiga sabab bo'ldi.

### 3. Turkiston muxtoriyati

Sovet hokimiyati Turkiston jilovini qo'lga olib, o'zining avval e'lon qilgan balandparvoz va'daridan voz kechib, o'lka xalqlariga qarata olib borgan ikkiyuzlamachilik va munofiqlik siyosatiga javoban yurtning millatparvar rahnamolari faol harakatga keldilar. 1917 - yil 26 - noyabrida Qo'qonda **o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi** chaqirildi. Unda Turkiston o'lkasining 5 viloyatidan 200 nafardan ziyodroq vakillar ishtirok etdi. Qurultoy ishida "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", Musulmon harbiylari Sho'rosi, o'lka yahudiylari jamiyati namoyandalari ham qatnashdilar. Qurultoyda **Turkiston Muxtoriyati tuzildi**. Bu xususda qabul qilingan qarorda shunday deyiladi:

"Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi". Shundan so'ng qurultoy "Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon kiladi".

Yangidan tarkib topayotgan davlat **Turkiston Muxtoriyati** deb ataladigan bo'ldi. Qurultoyda Turkiston Muxtoriyatining hokimiyat organi- **Muvaqqat Kengash** tuzildi. Muvaqqat Kengash tarkibi 12 kishidan iborat etib belgilandi. Dastlab unga quyidagi nomzodlar kiritildi:

1. M. Tinishpaev - bosh vazir, ichki ishlar vaziri[1];
2. Islom Shoahmedov - bosh vazir o'rinbosari;
3. Mustafo Cho'qaev - tashqi ishlar vaziri (keyinroq bosh vazir);
4. Ubaydulla Xo'jaev - harbiy vazir;
5. Yurali Agaev - yer va suv boyliklari vaziri;
6. Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri;
7. Abdurahmon O'razaev - ichki ishlar vaziri o'rinbosari;
8. Solomon Gersfeld - moliya vaziri.

Hukumat tarkibiga yevropalik aholi orasidan yana to'rtta vakil kiritilishi belgilab qo'yilgan edi.

Qurultoyning yana bir katta xizmati, bu uning tomonidan Turkiston Milliy majlisi (parlamenti) tuzilganligi bo'ldi. Unga "Sho'roi Ulamo" tashkiloti rahbari Sherali Lapin rais etib saylandi.

---

[1] Qozoq taraqqiyparvarlari 1917 - yil dekabrda Orenburgda s'ezd o'tkazib «Alash-O'rda» avtonom Respublikasini tuzdilar, uning hukumati tarkibiga M.Tinishpaev saylanadi. Shu munosabat bilan M.Tinishpaev «Alash O'rda» poytaxti Semipalatinskka ketadi.

Milliy Majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: T. Norbo'tabekov, S. Sharifxo'jaev, Nosirxonto'ra Komolxonto'ra o'g'li, M. Behbudiy, Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov singari yurt peshvolari ham saylangan edilar.

Shunday qilib, o'lkaning mo''tabar millatparvar zotlaridan iborat milliy hokimiyat tashkil etilib, uning zimmasiga ulug'vor vazifalar yuklandi. Eng muhimi, Turkiston xalqining erki, mustaqilligini asta-sekin tiklash - bu xalqchil hukumatning bosh vazifasi edi. Shu boisdan ham o'lkaning millionlab fuqarolari Turkiston Muxtoriyati e'lon qilinganligini katta qoniqish ruhi bilan qarshi oldilar. 1917 - yil dekabr oyi boshlarida Toshkent, Namangan, Jalolobod, Qo'qon, Samarqand shaharlari aholisi mitinglar, namoyishlar uyushtirib, muxtoriyatni qizg'in qo'llab-quvvatlab chikdilar.

Biroq o'lkada o'rnashib olgan va asosiy boshqaruv jilovini qo'lda ushlab turgan Turkiston sovet hukumati va uning joylardagi hokimiyat mahkamalari Turkiston muxtoriyati va uning tarafdorlarini yo'q qilish yo'lini butun choralar bilan o'tkazib bordi. 1917 - yil 13 - dekabrida Toshkentda muxtoriyatni yoqlab o'tkazilgan katta mitingni zo'rlik bilan tarqatib yuborilishi, bugina emas, unda sovet kuchlari otgan miltiq va pulemyotlar sadosi ostida ko'plab qurbonlar berilishi (eski shaharlik 16 kishi otib o'ldirilgan edi) - bu Turkiston muxtoriyatiga nisbatan uyushtirilgan dastlabki suiqasd edi.

Sovet hokimiyati o'zining avvaldan rejalashtirgan sotsialistik yo'nalishdagi iqtisodiy va siyosiy qayta qurishlar yo'lini izchil amalga oshirishga kirishdi. Chunonchi, yer to'g'risidagi dekret asosida yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni tugatish boshlandi. Shu maqsadda joylarda **yer qo'mitalari** tuzildi. Jumladan, 1918 - yil kuzida Sirdaryo viloyatida 51 ta, Samarqand viloyatida 50 ta, Ettisuvda 25 ta shunday qo'mitalar tashkil etildi. Biroq dehqonlar sovet ma'murlarining yer qo'mitalarini tuzish harakatini keskin norozilik bilan qarshi oldilar. Shunga qaramasdan bolsheviklar bu yo'lni qat'iy amalga oshirishda davom etdilar. Buning natijasida o'lkadagi ko'plab miqdordagi yirik mulklar, xususiy yerlar musodara etildi va milliylashtirildi.

### 4. Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi. Xiva xonligi va Buxoro amirligining emirilishi

Ma'lumki, Rossiyada 1917 - yilda yuz bergan fevral inqilobiy o'zgarishi chorizmning yarim mustamlaka o'lkalari hisoblangan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham aks-sado bermay qolmadi. Avvalo, bu tobe davlatlarning Rossiya ta'siridan xalos bo'lishga intilishi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lish sari harakatlari faollashdi.

1917 - yil kuzida Rossiyada ro'y bergan oktyabr o'zgarishi, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi davomida Xivada ham demokratik harakat yangi bosqichga qadam qo'yadi. Demokratik kuchlar, aholining kambag'al tabaqalari faol harakatga kela bordilar. Qo'ng'irot, Ko'hna Urganch, Xojayli, Taxta, Porsu bekliklarida mahalliy aholi qat'iy harakatlarga chiqdi. Buning ustiga mamlakatni boshqara olmay qolgan xonning 1918 - yil yanvarida turkmanlar sardori Junaidxonni Xivaga chaqirishi va uni bosh qo'mondon etib tayinlanishi ham vaziyatni yanada chigallashtirib yubordi. Junaidxon tez orada Asfandiyorxonni qatl ettirib, o'rniga uning tog'asi, irodasiz Said Abdullani nomiga xon qilib ko'tarib, amalda yakka hukmdor bo'lib oldi. Xorazm xalqlarining xohish-irodasiga zid tarzda amalga oshirilgan bu xil tadbirlar va eng asosiysi, respublikani boshqarish jilovini tobora Sovetlar hukmronligi qo'l ostiga o'tib borishi, pirovardida voha aholisining umumiy noroziligining kuchayib borishiga sabab bo'ldi.

Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligidagiga o'xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe, vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo'lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasi behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar yuzaga kela bordi. Mamlakatning ilg'or, taraqiyparvar ziyoli yoshlaridan tashkil topgan **Yosh buxoroliklar** tashkiloti bu harakatlarga etakchilik qildilar. O'z saflarida Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Muhitdin Mansurov, Po'latxo'ja Usmonxo'jaev kabi yurt fidoyilarini birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga intilganlar. Ular ishlab chiqqan islohotlar loyihasida mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatish, ijtimoiy-siyosiy erkinliklar joriy qilish, maorif ishini yaxshilash masalalariga alohida urg'u berilgandi

Buxoro XSRning 1921 - yil sentyabrida qabul qilingan Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstituttsiyasi andozasida tuzilgan edi. Hukmron Markaz tashabbusi bilan 1923 - yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuziliish va uning tarkibiga Buxoro XSRning ham jalb qilinishi bu uning iqtisodiy mustaqilligining asta-sekin qo'ldan boy berib borilishiga sabab bo'ldi. Moskva tazyiqi ostida bu hududda sotsialistik o'zgarishlar izchil amalga oshirilib borildi. 1924 - yil sentyabrda bo'lib o'tgan V

Butunbuxoro qurultoyi BXSRni **Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi** deb e’lon qildi. Nihoyat, 1924 - yilda o’tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi natijasida Buxoro davlat sifatida tugatildi.

## 5. Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat

Turkistonning yaqin o’tmishi tarixida yorqin sahifa yozgan hamda xiyla uzoq davom etgan, fojiali voqealarga to’lib-toshgan sovet hokimiyatiga qarshi ko’tarilgan bu qurolli harakatning mazmun, mohiyatini sovet mustamlakachilari muttasil buzib, soxtalashtirib keldilar. Uni sovet tarixshunosligida «bosmachilar harakati», «aksilinqilobiy kuchlar bosqini», «bir to’da yurt buzg’unchilari harakati» singari nomlarda ta’riflab kelindi. Biroq xalqimizda «oyni etak bilan yopib bo’lmaydi» deyilganidek, ulug’ ajdodlarimizning Vatan, elu yurt erki, ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan bu mardona kurashi to’g’risidagi tarixiy haqiqat milliy istiqlol sharofati bilan to’liq tiklanib, o’z haqqoniy, xolis bahosini topdi. Bu harakat sovetlar mafkurasi to’qib chiqargan shunchaki «bosmachilar» harakati emas, balki sovet hokimiyatining zo’ravonlikka asoslangan siyosati va amaliyotiga qurolli qarshilik ko’rsatish harakatidir.

Kichik Ergash qizillar qo’shini bilan bo’lgan jangu jadalda halok bo’lganidan so’ng (1918 - yil fevral) Qo’qon uezdi tevaragidagi qurolli harakatga Mulla (Katta) Ergash boshchilik qila boshladi. U o’zining faol harakati, xalq rahnomosiga xos sifatlari bilan tez orada butun vodiydagi ozodlik kurashining tanilgan etakchisiga aylandi. 1918 - yil kuziga kelib uning qo’l ostida har birida 20 tadan 1800 nafargacha yigiti bo’lgan bo’lgan 70 ta qo’rboshi dastalari harakat qilayotgandi. Ulardagi jangchilarning umumiy soni 15 mingtaga yetardi. Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Xolxo’janing 3 mingdan ziyod, Parpi qo’rboshining 3,6 ming, Jonibekning 5,7 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming jangovor yigitlari ozodlik kurashiga otlangan edilar. Umumiy maqsad va vazifalarni birgalikda aniqlash, asosiy harakatlarni muvofiqlashtirish yo’li bilangina tish-tirnog’igacha qurollangan sovet qo’shinlarini yengish, yurt mustaqilligini ko’lga kiritish mumkin edi. Shu bois bu jangu jadal davrlarda qo’rboshilarning bir necha bor qurultoylari chaqirilib, ularda muhim hayotiy masalalar muhokama qilinadi. Dastlab shunday qurultoy **1918 - yil martida** Qo’qon uezdining Bachqir qishlog’ida o’tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg’ona vodiysi harakatining rahbari etib saylandi. Unga qo’shinlarning bosh qo’mondoni – «Amir al-Muslimin» unvoni beriladi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o’rinbosarlari etib saylandilar. Harakat ko’lamining o’sib, kengayib borishi, uning saflariga yangi ijtimoiy tabaqalar vakillarining qo’shilishi, tabiiy suratda uning oldiga ulkan mas’ul vazifalarni, yangi muammolarni keltirib chiqara bordi. Ularni hal etish esa kurash rahnamolaridan katta matonat, kuchli iroda, yuksak harbiy mahorat, tashkilotchilik kobiliyati va uzoqni ko’ra bilishlik salohiyatini namoyon qilishni taqoza etardi. Farg’ona qo’rboshilari ichida **Madaminbek Ahmadbek** o’g’ligina mana shunday noyob fazilatlar sohibi ekanligi bilan ajralib turardi. Navqiron yoshda bo’lishiga qaramasdan katta hayot va kurash tajribasi boy, yurt kezgan, yuksak harbiy sarkardalik iste’dodiga ega Madaminbek ( 1892 – 1920 ) tez orada vodiy kurashchilari sardoriga aylanadi. Sovetlarning rasmiy hujjatlaridan birida ta’kidlanishicha, «o’z oldiga sovet hokimiyatini ag’darish va Farg’ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo’ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi».

Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning ijtimoiy tarkibini kuzatarkanmiz, bunda aholining sovet tuzumidan norozi bo’lgan, turli – tuman ijtimoiy qatlamlari, chunonchi, dehqonlar, hunarmandalar, kosiblar, batraklar, mardikorlar, ziyolilar, dindorlar, ruhoniylar, mahalliy boylar u yoki bu darajada faol ishtirok etganligi ayon bo’ladi.

Sovet qo’shinlari qo’mondonlari vodiydagi qurolli harakatni siyosiy kelishuv yo’li bilan to’xtatish choralarini ham ko’rdilar. Ular qo’rboshilarga vakil yuborib sulh tuzishni taklif qildilar. Og’ir, murakkab voqealar sharoitida ba’zi qo’rboshilarning sovetlar tomoni bilan kelishuv yo’liga borishi tushunarlidir. Chunonchi, Madaminbek 1920 - yil martida sovet qo’mondonligi bilan muzokara olib boradi va sulh imzolab, o’z harakatlarini to’xtatadi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek va uning 1200 nafardan ziyod askar yigitlarining daxlsizligi, o’z qurol – yarog’lariga ega bo’lishi, kerak bo’lganda ularning vodiyda tinchlik, barqarorlik o’rnatishda faol ishtirok etishi ta’kidlangan edi. Garchand sulhning bir qator shartlari keyinroq sovet qo’mondonligining makkorona xatti – harakati bilan o’zgartirilgan bo’lsa–da, biroq Madaminbek bu kelishuvga, uning mahalliy xalq uchun foydali,

manfaatli bo'lishiga ishongan edi. Shu bois ham u o'zining boshqa safdoshlariga ham sovetlar bilan muzokaralar olib borib, shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq Shermuhammadbek va Xolxo'ja o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning bu mard o'g'lonini sotqinlik va xoinlikda ayblab, uni qatl ettiradilar. Sodir etilgan bu fojiali voqea ham vodiy qurboshilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik mo'rt, omonat bo'lganligidan guvohlik beradi.

Bu xalq harakati millionlab yurtdoshlarimiz hayoti va qismatida o'chmas fojiali iz qoldirdi. Ba'zi aniqlangan rasmiy ma'lumotlarga karaganda, u milliondan ziyod mahalliy millat kishilarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarning o'z ona zaminini tark etib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Qolaversa, qanchalab son – sanoqsiz odamlar mana shu milliy fojia bois mamlakatning boshqa, uzoq hududlariga surgun va badarga qilindi.

Biroq bu xalq harakati bejiz ketmadi. U yurtdoshlarimizga katta, ibratli saboqlar berdi, ularning kurash tajribasining boyishiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Zero, ona O'zbekistonimizning istiqlolga yuz tutib, dorilamon zamonlarga musharraf bo'lishida, bugungi baxtiyor avlod kishilarining mustaqillik oliy ne'matidan to'la bahra topishida o'sha 20–30-yillarda bobokalonlarimiz qilgan ulkan sa'y – harakatlar, to'kkan qutlug' qonlar, bergan bemisl qurbonlarning ibrati oz muncha emas. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi minnatdor avlod kishilarining yodida, shuurida hamisha saqlanadi, faxr – iftixor tuyg'usi bilan eslanadi.

**11-mavzu. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlari va ularning mustamlakachilik mohiyati.**

REJA

1. O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi. O'zbekiston SSRning tuzilishi.
2. Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.
3. O'zbekistonda er-suv islohoti va dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish, uning oqibatlari.
4. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Asarlar, t.1. T.: O'zbekiston, 1996, 36-86 betlar.
Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'oasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqqiyot kafolatlari. Asarlar, t.6. T.:O'zbekiston, 1998, 49-68 betlar.
Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, t.3. T.:O'zbekiston, 1996, 74-86-betlar
Usmonov O', Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. (1917-1991 yillar), T: Sharq, 2002, 69-105, 193-219 betlar
O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T: Sharq, 2000, 312-385, 520-569 betlar.

3. O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi . O'zbekiston SSRning tuzilishi.

Bolsheviklar partiyasi bosh bo'lgan sovet hokimiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar, erksevar istiqlolchilar harakatini daf etishga muvaffaq bo'lgach, endilikda bu hududda uzoqqa mo'ljallangan o'z makkorona rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Shu maqsadni ko'zlab u XX asrning 20-yillari boshlaridan bu zaminda mustamlakachilarga xos «orani buz, hokimlik qil» qabilidagi o'z milliy siyosatini hayotga izchil tadbiq etish yo'lini tutdi. Aslida sovetlarning milliy siyosati chorizmning ko'p zamonlar bu yurtda yuritib kelgan shovinistik, ulug' davlatchilik siyosatidan mohiyat e'tibori bilan farq qilmasdi. Faqat uning shakli-shamoyili o'zgargan edi, xolos.

Garchi bo'lajak ittifoq sovet respublikalarining do'stlik va tenglikka asoslangan ixtiyoriy ittifoqi bo'ladi, deyilsada, biroq uzoqni ko'ra bilgan respublikalarning qator rahbarlari bunga qarshi edilar. Masalan, Ukrainada UKP(b) Markaziy Қo'mitasi kotiblari X.G.Rakovskiy va D.L.Pyatakov yagona ittifoq davlati g'oyasiga qarshi chiqib, umumittifoq hokimiyat organlari bo'lmagan «konfederatsiya» tuzishni yoqlab chiqdilar. RKP(b) Markaziy Қo'mitasi Siyosiy byurosida, partiyaning s'ezdlari va plenumlarida, shuningdek sovet tashkilotlarida bu masala keng muhokama qilindi.

Nihoyat, RKP(b) rahbarligida joylarda uzoq vaqt olib borilgan tashviqot-targ'ibot ishlari va ko'rsatilgan tazyiqlar o'z natijasini berdi. Ukraina, Belorussiya, Zakavkaze Federatsiyasi Kompartiyalari, bu respublikalarning sovetlar s'ezdlari RKP(b) Markazqo'mining «SSSRni tuzish to'g'risida»gi takliflarini qo'llab-quvvatlashlarini bayon qildilar.

1922 yil 26 dekabrda Sovetlarning Butun Rossiя X съезди совет республикаларини ягона совет давлатига birlashtirishni zarur deb topdi. S'ezd o'zi saylagan delegatsiyasiga USSR, BSSR va ZSFSR delegatsiyalari bilan birgalikda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish va Ittifoq shartnomasini tayyorlashni topshirdi.

1922 yil 29 dekabrda Moskvada to'rt respublika vakolatli delegatsiyalarining konferentsiyasi bo'lib o'tadi. Konferentsiya SSSRni tuzish to'g'risida RKP(b) Markaziy Қo'mitasi plenumi tasdiqlagan Deklaratsiya va Shartnoma loyihasini muhokama qilib, uni maqullaydi. 30 dekabrda uni to'rt respublikalarning vakolatli delegatsiyalari imzolaydilar.

1922 yil 30 dekabrda Moskvada Butunittifoq Sovetlarining I s'ezdi o'z ishini boshlaydi. S'ezd RSFSR, USSR, ZSFSR va BSSR Sovetlari s'ezdlari saylagan vakolatli delegatlari imzolagan SSSR ni

tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ko'rib chiqib, Deklaratsiya va Ittifoq Shartnomasini tasdiqlaydi.

Markaz mo'ljallayotgan milliy siyosat mazmuni, mohiyatidan xabardor bo'lgan Turkistonning ilg'or ziyolilari, uzoqni ko'ra bilgan donishmand arboblari o'lka birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo'r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o'lka jilovini qo'lda mahkam tutgan bolshevik mutassadilar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadilar. Bugina emas, yagona va mustaqil Turkiston g'oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziyolilar millatchilikda, turkparastlikda va sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandilar.

1922-1923 yillarda erli millatlarning bir qator rahbar xodimlari sovet hokimiyatining Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida olib borilayotgan milliy siyosatiga ochiqdan-ochiq norozilik bildira boshladilar. Ammo ularning fikr-qarashlari noto'g'ri topilib, o'zlari aktiv faoliyatdan chetlatib borildi. RKP(b) MҚ, uning O'rta Osiyo Byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari faoliyatiga tazyiq o'tkazib, ularning milliy - hududiy chegaralanishi siyosatini ma'qullab, qaror qabul qilishlariga erishib bordi.

Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. Uning tarkibiga quyidagi xududlar kiritildi:

- sobiq Turkiston ASSR dan 9 ta u'ezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi;
- sobiq Buxoro respublikasining 9 ta tumani;
- sobiq Xorazm respublikasining 23 ta tumani.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning xududi 312394kv. km.ni, aholisi 4 mln. 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926 yil ma'lumotlari bo'yicha milliy tarkibiga ko'ra, axolining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganini esa boshqa millatlar tashkil etar edi.

### 3. Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.

g'angi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston qoloq chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu erda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish kerak edi. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda erli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. Ammo RKP (b) va sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdilar.

Turkiston mehnatkashlaridan olinadigan soliq Markaziy rayonlardan farqli o'laroq yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab emas, balki ekilgan erning har desyatinasi, shuningdek qora mol va mayda mollar hisobidan olinadigan bo'ldi. Bu esa Turkiston dehqonining kamsitilishini bildirardi.

O'lkada ayniqsa paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan paxta tozalash korxonalari tez sur'atda o'sdi. Bu Markaz to'qimachilik sanoatining o'zbek paxtasiga talab-ehtiyoji ortib borayotganiga ko'p jihatdan bog'liq edi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar ko'p narsaga umid bog'lagandilar. Eng asosiysi, ular bu o'lkada ko'plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo'li bilan uning boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish, arzon ishchi kuchidan foydalanish va oxir-oqibatda Markaz uchun ko'proq foyda undirib olishni ko'zlaganlar.

Sanoatlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon va Shahrisabzda pillakashlik fabrikalari, Farg'ona va Toshkent to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyo kombinatlari, Toshkent mashinasozlik zavodi va shu singari korxonalar qurildi. O'sha davr rasmiy ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928-1932 yy)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933-1937 yy) davrida 189 ta katta va kichik sanoat korxonalari barpo etilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham yil sayin ortib bordi. Chirchiq, Olmaliq, Bekobod, Angren, g'angiyo'l, Қuvasoy kabi sanoat shaharlari vujudga keldi. 1925-1940 yillar davomida respublikada qurilgan GESlar soni 49 taga etdi. Toshkent-Angren temir yo'li, Toshkent-Termiz katta avtomobil yo'li qurildi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar O'zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalari va 19 mingga yaqin mayda korxonalarni o'z ichiga olardi. Garchand sanoat qurilishi ancha ko'zga ko'rinarli tarzda rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, biroq bu sohada ko'plab jiddiy muammolar, nuqsonlar mavjud edi. Avvalo, yuqoridan tazyiq qilish amaliyoti, rahbarlikning

ma'muriy-buyruqbozlik usullari O'zbekiston sanoati tarmoqlarida chuqur ildiz otgan edi. Jumladan, respublika metropoliyaning rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokerit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi.

Sanoatlashtirish yillarida partiya va sovet hukumatining so'zi bilan amaliy ishi o'rtasida yakdillik va uyg'unlik bo'lmadi. Sotsializmning kapitalizmdan afzalligi, mehnatkashlar turmush farovonligini tubdan yaxshilash, ularning hayoti mazmunini chuqur o'zgartirish to'g'risidagi g'oyalar amaliyotda puch bo'lib chiqdi. Xalq ommasining o'n yillar davomida to'kkan peshona teri, amalga oshirgan tinimsiz mehnati, chekkan zaxmati, fidokorligi unga engillik, yoxud farovonlik keltirmadi.

3. O'zbekistonda er-suv islohoti va dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish, uning oqibatlari.

Mahalliy erli aholi yangi sovet hokimiyatining «Er dehqonlarga» degan va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning er to'g'risidagi dastlabki dekretining amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi.

Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab er to'g'risidagi dekretni qabul qilgan bo'lsa-da, ammo uni amalga oshirishdan kuzatgan maqsadlari boshqacha edi. Sovetlarning er-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi yirik xususiy er-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik sotsialistik xo'jaliklarni qaror toptirish edi. Turkistonda shu printsipial maqsadlarni ko'zlab er-suv islohotini o'tkazishga kirishildi.

1925 yil dekabrda bo'lgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Қo'mitasining Favqulodda sessiyasi «Er va suvni milliylashitirish to'g'risida» dekret qabul qildi.

Dekretga binoan quyidagi tarzda erlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

1. Қaerda turishidan qat'iy nazar Farg'ona viloyatida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan eri bo'lgan mulk egalari jami jonli va jonsiz mulki bilan;
2. Қishloq va ovullarda yashamagan, o'zlari va oila a'zolaridan birortasi ham erda ishlamaydigan shaxslarga qarashli erlar, boshqa mol-mulki bilan;
3. Vaqf erlari, xo'jayinlari noma'lum erlar musodara qilinadigan bo'ldi.

Er-suv islohoti qishloqda asosiy kuch bo'lgan o'rta hol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o'tdi. Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatida 10 desyatinagacha eri bor o'rta hol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad ularni sovet hokimiyati tayanchiga aylantirish edi.

O'zbekiston partiya va hukumatining 1930 yil 17 fevraldagi «Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorida respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirish vazifasi belgilangan edi. Vaholanki, mazkur tumanlarda buning uchun mutlaqo sharoit etilmagan edi. Ko'p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o'rta hol, hattoki kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm o'tkazildi. 1929 yil oktyabrga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgani holda, 1930 yil martiga kelganda dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirilgan edi.

5. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi, paxta yakkahokimligi.

SSSR XKS va VKP (b) MҚning 1945 yil 15 iyuldagi «O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'orisida» gi va SSSR XKSning 1946 yil 2 fevraldagi «1946-1953 yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'orisida» qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi. Tub aholi manfaatlariga hamohang bo'lmagan, paxta yakkahokimligini yanada kuchaytirishga yo'nalgan bu qarorlar O'z KP MO'ning 1945 yil sentyabrida bo'lgan XII plenumida muhokama etilib, ijro etish uchun qabul qilindi.

O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'olarning katta qismi paxtachilikka ajratildi va uning bilan bog'oliq bo'lgan tarmoqlarga sarflandi. Respublika traktor parki sezilarli ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTS lar soni 245 taga etdi, ulardagi traktorlar soni 1950 yilda 29,5 mingtani, paxta terish mashinalari soni 3617 tani tashkil etdi.

Respublika qishloq xo'jaligining yuk avtomobillar parki 1950 yilda 7934 ta yuk avtomobillari va avtotsisternalarni tashkil qildi.

1950 yilga kelib amalga oshirilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu mavjud jamoa xo'jaliklarining yiriklashtirilishi bo'ldi.

Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 mln. kishi uning ta'sirida qoldi.

Biz 20-25 yil mobaynida jahondagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergan emas edi».

Ekin maydonlarining surunkali zararli kimyoviy o'g'oitlar, aralash birikmalar bilan ishlanishi nafaqat erlarning yaroqsiz holatga, tuproq eroziyasiga olib kelib qolmasdan, balki ayni paytda ming-minglab dala mehnatkashlarining umriga ham zavol bo'ldi, son-sanoqsiz kasalliklarning vujudga kelib, keng tarqalishiga olib keldi.

Endi respublika sanoati to'g'orisida fikr yuritadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, sovetlar davrida hukmron Markaz oliy manfaatlaridan kelib chiqilib, uning «sotsializm va kommunizm jamiyati» qurishdan iborat bosh strategik vazifalari, dasturiy rejalariga asoslanib hamda O'zbekistoning boy xomashyo va mineral resurslaridan maksimum foyda olishni ko'zlab bu sohaga e'tibor qaratib borilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti va uning asosiy bo'g'oini sanalgan sanoati urushdan keyingi yillarda rivojlanib bordi. 1946-1950 yillarda 150dan ziyod yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. O'uvvatiga ko'ra SSSRda uchinchi o'rinda turuvchi Farxod GESning birinchi va ikkinchi navbatlari qurib bitkazildi. 1-Oqqovoq, 1-Bo'zsuv, 2-Bo'zsuv va boshqa gidroelektr stantsiyalar qurildi. O'ora metallurgiya sanoati rivojlandi. O'zbek metallurgiya kombinatining «300» prokat stani va yubqa listli «700» prokat stani qurildi, marten va prokat tsexlari loihada belgilangan quvvatga etdi. «Toshselmash», «O'zbekselmash», «Chirchiqselmash», Samarqandagi «Krasniy dvigatel» va boshqa zavodlar paxtachilik bilan bog'oliq mashinalar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar. 1950 yilda 4803 ta chigit seyalkalari, 7784 ta traktor kultivatorlari tayyorlandi. 1950 yilda 4641 ta SX-40 paxta terish mashinalari tayyorlandi. Paxta tozalovchi mashinalar ishlab chiqarish 1946 yilda 363 ta bo'lgan bo'lsa, 1950 yilga kelib ularning soni 1251 taga etdi.

**12-mavzu. Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari.**

**REJA:**

1. XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy hayoti, unga hukmron kommunistik mafkura ta'siri.
2. XX asrning 50-80 yillarida respublikaning ma'naviy-madaniy hayoti.
3. Ma'naviy hayot sohalaridagi mafkuraviy cheklashlar va byurokratik holatlarning avj oldirilishi va uning halokatli oqibatlari.

**Asosiy adabiyotlar**

Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Asarlar, t.1. T.: O'zbekiston, 1996, 76-85-betlar.
Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Asarlar, t.6. T.: O'zbekiston, 1998, 324-347-betlar.
Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Asarlar, t.7. T.: O'zbekiston, 1999, 133-155-betlar.
Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. Asarlar, t.9. T.: O'zbekiston, 2001, 220-225-betlar.
Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1919-1991). T.: Sharq, 2002, 105-121, 219-234-betlar.
O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston Sovet mutamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000, 270-282, 487-498, 569-585-betlar.

**1. XX asrning 20-30 yillarda O'zbekistonning ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayoti, unga hukmron kommunistik mafkura ta'siri.**

XX asrning 20-30 yillarida madaniy-ma'naviy soha ham o'ziga xos murakkablik, o'iyinchilik bilan kechdi.

20-yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy o'urilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi.

1920 yil 17 sentyabrda Turkiston ASSR hukumati o'lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilarni o'o'itish va savodxon o'ilish to'Yorisida dekret o'abul o'ildi. Bundan ko'zda tutilgan mao'sad mahalliy xalo'ni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli hududlarida ko'plab savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etildi.

Respublikada boshlanYoich ta'lim tizimining joriy etilishi, keyinroq esa 7 yillik ta'limga o'tilishi ham xalo' ta'limi sohasida muhim o'zgarishlardan bo'ldi.

Sovet xukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'lio' ravishda o'z izmiga bo'ysundirish mao'sadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham isloh o'ilishga kirishdi. Shu mao'sadda 1928 yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tildi.

Sovetlarning xalo' ta'limi sohasida yuritgan siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri, bu oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Turkistonda oliy ta'limni tashkil etish g'oyasini, dastavval, o'lkaning ilg'or jadid namoyadalari ilgari surgan edilar. Xususan ular tashabbusi bilan 1918 yil mayida Toshkentda ilk bor milliy universitet ochilib, u ilmga chanqoq ko'plab mahalliy yoshlarni o'z bag'riga olgan edi. Biroq har narsada o'zini ko'rsatishga intilgan sovetlar yurtparvar jadidlar tashabbusini bo'g'ib, 1920 yil sentyabrida Toshkentda Turkiston Davlat Universiteti tashkil etdilar. Keyinchalik O'rta Osiyo Universiteti maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuo'ori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'choYoi bo'ldi. O'zbekistonning bu davrdagi ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'lim o'o'uv yurtlari faoliyati ham alohida o'rin egallaydi. 20- yillarda Respublikada 6 ta o'ishloo' xo'jalik texnikumi, 1 ta tibbiyot texnikumi, 16 ta hunar-texnika maktabi tashkil o'ilindi.

30-yillarga kelib o'zbek fanining turli yo'nalishlarida o'z yuksak salohiyatini namoyon etib, o'z ilmiy maktabiga asos solgan Qori Niyoziy, Abdurahmon Sa'diy, Abdulla Avloniy, Yah'yo G'ulomov, Po'lat Soliev, Toshmuhammad Sarimsoo'ov, Halil Rahmatullin, Habib Abdullaev, Sobir Yunusov singari fan allomalari etishib chio'di.

Respublikada ijtimoiy fanlar, shu jumladan, tarix va arxeologiya sohalarida ham ancha ilmiy-tado'io'ot ishlari ko'zga tashlandi.

Yirik arxeolog olimlar: Ya.G'ulomov, S.Tolstov Xorazmda, M.E.Masson Samaro'andda, V.A.Shishkin, O.Nabiev, A.T.Okladnikovlar Ohangaron vodiysi va Termiz atrofida katta hajmdagi o'azilma ishlarini olib bordilar.

1940 yil 9 yanvarda O'zbekiston XKS (hukumati) huzuridagi Fan o'o'mitasi negizida SSSR FAning O'zbekiston filiali ta'sis etildi. O'sha kezlarda uning tarkibida 75 ta ilmiy-tado'io'ot institutlari va muassasalari mavjud edi. 1943 yil 4 noyabrda O'zbekiston Fanlar akademiyasi ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim T.N.Qoriniyoziy saylandi.

XX asr 20 yillari yarmida «Hujum» nomi bilan boshlangan harakat o'z mohiyati bilan o'zbek xotin-o'izlarini tuto'inlikdan ozod o'ilishga o'aratilgan edi.

Turkiston xotin-o'izlari hayoti asrlar davomida musulmonchilik o'onun-o'oidalari va an'analari asosida kechgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Shu mao'sadda tashkil etilgan respublika, viloyat, tuman, shahar va o'uyi sovet tashkilotlari o'oshidagi xotin-o'izlar bo'limlarida dastlab umuman to'Yori ish olib borilgandi.

Buning natijasida xotin-o'izlar ijtimoiy foydali mehnatga, jamoatchilik ishlariga faol tortila boshlagandi.

Biroq VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining 1926 yil sentyabrdagi maxsus o'arori asosida bu harakatni sun'iy ravishda tezlashtirishga kirishildi. Oo'ibatda bu majburiy harakat «Hujum» nomini oldi.

1927-1928 yillarda «Hujum» harakati yanada keng o'uloch yozdi.

«Hujum» harakatining o'sib borishi davomida 1937 yilga kelib 273637 nafar o'zbek xotin-o'izlari savodsizlikni tugatish kurslarini muvaffao'iyatli bitirdilar. Ayol ishchilar va xizmatchilar soni 1940 yilda 232 ming kishiga etdi. Bu esa butun respublikadagi ishchilarning 40,7 foiziga teng edi. Ular tikuvchilikda 82,3 o'andolatchilikda 65,5 to'o'imachilikda 8 foizni tashkil etardi.

1929 yilda o'zbek musio'ali teatriga asos solindi. 1933 yilga kelib Xamza nomli akademik drama teatri ish boshladi.

1936 yilda Toshkentda Konservatoriya ochilishi madaniy hayotda katta voo'ea bo'ldi. O'zbek musio'a madaniyatining zabardas vakillari – Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodio'ov, To'xtasin Jalilov singari san'atkorlar ijodi xalo' dilidan chuo'ur joy oldi.

30-yillarda O'zbekistonda kino san'ati shakllandi.

20-30-yillarda respublikada ko'plab madaniy inshootlar o'urildi. 1932 yilda respublikada 707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 409 ta kino o'urilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey mavjud edi.

Bu davrda **o'zbek adabiyoti** ham jiddiy hayotiy sinovlar jarayonini boshdan kechirdi. o'zining boy tarixiy an'analariga ega bo'lgan bu adabiyot xalo' ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynadi.

3. Ma'naviy hayot sohalaridagi mafkuraviy cheklashlar va byurokratik holatlarning avj oldirilishi va uning halokatli oqibatlari.

**Ikkinchi jahon urushidan keyingi O'zbekistonning ma'naviy-madaniy hayotiga nazar tashlar ekanmiz, bunda hukmron tuzum siyosati va mafkurasining ta'siri va bosimi tobora kuchayib borganligiga amin bo'lamiz. Gap shundaki, kommunistik mafkura butun choralar bilan jamiyat ma'naviy hayotini o'z domiga tortishga, fuqarolarning ongi, shuuri, dunyoqarashini o'z g'oyalari, qarashlari ruhida tarkib toptirib borishga harakat etdi. Bu ta'lim va tarbiya tizimida, ilm-fan jabhasida yoxud adabiyot va san'atda birdek namoyon bo'ldi.**

**Ayni chog'da hukmron tuzum zug'umi va tazyiqi ilm-fan sohasini ham chetlab o'tmadi. Katta mamlakat va uning turli milliy hududlarida faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy muassasalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'p sonli iqtidorli, salohiyatli ilmiy kadrlarning inon-ixtiyori Moskva va uning keng tarmoq otgan ilmiy markazi tasarrufiga bo'ysundirilgandi. Buning natijasida olimlarimizning ko'p yillik mashaqqatli ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lgan qancha-qanchalab noyob kashfiyotlar, ixtirolar hayot yuzini ko'rmay, amaliyotga tatbiq etilmay qolaverdi.**

**Tuzum mafkurachilari va maddohlarining o'zbek zaminida o'ilgan o'abohati, o'oldirgan asorati yana shunda namoёn bo'ladiki, ular xalo'imizning ming yilliklar o'a'riga borib tutashuvchi bebaho ma'naviy o'adriyatlari, umrboqiy udumlari va an'analarini yo'q qilishga, uning imoni,**

**e'tiqodini suslashtirish, pirovardida esa barham toptirishga zo'r berib harakat etdilar. Ayniqsa bunday nomunosib xatti-harakatlar totalitar tuzum o'zining so'nggi nafasini kechirayotgan 80-yillarning ikkinchi yarmida avj oldirilganligi faktdir. Ma'naviyatimiz dushmanlari hatto xalqimiz asrlar davomida e'zozlab, qadrlab kelgan milliy bayramimiz – «Navro'z»ni ham tortib olish payida bo'ldilar. Shu maqsadda uni taqiqlash darajasiga borib etdilar. Shunga qaramay iymon-e'tiqodi but, buyuk ajdodlar barhayot udumlariga sodiq o'zbek xalqi o'z Navro'zini xoh oshkora, xoh pinxona bo'lsin, baholi qudrat nishonlash, u bilan bog'liq xayrli marosimlarni o'tkazishda davom etdi.**